

# MAKTABGACHA TA'LIM PEDAGOGIKASI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI**

---

---

# **MAKTABGACHA TA'LIM PEDAGOGIKASI**

---

---

*Pedagogika kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri

Qabul qilingan  
Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim  
Vazirligi  
Kasb-Hunar Ta'limi Markazi  
Toshkent  
2011 y.  
№ 984/1

10802

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2011

УДК 373.2 (075)  
ББК 74.10 ya 722  
М20

*Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy-metodik  
birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash  
tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

**O.U. HASANBOYEVA, M.X. TOJIYEVA, Sh.K. TOSHPO'LATOVA,  
M.M. PIRMUHAMEDOVA, R.T. AKBAROVA, M.Sh. NURMATOVA,  
N.M. QAYUMOVA, N.N. JAMILOVA, X. SARIBOYEV, L.A. KULAY**

**O'quv qo'llanma professor O.U. Hasanboyeva tahriri ostida yaratilgan.**

Ushbu o'quv qo'llanma o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining 3140000-«Maktabgacha ta'lim tayyorlov yo'nalishi» bo'yicha ta'lim olayotgan o'quvchilar uchun mo'ljallangan.

«Maktabgacha ta'lim pedagogikasi» o'quv qo'llanmasida bog'cha yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning o'ziga xos xususiyatlari, qonun-qoidalari va amalga oshirish vosita, metodlari yoritilgan. Tarbiyachining jamiyatda tutgan o'rni hamda bog'cha bolalari tarbiyasida oila va jamoatchilikning hamkorligi keng yoritilgan.

*Taqrizchilar:* **N.M. EGAMBERDIYEVA** — pedagogika fanlari nomzodi; **T. HASANOVA** — pedagogika kasb-hunar kolleji metodist o'qituvchisi; **H.K. FAYZIYEVA** — Toshkent pedagogika kollejining I toifali o'qituvchisi.

---

## KIRISH

Yangi talablarga javob beruvchi zamonaviy, islohlashgan maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining yuksak bilim va kasbiy mahoratga ega bo'lishi talab etiladi.

Har bir ota-ona o'z farzandini eng bilimdon, yuksak ma'rifatli, mahoratli, ijodkor tarbiyachi tarbiyasiga berishni istaydi. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi bo'lajak tarbiyachilarga talabalik davridan boshlab, maktabgacha ta'limning asl mohiyati bola va tarbiyachining hamkorlik faoliyati ekanligini, bola tarbiyasining maqsadini, bola ruhiyatini rivojlantirish qoidalariga amal qilishni o'rgatadi.

✓ O'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun tarbiyachi maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanini chuqur egallashi lozim.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi o'quv-tarbiya faoliyatini tashkil qilish vosita va usullarini o'quv-tarbiya jarayonida kelib chiqadigan muammolar va uning yechimini to'g'ri hal qila bilish, innovatsion texnologiya usullaridan foydalanish, qiyinchiliklarning to'g'ri yechimini topishga yo'naltiradi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fani eng muhim asosiy pedagogik munosabatlar sabablarini aniqlaydi, uni pedagogik jarayonda o'rganadi.

Ushbu fan bo'lajak tarbiyachilarni maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachilik faoliyatiga tayyorlaydi. Shu sababdan o'quv qo'llanmada maktabgacha pedagogika fanining nazariy va amaliy masalalarini yoritib berishga alohida e'tibor qaratildi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fani inson kamolotiga qaratilgan, xalq yaratgan boy tajriba, ilmiy tadqiqotga doir nazariy va metodik manbalarga, jahon mutafakkir, ma'rifatparvar pedagog olimlarining asarlariga suyangan holda komil insonni tarbiyalaashning qonun, qoida va tamoyillariga asoslanadi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasining milliy asoslari: ta'lim-tarbiya masalalari, har bir millatning milliy merosiga, umum-

bashariy qadriyatlariga bog‘langan holda bog‘cha yoshidan boshlab o‘zligini anglash, erkin fikrlash, g‘urur tuyg‘ularini shakllantirishga qaratiladi.

Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi o‘quv qo‘llanmasini qayta to‘ldirilgan nashrida O‘zbekistonda barkamol avlod ma‘naviyatini shakllantirish borasidagi islohotlar, maktab faoliyatini modernizatsiyalash, ya‘ni ta‘lim-tarbiya ishlari samaradorligini oshirishga doir MTM Konsepsiyasi, «Davlat talablari», MTM Nizomlari hamda «Bolajon» tayanch dasturi yaratilib, amaliyotda qo‘llanilayotganligi masalalariga e‘tibor qaratildi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma pedagogik kasb-hunar kolleji o‘quvchilariga mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanma 16 bobdan iborat bo‘lib, maktabgacha ta‘limning mazmuni, ta‘lim-tarbiyani tashkil qilish metodlari va boshqarish masalalariga bag‘ishlangan. Har bir bobdan so‘ng nazorat savollari berilgan. Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi fanini chuqur o‘rganib, har bir bola qalbini zabt etuvchi murabbiy — ustoz bo‘lishlarida o‘quvchilarga omad tilaymiz.



# **1-bob. MAKTABGACHA TA'LIM PEDAGOGIKASI FANINING BARKAMOL INSONNI TARBIYALASHDAGI O'RNI**

## **1.1. Maktabgacha ta'lim pedagogikasining predmeti va vazifalari**

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bu esa pedagogika fanining maydonga kelishiga sabab bo'lgan. Chunki insonning ma'rifatli va ma'naviy komillikka erishishi pedagogika fanining yetakchiligida amalga oshiriladi.

Pedagogika yunoncha so'z bo'lib, «bola yetaklovchi» ma'nosini bildiradi. Insonning ma'rifiy va ma'naviy barkamollikka munosabatini o'zgartirib borishi natijasida pedagogika fani xalq orasida o'z mavqeyiga ega bo'ldi. Shu tariqa insonni tarbiyalovchi fan sifatida pedagogika dunyoviy fanlar tizimi qatoridan alohida o'rin egalladi. Uning bosh masalasi tarbiyadir. Abdulla Avloniy tarbiyachiga alohida e'tibor berib: «Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir»<sup>1</sup>, degan edi.

Bola tug'ilgan kundan boshlab, uni maktabga borgunigacha bo'lgan davrda har tomonlama yetuk barkamol qilib tarbiyalash qonuniyatlarini o'rganish maktabgacha ta'lim pedagogikasining mavzuyidir. U maktabgacha ta'lim muassasalari va oilaning tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi birligini, maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab ishidagi aloqadorlikni, bolalarni maktabda o'qishga tayyorlashni ta'minlab, maktabgacha tarbiya sharoitida tarbiya va ta'lim berish ishlarining vazifalarini, tamoyillarini, mazmunini, metodlarini, shakllarini va uni tashkil etishni ishlab chiqdi.

Bu fanning predmeti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasi rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga suyanan holda faoliyat yuritish;

---

<sup>1</sup> A. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: «Meros», 1993, 17-bet.

- maktabgacha ta'lim pedagogikasining ta'lim-tarbiya mazmunini takomillashtirish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan metod va usullarni axborot texnologiyalari asosida tashkil qilish;
- bolalarni jismoniy, aqliy, ruhiy sog'ligini ta'minlashda o'qituvchi-tarbiyachi mahorati.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi nazariyasi va amaliyotining maktabgacha yoshdagi bolalarga har tomonlama tarbiya berishda bolaning imkoniyatlari va uni ilk yoshdan boshlab tarbiyalashning roli, maktabgacha tarbiyani hayot, zamon bilan bog'lab olib borishning zarurligi bola shaxsining shakllanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi ahamiyatga egaligiga asoslanadi.

Maktabgacha pedagogikaning vazifalari:

- maktabgacha ta'lim sohasidagi pedagogik muammolarni hal qilish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarda ta'lim olish ehtiyojini, o'qishga qiziqish, kitob o'qish, maktabga borish hissiyatini shakllantirish;
- bolalar tarbiyasida mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatuvchi ilg'or metodlarni qo'llash;
- bolalarga yuksak odob, ma'naviy-axloqiy tushunchalarni mentalitetimiz asosida o'rgatish.

#### Pedagogikaning asosiy tushunchalari

Tarbiya	Ta'lim	Ma'lumot
Pedagogik hodisa bo'lib, yosh avlodga ilmiy bilimlar sistemasini, malaka va ko'nikmalarni maxsus metod va vositalar orqali rejali ravishda singdirib borish va uning natijasida har tomonlama shakllangan kishini tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi.	Ijtimoiy zarur bilimlar, muayyan ko'nikma va malakalarni o'quvchilarga singdirish, ularning ongiga, xulqiga ta'sir etish, dunyoqarashi va bilish faolligini rivojlantirishdir. U insonni mehnatga, hayotga tayyorlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Ta'lim berish jarayonida tarbiya va ma'lumotning maqsadi amalga oshiriladi. Ta'lim ikki tomonlama jarayon — o'qitish va o'qishni o'z ichiga oladi.	Ijtimoiy zarur bilimlar, muayyan ko'nikma va malakalarni o'quvchilarga singdirish, ularning ongiga, xulqiga ta'sir etish, dunyoqarashi va bilish faolligini rivojlantirishdir. U insonni mehnatga, hayotga tayyorlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Ta'lim berish jarayonida tarbiya va ma'lumotning maqsadi amalga oshiriladi.

O'qitish — pedagogik faoliyat bo'lib, u bilim, ko'nikma va malakalarni bolalarga singdirish, ularning bilim va amaliy faoliyatiga rahbarlik qilishdir.

O'qish — o'quvchining bilim, malaka, ko'nikmalarni egallashdagi amaliy faoliyatidir. U o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi ijtimoiy tarbiya tajribasini o'rganadi. Bu esa maktabgacha ta'lim muassasalari ishini takomillashtirishga yordam beradi.

Pedagogika fani tarbiyani pedagogik hodisa sifatida o'rganib, bir qator tushunchalarni o'z ichiga oladi. Pedagogikada tarbiya, ta'lim, ma'lumot asosiy tushunchalar hisoblanadi.

## **1.2. Maktabgacha ta'lim pedagogikasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi**

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi jamiyat va insonni o'rganuvchi fanlar bilan chambarchas bog'langan. Pedagogika ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyani o'rganar ekan, sotsiologiya, anatomiya, fiziologiya, psixologiya, falsafa bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki mazkur fanlar asosida tarbiyaning maqsadi va vazifalarini o'rganish metodologiyasi belgilanadi. Tarbiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi ijtimoiy hodisa ekanligi, jamiyat hayotida va kishi shaxsining rivojlanishida tarbiyaning rolini baholashga yordam beradi. Didaktik masalalarni ishlab chiqishda pedagogika bilish nazariyasiga suyanadi, axloqiy tarbiya masalalarini o'rgatishda pedagogika etikaning axloq to'g'risidagi ta'limotiga, estetik tarbiyaning maqsadini, yo'llarini, metodlarini belgilashda etika faniga asoslanadi. Etika axloqni nazariy jihatdan asoslab, yosh avlodni, uning axloqiy tarbiyasi muammolarini, inson shaxsini shakllantirishda axloqiy g'oyalar rolini tushunishni chuqurlashtiradi.)

Estetika insonlarning voqelikka, san'atga estetik munosabatlari rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o'rganadi, nafas tarbiyasining ilmiy asosi bo'lib xizmat qiladi. Fiziologiya pedagogikaning tabiiy-ilmiy bazasi bo'lib, u birinchi navbatda inson oliy nerv faoliyatining rivojlanishi, nerv sistemasining xususiyatlari, sezgi organlari, tayanch-harakat apparati, yurak-tomir va nafas olish sistemalari va shu kabilarning rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarga tayanadi. Hozirgi zamon fiziologiyasi eng muhim pedagogik muammolarni to'g'ri hal etishda: bola rivojlanishiga, uning qobiliyatlarini shakllantirishga muhit, irsiyat va tarbiyaning ta'siri va shu singarilarni belgilashda pedagogikaga yordam beradi. O'sib borayotgan organizm tuzilishi va harakat qilish qonuniyatlarining asosiy tamoyillarini ochib beruvchi yosh fiziologiyasi ta'lim-tarbiya berish masalalarini ishlab chiqish uchun katta ahamiyatga ega. Bu xususiyatlarni bilmay turib, tarbiyalanuvchilarning u yoki bu mashg'u-



lotlari shakllarini to'g'ri belgilab bo'lmaydi. Fiziologiyaning oliy nerv faoliyati, nerv sistemasining tipologik xususiyatlari to'g'risidagi xulosalari pedagogikaga o'quv-tarbiya jarayoni metodikasini ishlab chiqishda, bolalar faoliyatlari uchun yaxshiroq sharoitlar yaratishda yordam beradi.

Pedagogika bola tarbiyasida uning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olib boradi. Shu bois pedagogika uchun pedagogik psixologiyaning bola xususiyatlari, ularda o'tadigan psixik jarayonlarining qonuniyatlari haqidagi ma'lumotlar muhimdir. Shunga ko'ra pedagogikaning psixologiya fani bilan bog'liqligi an'anaviy tus olgan.

Hozirgi zamon pedagogikasi ko'p tarmoqli fan bo'lib, avvalo, u tarbiya ijtimoiy hodisa ekanligi jihatidan pedagogika tarixi bilan bog'lanadi. Pedagogika boshqa fanlar bilan bog'lanish tizimida etnografiya, xalq pedagogikasi kabi alohida o'rin tutadi.

### 1.3. Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari

Ilmiy tadqiqot metodlari ko'proq pedagogik muammolarni hal qilish maqsadida tadqiqotchilar tomonidan o'rganiladi. Oilaviy muammolarni o'rganishda dastlab manbalarga murojaat etiladi.

**Adabiyotlar bilan ishlash metodi.** Pedagogikaga doir adabiyotlarni o'rganish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi, mutafakkir va ma'rifatparvar pedagog olimlarning asarlari, mustaqil O'zbekistonning iqtisodiyoti, siyosati va ma'naviyatiga doir adabiyotlar, respublikamiz prezidenti I.A. Karimov asarlari, risola va maqolalar, pedagogik, psixologik, badiiy va ommaviy adabiyotlar o'rganiladi.

**Kuzatish metodi.** Kuzatish adabiyotlarni o'rganishdan keyin boshlanadi. Kuzatishni ota-ona biror maqsadni ko'zda tutib tashkil etadi. Kuzatish rejalashtiriladi, uning dasturi tuziladi. Bunda kuzatish tezligi, soni, manzili, vaqti, vaziyatni kuzatish, materiallarni qayd qilish muddati belgilanadi. Kuzatish muddatiga ko'ra, ikki turga ajratiladi: *qisqa* va *uzoq muddatli kuzatish*. Qisqa kuzatishda obyektning kundalik faoliyatdagi o'zgarishlaridan ma'lum xulosaga kelinadi. Uzoq muddatli kuzatish qo'yilgan maqsad, reja va dastur asosida olib borilib, unda ma'lum ilmiy, yakuniy xulosaga kelinadi. Kuzatishning yakunini qayd qilishda kinosyomka, video yozuvi, televideniye va boshqa texnik vositalardan foydalanish mumkin. Kuzatish metodidan to'g'ri foydalanish o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Yangi ijodiy faoliyatga boshlaydi.

**Suhbat metodi.** Tadqiqot mavzusining biror tomoni yoki hodisalar haqida bilib olish maqsadida ma'lum mas'ul shaxslar bilan og'zaki savollar berilib, ulardan axborot olish jarayonidir. So'roqlar mavzu doirasida mantiqan, mazmunli, tartibli, aniq ifodaga ega bo'lishi lozim va uning to'g'ri yoki noto'g'riligiga qarab jadval tuzib natijasi aniqlanadi. Suhbat metodi jarayonida intervyu ham olish mumkin. O'rinli, mantiqan yuksak javoblar yoki noaniq javoblar magnit lentalariga yozib boriladi va tahlil etiladi. Yozma javoblarni ommaviy ravishda yig'ib olish metodi *anketa metodi*, deb ataladi. Anketalar ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga, berilgan soniga bog'liq bo'ladi. Odatda, anketalar olingan ma'lumotlarni kompyuterda qo'llab, matematik statistika metodlari bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi. Hujjatlarning yetarli darajada shunday tahlil qilinishi aniq pedagogik jamoalarning real faoliyatidagi sababli bog'lanishlari va bog'liqliklarini aniqlashga yordam beradi.

**Pedagogik tadqiqot** — har qanday ilmiy-pedagogik tadqiqotning asosidir. Pedagogik tadqiqot yordamida ilmiy gipotezalarning ayrim elementlari o'rtasidagi bog'liqlik va munosabatlar aniqlanadi. Tabiiy tadqiqot va laboratoriya tadqiqoti pedagogik tadqiqotning asosiy turlari hisoblanib, ular ham o'z navbatida ko'pgina turlarga bo'linadi. Tabiiy tadqiqot sharoitida yangi o'quv rejalari, dasturlar, darsliklar va hokazolar odatdagi o'quv tartibini buzmay turib tekshiriladi. Pedagogik tadqiqot ham kuzatish, lekin u pedagogik jarayonning o'tish sharoitlarini muntazam o'zgartirish munosabati bilan maxsus tashkil qilingan bo'ladi. Pedagogik jarayonni aniqroq o'rganish uchun tadqiqot o'tkazuvchi o'zi tashkil etgan jarayonni kuzatadi. U pedagogik jarayonga aralashadi, tarbiyalanuvchilar bilan tarbiyachi faoliyatining muayyan sharoitlarini yaratadi. Pedagogik tadqiqot dastlabki ma'lumotlarni, aniq sharoitlarni va o'qitish usullarini yoki tadqiq qilnadigan materiallarni aniq belgilashni, shuningdek, tadqiqot natijalarini har tomonlama hisobga olishni talab etadi.

Pedagogik laboratoriya turi ilmiy-tadqiqotning qat'iy shaklidir. Juda keng pedagogik kontekstdan uning muayyan tomoni ajratib olinadi, natijalari aniq tekshirib borishga va o'zgaruvchan kattaliklar o'rnini almashtirishga imkon beradigan sun'iy sharoit yaratiladi. Quyidagilar pedagogik tadqiqotning bosqichlari hisoblanadi: tadqiqotni rejalashtirish, tadqiqot o'tkazish va natijalarni sharhlash. Rejalashtirish tadqiqot maqsadi va vazifasini belgilash, tadqiqot natijasiga ta'sir etuvchi omillar va ular darajasining miqdorini

aniqlashni, kerakli kuzatishlar soni, tadqiqot o'tkazish tartibi, olingan natijalarni tekshirish metodlarini o'z ichiga oladi. Tadqiqotni tashkil etish va o'tkazish belgilangan rejaga qat'iy amal qilgan holda olib borilishi kerak. Sharhlash bosqichida ma'lumotlar yig'iladi va qayta ishlanadi. Tadqiqot o'tkazish ishonchlilik tamoyiliga javob berishi uchun quyidagi shartlarga rioya qilish zarur:

1. *Tekshiruvchilar soni va tajribalar miqdorining optimal bo'lishi.*
2. *Tadqiqot metodlarining ishonchliligi.*
3. *Farqlarning statistik jihatdan ahamiyatligini hisobga olish.*

Ilmiy tadqiqot turli ta'lim-tarbiyaga oid metodlarning samaradorligini va sifatini oshirishga imkon beradi. Bunga matematika metodlarining hamda kompyuter yordamidagi tadqiqot natijalarining pedagogikaga kirib kelishi ham yordamlashadi. Odatda, o'rtacha arifmetik miqdor, modda, meridiana, dispersiya, tanlab olinadigan to'plam majmuyining o'rtacha kvadratik chetga chiqishi, o'rtacha olingan qiymat xatosi, belgilarni tuzatish koeffitsientlari hisoblab chiqiladi. Tugallangan tadqiqotda eng muhim narsa uning natijalarini amalda qo'llashdir. Mustaqil O'zbekiston sharoitida yangi ilmiy bilimlar juda tez to'planib bormoqda. Biroq ularni amaliy ishga joriy etish yo'lida qiyinchiliklar ham borligi ko'zga tashlanmoqda. Ularni joriy etish jarayoni pedagogik tajribani takomillashtirishga qaratilgan faoliyat, deb qaraladi. Shu sababli joriy qilinishi lozim bo'lgan tavsiyalarga yuqori talablar qo'yiladi. Talablarning ilmiy asoslanganlik darajasi, ular mazmunining aniqligi asosiy talablar qatoriga kiradi. Talablar mazmunining aniqligi pedagogik mezonni to'g'ri tanlash va baholashni nazarda tutadi. Joriy etish butun bir tadbirlar kompleksi bo'lib, u olingan xulosalar to'g'risida pedagogik jamoatchilikni xabardor qilish, yangi o'quv va metodik qo'llanmalar yaratish, metodik yo'l-yo'riq va metodik tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.



### *Nazorat savollari*

---

1. *Maktabgacha ta'lim pedagogikasining predmeti nima?*
2. *Pedagogika metodologiyasi haqida nimalarni bilasiz?*
3. *Maktabgacha ta'lim pedagogikasining maqsad va vazifalari haqida nimalarni bilasiz?*
4. *Maktabgacha ta'lim pedagogikasi qaysi fanlar bilan aloqador?*
5. *Ilmiy tadqiqot metodlaridan kimlar foydalanadilar, ular qaysilar?*



## **2-bob. MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA KAMOLOTI**

### **2.1. Shaxsni rivojlantirish haqida tushuncha**

Shaxsning rivojlanishi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo'lib, u barcha tug'ma va egallangan miqdor, sifat o'zgarishlarini o'z ichiga oladi.

Jismoniy rivojlanish o'sish, vaznning, kuchning ortishi, sezgi a'zolarining mukammallashuvi, harakatlarni to'g'ri boshqara bilish bilan bog'liqdir. Ruhiy rivojlanishda esa kishi shaxsidagi psixologik sifatlar va belgilarning shakllanishi, emotsional-irodaviy, bilish jarayonida muhim o'zgarishlar ro'y beradi. Bolaning ijtimoiy rivojlanishi u ijtimoiy hayotda qatnasha boshlaganda uning xulqida, tevarak-atrofga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi.

Shaxsning shakllanishi kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish, ta'lim-tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Bu har xil faoliyatlarda yuzaga keladi. Bolalar egallashlari lozim bo'lgan mazmunni tanlash, uning egallab olishiga rahbarlik qilish kattalar tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Tarbiya va ta'limning mazmuni, vositalari, metodlari, bolaning rivojlanish jarayoni ularning yoshi bilan izohlanadi. Jumladan, kichik yoshdagi bolalar bilan ish olib borilganda ularning mustaqil hayotga butunlay moslashmaganligi hisobga olinadi.

Keyingi yosh guruhlarida maktabgacha yoshdagi bolaning mustaqilligi, moslashishi ancha oshib boradi. Shunga muvofiq tarzda ta'lim-tarbiyaviy ishlarning vazifalari, mazmuni, vositalari o'zgaradi. Bolalarning maktabgacha yoshning oxiriga borib erishgan rivojlanish darajasi ular bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishini murakkablashtirish imkonini beradi.

Ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish faol ish jarayonida yuz beradi. Faollik bolaga xos xususiyatdir. Tarbiya jarayonidagi faollik asosida faoliyatning har xil turlari shakllanadi. Ulardan asosiylari: munosabatda bo'lish faoliyati, bilish, buyumlar bilan bo'ladigan faoliyat, o'yin, oddiy mehnat va o'quv faoliyatlaridir. Ta'lim-

tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni maktabgacha yoshdagi bolalar birdaniga o'zlashtirib olmaydi, ularni bolalar tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab boradilar.

Bolalar hayotining birinchi yilidanoq faoliyatning eng oddiy turlari undagi shaxsiy qobiliyatlar, xususiyatlar, tevarak-atrofga ma'lum bir munosabatning shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, kattalarning bolalar bilan bo'ladigan hissiy, hissiy-predmetli munosabatlaridanoq bolada dastlabki ijtimoiy talab vujudga keladi, dastlabki harakat va tasavvurlar, taassurotlar shakllana boshlaydi.

Harakat usullarini egallab borish orqali bolada faollik rivojlanadi. Ammo faollikning qay darajada rivojlanib borishi irsiyatga hamda taqlidchanlik qobiliyatiga bog'liq. Bola hayotining dastlabki yillarida kattalar bilan bo'ladigan munosabati va narsa-buyumlar bilan bajargan harakati asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Bola bilan muomala qilish orqali kattalar ularni asta-sekin buyumlar olamiga olib kiradilar. Mana shu yo'l bilan bola buyumlar bilan bo'ladigan faoliyatning o'ziga xos tomonlarini egallab boradi.

2,5 yoshdan keyin buyumlar bilan bo'ladigan faoliyatda bolalar ancha yuqori ko'rsatkichlarga erishadilar va ularning o'yin hamda tasviriy faoliyatga o'tishlari uchun asos yaratiladi. Kattalar tomonidan tashkil etilgan muomala, munosabatlarda, faoliyatlarda o'z-o'zini anglab olishning dastlabki shakllari shakllanadi.

Mashg'ulotlardagi o'quv faoliyati orqali bolalar tevarak-atrofdagi tabiat, ijtimoiy hayot, kishilar to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirib oladilar. Shuningdek, ularning aqliy va amaliy bilimlari kengayib boradi.

Agar ta'lim jarayonida 3—4 yoshli bolalar diqqati tabiat, kishilar to'g'risidagi aniq faktlarga qaratilsa, 5—6 yoshli bolalarga ta'lim berishda asosiy e'tibor muhim bog'liqliklar va munosabatlarga, ulardagi oddiy tushunchalarni shakllantirishga qaratiladi. Bular orqali bolalarda tushunarli tafakkur rivojlantiriladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun o'qish asosiy faoliyat bo'lib qoladi va bu faoliyatni bolalar ijtimoiy ahamiyatli faoliyat deb anglay boshlaydilar. Bola o'zini maktab o'quvchisi deb tushuna boshlaydi.

Demak, bolani tarbiyalashda, uning rivojlanishida faoliyat yetakchi rol o'ynaydi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya muassasalarida va oilada bolaning hayotini u turli-tuman faoliyatlar bilan shug'ullana oladigan qilib tashkil etish kerak. Bunga, albatta, bolalar faoliyatining mazmunini boyitib borish, yangi bilim, malakalarni singdirish mustaqilligini rivojlantirish bilan erishiladi.

Inson shaxsini shakllantirish bu tevarak-atrofdagi dunyoga, tabiatga, mehnatga, boshqa odamlarga va o'ziga munosabat sistemasini izchil o'zgartirish va murakkablashtirishdir. Bu uning butun hayoti davomida ro'y beradi. Bunda bolalik va o'smirlik yoshi, ayniqsa, muhimdir.

Insonning shaxs sifatida rivojlanishi uning jismoniy va ma'naviy kuchlari birligida har tomonlama va yaxlit amalga oshiriladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ma'naviy sifatlar, his-tuyg'ular (burch, vijdon, mas'uliyat, muhabbat) madaniyati aniq tarixiy ijtimoiy sharoitda yaratiladi va shaxsning shakllanishiga ta'sir etadi.

Psixologiya va pedagogika inson shaxsi faoliyat va muomalada shakllanadi hamda rivojlanadi, deb ta'kidlaydi. Agar inson ijtimoiy faoliyatning turli xillarida: o'quv, ishlab chiqarish faoliyati va hokazolarda ishtirok etsa, bu faoliyat shaxsni rivojlantiradi, lekin faoliyat odamni u yoki bu ijtimoiy munosabatlardan chegaralab qo'ysa, u yo shaxsning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi yoki uning rivojlanishini buzadi. Shaxsning yetakchi xususiyatlari shaxsga, uning ichki dunyosiga tashqi ta'sir natijasida rivojlanadi. Shaxs ma'naviyati shaxsning o'z ichki ishining yakuni bo'lib, bu jarayonda tashqi ta'sirlar qayta ishlanadi va o'zlashtiriladi.

Insonning rivojlanishi miqdor va sifat o'zgarishi, eskining yo'q bo'lishi va yangining vujudga kelishi jarayoni bo'lib, uning manbavi va harakatlantiruvchi kuchlari shaxsning ham tabiiy, ham ijtimoiy tomonlarining ziddiyatli o'zaro aloqasida yashiringandir.

Inson jismonan butun umri davomida rivojlanadi va o'zgaradi. Bu rivojlanish va o'zgarishlar yosh xususiyatiga ega bo'ladi.

Maktabgacha pedagogika fani bu ziddiyatli o'zaro aloqani ochib tashlaydi va ulardan shaxsni shakllantirish uchun foydalanadi. Jumladan, bolaning odamlar hayotida ishtirok etish ehtiyoji bilan intilishini amalga oshirish imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyat o'yinning vujudga kelishi va rivojlanishiga hamda bolalardagi o'yin faoliyatida ijtimoiy xulq-atvor shakllari, ijtimoiy munosabatlar va hokazolarning shakllanishiga olib keladi.

Shaxsni shakllantirish tarbiya jarayonida ro'y beradi, inson tarbiyasi xalq baxt-saodati yo'lidagi bunyodkorlik mehnatida, ijtimoiy hayotda, sotsial-iqtisodiy vazifalarni hal etishda amaliy ishtirokida yuzaga keladi.

Shaxsni shakllantirishga uch omil: *tarbiya, ijtimoiy muhit va irsiyat nishonalari* ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha pedagogika tar-

biyani yetakchi omil deb qaraydi, chunki bu to'plangan ijtimoiy tajribani yetkazish uchun yosh avlodga ta'sir ko'rsatishning maxsus uyushtirilgan sistemasidir. U oilada, bolalar bog'chasida, maktabda, mehnat jamoalarida amalga oshirilib, turmushni, faoliyatni, muomalani tashkil etishga qaratilgandir.

Shaxsni shakllantirishga ijtimoiy va tabiiy muhit katta ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy muhit shaxsni rivojlantirishda ustun ahamiyatga ega: ishlab chiqarishning taraqqiyot darajasi va ijtimoiy munosabatlar xususiyati kishilar faoliyati va dunyoqarashi xususiyatini belgilab beradi. U shaxsni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

*Tabiiy muhit* (iqlim sharoitlari, o'simliklar, hayvonot dunyosining ahvoli) ham shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bizning jamiyatimiz tabiiy boyliklarni muhofaza qilib va ko'paytirib, kishilarni hayvonlar, o'simliklar, suv havzalari va hokazolarni muhofaza etishga jalb qiladi, tabiat bilan faol muloqotda bo'lish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, bu esa o'z navbatida insonga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi.

*Irsiyat nishonalari* shaxsni shakllantirishning obyektiv omillarga kiradi. Insonlar organizmdagi anatomik tuzilishni, fiziologik harakatni, modda almashinuvi tipini, asab sistemasi tipi va qayishqoqligini (bular uni atrof-muhit ta'siriga beriluvchan qilib qo'yadi), asab reaksiyalari jo'shqinligi va tezligini meros qilib oladi. Irsiyat qonunlari to'g'risidagi fan — genetika odamlarda yuzlab turli qobiliyat nishonalari — mutlaq eshitish, favqulodda ko'rish xotirasi, g'oyat tez ta'sirlanishdan tortib nodir matematik va badiiy iste'dodgacha mavjud bo'lishini nazarda tutadi.

## 15.10. 2.2. Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning o'rni

Bola shaxsining shakllanish jarayoni tarbiya va ta'lim sharoitida insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasini o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu xilma-xil faoliyat turlarida ro'y beradi. Natijada bola o'zi yashayotgan jamiyat ijtimoiy munosabatlari sistemasiga kiradi.

Bolaning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Qiyinchilik shundan iboratki, bola, bir tomondan, mazmun, hajm va umumlashtirish darajasi jihatidan murakkab bo'lgan insoniy tajribani o'zlashtirishi kerak bo'lsa, ikkinchi tomondan, u mazkur tajribani o'zlashtirish usullarini hali egallamagan bo'ladi.

Tarbiya va ta'lim jarayonida katta yoshli odam bolaga tushunarli bo'lgan mazmuni tanlaydi, uning o'zlashtirishiga rahbarlik qiladi. Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik roli shu bilan belgilanadi. Bunda bolaning ruhiy-fiziologik imkoniyatlari, ularning jo'shqinligi hisobga olinadi. Shu munosabat bilan tarbiya jarayonining o'zi doimiy bo'lib qolmaydi. U o'zgarib boradi: uning mazmuni boyiydi va murakkablashadi, shakllari o'zgaradi, o'sayotgan odam shaxsiga ta'sir ko'rsatish usullari tobora xilma-xil bo'lib boradi.

Tarbiyaning o'zgarishi bolaning «eng yaqin rivojlanish zonarlari» (L.S. Vigotskiy) bilan bog'liq bo'lib, ular ancha murakkab mazmundagi bilimlar, ko'nikmalar, faoliyat turlari va hokazolarni o'zlashtirishga ruhiy-fiziologik imkoniyatlar paydo bo'lishi bilan ajralib turadi (masalan, emaklashdan keyin yurish; bijir-bijirdan keyin faol nutqni o'zlashtirish; ancha miqdordagi tasavvurlarga ega bo'lgandan keyin tushunchalar darajasidagi bilimlarni o'zlashtirish; buyum asosidagi o'yin, mehnat faoliyatining vujudga kelishi va h.k.). Tarbiya va ta'lim eng yaqin rivojlanish zonasiga asoslanib, bugungi rivojlanish darajasidan oldinda boradi va bolaning rivojlanishini olg'a harakatlantiradi.

Inson shaxsining rivojlanishi bir qancha bosqichdan o'tadi. Har bir navbatdagi bosqich avvalgisi bilan mustahkam bog'liq bo'ladi, avval erishilgan bosqich yanada yuqoriroq bosqichning tuzilishiga uzviy tarzda qo'shiladi. Ilk yosh bosqichida shakllanadigan rivojlanish odam uchun doimiy ahamiyatga ega bo'ladi. Mazmun, metodlar, tashkil etish shakllarining aloqadorligi birinchi bosqichdan oxirigacha tarbiyaning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning hal qiluvchi roli ko'zi oqiz va kar bolalar uchun mo'ljallangan jamoat muassasalarida, ayniqsa, aniq namoyon bo'ladi. Bunday bolalar uchun ishlab chiqilgan tarbiya sistemasi ularni turmushga va mehnat faoliyatiga tayyorlashni ta'minlaydi.

Biroq tarbiya bola rivojlanishini jadallashtirmasligi, uning ruhiy rivojlanishini sun'iy ravishda tezlashtirmasligi kerak. Shuning uchun maktabgacha tarbiya pedagogikasida bola shaxsini har tomonlama va uyg'un rivojlantirish, uning rivojlanishini boyitish maqsadi o'rta qo'yiladi.


Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik roli pedagogning ham yetakchilik rolini, uning har bir bola shaxsini shakllantirish uchun mas'uliyatini qaror toptiradi. Taniqli pedagog



A.S. Makarenko pedagogning roli va mas'uliyatini ta'kidlab, shunday yozgan edi: «Tarbiyaviy ta'sirning g'oyat qudratli ta'sir ko'rsata olishiga ishonchim komil. Agar odam yomon tarbiyalangan bo'lsa, bunda faqat tarbiyachilar aybdorligiga aminman. Agar bola yaxshi bo'lsa, buning uchun u o'z bolaligida tarbiya topganidan qazdordir».

### 2.3. Bolani tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatning roli

Bolaning faolligi ijtimoiy tarixiy tajribani o'zlashtirishga yordam beradi, buning asosida uning bilish, ko'rgazmali o'yin, eng oddiy mehnat va o'quv kabi xilma-xil faoliyat turlari, shuningdek, muomalasi shakllanadi. Bola u yoki bu faoliyatni o'zlashtirib, faollik ko'rsatadi, ayni paytda shu faoliyat bilan bog'liq bilimlar, malaka, ko'nikmalarni o'zlashtiradi. Shu asosda unda xilma-xil qobiliyatlar va shaxs xususiyatlari shakllanadi.



*1-chizma. Shaxsni shakllantirishning asosiy omillari.*

Bolaning faoliyatdagi faol mavqeyi uni faqat tarbiya obyektiga emas, shu bilan birga tarbiya subyektiga ham aylantiradi. Bu bolani tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatning yetakchilik rolini belgilaydi. Bolalarning rivojlanishi va tarbiyalanishining yosh bilan bog'liq davrlarida faoliyatning turli xillari yonma-yon bo'ladi va o'zaro ta'sir ko'rsatadi, lekin bunda ularning roli bir xil bo'lmaydi: har bir bosqichda faoliyatning yetakchi turi ajratiladi, unda bolaning rivojlanishidagi asosiy yutuqlar namoyon bo'ladi. Har bir faoliyat ehtiyoj, sabablar, faoliyat maqsadi, mavzuyi, vositalari, buyumlar bilan amalga oshiriladigan harakatlar va nihoyat, natija bilan ajralib turadi. Ilmiy ma'lumotlarning dalolat berishicha, bola ularni darhol emas, balki asta-sekin va katta yoshdagi odamning rahbarligida egallaydi. Bola faoliyatining xilma-

xilligi va boyligi, uni egallashdagi muvaffaqiyat oiladagi, bolalar bog'chasi va ta'lim sharoitlariga bog'liq bo'ladi.

Bolaning dastlabki yoshlaridan boshlab faoliyatning eng oddiy turlari uning shaxsiy qobiliyatlarini, xususiyatlarini va atrof-dagi narsalarga munosabatini shakllantirishning asosi hisoblanadi.

Ilk yoshdagi bolaning kattalar bilan (hissiy va hissiy-predmetli) muomalasining eng oddiy turlari unda taassurotlarga bo'lgan ehtiyojini rivojlantiradi, tasavvurlarini shakllantiradi. Yangi harakat usullarini egallab borgan sayin bolalarning faolligi oshib boradi. Biroq faollik darajasi, uning rivojlanishi irsiy jihatdan shart qilib qo'yilgan zaminga, taqlid qilishga ham bog'liq bo'ladi. Hayotining dastlabki yillarida kattalar bilan muomala qilishni va buyumlar bilan ish olib borishni o'z ichiga oladigan yo'l-yo'riq, tadqiqot faoliyati bolalar faoliyatining asosiy turlari bo'ladi. Tarbiyachilar bolalar bilan muomalada bo'lar ekanlar, ularni buyumlar dunyosiga olib kiradilar. Shunday yo'l bilan bolalar o'ziga xos buyumlar bilan bog'liq faoliyatni egallaydilar. Bunda muomalaning o'zi bola uchun zarur ehtiyojga aylanadi.

Buyumlar bilan bog'liq faoliyatni tashkil etish oilada ham, maktabgacha ta'lim muassasasida ham bir va ikki yoshli bolalarni tarbiyalash vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki bu faoliyatda barcha bilish jarayonlari, maqsadlari va xulq-atvor sabablari rivojlanadi. Bu faoliyatda bolalar tarbiyachilar rahbarligida buyumlarning xususiyatlari, ular bilan qilinadigan harakatlar to'g'risida dastlabki bilimlarni o'zlashtiradilar.

Bola ikki yarim yoshga to'lganda buyumlar bilan bog'liq faoliyat va muomala ancha yuqori rivojlanish darajasiga ko'tariladi, o'yin va tasviriy faoliyatga o'tish uchun asos yaratiladi. Kattalar uyushtiradigan muloqot va faoliyatda bolalarda o'zini o'zi anglashning dastlabki shakllari shakllanadi. Bola o'zini atrof-dagi odamlardan ajratadigan, o'z imkoniyatlarini anglab yetadigan bo'la boshlaydi. Mustaqillik rivojlanishining ana shu bosqichida bolalar kattalarning vasiyligini qisman cheklashga intiladilar. O'zini o'zi anglashning dastlabki shakllari xulq-atvor sabablarini shakllantirishning boshlanishi bo'ladi.

Ilk yoshdagi bolalarning faolligi va mustaqilligi bevosita katta odamning ishtiroki va ta'siri ostida ro'y bersa, 4—6 yoshli bolalar xilma-xil faoliyatga tobora mustaqil, o'z xohishlariga ko'ra qo'shiladilar, bunda ongning roli oshadi va ba'zan ijodiy xususiyatga ega bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, maktabgacha tarbiya yoshida yetakchi bo'ladigan o'yin faoliyatida maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy bilish faolligi rivojlanadi. Tarbiyachilar rahbarligidagi o'yinlar chog'ida bolalar turli harakat usullarini, buyumlar, ularning xususiyatlari va belgilari to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtiradilar. Bolalar makon, vaqt munosabatlarini, o'xshashlikka va bir xillikka oid aloqalarni anglab yetadilar, tushunchalarni egallaydilar. Harakatli o'yinlar harakatlarning rivojlantirishiga, makonda yo'l-yo'riq topishga yordam beradi. Birgalikdagi o'yinlarda bolalar odamlar o'rtasidagi munosabatlarni, harakatlarni muvofiqlashtirishning ahamiyatini anglab yetadilar va o'zlashtiradilar, atrofdagi narsalar to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytiradilar.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faoliyatining mazmuni xilma-xil bo'ladi va har tomonlama rivojlanish imkoniyatlari kengayadi. O'yin xayolni rivojlantirishga, atrofdagi voqelik, odamlar mehnati to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtirishga, shaxsning jamoatchilik xususiyatlarini shakllantirishga ko'maklashadi.

Muntazam mehnat topshiriqlari o'z faoliyatini jamoat manfaatlariga bo'ysundirish, ijtimoiy foyda keltirishga harakat qilish, mehnatning umumiy natijalaridan quvonish ko'nikmalarini tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Mashg'ulotlardagi eng oddiy o'quv faoliyati atrofdagi tabiat, ijtimoiy turmush, odamlar haqidagi bilimlarni o'zlashtirishga, shuningdek, aqliy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Agar 3—4 yoshda ta'lim paytida bolalarning e'tibori tabiat, odamlar hayotidagi aniq faktlar va hodisalarga qaratilsa, 5—6 yoshli bolalarga ta'lim berish muhim aloqalar va munosabatlarni o'zlashtirishga va aloqalarni umumlashtirishga hamda eng oddiy tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi, bu esa bolalarda tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. O'zlashtirilgan bilimlar va rivojlangan aqliy qobiliyatlarni bolalar xilma-xil o'yinlarda va mehnatda qo'llaydilar. Bularning hammasi bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir etadi, unda faoliyatning yangi mazmuniga qiziqishni shakllantiradi.

Maktabgacha yosh davridagi ehtiyojlar, his-tuyg'ular, maqsadlarni tarbiyalash va rivojlantirish shu darajaga yetadiki, u bolaga maktabdagi muntazam o'qishga o'tish imkonini beradi.

Bolaning jamiyatdagi yangi mavqeyi o'z xatti-harakatini va tengdoshlarining xatti-harakatini o'z gacha nuqtayi nazardan baholashni

shart qilib qo'yadi. Bola faollik, ijodkorlik ko'rsatib, kattalarning uning xulq-atvoriga va faoliyatiga qo'yayotgan tobora murakkablashib borayotgan talablarini bajarishga intiladi.

Har bir faoliyat turi, mazmuni va tuzilishi, ijtimoiy-tarixiy xarakteri yosh avlodga obyektiv ravishda ta'sir ko'rsatadi. Odamlarning ishlab chiqarish qurollarida, bilimda, san'atda, axloqda va hokazolarda jamlangan sermahsul faoliyati natijalari birgalikdagi faoliyatda va muloqotda bo'lgan paytda tarbiya va ta'lim vositasida katta avloddan kichiklarga beriladi. Odam shaxsining ijtimoiy tabiati ana shunday shakllanadi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchida kuchli faoliyat ehtiyojini uyg'otib, yangi xulq-atvor sifatlarini shakllantirishga yordam bergandagina kutilgan natijalarga erishadi.

Bolani tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatning yetakchilik rohi to'g'risidagi qoidadan kelib chiqib, uning o'quv-tarbiya muassasalaridagi va oiladagi hayotini faoliyatning har xil turlariga boy bo'ladigan qilib uyushtirish zarur. Bunda ularga mazmunni boyitishga, yangi ko'nikmalarni o'zlashtirishga, mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan rahbarlik ta'minlanishi kerak.

#### **2.4. Bolalarning yosh xususiyatlari va ularni tarbiyalash**

Ta'lim va tarbiyaning mazmuni, vositalari, metodlari bolalarning rivojlanish jarayoni, ularning yoshi bilan izohlanadi. Jumladan, kichik yoshdagi bolalar bilan ish olib borganda ularning mustaqil hayotga butunlay moslashmaganligi hisobga olinadi.

Keyingi yosh guruhlarida maktabgacha yoshdagi bolaning mustaqilligi va moslashishi ancha oshib boradi, shunga muvofiq tarzda ta'lim-tarbiyaviy ishlarning vazifalari, mazmuni, vositalari va metodlari o'zgaradi. Bolaning maktabgacha yoshning oxiriga borib erishgan rivojlanish darajasi ular bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishini murakkablashtirish imkonini beradi.

Tarbiya vazifalari, mazmuni, metodlarini yoshga qarab tabaqalashtirish fanda qabul qilingan odam hayotini davrlarga bo'lishga tayanadi. Bir tomondan, vaqtni orqaga qaytarib bo'lmasligi, odam umrining qancha davom etishi va ikkinchi tomondan, tarbiya va ta'lim sistemasi bilan izohlanadigan ruhiy rivojlanishning olg'a harakat qilishi yoshga qarab tabaqalashtirishning asosi hisoblanadi. Yosh davrlari — odam rivojlanishining majburiy bosqichlaridir.

Har bir yosh davri yashalgan yosh, organizm biologik sistemalarining yetilish darajasi, ularning vazifalari, shu bilan birga odamning hayotiy tajribasi, bilimlarining hajmi, faoliyat turlari va mazmuni bilan belgilanadi.

Yosh kattalashgan sari ruhiy faoliyat boyib boraveradi, shu bilan birga teskari jarayon ham ro'y beradi, shu sababli har bir yosh uchun shaxsning sensor, aqliy, hissiy, irodaviy, sababiy tomonlari kabi xususiyatlar xosdir, ular orasidagi o'zaro aloqa o'zgaradi, bu esa rivojlanishning umumiy darajasiga, xulq-atvorni tartibga solishga ta'sir ko'rsatadi. Yosh bilan birga faoliyatning yetakchi turi ham o'zgaradi. Biroq shaxsning ruhiy rivojlanish darajasi faqat yashalgan yillar natijasi emas: har qanday yoshda, ayniqsa, bolalikda tarbiya va ta'lim sistemasi, shaxsning faoliyati va faolligi hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Yosh bilan bog'liq rivojlanish muddatlarida o'ziga xos siljishlar ham bo'lishi mumkin.

### **Ilk yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlari va ularni tarbiyalash.**

Ilk yoshdagi bolalar yordamga muhtoj, ko'ngli nozik bo'ladi. Shu bilan birga bu o'sish va rivojlanish sur'atlari juda yuqori bo'lgan yoshdir. Shu sababli to'laqonli rivojlanishni ta'minlash uchun bolalarning sog'lig'ini muhofaza qilish va mustahkamlash, ularning hayotini to'g'ri tashkil etish uchun har bir bolaning hissiy ijobiy holatiga ko'maklashuvchi shart-sharoitlarni yaratish to'g'risida g'amxo'rlik qilish zarur.

Ilk yoshda bolalar emaklash, tirmashish, biror narsaga osilib o'zini ko'tarish, yurish kabi xilma-xil harakatlarni egallaydilar. Harakat ayrim turlarining o'z vaqtida paydo bo'lishi va ketma-ketligi bolalarning o'ziga xos xususiyatlariga va tarbiya sistemasiga bog'liq bo'ladi. Zotan, bolalarni yaxshi ovqatlantirish, parvarish qilish, ular bilan tez-tez muloqotda bo'lib turish tufayli ular bu sharoitlar yo'q bo'lgan paytdagidan ancha erta mustaqil yura boshlaydilar. Ilk yoshda sensor rivojlanish, aqliy rivojlanish asoslari, his-tuyg'ularni, idrok etishni, tasavvurlarni takomillashtirish katta ahamiyatga ega.

Nutqning shakllanishi 3 yoshgacha bo'lgan bolalarning muhim yosh xususiyati hisoblanadi, 3 yoshga borganda bolalar ona tilining deyarli barcha jihatlarini egallagan bo'ladilar va kattalar hamda tengdoshlari bilan nutqdan muomala vositasi sifatida foydalanadilar.

Ilk yoshda ish yuritishning asosiy yo'nalishlari, o'yin faoliyati, tasviriy, konstruktorlik faoliyatining eng oddiy shakllari tarkib topadi. Bolalar o'ziga o'zi xizmat ko'rsatishning eng sodda ko'nikmalarini egallaydilar, bu bolaning o'ziga xos mustaqilligini belgilab

beradi. Kichkintoylarda dastlabki uch yoshda tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlar rivojlanadi: ular birgalikdagi o'yinlarda bir-birlari bilan muomalada bo'lishni va o'zlarini o'yin qoidalariga muvofiq tutishni o'rganadilar.

Yosh xususiyatlari faqat aqlgagina emas, shu bilan birga his, iroda, sababga ham taalluqli bo'ladi: hayotning dastlabki yillarida bolalarning xulq-atvori asosan bevosita his-tuyg'ular bilan tartibga solinadi, lekin shu yoshdayoq irodani tarbiyalashni boshlash, ularga umumiy qabul qilingan normalar va qoidalarni tushunishni o'rgatib borish kerak.

Bolalarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash uchun ularning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini bilish, bu ishni ilk yoshdan boshlab amalga oshirish zarur.

Ilk yoshdagi bolalarni tarbiyalash sistemasi yosh avlod umumiy ta'lim-tarbiya tayyorgarligining tarkibiy qismi hisoblanadi.

**Maktabgacha o'rta yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlari va ularni tarbiyalash.** Maktabgacha o'rta yoshda bola organizmining takomillashishi davom etadi: 3 yoshdan 5 yoshgacha bolaning o'sish sur'ati avvalgi yosh davriga nisbatan birmuncha susayadi, lekin 5 yoshdan 8 yoshgacha yana kuchayadi. Umumiy o'sish va tana og'irligining oshishi bilan bir vaqtda bolaning barcha asosiy to'qimalari va organlari anatomik o'zgarishlari va funksional rivojlanishi ro'y beradi. Asta-sekin skelet qotib boradi, muskullar hajmi oshadi, bola organizmining ishlash qobiliyati kuchayadi. Shu bilan birga asab hujayralari tez charchaydi va madori quriydi. 6—7 yoshga kelib bola yurish, yugurish, sakrash, arqonga osilib chiqish, uloqtirish va hatto chang'ida yurish, konkida uchishdek murakkab harakat turlarini muvaffaqiyatli egallaydi.

Jismoniy tarbiya maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ish olib borishda markaziy o'rinni egallaydi. Bolaning imkoniyatlariga muvofiq oilada va bolalar bog'chasida ta'sir ko'rsatishning aniq vositalari va metodlarini qo'llash sistemasi: hayot, ovqatlanish tartibi, gimnastika mashqlari va harakatli o'yinlar, chiniqish usullari belgilanadi. Maktabgacha o'rta yoshdagi bolada miya qobig'ining funksional faolligi takomillashib boradi. Asab sistemasining yuksak darajada ta'sirchanligi idrok etishning yorqinligi, o'tkirligini, bolalar ta'sirlanuvchanligini shart qilib qo'yadi, shuning uchun maktabgacha o'rta yoshdagi bolani tarbiyalash va unga ta'lim berishda taassurotlar va bilimlarni (bu asosan atrofdagi hayot haqidagi eng oddiy bilimlar bo'ladi) tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha o'rtta yoshda tarbiya maqsadga muvofiq tarzda olib borilganda ko'rish, eshitish, hid bilish kabi idrok etish usullari, ko'rgazmali-ta'sirchan va obrazli fikrlash, irodaviy, hissiy va sabab jarayonlari rivojlanadi. Bolalar bilish jarayonini egallab borar ekanlar, eng oddiy tahlil etish va umumlashtirish, tasniflashga qodir bo'lib boradilar, o'zlarini o'rab turgan buyumlar va hodisalar to'g'risida mulohaza bildira boshlaydilar. Umuman maktabgacha yosh sinchkovlik, qiziquvchanlik bilan ajralib turadi. Biroq bolaning tabiiy qiziquvchanligi qondirilmasa, u passiv bo'lib qoladi.

Maktabgacha o'rtta yoshdagi bolalar uchun faoliyatning xilma-xil turlarida namoyon bo'ladigan taassurot yangiligi va o'tkirligi xosdir. Kattalarning ta'sirida maktabgacha yoshdagi bolaning faoliyati ixtiyoriy ravishda bajariladigan va boshqariladigan bo'lib qoladi, bu esa ta'lim beradigan mashg'ulotlar va mehnat paytida e'tiborlilikni tarbiyalash uchun g'oyat muhimdir.

Bola shaxsining tarkib topishi uning fe'l-atvori shakllanishida ham o'z ifodasini topadi. Ongning rivojlanishi faoliyat, xulq-atvor uchun turli sabablarning paydo bo'lishida katta ahamiyatga egadir. Maktabgacha o'rtta yoshdagi bola shaxsiy xulq-atvor sabablarini ijtimoiy xulq-atvor sabablariga bo'ysundirib, tarbiyachilar, otionalarning talablariga asoslangan holda o'z xulq-atvorini va boshqa bolalar xulq-atvorini baholay oladi. O'yin vaziyatida, mashg'ulotlar chog'idagi ta'lim paytida maktabgacha yoshdagi bolada fe'l-atvorning irodaviy sifatlari paydo bo'ladi. Ma'naviy ongni shakllantirish burch, adolat, qadr-qimmat va boshqa ijtimoiy tuyg'ularning paydo bo'lishi bilan ajralib turadi.

Bola o'z oldiga qo'yilayotgan talablarning ahamiyatini tushuna boshlaydi. Yaxshi va yomon xatti-harakat qilgandagi kechinmalar endilikda katta odamning munosabati bilangina emas, shu bilan birga o'z mulohazasi, ularga o'zining axloqiy munosabati bilan paydo bo'ladi. Bolalarda xijolat bo'lish, uyalish his-tuyg'ulari va aksincha, ijtimoiy talablarni bajarganligini anglab yetishdan quvonish va qoniqish hosil qilish tuyg'ulari chuqurroq namoyon bo'ladi.

Maktabgacha o'rtta yoshdagi bolada qobiliyatlarni rivojlantirish uchun yosh bilan bog'liq zamin mavjud. Bu bolani har tomonlama rivojlantirish uchun ta'lim mazmunini o'zgartirish va murakkablashtirishga, ta'lim va tarbiyaning o'yin, so'z, ko'rgazmali va amaliy usullari nisbatini o'zgartirishga, maktabgacha yoshdagi bolalikda mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlardan foydalanishga asos bo'ladi.



## *Nazorat savollari*

---

1. Shaxsning rivojlanishi qanday jarayon?
2. Shaxsning rivojlanishi uchun zarur omillar.
3. Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning o'rnini.
4. Ilk yoshdagi bolalarni tarbiyalashda nimalarga e'tibor qaratish lozim?
5. Maktabgacha o'rta yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlari.





### *3-bob.* O‘ZBEKISTONDA XALQ TA‘LIMI TIZIMI

#### **3.1. Ta‘lim sohasida davlat siyosati**

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgan dastlabki kunlaridayoq respublikada ta‘limni tashkil etish sohasida tub islohotlarni amalga oshirish, uni yuksak darajada takomillashtirish va jahon ta‘limi darajasiga ko‘tarish kabi masalalarga alohida e‘tibor qaratildi. Ana shu e‘tiborning yorqin isboti ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari hamda ta‘limning O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasidagi ustuvor yo‘nalish deb e‘lon qilinganligi bilan belgilanadi.

Ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

1. Ta‘lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik tavsifda ekanligi. Davlatimizda tashkil etilayotgan ta‘lim va tarbiya jarayonida shaxs or-nomusi, qadr-qimmati, ma‘naviy hamda ma‘rifiy huquqlarini hurmat qilish, uning iqtidori va qobiliyatini namoyish etish uchun imkoniyat yaratish, shuningdek, xohish-istagi va ehtiyojlarini inobatga olish masalalari nazarda tutiladi.

2. Ta‘limning uzluksizligi va izchilligi ta‘lim jarayonida didaktik xarakter kasb etib, o‘quvchilarga berilayotgan bilim va shakllantirilayotgan ko‘nikma va malakalarning uzluksiz, doimiy ravishda shakllanishini ta‘minlaydi. Uzluksiz va izchillik ma‘lumotlar, hodisalar va fan asoslarini o‘rganishning tartibga solinishini, avvalgi va keyingi materiallar o‘rtasida ketma-ketlikni ta‘minlashni anglatadi. Har bir o‘quv fani muayyan mantiqiy izchillikda o‘qitilishi lozim. Mazkur prinsip shu holatni ifoda etishga xizmat qiladi.

3. Umumiy o‘rta, shuningdek, o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limining majburiyligi. Mazkur prinsip O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘limini olishning respublika fuqarolari uchun shartligini ifodalaydi. Respublika hududida umumiy o‘rta, shuningdek, o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi bepul bo‘lib, ularning faoliyatini tashkil etish respublika

va mahalliy budjet mablag'lari hamda budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalariga o'quvchilar tanlov asosida qabul qilinadilar.

4. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi yo'nalishini akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi. Ushbu prinsip o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi yo'nalishini o'quvchining o'z qiziqishi, ehtiyoji hamda layoqatiga mosini (muayyan mutaxassislikda ixtisoslashtirilgan akademik litsey yoki ma'lum kasb-hunar kollejida tahsil olishni) erkin tanlash huquqiga egalligini ifoda etadi.

5. Ta'lim tizimining dunyoviy tavsifda ekanligi. Ushbu prinsip respublika hududidagi mavjud ta'lim muassasalarida yoshlarga dunyoviy tavsifdagi ilmiy bilimlarni berishni nazarda tutadi. Ta'lim muassasalarida jangari, buzg'unchilik, shuningdek, milliy nizolar hamda diniy adovatlarini keltirib chiqarishga xizmat qiluvchi g'oyalarning targ'ib etilishi, ular yoshlar ongiga singdirilishi qonun yo'li bilan taqiqlanadi. Yoshlarga diniy bilimlarni berish davlat akkreditatsiyasidan o'tgan (Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan) hamda diniy ta'lim-tarbiya berish huquqiga ega ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

6. Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi. Respublika fuqarolari istalgan ta'lim muassasalari (ta'lim muassasasi Nizomida ko'zda tutilgan talablarga muvofiq)da O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1999-yil 16-avgustda qabul qilingan «Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori, shuningdek, bu borada o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'limning davlat tizimi standartlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari tomonidan ishlab chiqarilgan DTS talablariga muvofiq ta'lim olish huquqiga egadirlar.

7. Ta'lim dasturini tanlashga yagona tabaqalashtirilgan yondashuv. Ta'lim bo'yicha yaratilgan dasturlar orasidan o'quv dasturini yaratishga qo'yiladigan talablarga muvofiq yaratilgan hamda eng maqbul deb topilgan dasturni tanlab olish asosida ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, mutaxassislik, kasb-hunar ta'limi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda muayyan ta'lim muassasalari ma'lum mutaxassislik va kasb-hunar ta'limining o'ziga xos jihatlari inobatga olgan holda yaratilgan dasturlar asosida ta'lim jarayonini tashkil etishlari mumkin.

8. Bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish. Ta'limni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad yosh avlodga chuqur bilim berish, ulardagi mavjud layoqat va iste'dodlarni rivojlantirishdan iboratdir. Bugungi kunda jamiyatimizda yoshlar orasidan bilimli, iqtidorli o'quvchilar (talabalar)ni aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berilmoqda. Ushbu maqsad yo'lida faoliyat olib boruvchi qator jamg'armalar, chunonchi, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlovchi «Umid» va Ulug'bek nomli jamg'armalar tashkil etildi. Mazkur jamg'armalarning homiyligida yuzlab o'quvchi va talabalar yetakchi xorijiy mamlakatlarda ta'lim olish huquqiga ega bo'ldilar.

9. Ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlash-tirish. Samarali ta'limni tashkil etish jamiyat taraqqiyotini, millat va xalqning porloq kelajagini ta'minlaydi. Shu bois, ta'limni tashkil etish nafaqat davlat, balki umumxalq ishidir. Ta'lim muassasalarida tashkil etilgan ota-onalar qo'mitasi, o'quvchilar o'z-o'zini boshqarish organlarining kuchi va imkoniyatlaridan, shuningdek, otaliq (homiy) tashkilotlarning moliyaviy, ma'naviy qo'llab-quvvatlashlari evaziga ta'lim samaradorligini oshirish mumkin. Ushbu prinsip mana shu g'oyani ochib berishga harakat qiladi.

10. Ta'lim tizimi muayyan jamiyatda ijtimoiy-tarixiy jarayonda tarkib topgan ma'lum talablar asosida boshqariladigan hamda bir-biri bilan bog'langan barcha tipdagi o'quv-tarbiya muassasalarining yig'indisidan iborat ekanligi. Ta'lim muassasasi yuridik shaxs bo'lib, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda faoliyat olib boradi.

Ta'lim tizimi ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega muayyan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti darajasida hamda siyosati mazmuni bilan bog'liq holda tarkib topadi.

### **3.2. Xalq ta'limi tizimi va uning bosqichlari**

Xalq ta'limi tizimining taraqqiyoti shu mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarining rivojiga, jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etadigan ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga, milliy xususiyatlarga bog'liq.

Xalq ta'limi tizimi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq tashkil etilgan. Konstitutsiyamizning 18, 41-moddasida ko'rsatilganidek, barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar,

bilim olish huquqiga egadir. Fuqarolarning bepul umumiy ta'lim olishlari davlat tomonidan kafolatlangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustda o'tkazilgan IX sessiyasida umumxalq muhokamasidan o'tgan «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» qabul qilindi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich amalga oshirib boriladi. Har bir bosqich muayyan vazifalarni hal etishni nazarda tutadi.

I bosqich (1997—2001) — mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun ilmiy-uslubiy, moliyaviy shart-sharoit yaratish.

II bosqich (2001—2005) — milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorini rivojlantirish va real ijtimoiy, iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda aniqliklar kiritish.

III bosqich (2005-yil va undan keyingi yillar) to'plangan tajribalarni tahlil etish, umumlashtirish asosida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish.

Ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:


- a) davlat ta'lim standartlariga muvofiq, ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;
- b) ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy pedagogik muassasalar;
- d) ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi yagona va uzluksiz bo'lib, mazkur tizim doirasida faoliyat yurituvchi muassasalar ta'limni bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun xizmat qiladilar.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi (2-chizma).

O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining ta'lim turlari xususidagi 10-moddasida shunday deyiladi:

- *Maktabgacha ta'lim*. Uch yoshdan boshlab, olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulkchilik ko'rinishlaridan qat'i nazar, boshqa ta'lim tashkilotlarida olib boriladi.
- *Boshlang'ich ta'lim*. 1—4-sinflarni o'z ichiga oladi. O'qish 6—7 yoshdan boshlanadi.

## Ta'lim turlari



2-chizma. O'zbekiston xalq ta'limi tizimi.

- *Umumiy ta'lim.* O'quvchilarga 5—9-sinflar doirasida bilim va tarbiya beriladi.
- *O'rta maxsus ta'lim va kasb-hunar ta'limi.* O'qish muddati 3 yildan kam bo'lmagan akademik litseylar hamda kasb-hunar kollejlari.
- *Oliy mutaxassislik ta'limi.* To'rt yildan kam bo'lmagan muddatda davom etadi. Oliy mutaxassislik ta'limi bakalavrluk, magistraturaga bo'linadi.

Bakalavrluk bazaviy oliy ta'lim berish demakdir. Unda o'qish kamida 4 yil davom etib, oliy ma'lumot va tayanch mutaxassislik diplomi olish bilan tugaydi. Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha oliy kasbiy ta'lim bo'lib, bakalavrluk negizida kamida 2 yil davom etadi. Unda tahsil yakuniy kvalifikatsion davlat attestatsiyasi va magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish bilan yakunlanadi.

— Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim — aspirantura nihoyasiga yetkazilgan magistrlik negizida 3 yil davom etadi. Aspirantura akademiya va kvalifikatsion imtihonlari, nomzodlik dissertatsiyalarining himoyasi bilan yakunlanadi.

— Doktorantura — fan nomzodi ilmiy darajasi negizida 3 yil davom etadi, dissertatsiya himoyasi bilan yakunlanadi.

— Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash.

— Maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich turi hisoblanadi hamda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida»gi Qonunlari talablari asosida tashkil etiladi.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorgarlik darajasida shakllantirish maqsadida tashkil etiladi. Ushbu ta'lim bolaning olti-yetti yoshga to'lguniga qadar oilada maktabgacha ta'lim muassasalari (yasilar uch yoshgacha bo'lgan bolalar uchun, bolalar bog'chalari 3 yoshdan 6—7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun) va mulk shaklidan qat'i nazar, ta'lim muassasalarida olib boriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar rivojlanadilar va ta'lim-tarbiya oladilar. Ularning sog'lig'i mustahkamlanadi, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini hosil qiladi. Ularda mehnatga muhabbat uyg'onadi. Kattalarga hurmat, vatanparvarlik tuyg'ulari tarbiyalanadi. Bolalar maktab ta'limi uchun tayyorgarlik ko'radilar. Maktabgacha ta'lim muassasalari umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinflari bilan uzluksiz aloqani amalga oshirishi lozim.

Maktabgacha ta'lim sog'lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining Nizomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvardagi 5-sonli qaroriga muvofiq ishlab chiqiladi. Tuman, shahar xalq ta'limi bo'limlari tomonidan tasdiqlanadi.

### **3.3. Maktabgacha ta'limning vazifalari**

Maktabgacha ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolalarni xalqimizning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash;
- bolalarda milliy g'urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish mayllarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash;
- bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish;
- bolalarning jismoniy va ruhiy sog'lig'ini ta'minlash.

Maktabgacha ta'lim muassasalari hududning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. MTMni tashkil etish va tugatish qonunga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

MTM yo'nalishiga qarab, quyidagi turlarga bo'linadi:

- bolalar yaslisi, bolalar bog'chasi, bolalar yasli-bog'chasi, xonadon bolalar bog'chasi;
- bog'cha-maktab majmuasi;
- tarbiyalanuvchilarni bir yoki bir necha ustuvor yo'nalishlarda rivojlantiradigan maktabgacha ta'lim muassasasi (til o'rgatuvchi, musiqa, sport yo'nalishlari bo'yicha);
- tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarini bartaraf etishni ustuvor ravishda amalga oshiruvchi maxsus MTM;
- sanitariya-gigiyena, profilaktika va sog'lomlashtirish tadbirlari, muolajalari ustuvor ravishda amalga oshiriladigan sog'lomlashtiruvchi bolalar bog'chasi;
- aralash turdagi MTM.

Maktabgacha ta'lim turlari ota-onalar tomonidan tanlanadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, barcha sohalar qatorida ta'lim-tarbiya sohasida ham tub ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Bugungi bolakay va qizaloqlar zimmasida XXI asrda sog'lom, bilimli, aqlli bo'lib, jamiyatimizning faol a'zolariga aylanishdek ulkan vazifa turibdi. Bunda esa ular siz-u bizga — kattalarga umid, ishonch nigohi bilan boqadilar.



### *Nazorat savollari*

---

1. Ta'lim tizimida maktabgacha ta'limning tutgan o'rni.
2. Ta'lim tizimi doirasida faoliyat ko'rsatuvchi muassasalar.
3. Ta'lim tizimini boshqarishni qanday tushunasiz?
4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy bosqichlari qaysilar?



## 4-bob. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI TARBIYACHISI

### 4.1. Tarbiyachi va uning jamiyatda tutgan o'rnini

O'zbekiston Respublikasida amalga oshiriladigan ulkan islohotlarning muvaffaqiyati, eng avvalo, odamlarning o'z ishlariga mas'uliyat bilan qarashlariga, kundalik mehnat faoliyatida mamlakat taraqqiyotiga hissa bo'lib qo'shiladigan ishlarni qila olishlariga bog'liq. Jamiyatda pedagog (o'qituvchi, tarbiyachi), *birinchidan*, o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, *ikkinchidan*, mehnatkash xalqimizga har tomonlama bilim berishdek savobli va mas'uliyatli vazifalarni bajaradi.

Tarbiyachining qadr-qimmatini shu qadar buyukki, u odamni ma'naviy jihatdan boy qilib, qalbini baxtga, ilohiy nurga to'ldiradi. Dunyoda biror kimsa yo'qki, uning ustozini bo'lmasa. Hukumat rahbarimi, buyuk allomami, shifokormi, xalq mehrini qozongan yozuvchimi yoki qo'li gul kosibmi, qo'yingki, barcha-barchaning o'z ustozini va hayot yo'lini charog'on etib turuvchi yo'l boshchisi bo'ladi.

Ustozning eng buyuk burchi xalqqa nafi tegadigan, aql-idrokli, qobiliyatli, uquvli shogirdlar tayyorlashdir.

Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim, faxrli va shu bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga, ta'lim-tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borish va hamkasblarining ishdagi o'sishiga ko'maklashishda yordam beradi. Tarbiyachi o'zi yashab turgan o'lka hayotini bilishi, tabiat va jamiyat qonunlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo'lishi kerak.

Respublikamiz rahbariyati pedagoglar faoliyatini yuqori baholamoqda. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga binoan 1-oktabr xalq ta'limi xodimlari — o'qituvchi va murabbiylar kuni deb e'lon qilindi. Bu voqea davlatimizning o'qi-



tuvchilarni jamiyatda tutgan o'rnini naqadar yuksak baholashidan dalolat beradi. Yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda erishgan yutuqlari uchun, pedagogik ishidagi ijodiy mehnatlari uchun, ilg'or tajribalarni umumlashtirishda erishgan yutuqlari uchun o'qituvchi, tarbiyachilar «Metodist o'qituvchi», «Katta o'qituvchi», «Metodist-tarbiyachi», «Xalq maorifi a'lochisi» va shu kabi sharaflilar unvonlar bilan taqdirlanadilar. Xalq ta'limi xodimlari orasidan respublika bo'yicha deputatlar saylanishi ham ularga bo'lgan chuqur hurmat-ehtiroمنى bildiradi.

Respublikamizda pedagog xodimlarning oylik maoshlari yildan yilga oshirilib, turmush sharoitlari yaxshilanib kelinmoqda. Pedagog xodimlarning malakasini oshirish ilmiy-metodik markazlari kengaytirilmoqda, ularning siyosiy tayyorgarligiga talab kuchaytirilmoqda, har 4—5 yilda qayta tayyorlashdan o'tishlari uchun shart-sharoit yaratilmoqda.

#### **4.2. Tarbiyachi shaxsiga qo'yilgan talablar**

Tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo'ladi-gan muomalada ta'sir ko'rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o'rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi zarur. Hozirgi zamon tarbiyachisining o'z kasbiga sadoqatlili-gi, g'oyaviy e'tiqodi, bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqati uni boshqa kasb egalari-dan ajratib turadi.

Tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o'z predmetini, uning metodikasini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Predmetni va uning nazariyasini chuqur o'rganishi bolalarni ilmga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. Bu pedagog-tarbiyachining obro'sini ko'taradi. Tarbiyachi kasbiga xos bo'lgan muhim fazilatlardan, talablardan biri bolalarni sevish, ularning hayoti bilan qiziqish, har bir shaxsni hurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan, butun kuch va bilimini bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy pedagog-tarbiyachi bo'la oladi. Bolaga befarq, uning kelajagi bilan qiziqmaydigan, tarbiyachilik kasbiga loqayd odam haqiqiy pedagog-tarbiyachi bo'la olmaydi.

Bolalarni sevimli pedagogning murakkab mehnatini jozibali va yengil qiladi. O'qituvchi, tarbiyachining bolalarga munosabati pedagogikada tarbiyalanuvchi shaxsga hurmat, unga talabchanlik bilan bir qatorda turadi. Bu munosabat bolada pedagogga nisbatan ishonchni uyg'otadi, o'qituvchiga bolalarga chinakam ma'naviy murabbiy bo'lishga imkon beradi.

Pedagog faoliyatining muvaffaqiyati pedagogik qobiliyatlari-ning mavjudligiga ham bog'liqdir. Pedagogik qobiliyatlar — pedagogik mahoratga erishishning zaminidir. Pedagogik qobiliyatlar tarkibiga pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, diqqatni taqsimlash, tashkilotchilik qobiliyati va pedagogik muomala kiradi. Pedagogik qobiliyatlar pedagogik faoliyat jarayonida, shuningdek, uni bu faoliyatga tayyorlash jarayonida shakllanadi. Pedagogik mahorat — yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishni yuksak darajada va doimiy ravishda takomillashtirib borish san'atidir.

#### **4.3. Tarbiyachi shaxsini shakllantirish**

Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, kattalarning mehnati haqida boshlang'ich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy axloq, o'z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli munosabatda bo'lish odatlarini singdiradi. Ularda yaxshilik, haqiqatgo'ylik, adolat, jasurlik, kamtarinlik, kattalarga hurmat bilan qarash, tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlik bilan qarash, mehnatsevarlik, kattalarning mehnati natijalarini asrab-avaylash kabi axloqiy sifatlarini tarbiyalaydi.

Xalq san'ati, musiqa, ashula, adabiyot, tasviriy san'atni bilish, san'atga muhabbat tarbiyachini madaniyatli qiladi, bolalar bilan olib boradigan ishida yordam beradi. Pedagog kerakli bilim, malaka va ko'nikmalarni ma'lum bir izchillik bilan egallab bor-sagina bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish ishida yaxshi natijalarga erishadi. Tarbiyachi o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi uchun maxsus tayyorgarlik ko'rishi kerak. U quyidagi shartlarga amal qilishi kerak:

- yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori malakali, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg'or tajribali pedagoglarning tajribasini o'rganib, o'z ishiga tatbiq eta oladigan kishi bo'lishi;

- bolalarni kuzata oladigan ularning xulqi, xatti-harakati sabablarini to'g'ri tahlil qilib, unga ijobiy ta'sir etuvchi vositalarni topa olishi;
- yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan xabardor qilish uchun pedagogning nutqi ravon, aniq, mantiqiy, ixcham bo'lishi, ta'lim berishda texnikaviy vositalardan samarali foydalana olishi kerak. Bolalar bilim, malaka, ko'nikmalarni yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun faollashtiruvchi savollardan foydalanishi;
- o'ziga yuklangan vazifani bajarishi uchun bolalarda o'sha faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'ota olishi, ularning diqqatini jalb qilib, faolligini o'stirishi, bolalarning xulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi;
- har bir faoliyat uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo'yishi;
- kun tartibini to'g'ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a'zoni e'tiborga olgan holda rahbarlik qila bilishi;
- bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarida e'tiborga olishi;
- ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazib, axborot almashtirib turishi;
- bolalarga nisbatan xayrixoh bo'lishi, har bir bola uchun qulay sharoit yaratishi, xafa bo'lsa ovuntira olishi;
- olib borgan ta'lim-tarbiya ishini tahlil qila bilishi va uni yanada yaxshilash yo'llarini topa olishi kerak.

Eng muhimi — tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to'g'ri taqdirlashi va mustaqil faoliyatlari uchun imkoniyat yaratishi kerak. Buni bolalar yuqori baholashadi.



### *Nazorat savollari*

---

1. Tarbiyachining shaxsiy sifatleri va pedagogning odobi qanday bo'lishi kerak?
2. Hozirgi davr tarbiyachisiga qo'yilgan pedagogik talablar.
3. Kasbiy layoqatlilik deganda nimani tushunasiz?
4. Tarbiyachi o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi uchun nimalarga rioya qilishi kerak?



## **5-bob. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA TA'LIM-TARBIYA DASTURI**

### **5.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash dasturining yaratilishi va tarixi**

Tarixdan ma'lumki, maktabgacha tarbiyaning rivojlanishi bilan birgalikda tarbiyalash dasturi ham takomillashib boradi. Maktabgacha muassasalar ishini tashkil etish, uning mazmuni va metodlari yuzasidan asosiy ko'rsatmalar 1919-yilda Maorif xalq komissariati maktabgacha tarbiya bo'limining vazifasi «Oila o'chog'i va bolalar bog'chasini yuritish yuzasidan instruksiya»da bayon qilib berilgan edi. Maktabgacha tarbiya sifatini yaxshilash uchun bolalar bog'chasi ishining ilmiy asoslangan dasturini yaratish katta ahamiyatga ega bo'ldi. «Programma»ga oid har bir hujjat muayyan tarixiy bosqichda vujudga keldi va maktabgacha tarbiya nazariyasi va amaliyoti rivojlanishining tegishli bosqichini aks ettirdi.

«Programma»ning dastlabki loyihasi 1932-yilda chiqarilgan edi. Bu hujjat bolalar faoliyatining tegishli turlariga mos keladigan bilimlardan: ijtimoiy-siyosiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, musiqa-harakat tarbiyasi, tasviriy faoliyat, matematika, savod bo'limlaridan iborat edi. Unda bolalar bog'chasidagi bolalar bilan ishlash vazifalari va hajmini belgilashga urinib ko'rilgan edi. «Programma»ning vujudga kelishi esa maktabgacha tarbiya muassasalari ishini tartibga solishga, tarbiyachi-pedagoglar faoliyatiga ko'proq yo'nalish va mazmun bag'ishlashga yordam berdi. 1934-yilda takomillashtirilgan «Tarbiyalash programmasi» nashr etildi. Unda bolalar bog'chasida bolalarning ko'p qirrali hayotini tashkil etish va uning mazmuni masalalariga katta e'tibor berildi.

«Programma»da ijtimoiy tarbiya, jismoniy tarbiya, rasm chizish, loy va plastilindan narsalar yasash, mehnat mashg'ulotlari, nutqni o'stirish, kitob va rasmlar bilan mashg'ulotlar, tabiat haqidagi bilimlarning kurtaklari, dastlabki matematik tasavvurlarni rivojlantirish, savod chiqarish mashg'ulotlari bo'limlari bor edi. Shu bilan birga unda muhim kamchiliklar mavjud edi, chunonchi,

murakkab bilish materialining kiritilganligi, bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olinmaganligi, pedagogik jarayonni tashkil etishda tarbiyachining rahbarlik roliga yetarli baho berilmaganligi shular jumlasidandir. 1938-yilda «Bolalar bog'chasining tarbiyachisi uchun qo'llanma» nashr etildi. Unda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tarbiyalash vazifalari to'g'ri yoritildi. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish haqida aniqroq gap yuritildi. «Qo'llanma»da ilgorigidek, bolalar bilan ishlash mazmunini yosh guruhlari qarab emas, balki tarbiyaning ayrim bo'limlari bo'yicha belgilangan edi. Bu esa u yoki bu yoshdagi bolalar bilan ishlash uchun dastur materialini tanlashda tarbiyachini qiyin ahvolga solib qo'yar edi. Jismoniy, aqliy, axloqiy tarbiyaning ko'pgina masalalari «Qo'llanma»da yetarli darajada o'z aksini topdi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim berish masalalari ilmiy asosda ochib berilgan, ota-onalar bilan ishlash ham yetarli yoritilgan edi.

1953-yilda bolalar bog'chasida ta'limning joriy etilishi munosabati bilan ta'lim-tarbiya ishlari sifatini oshirish va bolalarni maktabgacha tayyorlash maqsadlarida «Qo'llanma» qayta ishlab chiqildi. Unda tarbiyachining rahbarlik roli ta'minlangan holda tashkil etilgan mashg'ulotlarda bolalar o'zlashtirishlari kerak bo'lgan bilim mundariyasi ancha aniq ko'rsatib berildi.

1959-yil may oyida «Maktabgacha tarbiya muassasalarini yanada rivojlantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiya berish va tibbiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash tadbirlari to'g'risida» qaror qabul qilindi. Qarorda jumladan mahalliy sharoit va imkoniyatlarni hisobga olgan holda bolalar muassasalarining ikki tipini — yasli va bolalar bog'chalarini yagona maktabgacha muassasaga (yasli bog'cha) birlashtirilishi hamda yasli va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tarbiyalashning yagona dasturini ishlab chiqish ko'zda tutildi.

Yangi hujjatga maktabgacha tarbiya pedagogikasi, bolalar psixologiyasi va bolalarning o'sishini o'rganadigan yondosh fanlar to'plagan ma'lumotlar hamda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tarbiyalashning eng yaxshi usulini umumlashtirish asos qilib olindi. «Ilk yoshdan to maktabga kirish yoshigacha bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining yagona programmasi» birinchi marta 1962-yilda e'lon qilindi.

«Programma»da e'tibor tarbiya jarayonida yosh davomiyligi o'rtasidagi aloqa uzilib qolishini tugatishga qaratilgan edi. Ilgarigi pro-

grammaning metodik jihatlariga qaraganda unda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim berish masalalari ko'proq aks ettirildi. «Mashg'ulotlarda ta'lim berish» bo'limida taqdim etilgan material ta'lim berishda sistemalilikni amalga oshirish, bolalarning bilim minimumini to'la o'zlashtirish, ularning atrofidagi voqelik, predmetlar va hodisalarning o'zaro bog'liqligini anglay olishlari uchun qulay sharoitlar yaratdi.

«Programma», shuningdek, bola shaxsiyatini har tomonlama kamol toptirish uchun zarur bo'lgan muayyan bilimlar, ko'nikmalar va malakalar, yurish-turishdagi ijobiy odatlar, axloqiy fazilatlarni shakllantirishni ham ko'zda tutdi. Unga mashg'ulotlar, dam olish, ko'ngil ochish, uyqu, ovqatlanish, sayr qilish rejimi kiritilgan. Tarbiyachi «Bolalar bog'chasida tarbiya programmasi»ga ko'ra, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaga o'yinlar, ko'ngil ochish va mehnat orqali ta'lim berish, turmush jarayonida tarbiyalashning ko'p tomonlama vazifalari hal etilishini ta'minlamog'i kerak edi. 1969-yilda takomillashtirilgan «Bolalar bog'chasida tarbiya dasturi» chop etildi. U ilmiy tadqiqot va eng yaxshi ish tajribasidan foydalanish asosida tuzilgan bo'lib, maktablar boshlang'ich ta'limining yangi programmaga o'tishi bilan bog'liq bo'lgan talablarni hisobga oldi. Shundan keyingi yillarda bu «Programma» ba'zi qo'shimcha va tuzatishlar bilan bir necha marta, masalan, 1978-yilda, 1988- va 1995-yillarda qayta nashr etildi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, barcha sohalar singari ta'lim-tarbiyada ham ko'pgina yangilanishlarni amalga oshirish ehtiyoji tug'ildi. Buning uchun esa pishiq-puxta ishlangan, ma'lum maqsad va vazifalarni o'zida mujassamlashtirgan istiqbolli dastur talab etilardi. Bola dunyoga kelgan kunidan boshlab, davlat, jamiyat hamda ota-ona zimmasiga uni sog'lom, aqlli, xushxulqli tarbiyalash vazifasi qo'yiladi. Davlat va jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanday voyaga yetishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. O'z navbatida jamiyat taraqqiyoti millatning ma'naviy darajasi bilan belgilanadi. Sog'lom avlodni tarbiyalash davlat va jamiyatning ustuvor yo'nalishidir.

Davlat va jamiyat maktabgacha yoshda bo'lgan bolalarni yagona talab asosida rivojlantirish vazifasini qo'yadi. Shunga ko'ra, «Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari»ga tayangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarga integral tarzda ta'lim-tarbiya berish maqsadida 2002-yilda «Uchinchi ming yillikning bolasi» dasturi o'zbek olimlari tomonidan yara-

tildi. Bugungi kunda respublikamizning qishloq joylarida maktabgacha yoshdagi bolalarning 17 foizi ta'lim-tarbiya muassasalarida, qolgan 83 foizi esa bevosita oilada tarbiyalanadi. Shu bois, taqdim etilgan dastur tarbiyachilar va ota-onalarga mo'ljallangan.

## 5.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish Davlat talablari

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari aniq, bir yoshdagi bolaning rivojlanish standartlarini va bolaning yutuqlari va rivojlanish darajasini baholash imkoniyatini beruvchi indikatorlarni belgilaydi. Ushbu hujjat, birinchi navbatda, oilaga bolaning to'laqonli rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasida, uni maktabda ta'lim olishga samarali tayyorlashda yordam berishni nazarda tutadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablarining maqsadi maktabgacha ta'limning mazmunini belgilaydi va mulk shaklidan qat'i nazar, maktabgacha ta'lim muassasalarini bolalikning qadr-qimmatini saqlab qolgan holda barcha bolalarning teng huquqliligini va har bir bolaning individual rivojlanishini tadbiq etishga yo'naltirilgan.

Ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasi hududida, mulk shaklidan va qaysi tashkilot tasarrufida ekanligidan qat'i nazar, quyidagi ta'lim muassasalarida qo'llanilishi majburiydir:

- umumiy turdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarida;
- maktabgacha yoshdagi guruhlar mavjud bo'lgan «Mehribonlik» uylarida, kichkintoylar uylarida;
- maktabgacha va boshlang'ich ta'limni nazorat qiluvchi boshqaruv organlarida;
- maktabgacha va boshlang'ich ta'lim turlari uchun kadrlar tayyorlovchi o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida;
- maktabgacha va boshlang'ich ta'lim turlari bo'yicha pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tadbiq etuvchi muassasalarda.

Davlat talablarini ishlab chiqish asosida bola shaxsi rivojlanishining to'rt yo'nalishi olingan (jismoniy rivojlanish, o'z-o'ziga

xizmat va gigiyena; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik; bilish jarayoni, atrof olam to'g'risidagi bilimga ega bo'lish va uni anglash). Bu to'rt yo'nalish bo'limlarga bo'linib, birgalikda bola rivojlanishining yaxlitligini tashkil etadi.

2. 10. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari»ning vazifalari:

- kichik yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishga har tomonlama yondashuvni ta'minlash;
- maktabgacha ta'lim metodikasini yaxshilash;
- kichik yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish o'quv dasturlarini yaratish;
- maktabgacha ta'lim muassasalari pedagoglari malakasini oshirish (pedagog kadrlarni o'qitish o'quv rejaları);
- maktabgacha ta'lim monitoringi va tahlilini olib borish;
- turli ko'rinishdagi talablar (dasturlar uchun talablar, maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog xodimlarni sertifikatlashga oid standartlar, ota-onalar uchun standartlar)ning yaratilishiga zamin yaratish;
- ota-onalarga bolalarning talab darajasiga erishishlarida yordam ko'rsatishga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- jamiyatda bolalar rivojlanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni boyitish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablarida maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari yosh guruhlar bo'yicha ko'rsatkichlar asosida berilgan: tafakkur, nutq, ixtiyoriy bilish jarayoni, jismoniy his etish, bilish obykti, bilish usuli, muvaffaqiyatli o'zlashtirish shartlari, muloqot shakllari, ko'rsatkichlari orqali berilgan./

0. **✓** Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablari quyidagi atamalar asosida berilgan: talab, indikator, ta'limga yondashuv va hayot xavfsizligi bo'limlaridan iborat. Bular:

*Talab* — aniq yosh davrida bolalar bilishi va bajara olishi shart bo'lgan talablar majmuyi.

*Indikator* — bolaning ko'z bilan ko'rsa va o'Ichansa bo'ladigan ko'nikma va malakalari ko'rsatkichi. Har bir talab tarkibiga kiruvchi bu komponent, mazkur talabni egallashi uchun bola nimalar qilishni bilishi kerakligini ko'rsatadi. Har bir talab bir nechta ko'rsatkichni o'z ichiga olishi mumkin.

*Ta'limga yondashuv* — kattalarning bolalar bilan ta'lim jarayonini tezlashtirish va talabni egallashga yo'naltirish maqsadida,



uy yoki maktabgacha ta'lim muassasasida amalga oshiradigan faoliyat turlari. Ushbu chora-tadbirlar mazkur talabni o'zlashtirish va bajarishga yo'naltirib, aksariyat hollarda ta'lim olish jarayoniga qiziqtirish uchun kattalar hamda bolalarning birgalikdagi harakatlari bo'lishi lozim.

*Hayot xavfsizligi* — berilgan talablar doirasida turli ko'rinishdagi rivojlantiruvchi faoliyatlar uchun xavfsiz muhitni tashkil etishga oid tavsiyalar. ✓

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablarida 2,5 oylikdan — 3 oylik bolaning, 3 oylikdan — 6 oylik bolaning, 6 oylikdan — 12 oylikkacha bolaning, 12 oylikdan — 24 oylikkacha bolaning, 24 oylikdan — 36 oylikkacha, 3 yoshdan — 5 yoshgacha bo'lgan bolaning, 5 yoshdan — 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning rivojlanish ko'rsatkichlari to'rt yo'nalish bo'yicha: jismoniy rivojlanish, o'z-o'ziga xizmat va gigiyena; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik; bilish jarayoni, atrof-olam to'g'risidagi bilimga ega bo'lish va uni anglash bo'yicha pedagogik vazifalalar asosida rivojlanish ko'rsatkichlari berilgan. Masalan, 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolaning rivojlanish ko'rsatkichlari:

*1-yo'nalish.* Jismoniy rivojlanish, salomatlik, madaniy-gigiyenik ko'nikmalar.

*Bo'lim.* Yirik motorikaning rivojlanishi.

*2-yo'nalish.* Ijtimoiy-hissiy rivojlanish.

*Bo'lim.* Hissiy rivojlanish.

*3-bo'lim.* Hissiy rivojlanish.

*4-yo'nalish.* Nutq, o'qish va savodga o'rgatish.

*5-bo'lim.* O'qish va savodga tayyorlash.

*Yo'nalish.* Bilish jarayoni.

*6-bo'lim.* Elementar matematik bilim va ko'nikmalar.

*7-bo'lim.* Atrof-olamni bilish va anglash.

### **5.3. «Bolajon» tayanch dasturining mazmuni va tamoyillari**

«Bolajon» tayanch dasturi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan 2010-yilda tasdiqlangan. Ushbu dastur «Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari» asosida ishlab chiqilgan.

Dasturda ilk yoshdan 6—7 yoshgacha bo'lgan bolalarni jismoniy, ijtimoiy-hissiy, nutq, o'qish va savodga tayyorlash, aqliy

rivojlantirish bo'yicha pedagogik vazifalar asosida har bir yosh guruh bolalari o'quv yili oxiriga kelib egallashlari lozim bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmi berilgan.

*Tayanch/dasturning maqsadi* «Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari»ning bajarilishiga erishishdan, ya'ni, maktabga jismonan sog'lom, aqlan va ma'nan yetuk, jamiyatning turli a'zolari bilan muloqotda bo'la oladigan, borliqni aniq idrok etadigan, mustaqil va ongli yashaydigan bolani tayyorlashdan iborat.

*Dasturning vazifasi* bolalarni jismoniy, aqliy hamda ijtimoiy-hissiy jihatdan kamol toptirish va ularning sog'lig'ini muhofaza qilish; bolalarning erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, axloqiy va ma'naviy jihatdan barkamol, shuningdek, kelajakda mustaqil va ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

*Dasturning mazmuni quyidagi tamoyillarga tayanadi:*

- maktabgacha ta'limning davlat va jamiyat talablariga mosligi;
- bola shaxsiga yo'naltirilganligi;
- bolalarni sog'lomlashtirishga qaratilganligi;
- bolalarning qobiliyati, ehtiyoji, imkoniyatiga mosligi;
- maktabgacha ta'limda o'yin faoliyatining yetakchiligi;
- maktabgacha ta'limning insonparvarligi;
- maktabgacha ta'limning ijtimoiy turmush bilan mosligi;
- maktabgacha ta'limning oila va boshlang'ich ta'lim bilan uzviyligi.

Muassasa dasturni amalga oshirishda har bir bolaga quyidagi sifatlarni rivojlantirishni maqsad qilib qo'yishi lozim:

- ijodkorlik, tasavvur, zukkolik;
- mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo'lish;
- muammolarni aniqlash va ularni hal etish yo'llarini topish;
- jamiyat, mamlakatlar, atrof-muhit muammolariga befarq qaramaslik.

«Bolajon» tayanch dasturida bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash quyidagi omillarga asoslanadi:

- davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish va uning barkamol shaxsga bo'lgan munosabatining kuchayganligi;
- erkin fuqaro ma'naviyatining shakllanishi;
- milliy urf-odatlar va tarixiy xotira, o'zlikni anglash tuyg'usi rivojlanayotganligi;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usining shakllanayotganligi.

Aynan shu omillar bola shaxsining jismoniy rivojlanish, o'z-o'ziga xizmat va gigiyena, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik, bilish jarayoni, atrof-olam to'g'risidagi bilimga ega bo'lish va uni anglash yo'nalishlariga mos tarzda umumiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Ushbu dasturda bolalarni rivojlantirish davri shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- go'daklik (1 yoshgacha);
- ilk yosh (1—3 yosh);
- kichik yosh (3—4 yosh);
- o'rta yosh (4—5 yosh);
- katta yosh (5—6 yosh);
- maktabga tayyorlov davri (6—7 yosh).

Mazmun jihatidan dastur tarkibiga:

- bolalarni jismoniy rivojlantirish, o'z-o'ziga xizmat va gigiyena;
- bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish;
- bolalarni nutq, o'qish va savodga tayyorlash;
- bolalarni bilish jarayoni, atrof-olam to'g'risidagi bilimga ega bo'lishi va uni anglashi;
- bolalarda tasviriy faoliyatni rivojlantirish;
- bolalarda musiqiy faoliyatni rivojlantirish;
- bolalarda o'yin faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlarida ta'lim-tarbiya vazifalari keltirilgan.

Ushbu dastur bolani shaxs sifatida shakllantirishda maktabgacha ta'lim tizimi muassasa va mutaxassislari hamda oilalar, maktabgacha yoshdagi bolalar ota-onalari uchun mo'ljallangan.



### *Nazorat savollari*

---

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish Davlat talablarining mazmuni.
2. Maktabgacha ta'lim dasturining yaratilish tarixi.
3. «Bolajon» dasturi mazmunini so'zlab bering.
4. Maktabgacha ta'lim tayanch dasturi asosiy bo'limlarining mohiyati.
5. Dasturni takomillashtirishga sizning fikringiz.



## 6-bob. JISMONIY TARBIYA

### 6.1. Jismoniy tarbiyaning mazmuni

**Asosiy tushunchalar.** O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama jismoniy tarbiyalash ta'lim-tarbiya muassasalari, oila, jamoat tashkilotlarining birgalikdagi kuch-g'ayratlari bilan amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya sog'liqni yaxshilashga, jismoniy sifatlarni rivojlantirishga, yoshlarni mehnatga va Vatanni himoya qilishga tayyorlashga qaratilganidir.

Jismoniy tarbiya to'g'risidagi ta'limot pedagogikaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Pedagogika fanining mazkur sohasiga qarashli turli hodisalarga ta'rif berilganda, «badantarbiya», «jismoniy barkamollik», «jismoniy tarbiya», «jismoniy rivojlanish» degan asosiy tushunchalar qo'llaniladi.

«*Badantarbiya*» tushunchasi eng umumiy hisoblanadi. U xalq madaniyatining bir qismi sifatida qaraladi. Badantarbiya jamiyat odamlarini jismoniy jihatdan mukammallashtirish uchun to'plangan, vujudga keltirilgan va foydalaniladigan moddiy hamda madaniy qadriyatlar yig'indisidir.

Badantarbiyaning mazmuni quyidagilardan iborat:

- 1) mehnat va turmushdagi ko'nikmalarni (tartiblilik, kiyimlarning ozodaligi, xonalarning tozaligi) va gigiyenik rejimga doir odatlar (faoliyat va dam olishning oqilona tartibi, uyqu, ovqatlanish gigiyenasi va h.k.);
- 2) tabiatning tabiiy sharoitlarida (havo, quyosh va suv) organizmni chiniqtirish;
- 3) jismoniy mashqlarni o'z ichiga oladi.

*Jismoniy barkamollik* odamning tarixan shart qilib olingan uyg'un jismoniy rivojlanishi, salomatligi, jismoniy tayyorgarligi darajasi bo'lib, u jamiyat talablariga eng maqbul tarzda mos kelishi kerak.

*Jismoniy rivojlanish* — odam organizmining tarkib topishi, uning shakllari va vazifalarining o'zgarishini ifodalaydigan biologik jarayon. Tor ma'noda bu antropometrik va biometrik ko'r-

satkichlar: bo'y, tana og'irligi, ko'krak qafasi aylanasi, o'pka sig'imi, qaddi-qomat va boshqalardir. Jismoniy rivojlanish biologik hayot qonunlari — muhit va organizmning birligi, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga muntazam ravishda o'tishiga muvofiq tarzda amalga oshadi. Zotan, turmush sharoitini, jumladan jismoniy tarbiya metodlarini o'zgartirib, organizmning funksional imkoniyatlari darajasini ancha oshirish, jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini o'zgartirish mumkin.

Jismoniy tarbiya bilan tarbiya boshqa jihatlarining o'zaro aloqasi, bir tomondan, tarbiya maqsadi va vazifalari birligi bilan, boshqa tomondan, shaxs tuzilishi va uning rivojlanishida biologik va ijtimoiy hodisalarning birligi bilan belgilanadi. Jismoniy tarbiya jarayonida ongni rivojlantirishga, axloqqa muvofiq odamlar xulq-atvoriga faol ta'sir etish mumkin.

Mustahkam salomatlik va to'laqonli jismoniy rivojlanish ishchanlikni, turli xildagi vazifalarni bajarishga tezda moslashishni belgilaydi. Jismoniy mashqlar organizmning o'sishi va rivojlanishiga, uning funksional imkoniyatlari kengayishiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Harakat faoliyati miya peshona qismidagi bo'limlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, u aqliy faoliyatni amalga oshirishda yetakchi o'rin tutadi. Qo'llar va barmoqlarning harakati nutq harakati markazi rivojlanishini rag'batlantiradi. Shu munosabat bilan bolaning nutqi, shu bilan birga fikrlashi ertaroq va to'laqonliroq rivojlanadi. Harakat barcha analizator sistemalarning ishini faollashtiradi. Shu tariqa hissiy organlar tezroq va muvaffaqiyatliroq rivojlanadi. Jismoniy va aqliy tarbiyaning mustahkam aloqasi fazodagi mo'ljal olishlarini rivojlantirishda ham namoyon bo'ladi. Ular aqliy faoliyat xilma-xil turlarining zarur jihati bo'lib, faqat ko'rish organi orqaligina emas, shu bilan birga harakat organlari va boshqa analizatorlar ishtirokidagi jismoniy mashqlar yordamida, ayniqsa, faol o'zlashtiriladi.

Rejim jarayonlarini, jismoniy mashqlarni o'tkazish, chiniqish paytida bolalarning dunyoqarashi o'zgaradi, ular ayrim eng oddiy bilimlarni egallaydilar. Mustahkam sog'lik faol aqliy faoliyatning asosi hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya axloqiy tarbiya bilan bog'liqdir. Bolalar giyiyena, chiniqtirish tadbirlarini, harakatli o'yinlarni bajarish chog'ida faqat axloqiy xulq-atvor (mardlik, halollik, tartiblilik va h.k.) to'g'risidagina tasavvurlarga ega bo'lib qolmay, shu bilan birga ana shu xulq-atvor xususida mashq qiladilar, ularda irodaviy sifatlar

(qat'iyat, mustaqillik va h.k.) rivojlanadi. Aksariyat jismoniy mashqlarning his-tuyg'uga boyligi ularning bola shaxsini shakllantirishga ta'sirini kuchaytiradi.

Jismoniy tarbiya asosan ishning jamoa shakllarida amalga oshiriladi. Jismoniy mashg'ulotlarda, harakatli o'yinlarda bolalarda jamoatchilik tuyg'usi shakllanadi, uyushqoqlik, intizom tarbiyalanadi.

Jismoniy tarbiya bilan estetik tarbiyaning aloqasi dastavval shunda o'z ifodasini topadiki, to'laqonli jismoniy rivojlanish — bola estetik tashqi ko'rinishining garovidir. Bolalarda chiroyli qaddiqomat, umumiy estetik qiyofa (chiroyli kiyinish, tartibli va h.k.) to'g'risida tasavvurlar shakllanadi. Bolalar mashqlarni bajarar ekanlar, erkin, chiroyli, ifodali harakat qilishga o'rganadilar, bu esa estetik tuyg'ularni tarbiyalashga ko'maklashadi.

Jismoniy tarbiya mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Umumiy chidamlilikni rivojlantirish — ishchanlikni tarbiyalash asosidir. Jismoniy mashqlar jarayonida harakat tajribasini to'plash, harakatlar uyg'unligini, kuchni chamalashni va boshqa qobiliyatlarni rivojlantirish mehnat harakatlarini egallashda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Irodaviy kuch-g'ayrat sarflash odatini tarbiyalash ham muhimdir. Sog'lom, chaqqon bola mehnat topshiriqlarini oson bajaradi.

**Jismoniy tarbiyaning tabiiy-ilmiy asoslari.** Bolaning biologik rivojlanishi jarayonini tabiiy fanlar majmuyi o'rganadi. Ularning asosini I.M. Sechenov, I.P. Pavlov va ular izdoshlarining organizm va muhit birligi, organizmning yaxlitligi va uning hayotiy faoliyatida markaziy asab sistemasining tartibga soluvchilik roli haqidagi ta'limoti tashkil etadi.

Oliy asab faoliyati, shartli reflektor, organizmning muhit bilan o'zaro aloqasini va unga eng ko'p darajada moslashuvini ta'minlovchi asosiy qonunlarning kashf etilishi bolani to'laqonli jismoniy va ijtimoiy rivojlantirishda tarbiyaning rolini to'g'ri tushunishga, bolalar organizmining funksional imkoniyatlarini kengaytirishga yordam berdi.

Organizmdagi barcha jarayonlarning birligi to'g'risidagi qoida ko'p qirrali masala sifatida ko'rib chiqiladi.

*Birinchi*dan, organizm yagona bir butunlikdan iborat bo'lib, unda alohida organlar va sistemalar ishi o'zaro bog'liq holdadir. Bu qoida jismoniy tarbiya, bolaga alohida yondashish vazifalarini hal etishning asosini tashkil etadi: jumladan chiniqtirish faqat shamollash kasalliklarining oldini olish uchun emas, shu bilan

birga organizmning atrof-muhitning turli noqulay ta'sirlariga chidamliligini oshirish uchun o'tkaziladi; har tomonlama jismoniy rivojlanish shuning uchun kerakki, organlar va sistemalar rivojlanishidagi nomutanosibliklar ulardan har birining ishlashiga o'z ta'sirini o'tkazadi, bu esa salomatlikda ham, harakat sifatlarida ham namoyon bo'ladi.

*Ikkinchidan*, organizm yagona bir butun bo'lib, unda jismoniy va ruhiy jarayonlar bir-birini shart qilib qo'yadi. Bu qoida maktabgacha tarbiya muassasasida ishni tashkil etish uchun muhimdir. Jismoniy tarbiya vositalari normal jismoniy rivojlanishni, yaxshi kayfiyatni, bolalarning bosiq va ayni paytda shodon holatini, ularning ishchanligini ta'minlashga qaratilgandir. Busiz bolada ruhiy jarayonlarning to'laqonli kechishi, uning har tomonlama rivojlanishi mumkin emas.

*Uchinchidan*, organizm yaxlit bir narsa sifatida atrofdagi muhit bilan o'zaro aloqada bo'ladi. O'zgarib borayotgan muhit sharoitlariga yuksak darajada moslashish murakkab dinamik andozalarni va shartli reflektorli aloqalarni vujudga keltirish bilan ta'minlanadi. I.P. Pavlovning beixtiyor harakatlarning shartli reflektor tabiatiga bog'liqligi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o'zaro aloqasi haqidagi ta'limoti negizida jismoniy mashqlar didaktikasi ishlab chiqiladi, bolalarning madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni va odatlarni o'zlashtirishi ro'y beradi.

Oliy asab faoliyati tiplari to'g'risidagi ta'limot katta ahamiyatga ega, chunki bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, alohida ish olib borish metodikasi shunga asoslangandir.

**Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari** jamiyatning ehtiyojlari bilan belgilanadi. Bu ehtiyoj tarbiyaning umumiy maqsadidan kelib chiqadi, bu maqsad o'zida ma'naviy boylikni, axloqiy poklikni va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasi vazifalarini hal etishda ularning yosh xususiyatlari hisobga olinadi. Jadal o'sish va rivojlanish maktabgacha yoshdagi bola organizmining o'ziga xos xususiyatidir.

Lekin sistemalar va ular vazifalarining shakllanishi hali tugallanmagan bo'ladi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bola juda nozik bo'ladi. Shu munosabat bilan quyidagi sog'lomlashtirish vazifalari birinchi o'ringa qo'yiladi:

- 1) hayotni muhofaza qilish, kasallikka qarshi kurash olib borish, organizmning tashqi muhit ta'siriga qarshiligini oshirish;

- 2) organizmning barcha sistemalarini to'g'ri va o'z vaqtida rivojlantirish, ularning funksional imkoniyatlarini kengaytirish;
- 3) to'g'ri qaddi-qomat va tovonna shakllantirish, uyg'un jismoniy rivojlantirish.

Bolalar organizmi nomukammal, nozik bo'lsa-da, barcha to'qimalarning juda egiluvchanligi, tezkorligi, modda almashinuvi jarayonlarining jadalligi qudratli rivojlanishni ta'minlaydi. Bola sharoitlarning o'zgarishiga, jismoniy zo'riqishga kattalarga nisbatan ancha tezroq va yaxshiroq moslashadi. U o'ziga tushunarli bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga idroki baland bo'ladi, bu esa bir qancha ta'limiy vazifalarni hal etish imkonini beradi:

- 1) jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish va madaniy- gigiyenik ko'nikmalarni o'zlashtirish bilan bog'liq dastlabki bilimlarni shakllantirish;
- 2) shaxsiy va ijtimoiy gigiyena ko'nikmalarini singdirish;
- 3) kelgusida sport bilan shug'ullanish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan hayotiy zarur harakatlar, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish.

Jismoniy mashqlar bolalarning to'laqonli aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasiga yordam berib, ularning ma'naviy-irodaviy sifatlarini (jasurlik, halollik, qat'iyat va boshq.) rivojlantiradi.

Jismoniy tarbiya maqsadlari va vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bizning mamlakatimizda yagona davlat sistemasi barpo etilgan.

O'zbekistonda jismoniy tarbiya tizimi mafkuraviy, ilmiy-metodik, dasturiy-me'yoriy asoslar birligidan iborat. O'zbekistondagi jismoniy tarbiya tizimi o'zining g'oyaviyligi, xalqchilligi va ilmiyligi bilan ajralib turadi. U barkamol avlodni tarbiyalash, rivojlantirish, sog'lomlashtirish bilan bog'liqdir.

Maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshidagi bolalar bilan ish olib borishda bu qoidalar quyidagilarda o'z ifodasini topadi. Shaxsni har tomonlama rivojlantirish qoidasi harakat madaniyati asoslarini shakllantirishni va ayni vaqtda aqliy qobiliyatlarni (topqirlik, kuzatuvchanlik, qiziqish va boshq.), axloqiy fazilatlarini (intizomlilik, jamoatchilik va boshq.), estetik didni rivojlantirishni ta'minlaydi. U yoki bu alohida jismoniy mashq turlariga erta ixtisoslashuvga yo'l qo'yib bo'lmaydi. U bola salomatligiga va uning uyg'un jismoniy rivojlanishiga zarar yetkazishi, yangi ko'nikmalar, keyinchalik sport mahorati tarkib topishida, shakllanishida qiyinchilik tug'dirishi mumkin.



Sog'lomlashtirish yo'nalishi qoidasi materiallar va vositalar mazmunini, hajmini tanlashni ko'zda tutadi, u salomatlikni mustahkamlashni, shifokor-pedagog nazoratini amalga oshirishni ta'minlaydi.

Jismoniy tarbiyaning mehnat tajribasi bilan aloqasi bolalarni ijtimoiy asoslangan har xil harakatlar tajribasi bilan boyitishda namoyon bo'ladi. Turli vositalardan foydalanib, bolalarda aniqlik, harakatlar tezligi, sharoitga bog'liq tarzda o'zini moslashtirish, o'quv, mehnat, maishiy kabi har qanday yangi faoliyatda tezda o'z o'rnini topish tarbiyalanadi.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida jismoniy tarbiya sistemasi jismoniy tarbiya vazifalari ro'yobga chiqariladigan ilmiy asoslangan mazmun, vositalar, metodlar va shartlarning kompleks mazmunidan iboratdir.

**Jismoniy tarbiya shartlari.** Asab sistemasini muhofaza qilish bolani to'laqonli jismoniy va ruhiy rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir. Dastavval u faoliyatning turli xillarini almashtirishni belgilab beruvchi oqilona rejimni tashkil etish orqali ta'minlanadi, bunda turli shakllardagi harakatlarga katta o'rin beriladi. Bolaning kunduzgi va tungi to'laqonli uyqusini ta'minlash ham juda muhim ahamiyatga egadir, bu yakka tartibdagi ehtiyojlar va oliy asab faoliyatining ishi xususiyatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bolalarda asab bosiqligi uchun qulay ruhiy iqlim yaratish katta ahamiyatga egadir. Ijobiy his-tuyg'ular bosh miya qobig'i ishini yaxshilaydi, undagi biotoklarning bir me'yorda bo'lishiga ta'sir etadi. Bu barcha analizator sistemalarini rivojlantirishga, turli-tuman ruhiy jarayonlarning muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi.

Hissiy holatning o'zgarishi bilan barcha organlar faoliyati o'zgaradi. Ijobiy hissiyot fiziologiya sistemalari vazifalarini faollashtiradi, salbiylari charchatadi: yurak urishi tezligi kamayadi, tomir urishi susayadi, qonga kislorodning kelishi pasayadi.

Ijobiy his-tuyg'u holatidagi bola yaxshi ovqat yeydi, yaxshi uxlaydi, atrofdagi bolalarga va kattalarga hayrixohlik bilan munosabatda bo'ladi, kam kasal bo'ladi, to'laqonli rivojlanadi, unda ishonch, dilkashlik, nekbinlik shakllanadi.

Maktabgacha tarbiya muassasalaridagi jismoniy tarbiyaning navbatdagi shakli oddiy muhitni barpo etish zarurligidir, ya'ni xona va uchastkani oqilona, bolalarning yoshiga muvofiq tarzda mebel va fizkultura uskunalari bilan ta'minlashdir.

Zal va uchastka bolalarning harakatga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun eng ko'p darajada mos bo'lishi kerak. Buning uchun zalda kamida to'rt qator gimnastika devori, to'rtta skameyka, bordon to'shaklar, bir necha darvozachalar, taxtachalar, nishonlar va bolalarning soniga qarab kichik uskunalar bo'lishi kerak.

Uchastkada fizkultura anjomlari bo'lgan sport maydonchasi, sakrash chuqurchasi bo'lgan yugurish yo'lkasi, sportning tarkibiy qismi bo'lgan o'yinlar uchun turli moslamalar bo'lishi kerak.

Mavjud normativlarga muvofiq tarzda sanitariya-gigiyena vaziyatini barpo etish ham jismoniy tarbiyaning muhim shartidir. Bu shart xona va uchastkada ozodalik va tartibni saqlashni, xonada yorug'lik, havo va harorat rejimiga rioya etishni, shuningdek, bolalar va kattalar kiyimi gigiyenasini ko'zda tutadi.

## **6.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalashning mazmuni va vositalari**

Jismoniy tarbiya mazmuni ijtimoiy-tarixiy tajribaning shunday qismiki, u odam salomatligini saqlashni va mustahkamlashni, harakat madaniyatini ta'minlovchi bilimlar, malakalar, ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, sanitariya-gigiyena madaniyati va normalari, qoidalarini (tana, ovqat yeyish, turarjoy va h.k.) bilishni va ularni bajara olishni o'z ichiga oladi.

Harakat madaniyati turli harakatlarning ishlab chiqilgan normativlarini egallashni va shu asosda chaqqonlik, tezlik, chidamlilik kabi sifatlarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Maktabgacha tarbiya pedagogikasida bola egallashi lozim bo'lgan madaniy-gigiyenik ko'nikmalarning quyidagi guruhlari ajratiladi:

- a) ovqat yeyish ko'nikmalari (ovqatni tartib bilan olish, yaxshilab chaynash, qoshiqdan, sanchqidan, salfetskadan foydalanish va h.k.);
- b) o'z tanasini parvarish qilish ko'nikmalari (yuvinish, soch tarash va h.k.);
- d) xonada tartibga rioya etish, kiyimlardan foydalanish va unga qarash ko'nikmalari (tez kiyinish va yechinish, kiyimlarni tartibli, ozoda saqlash va h.k.).

Bolalar harakat ko'nikmalari va malakalarini egallaydigan jismoniy mashqlar ham belgilangan:

- a) asosiy harakatlar (yurish, yugurish, sakrash, tirmashib chiqish, uloqtirish, muvozanatni saqlash mashqlari);
- b) umumiy rivojlantiruvchi mashqlar, safga turish va qayta safga turish;
- d) sport mashqlari (suzish, chang'ida yurish, konki uchish va h.k.).

Harakatli o'yinlar (mazmunli, mazmunsiz, sportning tarkibiy qismlari bo'lgan o'yinlar va boshq.), yozgi va qishki davrda uchastkadan tashqariga qilinadigan uzoq sayrlar ko'zda tutilgan.

Jismoniy tarbiyaning mazmunini belgilab beruvchi asosiy hujjat «Uchinchi ming yillikning bolasi» tayanch dasturidir. U bolalarni izchil harakat malakalari va ko'nikmalariga o'rgatish imkonini beradi, harakatlarning muvofiqliligini rivojlantiradi, jismoniy sifatlar (chaqqonlik, tezlik, chidamlilik)ni tarbiyalaydi.

Jismoniy tarbiya tizimidagi ishlar xilma-xil yo'llar yordamida amalga oshiriladi, masalan, gigiyenik omillar (to'g'ri rejim, maqsadga muvofiq ovqatlanish, gigiyenik vaziyat, madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish, mustahkamlash uchun) jismoniy mashqlar shular jumlasidandir.

*Rejim (tartib).* Bolalar hayotining tartibi, bu — bedor yurish, uxlash, ovqatlanish, faoliyat xilma-xil turlarining har kuni muayyan izchilikda takrorlanib, oqilona almashinib turishidir. Tartib uchun qulay sharoit ta'minlash kerak, shuning uchun u bolaning yoshi, uning salomatligi, kattalar mehnatining xususiyatlari, bola tarbiyalanayotgan oila turmushi va muassasaga bog'liq tarzda o'zgaradi.

Muayyan vaqt ichida rejimning asosiy tarkibiy qismlari bir maromda va doimiy bo'lishi uning ajralmas xususiyatlaridir. Tartibning bir maromdaligi tabiat hodisalarining maromi, organizm faoliyatining maromiga asoslanadi. Bu bedor yurish va uxlashning, tana haroratining o'zgarishi, nafas olish, yurak urishining qisqarish maromida, ovqat hazm qilish traktining ish maromida namoyon bo'ladi va hokazo.

Oqilona tartib bedor yurish va uxlashning eng maqbul nisbati asosida quriladi, bu vaqtda bosh miya qobig'i uchastkalari o'rtasidagi vazifalar qayta taqsimlanadi, olingan axborot qayta ishlanadi, aqliy va jismoniy ishlarning nisbati, ovqat hazm qilish maromini hisobga olish asosida quriladi.

Tartibdan chetga chiqish darhol bolaning kayfiyatida, shu bilan birga uning xulq-atvorida namoyon bo'ladi. Tartibni tuzishda quyidagilarni hisobga olish zarur:

1. Oliy asab faoliyatining yosh xususiyatlarini.
2. Ovqat hazm qilish sistemasi ishidagi yosh xususiyatlarini.
3. Alohida xususiyatlar: asabiy bolalar va asab tizimi zaif bo'lgan bolalar ko'proq uxlashlari kerak.
4. Yil fasli, iqlim sharoitlarini bolalar uyqusini tashkil etishda hisobga olish lozim.

*Ovqatlanish.* To'g'ri tashkil etilgan ovqatlanish bolalarni to'la-qonli jismoniy tarbiyalashning muhim jihati hisoblanadi. Ovqatlanish o'sib borayotgan organizm uchun g'oyat muhimdir, chunki u barcha to'qimalarning normal o'sishi va rivojlanishini ta'minlaydi.

*Chiniqtirish* deganda organizmning atrof-muhitdagi turli tabiiy ta'sirlar (harorat, namlik, quyosh nuri darajasining o'zgarishi)ga eng ko'p chidamliligi, moslashishini tarbiyalash tushuniladi.

Bolada faqat harorat, iqlim o'zgarishlariga tez ta'sir bildirishgina tarkib topmasdan shu bilan birga gemoglobin miqdori oshadi, ularning immun tizimi yaxshilanadi. Bolalar turli kasalliklarga kamroq chalinadilar va ularning organizmlari kasalliklarni tezda yengadi.

Chiniqtirishni tashkil etishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1. Chiniqtirishni butun yil davomida mavsumiy holatlarni hisobga olib, muntazam o'tkazish kerak.
2. Ta'sir etuvchi vositalarning kuchini asta-sekin kuchaytirish zarur.
3. Bolaning salomatligini, yosh xususiyatini, hissiy holatini, uy va maktabgacha ta'lim muassasasining sharoitini hisobga olish zarur.

Kundalik hayotda chiniqtirish tadbirlarini jismoniy mashqlar, bolaning xilma-xil faoliyati bilan bog'liq holda olib borish chiniqtirish uchun ham, organizmni mustahkamlash uchun ham yaxshi natija beradi.

*Madaniy-gigiyenik ko'nikmalar va odatlarni tarbiyalash.* Madaniy-gigiyenik ko'nikmalarga tanani ozoda tutish, to'g'ri ovqatlanish, tartibga rioya qilish va bolalarning bir-birlari bilan, kattalar bilan, o'zaro madaniy munosabatlariga doir ko'nikmalar kiradi. Madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirishda quyidagi shartlarga e'tibor qaratish zarur:

1. Maktabgacha ta'lim muassasasi va oilada harakatlar hamda topshiriqlarni bajarish uchun qulay vaziyatni (qulay mebel, jihozlar) yaratish.
2. O'zlashtirilayotgan madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni qat'iy belgilangan tartibda bir vaqtda bajarishga o'rgatish.

3. Har bir bola bilan yakka tartibda ish olib borish.
4. Bolalarni madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini nazorat qilib borish.
5. Bolalarni kattalarning gigiyena va axloqqa oid barcha talablarini so'zsiz bajarishga o'rgatish.

*Jismoniy mashqlar va massajdan foydalanish.* Jismoniy mashqlar — jismoniy tarbiya vazifalarini hal etishga qaratilgan maxsus harakatlar, shuningdek, harakat faoliyatining murakkab turlaridir. Jismoniy mashqlar organizmga ko'p qirrali fiziologik ta'sir ko'rsatadi. U modda almashinuvini, qon aylanish jarayonlarini faollashtiradi, suyaklarning o'sishiga yordam beradi.

Kichik bolalarni tarbiyalashda passiv gimnastika turlaridan biri — massaj (uqalash) qo'llaniladi. Uqalash ta'sirida qon aylanishi, shuningdek, teri va muskullarning oziqlanishi yaxshilanadi, issiqlik chiqishi ko'payadi, muskullarning charchashi yo'qoladi.

### 6.3. Ilk yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash

#### **Bolalarni jismoniy tarbiyalashning yosh tavsifi va vazifalari.**

Ilk yoshdan bola organizmida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Skeletning tog'ay to'qimasida suyak to'qimasi paydo bo'la boshlaydi, muskul va paylar zaif bo'ladi, lekin ularning qisqarish xususiyatlari yaxshilanadi. Bolaning vazni ortib boradi, uning asab tizimi rivojlanadi, miyaning tez o'sishi va analizatorlarning rivojlanishi kuzatiladi.

*Kun tartibi.* Ilk yoshdagi tartib bolaning to'g'ri rivojlanishi va tarbiyalanishining asosidir. Ilk yoshdagi bolalar uchun uxlash va bedor yurish qonuniyatlariga bog'liq ravishda tabaqalashtirilgan tartiblar ishlab chiqilgan.

1. Ilk yoshdagi bolalarning birinchi guruhida uchta kichik yosh guruhi uchun tabaqalashtirilgan tartib tashkil etiladi: 2,5—3 oydan 5—6 oygacha; 5—6 oydan 9—10 oygacha; 9—10 oydan 1 yoshgacha.
2. 1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan bolalar guruhida 2 ta tartib mavjud. 1,5 yoshgacha bo'lgan bolalar 2 marta uxlaydilar 1,5 yoshdan keyin esa bolalar bir marta uxlashga o'tkaziladi.
3. 3 yoshga qadam qo'ygan bolalar 1 ta tartibga o'tadilar.

*Ovqatlantirish.* Ilk yoshdagi bolalar har 3—3,5 soatda gigiyenik sharoitda, belgilangan vaqtda ovqatlantiriladi. 2 yoshga qadam qo'ygan bolalarni ovqatlantirishda ular kichik guruhlariga bo'linadi. 3 yoshli bolalar esa ovqatlarni mustaqil va tartibli yeyishga o'rgatib boriladi.

*Madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni tarbiyalash.* Ilk yoshdagi bolalarda kiyinishga, yuvinishga, ovqatlanishga ijobiy munosabatlarni tarbiyalash o'ziga o'zi xizmat qilish ko'nikmalarini, mustaqil harakatlarni shakllantirishga tayyorgarlik bo'lib xizmat qiladi.

1,5—2 yoshli bola deyarli hamma kiyimlarini o'zi yecha oladi, taxlab qo'yadi va kiyimlarining ayrimlarini kiya oladi. Bu yoshdagi bolalar o'zlari yuvinadilar va artinadilar. 2—3 yoshli bolalar mustaqil ovqat yeyishga, kiyimlarini kiyib-yechishga o'rganadilar.

*Jismoniy mashqlar va uqalash.* Bola hayotining dastlabki yilida uqalash va gimnastika har kuni yakka tartibda o'tkaziladi.

2 yoshga qadam qo'ygan bolalar bilan mashg'ulotlar o'tkazayotganda yurish, sakrash, buyumni uloqtirish o'rgatiladi, muvozanatni rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi.

#### **6.4. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni jismoniy tarbiyalash metodikasi**

##### **Bolalarni jismoniy tarbiyalashning yosh tavsifi va vazifalari.**

Bu yosh davrida bola organizmida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. 7 yoshga borganda bolaning bo'yi o'rtacha 120 sm. gacha o'sadi. Organ va tizimlarda morfologik va funksional o'zgarishlar bo'ladi. Umurtqaning egiluvchanligi ortadi, muskullarning kuch darajasi kuchayadi, o'pkaning hajmi o'sadi. Nafas olish chuqurroq va uzoqroq bo'ladi. Ovqat hazm qilish apparati barqaror ishlaydi.

Bolalarning shu davrdagi jismoniy va ruhiy rivojlanishi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi o'ziga xos vazifalar o'rta qo'yiladi:

- 1) to'laqonli uyg'un jismoniy rivojlanishi, yurak qon-tomir va nafas olish tizimini mashq qildirish, qaddi-qomat va oyoqni shakllantirish;
- 2) organizimni chiniqtirish;
- 3) barcha asosiy harakatlarni, sport mashqlarini bajarish ko'nikmalarini tarbiyalash;
- 4) jismoniy qobiliyatlar, sifatlarni rivojlantirish;
- 5) ozodalik, tartibli odatlarini tarbiyalash.

Turli vositalardan kompleks foydalanganda bu vazifalarning barchasi muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

*Kun tartibi.* 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarning uyquasi 12—13 soat (shundan 1,5—2 soati kunduzgi), 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda 11—12 soat davom etadi.

O'yinlar uchun salkam 4 soat, harakat faoliyati uchun (turli shakllarda) qariyb 5 soat, kunduzgi uyquga 1 soat-u 5 minutgacha ajratish zarur.

Bolalarning aktiv faoliyati — o'yin, o'quv, mehnat va turmush faoliyati kun mobaynida bir necha bor o'zgaradi. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar 8 minutga yaqin aqliy faoliyat bilan faol shug'ullanishlari mumkin, katta maktabgacha yoshdagi bolalar esa ana shunday faoliyat bilan 12—14 minut shug'ullana oladilar. Shundan keyin ularning diqqati susayadi. Agar mashg'ulotlar orasida va mashg'ulotning o'zida harakatli mashqlar (jismoniy tarbiya daqiqalari, jismoniy tarbiya tanaffuslari)dan foydalanilsa, bolalarning imkoniyatlari birmuncha ko'payadi.

Bolalar bog'chasi kun tartibida xilma-xil o'yinlarga alohida o'rin beriladi. Vaqtdan to'laqonli foydalanish uchun tarbiyachi o'yinchoqlar va qo'llanmalarni oldindan tanlab qo'yishi, bolalarda bajarish ko'nikmalarini tarbiyalashi zarur.

Sayr qilish har tomonlama tarbiyaviy ishlar uchun keng imkoniyatlar beradi. Sayr chog'ida, tabiat va ijtimoiy hodisalar kuzatiladi, bolalarning mehnat va o'yin faoliyati, sport mashqlari uyushtiriladi.

*Ovqatlanish.* Maktabgacha ta'lim muassasalarida ovqatlanishni tashkil etish bolalarda taomni yeyishga ijobiy munosabatni yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak. Muayyan vaqtda, 3,5—4 soat oralig'ida bolalarga mazali tayyorlangan, chiroyli bezatilgan taomlar beriladi. Ovqatlanish uchun zarur bo'lgan hamma narsa oldindan tayyorlab qo'yiladi, chunki kutish ishtahani pasaytiradi, asab tizimini qo'zg'atadi. Stolni enaganing o'zi bezaydi, o'rta guruhdan boshlab esa bu ishda navbatchi bolalar faol ishtirok etadilar. Navbatchilikning tartibi va harakatlarning xususiyatlari tarbiyachi tomonidan puxta o'ylanadi va bolalarga aniq ketma-ketlikda tushuntiriladi. Normal ovqatlanish jarayoni uchun osoyishta vaziyat katta ahamiyatga ega.

*Madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni tarbiyalash.* Maktabgacha yosh davomida madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish yuzasidan katta ishlar olib boriladi. Harakatlar muvofiqligini rivojlantirishda, fikrlashda ro'y bergan katta siljishlar bolalarning o'ziga o'zi xizmat qilishi, navbatchilik, jamoadagi muloqot davrida zarur bo'lgan xilma-xil harakatlarni uddalashi uchun imkon beradi.

4 yoshga qadam qo'ygan bolalar qo'llarini to'g'ri yuvishni (qo'llarni bir-biriga ishqab sovun surtish, sovunni yuvib tashlash va har bir barmoqni artishni), tish yuvishni (dastlab oddiy ho'l cho'tka bilan, 4 yoshdan boshlab kukun bilan), ovqatdan keyin

og'izni chayqashni, dastro'molchadan foydalanishni, stol atrofida o'zini madaniy tutish qoidalariga rioya etishni (qoshiqdan, sanchqidan foydalanishni, ovqatni to'kmaslikni) bilishlari kerak. Bolalar o'yinchoqlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni, ozodalik va tartib saqlashni o'rganadilar.

5 yoshga qadam qo'ygan bolalar ancha mustaqil bo'lib qoladilar, ular endi sovun bilan yuzlarini, bo'yinlarini, quloqlarini yuva oladilar, ancha puxtalik bilan kiyina oladilar, har bir harakatni bajarish tartibini biladilar, bir-birlarining tashqi ko'rinishlaridagi yoki atrofdagi nuqsonlarni seza boshlaydilar.

6—7 yoshli bolalar o'ziga o'zi xizmat ko'rsatishga doir barcha harakatlarni ancha tezroq va aniqroq bajara oladilar. Ular tez, toza, kiyimlarini, polni ho'l qilmasdan yuvina olishlari, puxta va tez kiyina olishlari, o'z tashqi ko'rinishlarini kuzatib borishlari kerak. Ovqatlanish ko'nikmalariga katta talablar qo'yiladi: bolalar sanchqi, pichoqdan to'g'ri foydalanadilar, tartibli ovqat yeydilar. O'yin burchaklarini yig'ishtirish, navbatchilik turlari, majburiyatlari va ko'nikmalari doirasi kengayadi, navbatchilarning vazifalari murakkablashadi.

Madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni muntazam mustahkamlab borish kerak. Tarbiyaviy ishlar tizimining o'zgarishi, malakalarni shakllantirish va ulardan foydalanishga e'tiborning yo'qligi ularning tezda yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ish olib borishda jismoniy mashqlar katta o'rin tutadi. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrda bolalar tarbiyachi rahbarligida va mustaqil ravishda asosiy harakatlarni, sport mashqlarini egallagan, xilma-xil harakatli o'yinlarni o'ynashni o'rgangan bo'lishlari kerak. Bu keng dastur ishning xilma-xil vositalari va shakllaridan foydalangandagina bajarilishi mumkin.

Har kuni bolalar bir necha bor jismoniy mashqlarni bajaradilar: ertalab gimnastika shaklida, haftasiga ikki marta jismoniy tarbiya mashg'ulotlari tarzida bajaradilar, ularga turli xildagi saf tortishlar, umumiy rivojlantiruvchi mashqlar, asosiy harakatlar, harakatli o'yinlar kiradi. O'rta va katta yoshdagi bolalar bilan o'tirib bajariladigan mashqlarda jismoniy tarbiya daqiqalari, mashg'ulotlar orasida jismoniy tarbiya tanaffuslari o'tkaziladi. Sayr chog'ida sport mashqlari, harakatli o'yinlar uyushtiriladi, bolalarning kichik guruhlari bilan ish olib boriladi. Kunduzgi uyqudan keyin saf tortishlar, qayta saf tortishlar, raqs harakatlari, maroqli mashqlar



bajarilib, ular chiniqtirish tadbirlari bilan qo‘shib o‘tkaziladi. Sayr chog‘ida va xonada bolalarning turli qo‘llanmalar va motorli o‘yinchoqlar bilan mustaqil o‘yinlari uyushtiriladi.

Maktabgacha ta‘lim muassasalarida jismoniy tarbiyaning quyidagi o‘ziga xos vositalaridan foydalaniladi: 1) harakatli o‘yinlar o‘tkazilib, ularga eng ko‘p o‘rin beriladi; 2) asosiy gimnastika (asosiy harakatlar, umumrivojlantiruvchi va saf tortish mashqlari); 3) sport mashqlari (konki uchish, chang‘ida yurish, suzish, velosipedda uchish); 4) bolalar turizmi.

Ko‘rsatilgan vositalardan uyg‘un foydalanish bolalarning har tomonlama jismoniy rivojlanishini ta‘minlaydi.



### *Nazorat savollari*

---

1. Jismoniy tarbiyadagi asosiy tushunchalarning («jismoniy tarbiya», «jismoniy barkamollik», «badantarbiya», «jismoniy rivojlanish») mazmunini ochib bering.
2. Ilk yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash.
3. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni jismoniy tarbiyalash.
4. Turli yosh guruhlarida kun tartibini tashkil etish.
5. Turli yosh guruhlarida bolalarning ovqatlanishi qanday tashkil etiladi?
6. Ilk yoshdagi bolalarda, 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarda madaniy-gigiyenik ko‘nikmalarni tarbiyalash.
7. Chiniqtirishning mohiyati va uni o‘tkazish metodikasi.



## **7-bob. O'YIN – BOLALARNING YETAKCHI FAOLIYATI**

### **7.1. O'yin bola tarbiyasining muhim vositasi**

Jamiyatning ma'naviy takomili unda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining mazmuni, shakl va mohiyatiga bog'liqdir. Shu boisdan ham ta'limdagi yangilanishni, respublikamizda amalga oshirilayotgan bosqichma-bosqich ta'lim tizimini pedagogik talqin qilish, bu jarayonni samarali kechishini ta'minlash zaruriyati yuzaga keladi.

Ma'lumki, bolalarning asosiy vaqti o'yin bilan o'tadi. O'yin — maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy faoliyati bo'lib hisoblanadi. O'yin jarayonida bola shaxsi faoliyat subyekti sifatida shakllana boshlaydi. O'yin uzoq davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog-psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o'ziga qaratib kelgan.

O'rta Osiyo madaniyati tarixiga nazar solsak, oilada farzand tarbiyasiga juda katta e'tibor qaratilgan. Mashhur allomalardan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiylar o'z asarlarida xalqimizga xos bo'lgan farzand tarbiyasi ustida fikr yuritganlar. Xalq pedagogikasini o'rganish davomida olimlarning farzand ta'lim-tarbiyasi va odob-axloqqa oid asarlarida, bolalarni tarbiyalashda tarbiyaviy ishning eng ta'sirchan uslubi — o'yin shaklidan juda keng foydalanilganligini ko'ramiz.

O'tmish pedagog olimlaridan P.F. Lesgaft, K.D. Ushinskiy tomonidan o'yin nazariyasi ishlab chiqilgan. O'yinning mehnat jarayoni asosida paydo bo'lganligi va uning yosh avlodni mehnat faoliyatiga tayyorlashdagi roli, o'yin mazmunining bola shaxsini shakllantirishdagi ahamiyatini K.D. Ushinskiy asoslab berdi.

Rus olimlari san'atning kelib chiqishini tadqiq qilayotganlarida bolalar o'yinlariga e'tibor qiladilar. Ularning fikricha, kishilik tarixida o'yinlar san'at kabi, mehnat paydo bo'lgandan so'ng va uning asosida vujudga kelgan.

Jamiyat hayotida mehnat jarayonida bolalar kattalar mehnatiga taqlid qilish orqali o'ynaydilar, xuddi shu o'yin keyinchalik bolalarni mehnat faoliyatiga tayyorlashda muhim bosqich bo'lib hisoblanadi.

P.F. Lesgaft «Bola dastlabki o'yinida tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarga taqlid qiladi, o'yin ijtimoiy voqelikni aks ettiradi», deb izohlagan edi.

Buyuk psixolog D.V. Elkonin o'yinning kelib chiqishiga oid yangi g'oyani ilgari suradi. Jamiyatning dastlabki taraqqiyotidayoq bolalarning kattalar hayoti va mehnatida ishtirok etishlari, bolalarning mehnat qilishlari uchun qulay o'yinchoq — mehnat qurollari ishlab chiqilgan. O'yinchoq-qurollar paydo bo'lishi natijasida rolli o'yinlar paydo bo'ladi. D.V. Elkonin kattalar mehnatida ishtirok etish orqali bolada mehnat qilishga intilish hissini uyg'otish zarurligi g'oyasini ilgari surgan.

Maktabgacha pedagogikada o'yin nazariyasi ijtimoiy faoliyat hisoblanib, mehnatning tarixiy rivojlanish jarayonida paydo bo'ladi. O'yin doimo hayotni aks ettiradi. Shuning uchun uning mazmuni ijtimoiy voqelikda o'zgarib turadi. O'yin — maqsadga qaratilgan o'ylangan jarayondir. O'yin jarayoni asosida o'quv faoliyati rivojlanadi. Bola yoshligida qancha ko'p o'ynasa, bu maktabda yaxshi o'qishiga va keyinchalik mehnat faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## 7.2. O'yin nazariyasining asosiy masalalari

**O'yinning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.** O'yin — buyumli predmetli va ijtimoiy voqelikda harakat qilish va uni anglashga yo'naltirilgan jarayondir. U o'zining kelib chiqish, yo'nalish va mazmuniga ko'ra ijtimoiy voqelik hisoblanadi. O'yin, bu — bola faoliyatining yorqin turi. Unda maqsadning mavjudligi, sabablar, amalga oshirish vositalarining rejali harakatlari, natijaning mavjudligi uning o'ziga xosligidir. Xususiyatlarning orasida sabablarning o'ziga xosligi asosiy hisoblanadi. O'yin jarayonida bolaning psixik bilish jarayoni, irodasi, hissiyoti, ehtiyoji va qiziqishlari, ta'sirchanligi — uning butun shaxsiyati shakllanadi.

Bola o'yinda o'zining bevosita ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqadi. Bolalarning o'yinlari o'zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. O'yin o'z mazmuni va tashkil etilishi, bolalarga ta'sir ko'rsatish darajasi, buyumlarning turlari hamda kelib chiqishiga ko'ra ijodiy va qoidali o'yinlarga bo'linadi.

Ijodiy o‘yinlar — bolalarning mustaqil, ijodiy, o‘zlari o‘ylab chiqqan o‘yin majmuyi. Bunda bolalar o‘z taassurotlari, borliq hayotdagi tushunchalari va unga bo‘lgan o‘z munosabatlarini aks ettiradi. Ijodiy o‘yinlar quyidagi turkumlarga bo‘linadi:

- sujetli-rolli;
- dramalashtirilgan;
- qurilish;
- tabiat materiallari bilan o‘ynaladigan o‘yinlar.

**Ijodiy o‘yinlar va ularga rahbarlik.** Ijodiy o‘yinlar boshqa tur o‘yinlardan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. O‘yin mazmunining o‘ziga xosligi.
2. Rollarning mavjudligi.
3. Xayoliy vaziyatning mavjudligi.

O‘yin mazmunining o‘ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Pedagog va psixologlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, kattalarning ijtimoiy hayoti o‘zining rang-barang ko‘rinishlari bilan sujetli-rolli o‘yinlarning mazmuni bo‘lib xizmat qilar ekan. Ular bolalar kattalar ijtimoiy hayotining namunasini oladigan faoliyat turi o‘yin ekanligini asoslab berdilar.

Ijodiy o‘yinlar sujetlari va mazmunining rang-barangligi, ularni tavsiflash zaruratini keltirib chiqaradi. Sujet o‘yin faoliyati tizimida asosiy komponent sifatida o‘z ichiga personajni, hayotiy vaziyatni, harakat va personajlar munosabatini oladi. Ijodiy o‘yinlarda xayoliy vaziyatning mavjud bo‘lishi bolaning tafakkurini o‘stirib, sujet va rollar o‘yin mazmunini takomillashtiradi. Ijodiy sujetli-rolli o‘yinlarning o‘ziga xos sabablari mavjuddir. Buning eng asosiy sababi — bolalarning kattalar bilan birgalikda ijtimoiy hayot kechirishga intilishidir. Bu sabablar bolaning yoshiga qarab, o‘yin mazmuniga qarab o‘zgarib boradi. Kichik yoshdagi bolalarda asosiy sabab buyumlar bilan bajariladigan qiziqarli harakatlar bo‘lsa, bola katta bo‘lgan sari o‘yindagi kattalar harakatlarini va munosabatlarini qayta aks ettirish asosiy sabab bo‘lib xizmat qiladi. Shunga ko‘ra, o‘yinlarni sujeti, mazmuniga ko‘ra uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. Maishiy o‘yinlar (oila, bolalar bog‘chasi va boshqa voqelikni aks ettiradigan).
2. Mehnat mavzuyidagi o‘yinlar (oila va kattalar mehnatida ishtirok etish, o‘z-o‘ziga xizmat va boshq.).
3. Ijtimoiy mavzudagi o‘yinlar.

Bolalar rollarni tanlab o‘ynaydilar. Sujetli-rolli o‘yinlarda xatti-harakatlarni, qoidalarni egallash asosida, rolda mujassamlash-

tirilgan axloqiy qoidalar ham o'zlashtiriladi. O'yinda kishilar turmushiga, ishlariga, jamiyatdagi xulq-atvor me'yor va qoidalariga ijobiy munosabat shakllantiriladi. Xuddi shu jarayonda o'yin muomala madaniyatini shakllantirish vositasi sifatida ham yuzaga keladi. Aqliy tarbiyaning asosiy vositalaridan biri sujetli o'yin hisoblanib, unda bola atrof-muhitdagi voqea va hodisalarni aks ettirib, xayolan ularni qayta tiklaydi. O'yinning xayoliy vaziyati bolaning aqliy faoliyatining rivojlanishiga doimo ta'sir ko'rsatadi.

D.B. Elkonin sujetli-rolli o'yinni birgalikda o'ynaladigan o'yinda tasvirlanayotgan voqealarga, harakatlarga, buyumlarga nisbatan o'z nuqtayi nazarini boshqalar nuqtayi nazari bilan jamlash masalasi shakllanishi natijasida yalpi tafakkur bosqichiga o'tishga imkon beruvchi bilishga oid jarayon yuz berishini ta'kidlab o'tgan.

O'yinning san'atga yaqinligi sujetli-rolli o'yinlardan estetik tarbiyada foydalanish imkonini yaratadi. Bola o'yinidagi ijodkorlik bilan bog'liq bo'lgan tuyg'ular estetik tuyg'ularga yaqin turadi. O'yinda bolaning katta harakat tajribasi shakllanadi. Turli harakatlarni rivojlantirish va takomillashtirish uchun qulay sharoit yaratiladi, bola rolga kiradi, o'z roliga oid xatti-harakatlarni amalga oshirish uchun tasvirlayotgan rollarning o'ziga xos xususiyatlarini ongli ravishda ifodalaydi.

Ikki yoshdagi bolalar hayotida sujetli o'yinchoqlar bilan juda oddiy o'yinlar o'tkaziladi. Bolalar bu o'yinchoqlarni qo'lda ushlab yuradilar, siqib ko'radilar, yerga tashlab ko'radilar, o'yinchoqlarni g'ildiratadilar, o'yinchoqda nima tasvirlanganligiga e'tibor bermaydilar. Bu yoshda kundalik hayotda tevarak-atrofdagi katta kishilar va bolalar harakatini kuzatib borishni, bu harakatlarni o'z o'yinlarida aks ettirishni o'rgatish lozim (masalan, qo'g'irchoqni ovqatlantirish, uyquga yotqizish va boshq.).

Bu yoshda buyumli o'yin bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqichda bolalar o'yinchoqlar bilan kattalar harakatlariga taqlid qiladilar;

2-bosqichda o'zlashtirgan harakatlarni mustaqil bajara boshlaydilar, so'ngra bu harakatlarni boshqa buyumlarga ko'chiradilar;

3-bosqichda tasviriy o'yin vujudga keladi, uning mazmunini shartli qurollar bilan bajariladigan harakatlar tashkil qiladi.

Bola kundalik hayotda kuzatgan buyumlar bilan bajariladigan harakatlarga taqlid qiladi (gazeta o'qiydi, yer chopadi, kir yuvadi), bularning hammasi sujetli-rolli o'yin uchun sharoit yaratadi.

Uch yoshga qadam qo‘ygan bolalar bilan suhbatlar, kuzatishlar o‘tkazish, ularga hikoya va ertaklar o‘qib berish, maslahat berish orqali o‘yinlarga qiziqtirish kerak. O‘yinda bolalarni katta ish-harakatning faqat tashqi tomonigagina taqlid qildirmay, balki ularni odamlarning, mehnatga bo‘lgan munosabatlariga ham taqlid qildirish, bolalarda ahillik bilan o‘ynay olish, rollarni taqsimlay bilish, ko‘zlangan maqsadga erisha olish, ko‘nikmalarini tarbiyalash, tortinchoq va uyatchan bolalarga loyiq rollarni taklif qilib, ularning o‘yinga qo‘shilishiga yordam berish kerak. Bolalarda xayol tasavvurlarini o‘stirish ularda mustaqil biron yangi o‘yinni ijod etish, bu o‘yinga kerakli narsalarni tanlash, binolar qurish, ba‘zi o‘yinchoqlarni o‘z qo‘li bilan yasash, badiiy mashg‘ulotlarda orttirgan malakalarini o‘yinda qo‘llash, qo‘shiqlar aytish, she‘r o‘qish, chizgan rasmlaridan va yasagan narsalaridan foydalanish istagini uyg‘otadi.

Jamoa o‘yining paydo bo‘lishi uning mavzuyi va mazmunini ham, tuzilishini ham tez rivojlantirish va o‘zlashtirish imkonini yaratadi. Bolalar o‘yinlari mavzuyining o‘zgarishida maishiy o‘yinlardan mehnat, ishlab chiqarish sujetiga ega bo‘lgan o‘yinlarga, so‘ng turli ijtimoiy voqea va hodisalar aks ettiriladigan o‘yinlarga o‘tiladi. O‘yinning mazmuni ham rivojlanadi.

Katta yoshli bolalar hayotida harakatlar qatorida xilma-xil ijtimoiy munosabatlar, xatti-harakatlar ham aks eta boshlaydi. O‘yinlar mavzuyi doirasining kengayishi, ular mazmunining teranlashuvi, o‘yin shakli va tuzilishining o‘zgarishiga olib keladi.

### **7.3. O‘yinning mazmuni, mohiyati va unga rahbarlik**

Tayyorgarlik davri, o‘yinga kirishish, o‘yindagi harakatlarni muhokama qilish, asosiylarini belgilab olish jarayonlariga bo‘linadi. Bu jarayonlar o‘yin mazmunini to‘laroq ifoda eta olishga, o‘zaro iliq munosabatlarni o‘rnatishda kelishib olishga yordam beradi. O‘yinni rivojlantirish uchun o‘yinga qo‘yiladigan talablar mazmunini o‘zgartirish kerak. O‘yin vaziyatini tanlash o‘yinga rahbarlik qilayotgan pedagogning mahoratiga, qiziqishiga bog‘liq.

Sujetli-rolli o‘yinlar mazmunining o‘ziga xos tomonlarini mashhur pedagog va psixologlardan D.B.Elkonin, D.V. Mendjeritskiy, P.E.Samorukova va boshqalar o‘z kuzatuvlarida chuqur o‘rganganlar.

Sujet o‘yin faoliyatida asosiy komponent bo‘lib, u personajni, hayotiy vaziyatni, harakat va personajlar munosabatini o‘z ichiga

oladi. Suetli-rolli o'yinlar o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra jamoa o'yini bo'lib hisoblansa-da, yakka holda o'ynalmaydi degan fikrni keltirib chiqarmasligi kerak. Suetli-rolli o'yinlar bolaning aqliy, axloqiy, jismoniy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, bunda bola ehtiyoji va malakasi tarbiyalanib, shakllanib boradi.

Suetli-rolli o'yinlarga rahbarlik qilish quyidagi asosiy bosqichlarda amalga oshiriladi.

*1-bosqich.* Bolalarning qiziqishlarini, ulardagi suetli o'yinlar rivojlanishi darajasini o'rganishning asosiy vositasi quyidagilar:

- bolalar o'yinlarini kuzatish;
- o'yin rivojining asosiy yo'nalishlari, o'yin mavzusi, o'yin mazmuni, bola o'yin faoliyatining rivoji, o'yinda o'zaro munosabatlarning rivojlanishi bo'yicha tavsifnoma tuzish;
- o'yinga rahbarlik maqsadini aniqlash.

*2-bosqich.* Kattalarning o'yin mavzuyi va mazmuniga ta'sir etishi:

- o'yin mavzuyi bo'yicha sayohat va maqsadli sayrlar uyush-tirish;
- suhbatlar o'tkazish;
- badiiy asarlar va hikoyalar o'qib berish;
- illustrativ rasmlar ko'rsatish;
- mavzu bo'yicha turli mashg'ulotlar;
- tasviriy faoliyat mashg'ulotlari o'tkazish.

*3-bosqich.* O'yinga tayyorgarlik (o'yin o'ynash uchun maxsus joy, o'yinchoqlar va o'yin materiallari):

- tayyor o'yinchoqlarni tanlash;
- qo'lda yasalgan o'yinchoqlar. Bunda bolalarning mustaqil shug'ullanishlari uchun o'yin zonasini tashkil etish.

*4-bosqich.* Bolalarni o'ynashga o'rgatish (o'yin jarayoni va boshqa narsalarni o'yinda aks ettirish):

- o'yinchoq va uning o'rnini bosuvchi buyumlar ta'sirini o'r-ganish;
- o'yinda xayoliy tasavvurlarni aks ettirishga o'rgatish;
- o'yinda so'zlardan foydalanishga o'rgatish;
- o'yinda harakatlarni hisobga olish malakalarini shakllantirish;
- so'z va harakat;
- harakat va o'yin material (so'z, harakat va o'yin material o'yinning tili hisoblanadi).

*5-bosqich.* O'yinda axloqiy munosabatlarga ta'sir etish, bolalar jamoasi, xulq-atvor, madaniyat, o'yin faoliyatida o'yin mada-niyatini shakllantirish:

- ma'lum o'yin mavzuyiga nisbatan bolalarning his-tuyg'ularini uyg'otish;
- bolalarga o'yinni avvaldan rejalashtirish elementlarini o'rgatish;
- o'yinda rol va o'yinchoqlarni oqilona taqsimlashga o'rgatish;
- tengdoshlari bilan ahil o'ynay olish madaniyatini tarbiyalash;
- ahil jamoani shakllantirish: mustaqil o'ynash va o'yinni oxiriga yetkazish, o'yin jarayonidagi kelishmovchilik, bahslarni oqilona hal eta olish malakalarini tarbiyalash;
- kattalarning o'yinga ta'sir etishi — maslahat berishi, tushunchalarini to'ldirish, o'yinga to'laqonli yordam berish;
- bolalarning o'yin faoliyatlarini, axloqiy munosabatlarni baholash.

**Sahnalashtirish o'yinlarining o'ziga xos xususiyatlari.** Sahnalashtirish o'yinlari, bu bolalarning mustaqil ijodiy o'yin turi bo'lib, unda badiiy asar va hikoyalar bolalar tomonidan rollarga bo'lib ijro etiladi. Bu o'yinlar bolalarda iroda, intizom va o'z xatti-harakatlarini boshqara olish, boshqalarning harakatlari bilan hisoblashish kabi ijobiy ma'naviy xislatlarni shakllantiradi.

Sahnalashtirish o'yinlarida bolalar o'yin jarayoniga kirib boradilar, voqea va ertak qahramonlarining ichki hayotiga bevosita aloqador bo'lgan qahramonlik, jasurlik, mehribonlik, jonbozlik, jonkuyarlik kabi ijobiy fazilatlarini o'zlarida yaqqol namoyon qiladilar. Bu jarayonda bolalarning nutq faolligi, lug'at boyligi, dunyoqarashi kengayib boradi.

Sahnalashtirish uchun badiiy asar, ertaklar tanlash katta yoshdagilardan bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, istaklarini hisobga olishni talab etadi.

*Adabiy asarlarni tanlashda quyidagi talablar qo'yiladi:*

1. Mazmunining g'oyaviy-ma'naviy barkamolligi.
2. Badiiy jihatdan mazmundorligi.
3. Asardagi qatnashchi va rollarning soni (qancha ko'p bo'lsa, asar shuncha ahamiyatlidir).

4. Mazmuni yaxshi bo'lishi bilan birga, unda harakat turlarining ham ko'p bo'lishi.

5. Ifodali o'qishga mos bo'lishi.

6. Mazmuni qiziqarli, hayot bilan bog'langan bo'lmog'i.

Bolalar xalq ertaklarini sahnalashtirishni yaxshi ko'radilar. Masalan, «Sholg'om», «Zumrad va Qimmat», «Bo'g'irsoq» va bosh-



qalar. Bolalar boshqa xalq ertaklarini ham turli usullarda qo‘g‘irchoq, soya, stol teatri orqali sahnalashtirishga ehtiyoj sezadilar.

Badiiy asarni eslab qolishlari uchun uni qayta o‘qib berish, sahna ko‘rsatish, rasmlar namoyish etish, didaktik o‘yinlardan foydalaniladi.

Sahnalashtirish o‘yinlari qiziqarli o‘tishi va uzoq vaqt davom etishi uchun kerakli jihozlar tayyorlanishi va unga to‘g‘ri rahbarlik qilinishi kerak. Kattalar o‘yin rejessori rolini amalga oshira borib, bolalarning xatti-harakatlari, qobiliyatlari, intilishlarini hisobga olib boradilar. O‘yinda faol ishtirok etgan bolalarni alohida rag‘batlantirilib, kelgusida qaysi asarlarni sahnalashtirish kerakligini aniqlaydilar.

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini yanada takomillashtirishda qurilish materiallari bilan o‘ynaladigan o‘yinlarning roli kattadir. Pedagoglardan Z.V. Lishtvan, V.G. Nechayeva o‘z tadqiqotlarida qurish-yasash o‘yinlarining o‘ziga xos tomonlari va ahamiyatini yoritib berganlar.

Qurish-yasash o‘yinlari bolada buyum obrazini fazoviy ifodada tasvirlashni talab qiladi. O‘yin jarayonida biror-bir material yoki buyumning hajmi, katta-kichikligi, bir-biriga mosligi, fazoviy mo‘ljallay olish ko‘nikmasi shakllanadi, rivojlanadi. Qurish-yasash o‘yinlari bolalarda kuzatuvchanlikni shakllantiradi, buyumlarni fazoviy joylashtira olishga o‘rgatadi.

Bu o‘yinlarni o‘tkazish quyidagi bosqichlarda o‘tkaziladi:

*1-bosqich.* Bolalarning qurish-yasash qobiliyatlari ko‘nikma-malakalarini, qiziqishlari darajasini o‘rganish. Qurilish o‘yinlariga rahbarlik maqsadini aniqlash.

*2-bosqich.* Qurilish inshoot va binolariga sayohat, ekskursiya, maqsadli sayrlar tashkil etish. Turli suratlar, rasmlar, badiiy asarlar, suhbat orqali katta shahar va poytaxtdagi binolar, quruvchilar mehnati bilan yaqindan tanishtirish.

*3-bosqich.* 1. Bolalar o‘yinlari uchun sharoit yaratish. Qurilish materiallarini yetarli tarzda tayyorlash (guruh va yakka-yakka shug‘ullanishlari uchun).

2. Qurilish materiallari turli hajm va katta-kichiklikda bo‘lishi mumkin.

3. Guruhda va yer maydonchasida qurilish materiallari hamda ish qurollarining saqlanishi.

4. Qurilish materiallarining to‘g‘ri va qulay saqlanishi.

5. Qurilish burchagidagi o'yinchoqlar va materiallarning joylanishi.

6. Tashlandiq materiallardan qo'lbola o'yinchoqlarning mavjudligi.

7. O'lkamiz va uning poytaxti, turli transportlar aks ettirilgan albomlar.

8. Bino va inshootlarning qurilishini bolalar bilan kuzatish.

*4-bosqich.* Bolalarni qurish-yasashga o'rgatish va malakalarini shakllantirish. Bunda quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Kattalarning tushuntirib, ko'rsatib berishi.

2. Kattalarning biror-bir qurilishni qurib ko'rsatishi, har bir qismni tahlil qilib berishi.

3. Namuna sifatida tayyor qurilish inshootini ko'rsatish.

4. Qurilishning ayrim muhim qismlari va ularning xususiyatlari bilan tanishtirish.

5. Tugallanmagan qurilish obyektini davom ettirishga jalb etish.

6. Berilgan mavzu asosida binolarni mustaqil qurish-yasashlari.

7. Bolalarning ijodiy-ixtiyoriy qurish-yasashlari.

8. Tayyor qurilishni tahlil qilish.

*5-bosqich.* Bolalarning ijodiy qurilish o'yinlarini tashkil etish. O'yin jarayonida o'zaro munosabatlarda axloqiy sifatlarni, o'ynay olish madaniyatini shakllantirish, shuningdek, yoz oyida qum, suv, qish oyida esa qor bilan o'ynashga rahbarlik qilish.

**Qum bilan o'ynash.** Qum bolalarning o'ynashlari uchun eng qulay o'yin vositasi bo'lib hisoblanadi. Qum maxsus yashiklarda nam holatda saqlanadi. Qumni saqlashga gigiyenik talablar qo'yiladi: a) qum turli xil tosh, shishalardan tozalangan bo'lishi; b) qum faqat namroq holda saqlanishi; d) bolalarning salomatligiga xavf solmasligi kerak.

Kichik yoshdagi bolalarni qum bilan o'ynashlari uchun bayroqchalar, o'yinchoqlar tayyorlab qo'yilishi kerak.

**Suv bilan o'ynaladigan o'yinlar.** Bu o'yinlar bilan kichik yoshdan boshlab shug'ullanish mumkin. Suvda qo'g'irchoqni cho'miltirish, o'yinchoqlar bilan o'ynash, katta yoshdagi bolalar esa suvda cho'milishlari mumkin.

Qor bilan o'ynaladigan o'yinlar bolalarda quvnoq kayfiyatni uyg'otadi. Buning uchun yog'och belkurakcha, qorni tashish uchun quticha ortilgan chana bo'lishi shart. Kattalar yordamida qor uyumlaridan turli shakllar, qorbobo, qorqiz, hayvonlarning qiyofasini yasaydilar.

## 7.4. Didaktik o'yinlar

**Didaktik o'yinlar** ta'limiy o'yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o'yinlar sirasiga kiradi. Didaktik o'yinlarning muhim belgisi undagi qoidalarning mavjudligidir. O'yinda o'yin niyati, o'yin qoidalari, o'yin harakatlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. O'yin niyati o'yin harakatlarining tabiatini belgilaydi. O'yin qoidasi esa, o'yin harakatlarini, vazifasini hal etishga va o'yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O'yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o'yin mazmunini boyitadi.

Didaktik o'yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida didaktik o'yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o'yinlar mashg'ulot jarayonida va o'yindan tashqari vaqtlarda guruh yoki yakka-yakka o'tkaziladi. Bunda o'yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi. Didaktik o'yinlarda quyidagi qoidalarga amal qilinishi kerak:

1. Navbatma-navbat ta'sir etish.
2. So'ralganda javob berish.
3. O'rtoqlari fikrini eshita olish.
4. O'yin jarayonida boshqalarga xalaqit bermaslik.
5. O'yin qoidasini bajarish.
6. O'z xatosini tan olish.

Didaktik o'yinlarda bolalarning yosh, individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. O'yinda o'yin tempi va ritmi katta rol o'ynaydi, juda sekin va bir tekisdagi temp bolani ko'p kuttiradi, juda tez temp esa bolalarni hayajonga soladi, turli bahs-munozaralarga olib keladi. Kattalar tomonidan o'yin ishtirokchilarini to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlarning quyidagi turlari mavjud: a) buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan; b) stol-bosma; d) og'zaki so'z o'yinlari.

*Buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar* bolaning ilk yoshidan boshlab, to maktab yoshiga yetgunga qadar o'ynaladigan o'yin turi hisoblanadi. Bunda bolalarning tasavvurlari, diqqatlari o'yin asosini tashkil etadi. Ularda tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, ularning sifati, foydali tomonlari to'g'risida umumiy tushuncha

hosil bo'ladi. O'yinda o'ynaladigan har bir buyum yoki o'yinchoq o'zining tashqi ko'rinishiga ega bo'lishi, narsaning asosiy belgisini ajrata bilish imkonini berishi lozim. Bunday o'yinlar bolalarning narsalarning shakli, hajmi, belgisi, sifati haqidagi bilimlarini kengaytiradi.

*Stol-bosma o'yinlari* bolalarning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini aniqlash, bir tizimga solish, tafakkurini (tahlil qilish, sintez, umumlashtirish, tavsiflash) o'stirish imkonini beruvchi o'yin usulidir. Bu o'yin turiga a) lotto; b) juft rasmlar; d) domino; e) labirint kiradi.

*Og'zaki so'z o'yinlari* katta maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladi. Ular bolani eshita olish, zudlik bilan javob topa olish, o'z fikrlarini tez va aniq ifoda eta olishga o'rgatadi. Tadqiqotchilarning fikricha, bunday o'yinlar bolaning aqliy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'yin turlarida didaktik maqsad va o'yin materiallarining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

*Qoidali-harakatli o'yinlar* asosini bolaning jismoniy rivojlanishiga qaratilgan harakatlar tizimi egallaydi. Bunda asosan yurish, yugurish, sakrash, chirmashib chiqish, uloqtirish, emaklash kabi harakatlar o'yin mazmunini belgilaydi. Qoidali-harakatli o'yinlar kelib chiqishiga ko'ra: a) xalq milliy o'yinlari; b) mualliflik o'yin turlariga bo'linadi.

Har ikki o'yin turida ham asosiy mezon — o'yin qoidasi bo'lib hisoblanadi. Harakatli o'yinlar harakatlarning aniqligi, ifodaliligi, bolalarda tezkorlik, epcillik, qo'rqmaslik, mardlik kabi oliyjanob fazilatlarini tarbiyalab boradi. Ko'pchilik harakatli o'yinlar jamoa bo'lib o'ynashga mos, bu jamoada uyushgan holatda harakat qilish qobiliyatini shakllantiradi. Qoidali harakatli o'yinlarni o'tkazishda bolalarga rolni to'g'ri taqsimlash o'yin jarayonini kuzatib borish, unga rahbarlik qilish, o'z vaqtida yaxshi harakatlarni rag'batlantirish o'yin nufuzini oshiradi. O'yin jarayonida quvnoq kayfiyat, ijobiy his-tuyg'ular yuzaga keladi.

Kichik yoshdagi bolalar uchun o'yin sujeti ochiq xarakterga ega bo'ladi. Masalan, «To'pni quvla!», «To'pni ushlab ol!». Katta yoshdagi bolalar uchun o'yin maqsadi, qoidasi va o'yinni tashkil etish murakkablashadi. Qoidali-harakatli o'yinlar avval jismoniy tarbiya mashg'ulotida o'rganiladi. So'ngra boshqa jarayonlarda takroran o'ynatilishi lozim. «Bolajon» dasturiga turli yosh guruhlari bo'yicha o'tkaziladigan harakatli milliy o'yinlar turkumlari kiritilgan.

## 7.5. Milliy xalq o'yinlari

Milliy xalq o'yinlari ikki guruhga bo'linadi: 1. Milliy harakatli o'yinlar. 2. Milliy xalq o'yinlari.

Milliy harakatli o'yinlar sport turlari hamda xalqimiz qadriyatlari bilan aloqador bo'lib, ular asrlar davomida davrlarga mos ravishda rivojlanib, takomillashib, e'zozlanib kelingan. U bolalarning jismonan baquvvat, sog'lom, jasur, qat'iyatli, chaqqon, uddaburon bo'lib o'sishlarida muhim omil bo'lib hisoblanadi. Xalq milliy o'yinlarida millatning o'tmish tarixi, ma'naviy va madaniy rivojlanishining xarakter xususiyatlari, urf-odatlarini, an'analari jamlangandir.

Xalq milliy o'yinlari orqali bolalarni ma'naviy, aqliy, jismoniy, estetik jihatdan tarbiyalab borish jarayonida bolalarda o'z Vatanini sevish, uning boylklari qadriga yetish, buyuk ajdodlarimiz meroslarini hurmat qilish, milliy kuy va qo'shiqlardan zavqlanish tuyg'ulari, shuningdek, o'sib kelayotgan yosh avlodda chidamlilik, sabr-toqatlilik, tezkorlik, ildamlilik, botirlik kabi shaxsiy sifatlar shakllanib boradi.

Xalq milliy o'yinlarini maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

- xalq milliy o'yinlarining turlari va ularni tashkil etish yo'llari, usullari hamda uslublarini ishlab chiqish;
- milliy o'yinlarni tashkil etishda ma'naviy qadriyatlar va urf-odatlarimizni kundalik hayot jarayoniga singdirib borish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy istiqloq ruhida tarbiyalashda xalq milliy o'yinlaridan maqsadli foydalanish;
- xalq ertaklari, xalq og'zaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanish;
- bolalarning o'ynashlari uchun shart-sharoit (o'yin uchun jihozlar, atributlar) yaratish;
- maktabgacha ta'lim muassasalari, oila va mahallalar o'rtasida milliy o'yinlar bo'yicha ko'rik tanlovlari va musobaqalar o'tkazish.

Milliy harakatli o'yinlar bolalarning yosh xususiyatlariga, o'yindagi harakatlar rivojiga qarab takomillashib boradi.

*1—2 yoshli bolalar bilan o'ynaladigan o'yin turlari.* «Barmoqqa-barmoq», «G'oz-g'oz», «G'oz tursin», «Bo'p-bo'p», «Toy-toy», «Poyezd», «Achom-achom» o'yinlari go'dak endi bir-ikki qadam tashlashni o'rganayotgan vaqtda gavdasini to'g'ri tutishga yordam beradigan o'yinlar hisoblanadi.

3—4 yoshli bolalar bilan o'ynaladigan o'yin turlari: «Ot o'yin», «Kesak qo'ydi», «Ko'z boylagich», «Choriy chambar», «Avvalakam», «Tayoq irg'itish», «Quloq cho'zish», «Chitti gul», «Xolam mehmonga keldi», «Uchdi-uchdi».

4—5 yoshli bolalar bilan o'ynaladigan o'yin turlari: «Chir aylanma», «Chillak», «Tortishmashoq», «Lafta», «Dor o'yin», «Ko'pkari», «Berkinmashoq», «Jami», «Chertan devor gir-gir aylan».

Katta yoshdagi bolalar uchun o'yinlar: «Chavandozlar», «Doiraga tort», «Do'ppi yashirma», «Sapalak», «Besh tosh», «Oq terakmi ko'k terak». Bu o'yinlar orqali bolalarda chaqqonlik, o'z-o'zini boshqara olish va o'ziga ishonch tarbiyalanadi, qat'iyatlilik ko'nikmalari shakllanadi, fikrlashga o'rgatilib boriladi, topqirlik qobiliyatlari rivojlanadi, hozirjavob bo'lishga tayyorlanib boriladi.

Xalq harakatli o'yinlarini tashkil etish va bolalarga o'rgatishda quyidagi qoidalarga rioya qilish zarur:

1. Bolani ruhiy jihatdan o'yinga tayyorlash.
2. O'yin jarayonida bolalarning jismoniy tayyorgarligi va yosh xususiyatlariga e'tibor berish.
3. Har bir o'yinning pedagogik tomonlarini nazardan qochirmaslik.
4. O'yinlarni ijtimoiy-foydali mehnat bilan bog'lagan holda hayotga tatbiq etish.
5. O'yin davomida o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlash.
6. Jamoa bo'lib birgalikda harakat qilish, jamoa manfaatiga hurmat va e'tiborli bo'lish.

O'zbek xalqining ermak va ovutmashoq o'yinlari bilan, asosan, bolaning ilk yosh davridan boshlab shug'ullanib boriladi. Bu o'yinlar asosan kattalarning bevosita rahbarligida harakat va so'zlarning uyg'unlashuvi bilan o'ynatiladi. Masalan, «Barmoqlar», «Sichqon-sichqon» o'yinlari orqali bolalarda xushchaqchaqlik kayfiyatlari hosil qilinib tasavvurlari o'sib boradi. Xalqimizda «Bolaning ilonni changallaydigan davri» degan ibora bor. Bu hikmat bola hali qo'rqish hissini bilmaydigan davrida, ya'ni yaxshi-yomonni ajrata olmaydigan vaqtida qo'llaniladi. Xuddi shu davrda «Sichqon-sichqon» o'yini qo'l keladi.

Ilk yoshdagi bolalar dastro'moldan yasalgan «sichqon»ning harakatlanishidan qattiq zavqlanib, qiyqirib yayraydilar. «Sichqon»ni harakatlantiruvchi katta odam uning juda chaqqonligini namoyish etishi kerak. Bu ovutmashoq go'dakka sichqon shakli va uning juda yugurdakligi to'g'risida tasavvur hosil qilishga ko'mak-

lashadi. Ermak o‘yinlardan «Oymoma», «Bog‘ga kirsam maylimi», «Alla», «Aji-aji», «Boylandi», «Chapakka-xo-chapakka» orqali bolalarni muloqotga o‘rgatib boriladi. Bu jarayonda bolalarning eshitish, ko‘rish, sezish, his qila olish kabi sensor qobiliyatlari faollashadi. Bolalarning nutq faolligini o‘stirish maqsadida aytishma o‘yinlaridan keng foydalaniladi. Bunday o‘yinlarga «Boylandi», «Xolam keldi», «Mundi-mundi», «Bulbulim-bulbulim», «Ko‘z boylog‘ich», «Oq sholi, ko‘k sholi», «Ada hormang»lar kiradi. Yana, xalqimizda azal-azaldan o‘ynab kelinadigan so‘z o‘yinlaridan «Yarashtirgich»lar hali-hanuzgacha bolalar orasida «tinchlik — yarashuv» timsoli sifatida qo‘llaniladi. Bu o‘yinlar bolalar tilidan ana shunday jaranglaydi:

Karimga berdim toychoq,  
U olavermadi har choq.  
Toychog‘imni kim olsa,  
Men u bilan chin o‘rtoq.

Yalinchoq-yalinmachoq,  
Pista po‘choq.  
Qilichmi, to‘qmoq, qirq yilgacha o‘rtoq,  
To‘qmoq, to‘qson yilgacha o‘rtoq.

Bolalarning matematik tasavvurlarini o‘stirishga yordam beradigan o‘yin turiga «Sanamalar» kiradi. Bu o‘yin jarayonida bolalar she‘riy satrlar orqali son-sanoqdan topishmoq tarzida foydalanib qatnashadilar. Bunda bolalarning tasavvurlari, fikrlash doiralari kengayib, she‘riy ohangda to‘g‘ri javob qaytarishga o‘rgatilib boriladi. Asosan, bu o‘yinlar quyidagicha jaranglaydi:

Dadam-u oyim,  
Bor ikkita singlim.  
Bahodir, Dildor,  
Bog‘chaga ketar,  
Sanab ko‘r chaqqon,  
Bizlar nechta jon.

O‘zbek xalqi nihoyatda so‘zga chechan, topqir bo‘lib, o‘zining alyor-u qo‘shiqlariga boydur. Bu fikrimizning isboti sifatida xalq orasida mashhur bo‘lgan «Qiqillamalar»ni misol sifatida keltirish mumkin. Bu so‘z o‘yinlarida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar, kechinmalar she‘riy ohangda ijro etiladi. Masalan:

Shov-shov etadi ariq,  
Karim ekadi tariq.  
Yoki:  
Echki keladi ma'rab,  
O'z egasiga qarab.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'yinlarni ertalab va kechki soatlarda o'ynash mumkin.

## 7.6. Bola tarbiyasida o'yinchoqning ahamiyati

**O'yinchoq** — bola hayotining dastlabki davrlaridan boshlab ularga yo'ldosh quvonch manbai. O'yinchoq bolaning o'ynashi uchun mo'ljallangan va boshqa maqsadlarda foydalanilmaydigan buyum hisoblanadi. Unda buyumlarning tipik xususiyatlari umumiy tarzda aks etadi.

«Qisqacha aytganda, xonadondagi har bir narsa — daraxt va o'simliklar bo'ladimi, turli o'yinchoqlar uy hayvonlari bo'ladimi — bularning barchasi bolaning ko'ziga, go'yoki, olamning beqiyos mo'jizasi bo'lib ko'rinadi va shu tariqa u yorug' dunyoni o'zi uchun kashf qiladi», deb to'g'ri ta'kidlagan edi yurtboshimiz I.A. Karimov.

Xalq pedagogikasida o'yinchoqlarning butun bir tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bular bolaning sensor qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O'yinchoqlar bolalarning nutqiy faolligini uyg'otadi, lug'at boyligini oshiradi, ularda tahlil qilish, yaxlit holatga keltirish, umumlashtirish, taqqoslash, tavsiflash, diqqatni jamlash kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi. O'yinchoqlar bolalarda ma'naviy-axloqiy tuyg'ularni (mehribonlik, avaylash, e'tiborlilik) shakllantiradi, atrof-muhitga ijobiy munosabatni uyg'otadi. O'yinchoqlar tanlashda bolaning yosh va individual xususiyatlari, qiziqishlari, istaklari hisobga olinadi. Maqsadga qaratilgan bunday yondashuv o'yinchoq tanlashga bo'lgan talabni yanada oshiradi. Asosan, pedagogik, gigiyenik, badiiy talab orqali o'yinchoq tanlanadi.

*Pedagogik talablar.* O'yinchoq obrazi va mazmunining bola tarbiyasiga muvofiqligi jamiyatimiz g'oyasi nuqtayi nazariga mos kelishi, g'oyaviy jihatdan qimmatli bo'lishi pedagogik talabning muhim belgisi hisoblanadi. O'yinchoq bolada oliyjanob tuyg'ularni uyg'otishi, boshqa millat bolalari bilan do'stona munosabatlarni tarbiyalashi, voqelikka nisbatan oliyjanob tuyg'ular uyg'otishi,



ijobiy axloqiy tajriba to'plashga yordam berishi lozim. Bolaning faollikka bo'lgan intilishini qoniqtirishi va uni uyg'otishi kerak. Obrazli o'yinchoq real haqiqatni ifoda etadi, buyum, uning xususiyatlari va hayotdagi ahamiyatini aks ettiradi.

O'yinchoqning dinamiklik xususiyati undan ko'p marotaba rejali tarzda foydalanish imkonini yaratadi. Bu xususiyatidan kelib chiqib, o'yinchoqqa quyidagi talablar qo'yiladi.

*Gigiyenik talablar.* O'yinchoq qanday materialdan va rangdan tayyorlanganligi, bolaning hayotiga hech qanday xavf solmasligi, yaxshi tozalanishi mumkinligi asosiy talablardan hisoblanadi.

*Badiiy talablar.* Shakl, bo'yoq va bezaklarning har tomonlama uyg'unlashuvi, bir-birini rang va shakl jihatdan to'ldirib, ta'kidlab, o'yinchoqning badiiy ifodaliligini oshiradi. O'yinchoqlarning tuzilishi va bezalishi bolalarning turli yosh bosqichlarida idrok etish xususiyatlariga to'la mos kelmog'i lozim.

To'g'ri tanlangan o'yinchoq bolaning jismoniy, axloqiy, aqliy va badiiy-estetik tarbiyasi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolani aqliy jihatdan tarbiyalashda didaktik o'yinchoqlarning butun bir tizimi katta ahamiyat kasb etib, sensor va nutq rivojiga ta'sir etadi, fikrlash jarayonlari va diqqatini tarbiyalaydi, buyum va uning xususiyatlariga, qurilishiga bo'lgan qiziqish shakllanadi, bilimi, tushunchalari boyib boradi.

O'yinchoq bolani quvontiradi, atrofdagilarga nisbatan ijobiy munosabat hosil qiladi, birgalikda o'ynash tuyg'usini uyg'otadi va ijobiy his-tuyg'ularni tarkib toptiradi. Axloqiy his-tuyg'ularni shakllantirishda qo'g'irchoq muhim ahamiyatga ega. Milliy qo'g'irchoq bolalarni boshqa millatga mansub bo'lgan tengdoshlariga bo'lgan ijobiy munosabatini tarbiyalash manbalaridan hisoblanadi. San'atning birinchi yorqin obrazli va eng tushunarli buyumi bo'lgan o'yinchoq estetik hislar va kechinmalarni uyg'otadi, estetik tarbiyani to'plashga yordam beradi va badiiy didni shakllantiradi. Shu o'rinda bolalarga yaqin va tushunarli bo'lgan xalq o'yinchoqlarining ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim.

O'yinchoq bolalarni turli rang-barang harakatlarga undaydi va bolaning faol harakatga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Tezkor javob reaksiyasini, harakatlarning aniqligi va muvofiqlashtirishini rivojlantiradi.

Ilk yoshdagi bolalarga mo'ljallangan ko'p o'yinchoqlar (shaqildochlar, rezina koptokchalar, shaklchalar va boshq.) bolada

ko‘rish va eshitish diqqatini rivojlantiradi, ushlash harakatlari va buyumli harakatlarni o‘stirishga yordam beradi.

O‘yinchoqlarni turlari va ko‘rinishlari bo‘yicha quyidagi turkumlarga ajratiladi:

- sujetli-obrazli;
- texnika o‘yinchoqlari;
- qurish-yasash, qurilish materiallari o‘yinchoqlari;
- didaktik o‘yinchoqlar;
- sport va harakatli o‘yinlar uchun mo‘ljallangan o‘yinchoqlar;
- yig‘ma-bo‘linma o‘yinchoqlar;
- teatr va dekorativ o‘yinchoqlar (soya va qo‘g‘irchoq teatrlarining personajlari, dramalashtirilgan o‘yinlar uchun kiyimlar, archa o‘yinchoqlari);
- o‘yinchoq-ermaklar;
- ohang chiqaruvchi musiqaviy o‘yinchoqlar;
- qo‘lbola o‘yinchoqlar va o‘yin materiallari, turli-tuman o‘yin jihozlari.

*Sujetli-obrazli o‘yinchoqlar* sujetli-rolli o‘yin uchun foydalaniladi. U bolalarda ijobiy xarakter qirralarini, muloyimlik, g‘amxo‘rlik, yordam berishga ehtiyoj, shuningdek, kattalar mehnatiga hurmat va tengdoshlari bilan o‘ynay olish malakalarini tarbiyalaydi.

*Texnika o‘yinchoqlari* bolalarda texnikaga va texnika asboblarga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otib, ularni o‘z o‘yinlarida qo‘llay olish imkonini yaratadi. Bolalarga texnikaga bevosita aloqasi bor buyumning (mashinalar, mexanizmlar, transport turlari, aloqa vositalari) tashqi ko‘rinishi, obrazini va unga xos harakatlarini tanishtiruvchi texnik o‘yinchoqlar yaqin turadi.

*Qurish-yasash o‘yinchoqlari* sodda, boshqarish va foydalanish jihatidan qulay va osondir. Bu o‘yinchoqlar o‘ynashda buyumning asosiy vazifalariga taqlid qilish imkonini yaratishi lozim (avtomobilda g‘ildiraklar harakatlanishi, eshik ochilishi). Qurilish materiallari bilan o‘ynaladigan o‘yinchoqlarning asosiy tipi mavjud:

a) kublar, prizmalar, konuslar, piramida, silindrlar, plastinkalar, geometrik shakllar to‘plami.

b) turli blok — devor, froniton, kolonka, tom, ark va boshqa arxitektura va qurilish materiallari. O‘ynashga mo‘ljallangan mayda (stol o‘yinlari uchun) va yirik (polda va maydonchada) qurilish materiallarining rangi har xil bo‘lishi mumkin.

*Didaktik o'yinchoqlarning* asosini xalq o'yinchoqlari tashkil qiladi. Ularni o'ynashda bola o'z-o'zini nazorat qiladi. Xilma-xil mozaikalar sensor qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ulardagi o'yin vazifasi naqshlar, rasmlarni tanlash va joylashtirishdan iborat.

*Harakatli o'yinlarga mo'ljallangan o'yinchoqlar:* suv, qum bilan o'ynaladigan o'yinchoqlar, koptoklar, arg'amchilar, chamba-raklar, kegli va boshqalar. Ularning asosiy vazifasi bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalashdir.

*Musiqali va teatrlashtirilgan o'yinchoqlar* bolalarning musiqaviy ohang va ritmni eshita olish qobiliyatini o'stirishga yordam beradi. Katta yoshdagi bolalar ertaklarni sahnalashtiradilar.

*O'yinchoq-ovutmacholqlar* harakatchan, ko'pincha ovoz chiqaradigan bo'ladi. Ular bolalarni o'zlarining ajoyib xatti-harakatlari bilan quvontiradilar, sujetlari esa vaqtichog'lik bag'ishlaydi.

*Qo'lbola o'yinchoqlarni* kattalar bolalar bilan birgalikda tayyorlaydilar va turli ertak, hikoyalarni sahnalashtiradilar.

O'yinchoqlarni materialiga ko'ra hunarmandchilik, qo'lbola usulda, fabrikada tayyorlanadi.

Taniqli pedagog A.S.Makarenko o'yinchoqlarning uch turini ajratib ko'rsatgan edi: tayyor o'yinchoqlar, yarim tayyor o'yinchoqlar va o'yin materiallari. Birinchi turi bolalarni buyumlar va narsalarning rang-barangligi bilan tanishtiradi, tasavvurini o'stiradi. Ikkinchi turi boladan aktiv faoliyatni talab qiladi, mantiqan va aqlan o'sishga yordam beradi. Uchinchi turi bevosita bolaning ijodiy faoliyatini ta'minlaydi.

## **7.7. Maktabgacha ta'lim tizimida o'yinlar texnologiyasi**

**O'yin texnologiyasining nazariy asoslari.** Bugungi kunda ta'lim tizimiga, jumladan, maktabgacha ta'lim tizimiga ham yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar kirib kelmoqda. Bu texnologiyalarning mazmun-mohiyatini, asosiy tamoyillarini, qonuniyatlarini, ulardan samarali foydalanish yo'llarini amaliyotchi-tarbiyachi va o'qituvchilarga yetkazib berish pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

«Texnologiya» yunoncha so'z bo'lib, «*techne*» — «mahorat», «san'at» va «*logos*» — «tushuncha», «o'rganish» demakdir. Texnologiya so'zi zamirida jarayonlarni amalga oshirish usullari va vositalari haqidagi bilimlar yig'indisi, shuningdek, obyektida sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlari tushuniladi.

Ta'lim texnologiyasi tushunchasi ta'lim maqsadiga erishish quroli, ya'ni oldindan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish va shu maqsadga erishishning metod, usul va vositalari tizimini, ta'lim jarayonini boshqarishni ifodalaydi.

Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi bola shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat. Pedagogik texnologiyaning tamoyillari quyidagilardir: kafolatlangan yakuniy natija, ta'limning samaradorligi, qaytuvchan aloqaning mavjudligi, ta'lim maqsadining aniq shakllanganligi.

O'yin texnologiyasi ham o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

L.S. Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi.

Har qanday o'yin muayyan vazifalarni bajaradi:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- tashxis;
- o'yin ishtirokchilari o'rtasidagi muloqot;
- ijtimoiylashuvlik.

S.A. Shmakovning ta'kidlashicha, o'yinlar quyidagi to'rt asosiy xususiyatga ega:

- erkin rivojlantiruvchi faoliyat, ya'ni bola o'yinni o'zi tanlaydi, unda faol ishtirok etadi. Bunda birinchi navbatda yakuniy natija emas, balki o'yin jarayoni muhim ahamiyatga ega;
- ijodiy xarakter, ya'ni o'yin jarayonida bolalar uchun ijod qilishga katta imkoniyatlar mavjud;
- emotsional ta'sir — bola o'yinda markaziy o'rin egallashni xohlaydi, g'olib bo'lishga intiladi, bu bolaning faolligini oshirishga yordam beradi;
- asosiy va qo'shimcha qoidalar o'yin mazmuni, uning mantiqiy ketma-ketligini belgilaydi.

O'yin strukturasi maqsad, rejalashtirish, maqsadga erishish, natijalarni tahlil qilish kabi komponentlar kiradi. O'yinning eng asosiy xususiyati uning ijodiyligidadir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi.

Nazariy jihatdan o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qarash mumkin.

O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subyekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi.

O'yinli faoliyatni motivatsiyalash o'yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Jarayon sifatida o'yin tuzilmasi (G.K. Selevko ta'biricha) quyidagilarni qamrab oladi:

- o'ynash uchun olingan rollar;
- bu rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yin harakatlari;
- haqiqiy narsalarni shartlilarga almashtirish;
- o'yinda ishtirok etuvchilarning real o'zaro munosabatlari;
- o'yinda shartli ravishda yaratilgan sujet (mazmun).

Har qanday texnologiyada, jumladan, o'yin texnologiyalarida ham, o'quv maqsadi aniq belgilanishi zarur. Bu texnologiyaning asosiy negizidir. Maqsad to'g'ri qo'yilishi uchun tarbiyachi bolaga nimani o'rgatmoqchi bo'lganligini bilishi kerak. Bitta mashg'ulotda bitta maqsad qo'yilishi maqsadga muvofiq. Masalan, bolalarni 3 raqami bilan tanishtirish yoki yil fasllari haqida tushuncha berish va h.k.

O'yin texnologiyalari (ayniqsa, bog'cha bolalari uchun) rivojlantiruvchi maqsadlarni (bolaning idrok, xotira, diqqat, tafakkurini rivojlantirish) amalga oshirishi ham mumkin. Bunda o'yin jarayonida yakuniy natija muhimroq bo'ladi.

**Maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik o'yinlarning shakllari va amalga oshirish metodlari.** Pedagogik ijrochilik o'yinlarini bola uch yoshdan boshlab o'zlashtira boshlaydi. Shu yoshga kelib bola odamlar o'rtasidagi munosabatlar bilan tanisha boshlaydi, hodisalarning ichki va tashqi tomonlarini ajrata boshlaydi, o'zida ichki kechinmalarni seza boshlaydi. Ularga munosabat bildiradi.

Maktabgacha yoshda bolalar o'yin faoliyatini o'zlashtira borib ijtimoiy qadrli va ijtimoiy baholanuvchi faoliyatga tayyorlana boshlaydilar. Maktabgacha ta'lim tizimida qo'llaniladigan pedagogik o'yinlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Bolalar kayfiyatini ko'taruvchi.
2. Hamkorlikka chorlovchi.
3. Bolalarni o'zligini namoyon etishga chorlovchi.
4. Bolalarda o'ziga ishonch hissini shakllantiruvchi, jismoniy va intellektual muammolarni yo'qotishga qaratilgan.
5. Maktabgacha bolalar xatti-harakatidagi cheklanishlarni tavsiflovchi (diagnostika).
6. Bolalar shaxsi strukturasiiga ijobiy korreksiyalar beruvchi.
7. Millatlararo bag'rikenglikni shakllantiruvchi.
8. Bolalarda ijtimoiy, jamoaviy munosabatlarni shakllantiruvchi o'yinlar.

Pedagogik o'yinlarni quyidagicha tasniflash mumkin.

**Faoliyat turlariga qarab:** ijtimoiy intellektual, mehnat, ijtimoiy va psixologik o'yinlar.

**Pedagogik jarayonlarning xarakteriga qarab:** ta'lim-tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, mahsulotli, ijodiy, psixotexnik o'yinlar.

**O'yinlar metodlariga qarab:** predmetli, sujetli, badiiy rolli, hodisalarni tasavvur etuvchi va dramalashtiruvchi o'yinlar.

**Predmetlar asosidagi o'yinlar:** matematik, biologik, ekologik, musiqali, texnikaviy, jismoniy tarbiyalovchi, iqtisodiy tejamkorlik va ishbilarmonlik, tadbirkorlikni rivojlantiruvchi o'yinlar.

**O'yin vositalari bo'yicha:** o'yin vositalari (koptok, piramida, kub va boshq.) bilan amalga oshiriladigan o'yinlar va o'yin vositalarisiz amalga oshiriladigan o'yinlar xontaxta ustida, xonada va dalada o'ynaladigan o'yinlar, kompyuter va televizor o'yinlari kabi texnik vositalar.

Maktabgacha ta'limda yoshi kattalarning to'plagan tajribasini kichik yoshdagilarga singdirish jarayonida o'yinlar ta'lim metodi sifatida namoyon bo'ladi. O'yin metodlariga qarab maktabgacha ta'lim vazifalaridan kelib chiqib, predmetli, sujetli-ishchan, dramalashtirilgan o'yinlardan keng foydalaniladi.

Maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi pedagogik o'yinlarni o'quv tarbiya jarayonida qo'llash quyidagi o'ziga xos xarakterga ega bo'ladi. *Birinchidan*, rivojlantiruvchi pedagogik o'yinlar maxsus topshiriqlar majmuasidan iborat bo'ladi. *Ikkinchidan*, o'yin faoliyatidagi topshiriqlar rangli kublar, g'ishtchalar, kvadratlar, plastilin, karton qog'ozlar, konstruktor-mexanik majmualarida turli ornament, rasm va jimjimador predmetlar vositasida amalga oshiriladi. *Uchinchidan*, topshiriqlar mustaqil bajarilishini ta'minlash

maqsadida ularni osondan qiyinga tomon, aniq vaqt oralig'ida sifatli bajarilishini ta'minlash darkor.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida interfaol o'yinlardan foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi. Bu o'yinlar jarayonida bola passiv obyektidan faol subyektga aylanadi. Tarbiyachining asosiy vazifasi esa o'yinni tashkil etish, bolalar ijodiga sharoit yaratishdan iborat.

Interfaol o'yinlar jarayonida bola mustaqil fikrini to'g'ri bayon etishga, boshqalarni tinglashga o'rganadi, boshqacha qilib aytganda interfaol o'yinlar orqali kelajakda har bir bola uchun zarur bo'lgan ijobiy sifatlar shakllantiriladi. Interfaol o'yinlarni samarali o'tkazish uchun quyidagi qoidalarga e'tibor berish lozim:

1. Mashg'ulot oldidan bolalar o'yin qoidalari va mazmunini qay darajada tushunganliklarini aniqlash.
2. Bolalarning yosh xususiyatlari va bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini hisobga olish.
3. Har bir bolaning qobiliyati va psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish.
4. O'yin jarayonida bolalarga qiziq bo'lgan materiallardan foydalanish.
5. Diqqat va e'tiborni jalb etadigan uslublarni izlab topish.
6. Bolalarga rollarni to'g'ri taqsimlash.
7. O'yindan qanday maqsadda foydalanish mumkinligini bilish.
8. O'yinning asosiy bosqichlari haqida tasavvurga ega bo'lish va natijalarini prognoz qilish.

Pedagogik nuqtayi nazardan to'g'ri tashkil etilgan o'yin bolaning axloqiy, irodaviy xususiyatlarini shakllantirish bilan birga unda bilim olishga, atrofdagi olam sirlarini ochishga qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yin texnologiyalaridan keng foydalanish kerak.

O'yinlar texnologiyasi tushunchasi pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismidir. O'yin texnologiyasi an'anaviy ta'limdagi o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, yuqoridagi nazariy asoslardan foydalanish maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayoni samardorligini oshirishga xizmat qiladi.



## *Nazorat savollari*

---

1. O'yin faoliyatiga ta'rif bering.
2. O'yin turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.
3. Bolalar o'yinchoqlariga qo'yiladigan asosiy talablar.
4. Maktabgacha ta'lim tizimida o'yin texnologiyasining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
5. Qanday didaktik o'yinlarni bilasiz?
6. Bola tarbiyasida o'yinchoqlar qanday ahamiyatga ega?
7. Interfaol o'yinlarning o'ziga xos tomonlari nimalardan iborat?





## 8-bob. AQLIY TARBIYA

### 8.1. Aqliy tarbiya haqida tushuncha

Hayotning har bir davri rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko'ra, o'ziga xos bosqichlarga ega. Bolaning o'sib ulg'ayishida maktabgacha bo'lgan davrni shular sirasiga kiritish mumkin. «Bola» tayanch dasturida, «Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, shu bilan birga maktabga tayyorlangan holatda shakllantirish maqsadini qo'llaydi», deyilgan. Buning uchun esa aqliy qobiliyatni rivojlantirish, aqliy mehnat qilish madaniyatini o'rgatish zarur.

Aqliy tarbiyasi yetuk, o'tkir zehni, zukko va zakovatli insonlarni xalqimiz donishmand kishilar deb ataydilar. Donishmandlik, bu — donolik. Donolik insonning eng buyuk va oliyjanob fazilatidir. Donolik shunday bir noyob ne'matdirki, u har kimga ham nasib etavermaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, xalqimizda «Aql toji oltindan, oltin har kimda ham bo'lmas», deyiladi.

Aql — keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlanib, tafakkur va hayotni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisidir. Aqliy faoliyat diqqatning har doim ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lishini talab etadi. Kishining aqli uning asosiy faoliyatida erishgan muvaffaqiyati xususiyati bilan bog'lanadi.

Insoniyat paydo bo'lgandan beri odamlar orasida yetishib chiqqan barcha olim-u fozillar, shoir-u yozuvchilarning barchasi mukammal ilm egallash orqali o'z davrining e'tiborli kishilari darajasiga ko'tarilganlar.

Sharq allomalaridan Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy va boshqalar mukammal ilm egallash orqali fanning turli sohalarida buyuk kashfiyotlar yaratganlar.

O'z davrining yirik ma'rifatchilaridan hisoblangan Abdulla Avloniy ham yoshlarni ilmli bo'lishga chaqirgan. U aql va ilmni ulug'lab: «Aql insonning piri komili, murshidi yagonasidir. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir», deb yozgan edi. U o'z fikrini aniqroq

va ravshanroq anglatish uchun shunday deb yozgan: «Hayvonlar o‘zlariga bo‘laklar tarafidan qiladurg‘on zulm va jabrlarni shox, tish, tirnoqlari ila qaytarurlar. Lekin inson aql-idroki soyasida o‘ziga keladurg‘on zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilib, bo‘ynidan bog‘lab iplari uchini qo‘llariga bergan insonlarning aqlidir».

Abu Ali ibn Sino aqlning rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqan.

Mushohada bilan idrok etishning birinchi bosqichi aqliy kategoriyalarni tushuntirishdir. Ikkinchi bosqichga ikki xil fikrni idrok etish, uchinchi bosqichga o‘zlashtirilgan bilim, fikrlarni idrok etish bilan erishiladi. Shunda u haqiqiy aql deyiladi.

Olim aqlni uch bosqichga bo‘lar ekan, birinchi bosqichda yodlay oladigan, lekin hali harflarni ham, yozishni ham bilmaydigan bolalarni nazarda tutgan. Ikkinchi bosqichda tayoqchalarni chiza boshlagan, qalamdan foydalanishni o‘rganayotgan bolalarning aqli, uchinchi bosqichda aqliy shakllarni va ularga muvofiq hissiy obrazlarni egallagan inson tasvirlanadi.

Ibn Sino aql deganda insonning tug‘ma iste‘dodini, bilish jayronida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi.

Aqlni ikki kategoriyaga bo‘ladi:

1. Nazariy aql — borliqdagi umumiy narsalarni idrok etish.

2. Amaliy aql — buyumlarni tanlashda turtki sifatida ko‘rinadigan qobiliyatlar.

Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarga ta‘lim berish g‘oyasi birinchi bo‘lib chex pedagogi Yan Amos Kamenskiy tomonidan ilgari surilgan. U ona rahbarligida 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish mumkinligini ko‘rsatib berdi. Shu davrda bola yoshini e‘tiborga olgan holda kishi o‘rganishi lozim bo‘lgan hamma narsaga o‘rganishi lozim, deydi. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarga, ya‘ni biz ta‘lim-tarbiya beradigan bolalarga har tomonlama bilim, ko‘nikma va malakalarni singdirishimiz mumkin ekan. U 19 bo‘limdan iborat maktabgacha ta‘lim dasturini tuzdi. Y.A. Kamenskiy «Onalar maktabi» kitobida kichik bolalarning ta‘lim-tarbiyasiga, o‘qish metodikasiga katta e‘tibor bergan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash, bu bolani faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma‘lum maqsad bilan ta‘sir etishidir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni sistemalashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg‘otishni, aqliy malaka ko‘nikmalarini tarkib toptirishni, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Bolalarni 6—7 yoshdan boshlab maktabda o‘qishga o‘tishi munosabati bilan ularni maktab ta’limiga tayyorlash uchun aqliy rivojlanish yetarli darajada bo‘lishini ta’minlash tarbiyachilarning javobgarligini yanada oshiradi.

Aqliy kamolot, bu — yoshning o‘sib, tajribaning boyib borishi oqibatida tarbiyaviy ishlar ta’sirida bolaning aqliy faoliyatida ro‘y beradigan miqdor va sifat o‘zgarishlarining majmuasidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim tez sur‘atlar bilan boyib boradi, nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi. Xullas, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishini ta’minlash ularning kelajakdagi butun faoliyati uchun katta ahamiyatga ega. Bola ijtimoiy muhit ta’sirida aqliy tomondan rivojlanib boradi. Atrofdagi kishilar bilan muomala qilish jarayonida u tilni va u bilan tarkib topgan tushunchalar sistemasini o‘zlashtiradi. Natijada maktabgacha tarbiya yoshidagi bola tilni shunchalik egallab oladiki, undan muomala vositasi sifatida erkin foydalanadigan bo‘lib qoladi.

Aqliy rivojlanish fikrning kengligida, voqealarning har xil bog‘lanishlarida, munosabatlarda, ko‘ra bilish, umumiy lashtirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

## **8.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlantirish**

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi dastlab muomalada bo‘lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida, keyin esa o‘qish, mehnat, samarali faoliyatlar jarayonida (rasm chizish, loydan shakllar yasash) amalga oshirib boriladi. Hozirgi zamon pedagogika fanida bilimlar sistemasini o‘zlashtirib olish, ularni jamg‘arish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda yangi bilimlar hosil qilish uchun zarur bo‘lgan bilish faoliyati usullarini egallab olish aqliy rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar va aqliy tarbiya berishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to‘g‘risidagi bilimlar sistemasini ilmiy dunyoqarashini shakllantirish.
2. Bilishga doir ruhiy jarayonni rivojlantirish.
3. Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyati, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish.
4. Aqliy malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish.

*Bilishga doir ruhiy jarayon* — sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutqni rivojlantirish aqliy tarbiyaning muhim vazifasidir. Tevarak-atrofni bilish sezish va idrok etishdan boshlanadi. Ularning rivojlanganlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, borliqni bilib olish imkoniyati shunchalik ko'p bo'ladi. Shuning uchun uni bog'cha yoshidan boshlab rivojlantirib borish zarur.

*Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatni, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish.* Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini, ularning sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi.

Pedagogika fani aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali hal etishda bolaning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish, bola organizmining umumiy charchashiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ortiqcha yuk bo'lmasligi yo'llarini topish uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonunlari va imkoniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Keyingi yillarda olib borilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlarning natijalari maktabgacha tarbiya yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Bularni hisobga olgan holda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni yanada chuqurlashtirish, hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Maktabgacha tarbiya yoshining oxiriga kelib bolalar tevarak-atrof to'g'risida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo'lib qoladilar, asosiy fikrlash jarayonini egallab oladilar, narsa va buyumlardagi, voqealardagi muhim va muhim bo'lmagan tomonlarni ajrata oladigan bo'lib qoladilar. Ularda o'quv faoliyatining dastlabki ko'rsatkichlari shakllanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur ta'limi bo'ladi. Hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so'z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarda tafakkur faoliyatini tarkib toptirishi, bu hodisalarni, voqealarni chuqur anglab olish, ularning muhim bo'lgan va muhim bo'lmagan tomonlarini ajratishga o'rgatishi lozim.

Qiziquvchanlik bolaga xos xususiyatdir. U bolaning tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarga, narsa va buyumlarga qiziqish bilan qarashida, hamma narsani ushlab, his qilib, diqqat bilan kuzatishida namoyon bo'ladi. Tarbiyachi kuzatishlar tashkil etib, bolalarda paydo bo'lgan savollarga o'z vaqtida javob berishga harakat qiladi, ularni mustaqil javob qidirishga yo'llab, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda qiziquvchanlikning susayishiga yo'l qo'ymaydi.

Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini, ularning sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

Bolalar bog'chasi oldida bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish vazifasi turibdi. Qobiliyatlar tegishli faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi va rivojlanadi. Inson ziyraklik, fahm-farosatlilik, tanqidiy ko'z bilan qarash, sermulohazalik kabi sifatleri bilan ajralib turishi mumkin. Aqliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, ya'ni eng oddiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo'lmagan belgilarni ajratib ko'rsatish, boshqa predmetlar bilan taqqoslash va hokazolarni tarkib toptirish maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridandir. Bu ko'nikma va malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo'lib, bolaga bilimlarni muvaffaqiyatli egallab olishga yordam beradi. Masalan, o'simliklar va hayvonlar bilan tanishtirish bo'yicha sistemali mashg'ulotlar olib borilgandan keyin bolalar ayrim o'simliklar yoki hayvonlar to'g'risida ma'lum bir tasavvurga ega bo'ladilar.

So'ngra bolalardagi aqliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish maqsadida tarbiyachi bolalar bilan quyidagi mashg'ulotlarni o'tkazishni rejalashtirishi mumkin: «Paxta o'simligini momaqaymoq o'simligi bilan taqqoslash», «Qafasdagi ikki xil qushni bir-biriga taqqoslash» didaktik o'yini va sh.k. Eng muhimi shundaki, bolalarga bilim beribgina qolmasdan, ularni olgan bilimlaridan aqliy va amaliy vazifalarni hal etishda foydalanishga o'rgatish zarur.

Ilk va bog'cha yoshi davrida bolalarda tevarak-atrofga bo'lgan qiziqish juda tez o'sadi. Qiziqish bolaning aqliy rivojlanishini harakatga keltiruvchi qudratli kuchdir. Kattalar bolaning qiziquvchanligini, bilishga bo'lgan har qanday xohishini sezishlari va rag'batlantirib borishlari kerak.

### 8.3. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishning o'ziga xosligi

Ta'lim/maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning bilish qobiliyatlarini muntazam-rejali ravishda rivojlantirib borish, bolalar bog'chasi tarbiya dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar sistemasi bilan qurollantirish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishda ta'lim yetakchi rol o'ynaydi. Chunki, ta'lim jarayonida aqliy tarbiyaga doir hamma masalalar hal etiladi. Ta'lim bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va sistemalashtirishni, bilish jarayonlarini, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ta'lim kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va aqlning sinchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi. U jismoniy, estetik va mehnat tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ham zarurdir. Bog'chada bolalarga madaniy-gigiyenik ko'nikmalar, asosiy harakatlar o'rgatiladi, ular madaniy-axloqiy qoidalarni o'zlashtirib oladilar.

Bolalarda o'quv faoliyatlari asoslari ta'lim jarayonida hosil qilinadi, ularning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi. Ta'limni ikki yo'l bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

*Birinchi yo'li* — bolalarning bilim, malaka, ko'nikmalarni katalar bilan o'zaro munosabatda bo'lishi orqali egallab borishidir.

*Ikkinchi yo'li* — maxsus tayyorgarligi bor kishilarning maxsus o'quv muassasalarida bolalarni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan rejali ravishda xabardor qilib borishidir. Bunday yo'l bilan ta'lim berishdan maqsad yosh avlodni zamonaviy ishlab chiqarishda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida faol qatnashtirish uchun zarur bo'lgan fan yutuqlari bilan tanishtirishdir.

Bolalarga ta'lim berish jarayonida quyidagi metodlardan foydalaniladi:

Ko'rgazmali	Og'zaki	Amaliy	O'yin metodlari
Kuzatish	Tushuntirish	Mashq	Didaktik o'yinlar
Ko'rsatish	Hikoya qilish	Mustaqil ish	Harakatli o'yinlar
TVdan foydalanish	So'zlab berish	Oddiy tajriba	Mashqli o'yinlar
	O'qib berish		Inssenirovkalar
	Suhbat		

*Kuzatish metodi* bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish imkonini beradi. Bunda bolalar ko‘rish, eshitish, sezish idroklari orqali bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa, asosan, yangi bilim berishda qo‘llaniladi. Kuzatish — bolalarning narsa, voqealarning ma‘lum maqsadi bilan rejali idrok etishidir. Bu usul ma‘lum obyektlarni kuzatishda yetakchi o‘rinni egallaydi.

*Namoyish etish metodi.* Bu metodda tarbiyachi bolalarga narsaning o‘zini yoki tasvirini ko‘rsatadi. Kuzatish so‘z bilan qo‘shib olib boriladi. Bu asosan bevosita kuzatib, ko‘rib bo‘lmaydigan narsalar bilan tanishtirishda qo‘llaniladi. Masalan, hayvonlar, o‘simliklar hayoti bilan tanishtirish.

*Texnikaviy vositalardan foydalanish* MTMda ta‘lim jarayonini qiziqarliroq o‘tkazishni ta‘minlaydi. Tevarak-atrof bilan tanishtirish imkoniyatini kengaytiradi. Texnikaviy vositalardan tarbiyachi katta va tayyorlov guruhlarida foydalanadi. Kichik guruhlardan boshlab bolalarga hikoyalarga ishlangan suratlar ko‘rsatiladi. Bu buyum va narsalarni izchillik bilan idrok etish imkonini beradi va sinchkovlik hislarini o‘stiradi.

*Hikoya qilib berish metodida* materialni aniq, obrazli, ta‘sirchan bayon qilinadi. O‘rta guruhdan boshlab badiiy asarlarni ifodali o‘qib beriladi. Bu bolalarga ta‘lim berishda va ularning aqliy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Hikoya qilib berish metodi mustaqil metod sifatida qo‘llaniladi.

*Suhbat metodi.* Suhbat MTM didaktikasida muhim o‘rinni egallaydi. Tarbiyachi bolalar bilim va amaliy tajribalariga suyanib, savollardan foydalangan holda ularni yangi bilimlarni egallashiga, mustahkamlashiga harakat qiladi. «Suhbat 3—4 yoshli bolalar bilan o‘tkazilmaydi. 4—5 yoshli bolalar bilan ham suhbat mustaqil mashg‘ulot sifatida o‘tkazilmaydi. Bu yoshda kuzatish qisqa suhbat bilan qo‘shib olib boriladi. 6 yoshdan boshlab suhbat mustaqil mashg‘ulot tarzida o‘tkazilishi mumkin»<sup>1</sup>.

*Amaliy metod.* Bu metod tarbiyachiga bolalarning turli-tuman amaliy faoliyatlarini tashkil etishga, bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallab olishga yordam beradi. Bu metod orqali bola buyumlarning o‘ziga tanish bo‘lmagan xususiyatlarini bilib oladi. Tarbiyachi amaliy mashg‘ulotlarda bolalarning oldiga vazifa qo‘yib, bolalardan mashq qilishni talab etadi. Shular orqali bola bilim, ko‘nikma va malakalarni egallab oladi.

---

<sup>1</sup> P. Yusupova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T., «O‘qituvchi», 1993, 95-bet.

*O'yin metodi* didaktik vazifani tushunarliroq, ta'limni qiziqarli qilib tashkil etishga yordam beradi.

O'yin metodi bolalarning ixtiyoriy diqqatlarini oshiradi, bola irodasini, ijodiy fikrini rivojlantiradi. Bola ijodiy o'yinda aqliy jihatdan tarbiyalanadi va rivojlanadi. Kichkintoylar o'ynaydigan sujetli o'yinlarning asosiy mazmuni — buyumlar bilan bajari-ladigan xilma-xil harakatlarni tasvirlashdir. Bunday o'yinlar jara-yonida bolalar buyumlardan foydalanish, ular bilan amallar ba-jarishning ijtimoiy mustahkamlangan usullarini o'zlashtirib ola-dilar. Bunda harakatlarni umumlashtirish va bolaning ongida ularni aniq bir buyumdan ajratish jarayoni ro'y beradi.

Bolaning rivojlanishiga qarab, ularning ijodiy o'yinlari tobora rejali xususiyat kasb etadi: bolalar o'yinning mazmuni haqida, o'yinchoqlardan foydalanish va h.k.lar to'g'risida kelishib oladilar. Shu yo'l bilan o'yin davomida bolaning rivojlanishi uchun muhim bo'lgan tafakkurning rejalashtiruvchi vazifasi tarkib topadi.

Bolaning aqliy tarbiyasida ijodiy o'yinlar bilan bir qatorda didaktik o'yinlar ham katta o'rin egallaydi. Bunday o'yinlar tayyor mazmunga va aniq qoidalarga ega. Juda ko'p xalq o'yinlari avlod-dan avlodga o'tib kelmoqda. Pedagoglar tomonidan ham ko'pgina o'yinlar ishlab chiqilgan. Didaktik o'yinlar deb nomlanishining o'zi ham bu o'yinlarning maqsadi bolalarni aqliy rivojlanti-rishdan iboratligini bildiradi. Binobarin, ular aqliy tarbiya vo-sitasi, deb qaraladi.



### *Nazorat savollari*

---

1. Yosh avlodni aqliy tarbiyalashning mohiyatini ochib bering.
2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vositalarini ta'riflang.
3. Bolalarga ta'lim berish jarayonida tarbiyachi tomonidan qanday usullar qo'llaniladi?
4. Bilishga doir ruhiy jarayonlarni bayon qiling.





## 9-bob. AXLOQIY TARBIYA

### 9.1. Axloqiy tarbiyaning mohiyati

«Axloq» soʻzi lotincha «*moros*», yaʼni moral soʻzidan kelib chiqib, u hech qayerda qatʼiy yozib qoʻyilmagan ijtimoiy qonundir. Inson kundalik hayotida undan (axloq normalaridan) norma sifatida foydalanadi. Axloqiy tarbiya normalari har bir jamiyatning huquqiy normalariga asos boʻladi. Axloqiy bilimlarni oʻzlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatlarda oʻzini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilar axloqiy tarbiyalangan hisoblanadi. Bunday kishida barqaror maʼnaviy motivlar shakllangan boʻladi. Yosh avlodni jamiyatga, mehnatga, oʻziga munosabatni ochib beruvchi maʼnaviy fazilatlarga muvofiq ravishda tarbiyalash tarbiyalanuvchi shaxsning axloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur bilishini talab qiladigan murakkab jarayondir. Axloqiy bilimlarni ongli ravishda oʻzlashtirib olishgina bolalarga atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi.

Axloq kishilarning xulq-atvor normalari va qoidalarini, ularning oʻz-oʻziga, boshqa kishilarga, mehnatga, jamiyatga munosabati kabi axloqiy tushunchalarni oʻz ichiga oluvchi ijtimoiy ongning shakllaridan biridir. Axloq tarixiy xususiyatga ega, chunki u kishilik jamiyatida avlodlar tomonidan toʻplangan axloqiy tajribalar va munosabatlarni aks ettiradi. Axloq yaxshilik bilan yomonlik oʻrtasidagi muammolar haqida bahs yuritib, insonlarning kamolotga erishish yoʻlini yoritib boradi. Har bir inson bir olam boʻlgani kabi uning axloq-odobi ham juda murakkab olam desak yanglishmaymiz. Chunki shaxsning ichki va tashqi olamini oʻrganish, bilish, tahlil qilish gʻoyatda murakkab, bu ruhiyat bilan bogʻliq holatdir.

Binobarin, yurtboshimiz oʻzining «Yuksak maʼnaviyat — yengilmas kuch» asarida taʼkidlaganidek, «Maʼnaviyat — insonning ruhan shakllanish, qalban ulgʻayishga chorlaydi, odamning ichki

dunyasini irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladi, vijdonini uyg'otadi, beqiyos kuch, uning barcha qarashlari mezonidir».

Axloqli, odobli, komil insonda odamiylikning eng yaxshi xislatlari: mehr-muhabbat, rahm-shafqat, adolat-u diyonat, hayo-iffat, imon-e'tiqod kabilar mujassam bo'ladi, ayni paytda shu xislatlarning aksi beburd, axloqsiz kimsalar fe'lida ko'rinadi. Har bir xalqning nufuzi va obro'-shuhrati kishilarning axloq-odobi, yaxshi xislat va fazilatlarini bilan belgilanadi.

Qadimgi yunon faylasuflari Aflotun va Arastu bola tarbiyasini jamiyat o'z ixtiyoriga olishi, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarishi lozim degan g'oyani ilgari surgan edilar. Ular o'z fikrlarini farzand tarbiyasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liq deb isbotlamoqchi bo'lganlar. Shunga ko'ra, bola tarbiyasi bilan asosan, davlat shug'ullanishi kerak, degan g'oya ilgari surilgan. Ammo sharq mutafakkirlari bola tarbiyasi bilan, asosan, ota-ona shug'ullanishi kerak degan xulosaga kelishgan. Bu bilan ular oilaviy tarbiyaning roliga katta e'tibor berganlar.

Eramizdan avvalgi 528—529-yillar orasida Zardusht tomonidan yaratilgan «Avesto» kitobida ham ta'lim-tarbiyaga, axloq-odobga oid qator g'oya va qarashlarni ko'rish mumkin. «Avesto»da ta'kidlanishicha, tarbiya hayotning tayanchi, shu boisdan har bir yoshni yaxshi o'qish va yozishga o'rgatish lozim. Uni yosh paytidanoq mehnat qilib, mehnatning tagi rohat ekanligini anglatish uchun daraxt ko'chatini o'tqazishga, uy-ro'zg'or qurollari yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug'ullanishga o'rgatilishi shart. Zotan, uning fikricha, yaxshi va ezgu ishlar yaratish uchun kishi mehnat qilishi zarur, o'z qo'llari bilan moddiy noz-ne'matlar yaratmas ekan, u yashash lazzatini ham his qilmaydi, hayotning qadriga ham yetmaydi.

U yuqoridagi fikrni davom ettirib: «Inson, nafaqat mehnat tufayli o'zini hamda oilasini boqadi, balki unda yerga va yurtga bo'lgan muhabbat paydo bo'ladi. Zotan, har bir inson o'zi o'sib-ulg'aygan zaminni, mamlakatni eng yaxshi va go'zal mamlakat deb tushunmog'i kerak», deb yozgan. Uning bu fikrlaridan har bir inson faqat o'zini emas, balki farzandlarini ham mehnatsevar qilib tarbiyalashi lozimligi kelib chiqadi. Chunki, inson mehnatsevar bo'lmasdan turib, o'z yerini, o'z Vatanini seva olmasligi tabiiy.

Qur'oni Karim va Hadisi Sharifda oila va oilaviy munosabatlar hamda oilaviy tarbiyaga oid bir butun izchil qarashlar tizimi mavjud

bo'lib, u o'z ichiga oilaning shakllanishi, rivojlanishi va mustahkamlanishiga qaratilgan barcha jihatlarni qamrab oladi. Bu qarashlar kishilarning turmush tarzlari, oilaviy munosabatlari talabidan kelib chiqqanligi uchun ham kundalik turmushga muvofiqdir. Islomda oilaviy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari ham ko'rsatib o'tiladi. Bu xususiyatlar musulmonchilik talablaridan kelib chiqqan bo'lib, insonni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash haqidagi umumiy g'oya bilan bog'liq. Musulmon oilalarda kuyov va kelinning avlod-ajdodlarining kelib chiqishini o'rganish, jismoniy va ma'naviy poklikka e'tibor berish an'anaga aylangan. Islomiy ma'naviyatda bolani oilada axloqiy tarbiyalash haqidagi qarashlar insoniylikka, ezgulikka va yaxshilikka da'vat etgani uchun ham umuminsoniy mazmunga egadir. Shunga ko'ra, islom musulmonlargagina xos bo'lgan diniy qadriyat bo'lib qolmasdan, balki umuminsoniy qadriyatdir. Mustaqillik tufayli dinga va diniy qadriyatlarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi va u oilada bolalarni axloqiy tarbiyalashning muhim omillardan biriga aylanib bormoqda.

Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya, oila va oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari islom mafkurasi va uning qobig'ida shakllangan. Sharq mutafakkirlari ijodida aks etgan umuminsoniy g'oyalar islomiy ma'naviyat bilan hamohangdir.

Sharq mutafakkirlari oila va farzand tarbiyasi masalalariga katta e'tibor berganlar. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy, Kaykovus, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari o'rta qo'yilgan va ularni hal etish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Abu Rayhon Beruniy insonning axloqiy fazilatlarini, umuman axloqiy tushunchalarni insonning tabiati bilan bog'laydi. Inson tabiati esa oilada shakllanadi. Shunga ko'ra, bola tarbiyasiga ota-ona ta'siri va namunasi benihoya kattadir, deb hisoblagan olim.

Beruniy tan va ruh pokligi masalasini o'rta qo'yishni tashlaydi. Oilada tozalik, poklik va tartib mavjud ekan, u yerda ma'naviy poklik ham bo'ladi. Bu fikrini tanani toza tutish bilangina cheklamaydi, balki ko'p harakat qilishga chaqiradi.

Harakat mehnat qilish demakdir. Uning qalb va harakat haqidagi fikri inson tani bilan ruhi pokligining bir butunligi to'g'risidagi g'oya bilan bog'liqdir. Bu narsa bola tarbiyasida jismoniy sog'lomlik bilan ma'naviy-axloqiy boylilik o'rtasidagi o'zaro mu-

vofiqlik haqidagi bugungi kun talabi bilan hamohangdir. Beruniy ota-onalarga qarata bolani mo‘tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga, asosan, bolani qattiq g‘azablanishdan, qo‘rqish va xafalikdan, uyqusizlikdan saqlash orqali erishilishini aytib, ularni xohlagan va foydali narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligini uqtirgan. Ota-onaning bolaga turli munosabati turlicha xulqlarni keltirib chiqaradi. Mutafakkir bola xulq-atvorining mo‘tadilligi natijasida tan va ruh sog‘lomligi kelib chiqishini ham ilmiy asoslab bergan. Beruniy bola tarbiyasida irsiyat, muhit va tarbiya ta’sirining birdek muhim ekanligini ta’kidlab o‘tgan edi.

Alisher Navoiy ijodida ham axloq-odob masalalariga katta ahamiyat berilgan, insonparvarlik g‘oyalari ulug‘langan. «Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha odamlar uchun yoqimlirog‘idir», degan edi ulug‘ shoir.

Pedagogika fani yosh avlodning axloqiy rivojlanishida tarbiya va ta’limni muhim omil deb hisoblaydi. Pedagogika va ruhiyatga oid tadqiqotlar natijalarining ko‘rsatishicha, maktabgacha tarbiya davri bolaning ma’naviy shakllanishida eng muhim bosqichdir. Shu davrda ma’lum maqsadga qaratilgan ta’lim-tarbiya ta’sirida shaxsning axloqiy sifatlari shakllana boshlaydi. 6—7 yoshda ijobiy xulq normalarining ancha barqaror shakli yuzaga keladi. Bola atrofdagilar bilan bo‘ladigan munosabatlarida egallab olgan axloq normalariga asoslangan holda ish tutadigan bo‘lib qoladi. Shuning uchun bolalarga ilk yoshdan boshlab axloqiy tarbiya berib borish muhimdir.

## **9.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va uni amalga oshirish vositalari**

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma’naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish, axloqiy tarbiya mazmunini amalga oshirishdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya berishning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarda axloqiy tasavvurlar va xatti-harakatlarni tarbiyalash.
2. Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash.
3. Bolalarda axloqiy his-tuyg‘ularni tarbiyalash.
4. Xulqdagi salbiy sifatlarni barham toptirish.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida axloqiy tarbiya berish har xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Birinchi galda bolalarni har xil faoliyatlar vositasida mashg'ulotlarda va mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda, ta'lim berish orqali kattalar mehnati bilan tanishtiriladi.

Har xil bayramlar, ijtimoiy hayot voqealari, bolalar adabiyoti, musiqa, o'yin materiallari, ommaviy axborot vositalari — televideniya, radio va boshqalar bolalarning axloqiy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Kichik yoshli bolalar axloqiy tasavvur va bilimlarni faqat o'yin mashg'ulotlarida yaxshi o'zlashtirib oladilar. Bolalar tomonidan o'zlashtirib olingan axloqiy tasavvurlarni ularga ongli ravishda tushuntirish dastlab mashg'ulotlarda, keyinchalik o'yin, mehnat jarayonlarida, sayrda, mustaqil faoliyatlar orqali amalga oshiriladi.

### **9.3. Axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillari va metodlari**

Axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- g'oyaviy va tarbiyaviy ishning ma'lum maqsadga qaratilganligi;
- ta'lim-tarbiya ishiga bola shaxsini hurmat qilgan holda yondashish;
- axloqiy tarbiya ishini hayot va zamon bilan birga olib borish;
- bolalarning faolligi;
- oila va MTM tarbiyaviy ta'sirining birligi;
- bola shaxsidagi ijobiy sifatlarga suyanish;
- bola shaxsining har tomonlama rivojlanishini ko'zda tutish.

Axloqiy tarbiya tamoyillarini pedagogik shart-sharoit bilan qo'shib amalga oshirish bolaning axloqiy rivojlanishiga samarali ta'sir etadi.

**Axloqiy tarbiya metodlari.** Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga axloqiy tarbiya berishda har xil metod va usullarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Bu metodlar bolalarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishga qaratilgan faoliyat usulidir. Axloqiy tarbiya metodlari quyidagi guruhlariga bo'linadi:

*1-guruh.* Axloqiy ongini, axloqiy tasavvur va bilimlarni shakllantirishga metodlar.

*2-guruh.* Madaniy xulq-atvor, ijobiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan metodlar.

*3-guruh.* Axloqiy his-tuyg'ular va munosabatlarni rag'batlantirishga qaratilgan metodlar.

Yuqorida keltirilgan hamma metodlar orqali bolalarga axloqiy norma va qoidalar, ijtimoiy hayot voqealari o'rgatiladi. Ularda axloqiy tasavvur va tushunchalar shakllantiriladi. Birinchi guruh metodlariga asosiy talablar quyidagilar: bolalarning yaxshilik, yomonlik to'g'risidagi tasavvurlarini e'tiborga olish; axloqiy xulq-atvor normalarini muhokama qilish uchun maxsus yaratilgan vaziyatda bolalarning o'zlarini faol qatnashtirish; har bir bolaning his-tuyg'usiga ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lish. Bolani noo'rin tanqid qilish, uning ustidan kulish, unga nisbatan e'tiborsizlik qilish qat'iy man qilinadi. Hamma metodlardan izchillik bilan kompleks ravishda foydalaniladi.

*Tushuntirish* ko'pincha bolalarga yangi axloqiy tushuncha, norma, qoida bayon qilib berilayotganda ishlatiladi. Tushuntirish kattalarning jonli so'zi va namunasiga asoslanadi. Masalan, ro'para kelayotgan tanish kishiga xushmuomalalik bilan salom berish uchun biroz to'xtab, u kishining yuziga qarab, kulimsirab «Assalomu alaykum» deyish, keyin yo'lda davom etish kerak. Tushuntirish va ko'rsatish tabiiy bo'lmog'i lozim. Axloqiy mavzulardagi suhbatni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning hamma guruhlarida qo'llash mumkin. Hikoyaning mazmuni yorqin, tushunarli bo'lib, bolalarning his-hayajoniga yetarlicha ta'sir etishi kerak.

Bu metodning asosiy vazifasiga quyidagilar kiradi:

- bolalarda ijobiy axloqiy hislarni qo'zg'ata olish, asar qahramonlariga hamdardlik bildirish — yutug'idan quvonib, muvaffaqiyatsizligiga birgalashib achinish;
- bolalarga tushunarsiz bo'lgan ayrim axloq qoidalarining mazmunini ochib berish;
- axloqiy mavzulardagi hikoyalardan mashg'ulotlarda, sayrlarda, bolalarning o'z hayoti bilan bog'liq bo'lgan joylarda ham foydalanish.

Axloqiy mavzulardagi suhbatlar orqali bolalar axloq normalari va qoidalarini, ijobiy xulq shakllarini egallabgina qolmay, shu bilan bir qatorda ularda axloq qoidalari va normalariga nisbatan talab yuzaga keladi.

Bolalarning axloqiy tajribalarini kengaytirib borish, xulqning axloqiy sabablarini aniqlab berish kerak. Suhbat vaqtida bolalar o'z fikr-mulohazalarini aytishlariga keng imkon beriladi.

Shunda ular har bir xatti-harakatini ongli ravishda, axloq normalari va qoidalari doirasida bajarishga urinadilar. Badiiy adabiyotni o'qib berish, san'at asarlari va amaliy san'at buyumlarini tomosha qilish, musiqa va ashula eshitish bolalarda estetik hisni uyg'otardi, shu bilan bir qatorda axloq qoidalari va normalarini singdirib boradi.

Ikkinchi guruh metodlariga amaliy va o'yin metodlari kiradi. Bular: o'yin-mashqlar, mashqlar, muammoli vaziyatlar, izlanuvchanlik faoliyati, pedagogik masalalarni yechish, didaktik va harakatli, sahnalashtirilgan o'yinlar, inssenirovkalardir; bolalarning hamma faoliyatiga rahbarlikni ham shu metodlarga kiritish mumkin (o'yinning hamma turlari, mehnat, tasviriy faoliyat va sh.k.). Hamma metodlar axloqiy tasavvur va tushunchalarni mustahkamlashga, bolalarda axloqiy tajribani to'plashga, axloq normalari va qoidalarini ongli ravishda egallab olishlariga yordam beradi.

Mashq (o'yin kichik bog'cha yoshidagi bolalar uchun mashq hisoblanadi) axloqiy xulq va odatlarni tarbiyalashning eng ta'sirli usulidir. Unga qoidalarni mashq qildirish, foydali odatlarni qaytarish kiradi. Eslatish — o'rgatilgan tajribani yangilash, nazorat — o'rgatilgan odatning to'g'ri va samarali ekanligini tekshirishdir. O'z-o'zini nazorat qilish, bolani faollashtiruvchi shaxsiy gigiyena qoidalarini, ovqatlanish madaniyatini, ko'chada, bolalar bog'chasida xulq madaniyatini egallashni mashq qildirish bunga misol bo'la oladi.

Axloqiy tarbiya berishda uchinchi guruh metodlari ham muhim rol o'ynaydi. Bu guruh metodlaridan tarbiyachi bolalarda ijobiy axloqiy sifatlarni mustahkamlash, bola xulqidagi salbiy tomonlarni yo'qotish maqsadida foydalanadi. Bunda tushuntirish, ishontirish, suhbat shakllari qulay bo'ladi.

Tushuntirish bolalarni xulq qoidalari bilan tanishtirishda keng qo'llaniladi va ko'pincha ko'rsatish bilan bog'lab olib boriladi.

Ishontirish tarbiyachining faoliyatida katta yordam beradi («Kasal bo'lmaslik uchun ovqatlanishdan oldin qo'lni yuvish kerak», «O'rtog'ini urish yomon»). Rag'batlantirish va jazolash axloqiy tarbiyaning metodi bo'lib, u asosiy metodlarga ta'sir etishning o'ziga xos vositasi bo'lib xizmat qiladi. Tarbiyachi boladagi ijobiy xulqni qo'llab-quvvatlash, bunday xatti-harakatni faollashtirish yoki bo'lmasa bolani yomon qiliqlardan qaytarish uchun rag'batlantirishdan foydalanadi.

#### 9.4. Bolalar jamoasining shakllanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar

«Jamo» soʻzi lotincha «*collectivus*» soʻzining tarjimasini boʻlib, omma, birlashma, yigʻilma, guruh maʼnolarini anglatadi. Aniqroq aytiladigan boʻlsa, jamoa bu kishilardan iborat guruh demakdir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi ahamiyati toʻgʻrisidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davridanoq bildirilgan.

Kishilarning jamiyatda birga yashashi, oʻzaro bir-birini qoʻllab-quvvatlashi, ozchilikdan koʻpchilikning afzalligi haqida paygʻambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hadislarida: «Ikki kishi bir kishidan yaxshi, uch kishi ikki kishidan yaxshi, toʻrt kishi uch kishidan yaxshi, koʻpchilik bilan birga boʻlinglar. Tangri ummatlarini faqat toʻgʻri yoʻlda borishlikka birlashtiradi», deyilgan. Kishilarning boshiga yaxshi kun ham, yomon kun ham tushganda, albatta, xalq, qarindosh-urugʻ madadkor boʻladi. Buni biz urf-odatlarimizda koʻrishimiz mumkin. Masalan, hasharlar, toʻyga toʻyona bilan kelish va h.k.

Shaxsni shakllantirishning muhim omillari boʻlgan jamoa toʻgʻrisidagi taʼlimot axloq tarbiyasida muhim oʻrinni egallaydi. Buning uchun bolalarni asta-sekin, avval bir necha kichik-kichik guruhlarda uyushtirib, soʻng birgalikda biron ishni bajarishga tortish kerak. Bunda qoʻyilgan maqsad bolalarga tushunarli boʻlishi kerak. Umumiy ish har bir bola oʻziga boʻlsa ham ishtirok etadigan qilib tashkil etilishi lozim. Bunday xususiyatlarni tarbiyalashda bolalar bayramlari, birgalikdagi mehnat faoliyatlarining oʻrni beqiyosdir.

Bolalar oʻyinlari va mehnatining jamoa tusida boʻlishi alohida ahamiyatga ega. Bular bolalarni birga harakat qilishga, oʻz intilishlarini umumiy maqsadga yoʻnaltirishga, oʻz ishini va maqsadini boshqarishga oʻrgatadi.

Bola yoshligidan boshlab oʻzida boshqalar bilan, bolalar jamoasi bilan muloqotda, birgalikda boʻlishga ehtiyoj sezadi. Ammo kichkina bola jamoani oʻzi tanlay olmaydi. U biron jamoaga sharoit taqozosi bilan kelib qoladi. Yashab turgan joyidagi yoki ota-onasining ish joyidagi maktabgacha taʼlim muassasalariga qatnay boshlaydi. Bu muassasalarga bola oʻz xohishi bilan bormaydi. Shunga qaramay bola bu jamoaning qonun-qoidalariga boʻysunishi, uning tartiblariga rioya qilishi shart. Aks holda uni jamoa kechirmaydi. Natijada bola oʻzi yashayotgan muhitning axloq, odob tajribalarini egallashga majbur boʻladi. Shuning uchun



buyuk mutafakkir Alisher Navoiy bola yoshligidan oqil va fozil kishilar jamoasida qatnashib, ularning suhbatlaridan bahramand bo'lishini tavsiya etadi.

Bolalar o'zaro yashayotgan jamoaga bo'lgan munosabatiga qarab, bir necha guruhga bo'linadi. Birinchi guruh ijobiy xulqli bolalar bo'lib, ularni jamoa a'zolari hurmat qiladilar. Bu toifadagi bolalar jamoasining faollari bo'lib, tarbiyachi jamoa munosabatlarini o'rnatishda ularga suyanadi. Ikkinchi guruhga kiruvchilar faollar tashabbusiga qo'shiladi va barqaror bo'lishadi. Uchinchi guruhdagilar tortinchoq bo'lib, o'yinda qatnashmaydi, mashg'ulotlarda ham sust bo'lishadi, bunday bolalarga alohida e'tibor va yordam berish zarur.

Tarbiyachining har bir bolaga nisbatan diqqat-e'tiborli bo'lishi va pedagogik mahorat bilan yondashishi talab etiladi.

Bolalar jamoasini shakllantirish uchun ma'lum shart-sharoitlar zarur. Bular quyidagilar:

- bog'cha xodimlarining ahil jamoasi mavjud bo'lishi;
- bolalar hayotini to'g'ri tashkil etish;
- o'yinchoqlarning bolalar yoshiga, qiziqishiga mos kelishi va miqdor jihatdan bolalar soniga yetarli bo'lishi;
- bolalarda o'zaro ahillik, g'amxo'rlik, jamoatchilik, insoniylikni tarbiyalashga yordam beruvchi mashg'ulotlar;
- har xil qiziqarli faoliyatlarni tashkil etib berish;
- oila bilan mustahkam aloqa o'rnatish;
- bolalarni axloq normalari va qoidalariga o'rgatib borish;
- bolalar muassasalarida ijobiy xayrixohlik muhitini yaratish.

Har bir yosh guruhi bolalarining jamoachilik munosabatlariga rahbarlik qilish «Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi»da belgilab berilgan. Dasturda har bir yosh guruhi uchun jamoadagi axloq normalari va qoidalari belgilangan.

### **9.5. Jamoatchilikni tarbiyalash jarayonida axloqiy sifatlarni shakllantirish**

*Insonparvarlik hissini tarbiyalash.* Maktabgacha yoshdagi bolalarda tarbiyalanadigan axloqiy xususiyatlar, xulq-atvor qoidalari orasida insonparvarlik hissi muhim o'rin tutadi. Insonparvarlik hissi axloq normalari va qoidalarini o'rgatish asosida rivojlanadi.

Buning uchun bolalarni yaxshi ishlarni qilishga o'rgatib borish kerak. Insonparvarlikni tarbiyalashda bolalarning yoshini e'ti-

borga olish zarur. Kichik bolaga yaxshi bo‘l deganingiz bilan yaxshi bo‘lib qolmaydi, chunki yaxshilik bilan yomonlikni to‘g‘ri tahlil qilishga uning hayotiy tajribasi yetishmaydi. Bu yoshdagi bolalarni yaxshi ishlar qilishga o‘rgatiladi: yiqilib tushgan bolani turg‘azib qo‘yishga yordam berish, uning ustki kiyimlarini qoqib qo‘yish, yupatish, o‘simlik va hayvonlarni parvarish qilish, o‘yinchoq‘ini o‘rtog‘iga berib turish, tik turgan kishiga joy ko‘rsatish, eng muhimi boshqalarga ko‘rsatgan xizmatidan xursand bo‘lishga o‘rgatish.

*Kamtarlik, to‘g‘rilik, halollik va quvnoqlik xususiyatlarini tarbiyalash.* Bu xususiyatlar sog‘lom shaxsni tarbiyalashning eng muhim omillaridan hisoblanadi.

Kamtarlik har bir kishining eng muhim va oliyjanob fazilatlaridan biridir. Bu asosan, maktab yoshidan tarbiyalanadi. Ammo maktabgacha yoshdan boshlab, bolalarga kamtarlik hissini singdirib, manmanlik, takabburlik va maqtanchoqlikni yo‘qotib borish zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘zlarini boshqa bolalardan ustun qo‘yishga urinadilar, ba‘zan ota-onalarining kasbi bilan ham maqtanadilar. Bunday holatda ota-onalar bilan tegishli ish olib borish, bolalarga har bir kasbning zarurligi va muhimligini aniq misollar bilan tushuntirish zarur. Bolalar ayrim ishlarning uddasidan chiqib, boshqa bolalarni kamsitsalar, tarbiyachi bolaga biror narsani bilmagan o‘rtog‘iga o‘rgatish kerakligini, o‘z-o‘zini maqtash yarashmasligini tushuntiradi.

Sofdillik va rostgo‘ylikni tarbiyalash yolg‘onchilik, vijdonsizlik paydo bo‘lishining oldini olish va unga qarshi kurash bilan uzviy bog‘liqdir.

Ba‘zi bolalar o‘zlari to‘qigan, kattalardan eshitgan ertaklarini tushlarida ko‘rgandek qilib ko‘rsatishga urinadilar. Bunday holda ham urishmasdan «Ertak» to‘qishni yaxshi bilgani uchun maqtash kerak.

Shunday qilib, bolalardagi xarakterning ijobiy namunalarini, ularning yosh xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda axloqiy tarbiyaning hamma samarali usullari bilan tarbiyalanib borilsa, ijobiy natijalarga erishish mumkin.

*Vatanparvarlikni, Vatanga muhabbatni tarbiyalash.* Vatanga muhabbat eng chuqur hislardan biridir. Bizning davlatimizda Vatanga muhabbat hissi baynalminalchilik hissi bilan uyg‘unlashib ketgan. Vatanga muhabbat hissi maktabgacha yoshdagi bolalarda kattalar tomonidan bolalarning ruhiy taraqqiyotini, ular tafakkurining aniq va obrazlilikini e‘tiborga olgan holda ma‘lum izchillik bilan

tarbiyalanib boriladi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarda Vatanga muhabbat hissini, ularga yaqin va tanish bo'lgan aniq faktlar, yorqin misollar orqali tarbiyalab boriladi.

*Baynalmilal tarbiya.* Respublikamizda turli millat vakillari yashaydi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda baynalmilalchilik, xalqlar do'stligi hislarini tarbiyalab borish muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni baynalmilalchilik ruhida tarbiyalash asosida ularda boshqa millat va xalqlarga ijobiy munosabat, turli xalqlar hayotiga qiziqish hissini paydo qilish maqsadi yotadi. Bunday his-tuyg'ularni rivojlantirish, asosan, taqlid qilish orqali mukammallashib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga baynalmilalchilik his-tuyg'ularini shakllantirishda qar-dosh millat vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazish, maxsus mash-g'ulotlarda ularning urf-odatleri, madaniyati, san'ati, tabiati to'g'risidagi adabiyotlarni o'qib berish, suhbat o'tkazish, rasmlar ko'rsatish, diafilmlar namoyish etish, turli millat bolalari hayoti to'g'risidagi hikoyalarni o'qib berish foydali bo'ladi.



#### *Nazorat savollari*

---

1. Maktabgacha yoshdagi bolalikning turli bosqichlarida jamoa turmush tarzini tashkil etishning va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirishning xususiyatlari.
2. Bolalar jamoasini shakllantirishga yordam beruvchi qanday sharoitlarni ko'rsata olasiz?
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalash vazifalariga nimalar kiradi?
4. Axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillari.



## *10-bob.* MEHNAT TARBIYASI

### **10.1. Mehnat tarbiyasining mohiyati**

Mehnat inson hayoti uchun, uning farovon turmush kechirishi uchun hamisha asos bo'lib keladi. Mehnat — faqat shaxsiy moddiy farovonlik manbayigina emas, balki el-yurtga xizmat qilish, vatanimiz gullab-yashnashi va uning qudratini oshirish manbayi hamdir.

Ota-bobolarimiz asrlar davomida mehnatni ulug'lab kelishgan. Ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan ilmiy-badiiy kitoblar, me'morchilik obidalari, san'at asarlarining barchasi mehnatning mahsulidir.

Buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniy inson kamolotida mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etgan. U har bir hunar egasini mehnatiga qarab turlarga bo'lgan. Og'ir mehnat sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltirgan. Ayniqsa, ilm ahli — olimlar mehnatiga alohida e'tibor berish, hayrixoh bo'lishga chaqirgan. Ularni ma'rifat tarqatuvchilar deb bilgan. Shu bilan birga og'ir mehnat qiluvchilar — konchilar, dehqonlar haqida gapirib, ularning mehnatini rag'batlantirib turish kerak, degan edi.

Olim bolalarni eng kichik yoshdan mehnatga o'rgatish metodlari, yo'llari haqida fikr yuritib, shu bilan birga inson har tomonlama kamolga yetishi uchun ilmi bo'lishi ham kerak degan g'oyani ilgari suradi.

Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir Alisher Navoiy mehnat-sevarlikni chinakam insonning eng asosiy xususiyati deb bilgan. Mehnat kishini bezashini, uni har tomonlama kamol toptirishini yuksak ko'tarinki ruh bilan ifoda etgan. Yosh avlodni sidqidildan mehnat qilishga, mehnatni qadrlashga chaqirgan.

Sharqning buyuk ma'rifatparvarlari yosh avlodni mehnat ta'limi va tarbiyasi masalalariga alohida e'tibor berganlar. Ular o'z asarlarida yosh avlodda qiziquvchanlik, tejamkorlik, do'stlik-odamiylik kabi insoniy fazilatlar faqat mehnat orqaligina vujudga kelishini g'oyatda ta'sirchan ifoda etganlar.

O'zbek ma'rifatparvarlaridan Abdulla Avloniy yoshlarning biror kasb bilan mashg'ul bo'lishini birinchi galdagi muhim ish deb hisoblagan. «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida dangasalik, yalqovlikni qoralab, harakatchanlikni ulug'lab shunday yozgan: «Sihatimiz, saodatimiz, qanoatimiz, sabrimiz, fazilatlarimiz, butun hayotimiz harakatimizga bog'liq. Harakatsiz kishilar har narsadan mahrum, doim boshqalarning yordamiga muhtoj bo'lib qolurlar». Shuning uchun bolalarni hunar o'rganishga chaqirib, kishilarni biror kasb bilan shug'ullanishga undab, yoshlar bu ko'mirchilik, bu temirchilik menga munosib ish emas, deb dangasalik qilib, ishsiz yursa, zo'r ayb hisoblanishini uqtirgan.

Yosh avlodni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda xalqimiz tomonidan yaratilgan mehnatni ulug'lovchi maqollarning o'rni beqiyos. O'zbek xalq maqollarida mehnat tufayli inson o'z baxtini topishi mumkinligi, mehnat saodatga erishish kaliti ekanligi g'oyasi birinchi o'rinda turadi:

Halol mehnat — yaxshi odat,  
Berur senga saodat.

Mehnatli non — shakar,  
Mehnatsiz non — zahar.

Uzoq umrning siri mehnatda.

Mehnat shaxsni har tomonlama kamol toptirishning asosiy omilidir. Shuning uchun har bir bola maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab mehnat jarayonida ishtirok etishi kerak. Bolalar bog'chasida, oilada bajariladigan, murakkab bo'lmagan har bir topshiriq bolaning kundalik vazifasiga aylanishi lozim.

Bola mehnatning ahamiyatini, mohiyatini tushunib yetishi uchun tarbiyachi kattalar mehnati, bolalarning o'zlari bajaradigan mehnat turlarini kuzatish bo'yicha ekskursiyalar uyushtiradi.

Quruvchilar mehnatini kuzatish jarayonida bolalar g'isht teruvchining, bo'yoqchi, duradgorning mehnati bilan tanishadi. Bolalar qurish bilan tanishish davomida bilib olgan barcha tasavvur va tushunchalari, ularning ko'zi oldida ajoyib bino barpo etgan kishilar mehnatining go'zalligi namoyon bo'ladi.

Mehnat bolalardan diqqat, o'tkir zehnlilik, topqirlik, ijodkorlik, qobiliyatlarini egallashni talab etadi. Mehnat jarayoni bola nutqini yangi so'zlar bilan boyitadi.

## 10.2. Bog'cha yoshidagi bolalarga mehnat tarbiyasi

Maktabgacha ta'lim muassasalarida mehnat tarbiyasi ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Bolalarning o'zlarini mehnatga o'rgatish.

2. Kattalar mehnati bilan tanishtirish.

Mehnat qilish muntazam ravishda bo'lib, unda hamma bolalar ishtirok etsa, kattalar mehnati bilan tanishtirib borilsa, u tarbiya vositasiga aylanib boradi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni quyidagi mehnat tur-lariga jalb qilib boriladi: o'z-o'ziga xizmat qilish, xo'jalik-maishiy mehnat, tabiat quchog'idagi mehnat, qo'l mehnati.

*O'z-o'ziga xizmat qilish* bolalar mehnatining bir turi bo'lib, unda bolalar ilk yoshdan boshlab, mustaqil ovqatlanishga, yechi-nib-kiyinishga, o'yinchoqlarini yig'ib qo'yishga o'rgatiladi. Bo-lalar mehnatining bu turi bolalarni tartibli, intizomli, odobli bo'lishga undaydi. Mustaqillik sifatleri rivojlanadi.

Bolalar *xo'jalik-maishiy mehnatga* bolalar bog'chasida va oilada o'rgatib boriladi. Mashg'ulotdan so'ng stol ustidagi buyumlarni yig'ishtirish, choy idishlarini, o'yinchoqlarini yig'ishtirish va ho-kazolar bunga misol bo'la oladi.

*Tabiatdagi mehnat* bolaning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Mehnatning bu turi orqali bolalar tuproqni ekin ekishga tayyorlash, ko'chat o'tqazish, hayvonlarni parvarish-lash kabi malakalarni egallab oladilar.

*Qo'l mehnati.* Mashg'ulot, o'yin, mehnat faoliyati uchun bola-larning o'z qo'llari bilan buyumlar tayyorlashi qo'l mehnati hisob-lanadi. Qo'l mehnati orqali bolalarda ijodkorlik, topag'onlik, bilim-donlik xislatlari o'sadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning mustaqil meh-natini tashkil etishning ikki shaklidan: yakka tartibdagi mehnat va jamoa tartibidagi mehnatdan foydalaniladi. Tarbiyachining vazifasi — bolalarni tarbiyalash maqsadida ularning imkoniyatlarini eng ko'p darajada ro'yobga chiqarishdir.

*Yakka tartibdagi mehnat* turli maqsadlar bilan amalga oshiriladi. Ko'p hollarda u tarbiyachi tomonidan bolalardan kimdir ta'lim beruvchi mashg'ulotda qatnasha olmagan yoki o'z shaxsiy xusu-siyatlari tufayli biror mehnat jarayonini o'zlashtira olmagan taqdirda tashkil etiladi. Tarbiyachining vazifasi bolaga mehnat jarayonining yaxlit yoki uning eng og'ir qismini bajarishini o'rgatishdan iborat.

Yakka tartibdagi mehnat bola mazkur mehnat jarayoniga qiziqish bildirib, uni xatosiz bajarishni o'rganishga intilganda, uning tashabbuskori bo'lib maydonga chiqqanda yuz beradi. Masalan, 5 yoshli qizaloq tarbiyachidan o'zini ertaga navbatchi qilib tayinlashini so'rab murojaat qiladi: «Men qoshiqlarni taxlashni o'rganib olaman. Bugun yanglishib, ularni noto'g'ri taxladim. Ertaga, albatta, ularni to'g'ri joylashtiraman». Bu o'rinda mehnatga rahbarlik qilish hali o'zlashtirib olinmagan mehnat usullarini shakllantirishga qaratiladi. Ko'p hollarda tarbiyachi maslahat berishdan, o'z-o'zini nazorat qilish, mehnat usullarini eslatishdan foydalanadi. Katta guruhlardagi yakka tartibdagi mehnat u yoki bu mehnat jarayonlariga qiziqishning shakllanish ko'rsatkichi bo'lib qoladi. Bolalar jonivorlarni parvarish qiladilar, o'yinchoqlar yasaydilar, biror narsa tikadilar. Umuman o'z tashabbuslari bilan o'zlari uchun qiziqarli bo'lgan mehnat turlari bilan shug'ullanadilar.

*Bolalarning jamoa bo'lib mehnat qilishini* maktabgacha yoshdayoq kuzatish mumkin. Jamoa mehnatiga quyidagilar xosdir: umumiy maqsad, ishlovchilar o'rtasida mehnat taqsimoti, mehnatning jamoa natijasi, mehnat ishtirokchilarining umumiy mas'uliyati, ularning bir-biriga bog'liqligi. Jamoa mehnatining eng oddiy turi umumiy mehnat bo'lib, u bolalarni ikki jihatdan birlashtirish bilan ajralib turadi, u ham bo'lsa umumiy maqsad va mehnatning umumiy natijasidir. Mehnat jarayoni xuddi yakka tartibdagi kabi kechadi. Masalan, har bir bola bir tup o'simlik barglarini artadi, umumiy yakunda esa hamma o'simliklar toza bo'ladi. Natijalarni yagona mehnat natijasi qilib umumlashtirish har kimga o'zining ishi jamoa qilgan ishiga bog'liqligini tushunish imkonini beradi. Biroq bolalar tegishli mehnat jarayonini o'rganib olganlaridan keyin umumiy mehnatni joriy qilish mumkin.

Umumiy mehnat tarbiyachining umumiy maqsadni qo'yishidan, umumiy ish hajmini belgilashidan, nima uchun mehnat bolalar guruhi tomonidan bajarilishi mumkinligini tushuntirishidan boshlanadi: «Bizning ishimiz ko'p, qo'g'irchoqning hamma idishlarini yuvishimiz kerak. Har kim bittadan buyumni yuvsan, hamma idishlar toza bo'ladi».

So'ngra bolalar o'z ish o'rinlarini mustaqil tashkil etadilar: zarur mehnat jihozlarini tanlab oladilar, ularni qulay qilib joylashtiradilar. Shundan keyin mehnatga kirishish uchun ruxsat so'raydilar. Mehnat jarayonida tarbiyachi bolalarning ishini nazorat qiladi, qo'shni jamoadagilar diqqatini natijaning sifatiga

qaratadi. Agar kerak bo'lsa, ulardan maslahat so'raydi. Mehnatni tez uddalagan bolalarga yana bitta buyumni yuvishni taklif etish mumkin.

**Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning navbatchilik qilishi.** Navbatchilik kundalik mehnatning bir turi sifatida, bolalar mehnat mashg'ulotlarida tegishli mehnat jarayonlarini bajarishni bilib olganlaridan keyin joriy etiladi. Navbatchilik vaqtida bolalarning mustaqil mehnat faoliyati takomillashadi. Navbatchining ishi kattalarga yordam berishga, bolalar ehtiyojini qondirishga qaratilgan bo'ladi. Navbatchilik vaqtida bolalarda topshirilgan ish uchun mas'uliyat, odamlarga nisbatan g'amxo'rlik qilish, mehnat vazifalarini bajara olish odati tarkib topadi. Navbatchilik turlari «MTM ta'lim-tarbiya dasturi»da belgilab berilgan bo'lib, bularga oshxonada, tabiat burchagida, mashg'ulotlarda navbatchilik qilish turlari kiradi.

Oshxonada navbatchilik o'rta guruhda yil boshidan, mashg'ulotlarda navbatchilik o'rta guruhda yilning ikkinchi yarmidan, tabiat burchagidagi navbatchilik katta guruhda joriy etiladi.

Mehnat bolalarga quvonch bag'ishlaydigan qilib rejalashtirilib, u ma'lum izchillik bilan amalga oshirilib borishi, vaqti bolalar yoshiga qarab to'g'ri belgilanishi kerak: kichik yoshli bolalar uchun 10—12 daqiqa, katta guruh bolalari uchun 15—20 daqiqa mehnat qilish maqbul hisoblanadi.

### **10.3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni uyidagi mehnatga o'rgatish**

Maktabgacha yoshdagi bola serharakat, sepg'ayrat bo'lib, u o'zini o'rab olgan dunyoni tezroq bilishga intiladi. Bolaning harakatchanligi, har narsani bilishga qiziqishi, havaskorligi va mustaqil ish qilishga intilishi maktabgacha yoshdagi bolaning xarakterli xususiyatlaridandir. Bu xususiyatlar, avvalo, bolaning o'yinlarida aks etadi. Bolaning tashqi dunyoga bo'lgan munosabati o'yinlarda o'z ifodasini topadi. O'yin bolaning jismoniy rivojlaniishi uchun ham zarur.

Bolalar o'z o'yinlarida atrofdagi hayotni aks ettiradilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrofdagi buyumlarni sezish va idrok qilish bilan juda ko'p aniq tasavvurlar paydo bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning fikrlashi juda konkretidir. Ular o'zlarining o'yinlarida kattalarga taqlid qilishni yaxshi ko'radilar. Masalan, o'g'il bolalar



ko'pchilik vaqtda askarlarga taqlid qilib, dushman ustidan g'alaba qozonishni o'zlariga o'yin qilib olsalar, qiz bolalar ko'pincha qo'g'irchoq o'ynaydilar hamda o'z o'yinlarida uy-ro'zg'or tutishga tegishli hamma ishni qiladilar: uy yig'ishtirish, ovqat pishirish, bolalarini uxlatish, ularni kiyintirish, ovqatlantirish, kinoga olib borish va hokazolar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yinlarida ba'zan ularning kasblarga bo'lgan qiziqishlari ham namoyon bo'ladi. Masalan, oiladagi beshta boladan to'rttalasi oq xalat kiygan shifokorni ko'rishi bilan onasining pinjiga kirib, qo'rqib yig'lasalar, onasi bergan dorini ichmasalar, beshinchi qiz dorini gapso'zsiz ichadi, chunki u ko'p vaqt «doktor opa» bo'lib o'ynagan. U o'z opa-singillariga cho'pdan yasalgan termometrni qo'yib, ularning issig'ini o'lchagan, gugurt bilan «ukol» qilgan. Bolalar maktab-maktab o'yinini yaxshi ko'radilar, har xil ro'znoma, kitoblarni ko'tarib «maktabga» keladilar, «o'qituvchi»ning gaplarini diqqat bilan tinglaydilar.

Ba'zan bolaning stulini yerga yotqizib, uni avtomashina qilib haydaganini, mashina yurg'izishdagi qoidalarni amalga oshirishga harakat qilayotganini ko'rish mumkin. Bola o'yinchoqlarini bir burchakka tartib bilan terib qo'yadi, qo'g'irchoqlarini joy-joyiga o'tqazadi, mashinasiga yuk yuklaydi yoki yukni tushiradi, qumdan «shirinlik» pishiradi, «muzqaymoq» qiladi, uy-joy yasaydi. Bola mehnat o'yini bilan chegaralanib qolmaydi. U o'ziga sotib olib berilgan o'yinchoqlardan tashqari qo'lga tushgan har bir narsani to'plab boradi. Masalan, konfet qog'ozlari, gugurt, charm, sigaret qutilari, daraxt barglari, mix, sim, ip g'altaklarni to'playdi va ularni o'z o'yinida qo'llab, o'zining qurilish ishlarida ishlatadi. Bolalar to'p-to'p bo'lib o'ynaganlarida rahbar bo'lishni, hammasi faqat insoniy, «yaxshi» rolni o'ynashni va albatta, g'alaba qozonishni istaydilar.

Ko'pgina yirik pedagoglar o'yinni mehnatga tayyorgarlik ko'rish, deb hisoblaydilar. A.S. Makarenko: «Bola o'yinda qanday bo'lsa, katta bo'lganida ishda ham ko'p jihatdan shunday bo'ladi», deydi. Buyuk pedagogning aytishi bo'yicha, yaxshi o'yin yaxshi ishga o'xshaydi, har bir yaxshi o'yinning birinchi xususiyati ishchanlik va fikrni zo'r berib ishlatishdir.

O'yin bolani quvontiradi, yaxshi ish ham xuddi ana shunday shodlik beradi. Ishdagi javobgarlik qanchalik katta bo'lsa, o'yindagi javobgarlik ham bamisoli shundaydir. Bu ayniqsa, bolalarning ko'pchilik bo'lib, jamoa bo'lib o'ynaydigan o'yinlariga ko'proq taalluqlidir.

Shuni ham aytish kerakki, tarbiyachilar, ota-onalar bolalarining o'yinlarini tashkil qilganda va o'tkazganda ularga o'yinchoqlar olib berganda «hech kimga berma» demasliklari kerak, chunki biz faqat o'zimiznigina deyvuchi xudbinlarni emas, balki jamoa a'zosini tarbiyalashimiz kerak.

Bolalar o'yini bilan bolalar mehnatining o'zaro uzviy aloqasi bo'lib, o'yin bolalar yoshiga organik bog'langan faoliyatdir. Bu to'g'rida Maksim Gorkiy: «Bola uch yoshgacha ko'ngil ochadigan o'yinlarni istaydi, uning istagi biologik jihatdan qonuniydir. U o'ynashni xohlaydi, u hamma o'yinlarni o'ynaydi va o'z atrofidagi dunyoni hammadan ko'ra o'yinda, o'yin orqali yaxshi va osonroq biladi, taniydi», deb yozgan edi.

O'yinda bolalarning moyilligi va qiziqishlari, atrofdagi hayotga bo'lgan munosabatlari aniq ko'rinadi. Xullas, o'yin bolalarni taraqqiy ettirishning eng muhim vositalaridan biridir. Shuning uchun mohir tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan ustalik bilan yaxshi tashkil etilgan o'yin bolalarni aqliy, jismoniy va axloqiy jihatdan to'g'ri tarbiyalashga yordam beradi va shu bilan ularni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlaydi.

2—3 yashar bolada hamma ishni «o'zi» bajarishga intilish katta. Uning har bir narsani o'zi olishiga, har bir ishni o'zi qilishiga intilishi, tabiiydir. Uni hech kim majbur qilmaydi, lekin qilgan ishining samarasi uni xursand qiladi. Demak, shunday ekan, ota-onalar bolalarni yoshligidanoq mehnat qilishga psixologik jihatdan tayyorlab borishlari kerak.

Avvalo, bolani o'ziga o'zi xizmat qilishga o'rgatish kerak. Chunki bolaning ishni o'zi qilishiga bo'lgan qiziqishi asta-sekin oilada tarbiyalanadi. Ota-onaning talabi bo'yicha, bola o'zining kiyim-kechaklarini kiyadi, yuvinadi. Agar 2—3 yashar bolaga kiyinish va yuvinishni o'rgatmasdan, uni o'ziga qo'yib bersangiz, u bu ishni «mustaqil» bajaradi: paypog'ining tovonini albatta oyog'ining yuziga qilib kiyadi, tugmasini qo'shni tugma teshigiga taqib qo'yadi, botinkalarini poyma-poy kiyadi. Yuz yuvishda esa, faqat ho'l qo'llari bilan yuzini ishqalab, uni tozalash bir yoqda tursin, aksincha, iflos qilib qo'yadi. Shu bilan birga bola o'z ishini bajarib bo'lgandan keyin jismonan ham, ma'nan ham charchaydi, aftbasharasi kulgili, o'zi beso'naqay bo'ladi. Sababi: bolada mana shu ishlarni bajarish iqtidori va ko'nikmasi yo'q.

Ba'zi ota-onalar bolalarini bironta ishni bajarishda beso'naqayligini, ishni tez bajara olmasligini ko'rib, bolalariga ish top-

shirmaydilar yoki topshirgan taqdirda ham «bolaga ish buyur, ketidan o'zing yugur» maqoliga asoslanib, ishni o'zlari ado qilib qo'yaqolishadi. Natijada bola kundan kunga mehnat qilishdan uzoqlashadi yoki qilayotgan ishini oxirigacha yetkazmasdan «oyimning o'zlari qilib oladilar» deb tinchib, doimo biror kishining yordamiga tayanib, shunga o'rganib o'sadi.

Ota-onalar, tarbiyachilar, oila a'zolari bolalar oldiga yangi va yangi vazifalar qo'yib («botinkangni kiy», «hovlining ma'lum bir joyini supur» singari vazifalarni topshirib), ishni bajarishni o'rgatib, tushuntirib va asosan ishni bajarish tartibini shoshilmasdan, ba'zan bir necha marta takrorlab ko'rsatishlari lozim. Bolani mehnatga o'rgatishda ota-onalar uni hurmat qilmog'i kerak. Bolaning qilgan nojo'ya ishi ustidan kulmasdan, uni masxara qilmasdan, jerkib bermasdan, aksincha, uning mehnatidagi kichkinagina bo'lsa ham muvaffaqiyatni ko'ra bilishlari kerak. Shu bilan birga ota-onalar birorta ish qilayotganlarida bolalariga tez-tez murojaat qilib, ularning kuchiga yarasha topshiriq berib turishlari, «menga yordam ber», deb murojaat qilishlari yaxshi natija beradi. Bolalar o'zlariga nisbatan qilingan mana shunday murojaatni jon-u dili bilan bajaradilar. Masalan, 4 yashar bola o'zining o'yinchoqlari turgan burchagini o'zi yig'ishtira oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolani o'ziga o'zi xizmat qilishidan tashqari uy uchun foydali bo'lgan mehnatga ham o'rgatish kerak. Bola ota-onalar rahbarligida o'z yoshiga, kuchiga yarasha asta-sekin oddiy, yengil, ammo foydali mehnatni bajarishni o'rganadi. Bunda, birinchi navbatda, oiladagi kattalar shaxsiy namunasining ahamiyati beqiyos.

Ikki yashar o'g'ilchasining uy mehnatida yordam berishini bilgan dadasi tashqaridan kirib, jo'rttaga hamma eshitsin deb, baland ovoz bilan o'choqqa olov yoqish uchun o'tin olib kelish kerak ekanligini aytadi. Buni eshitgan o'g'li kattalarga imo-ishora bilan murojaat qilib, o'zi o'tirgan bolalar stulidan pastga tushirib qo'yishlarini iltimos qiladi va stuldan tushib, katta qadamlar bilan tashqariga chiqib ketadi. U jiddiy tus bilan bitta tarashani ko'tarib kelib, o'choq oldiga qo'yadi va yengil nafas olib, qo'lini qo'lga artadi, hammaga bir nazar tashlab chiqadi, kattalarning «barakalla»sini eshitib, ishini davom ettirishga ketadi. Bu bolaning o'ziga ishonchini orttiradi, kuchiga kuch qo'shadi, uni ilhomlantiradi.

Ba'zi bir mehnatsevar, serg'ayrat ota-onalar o'g'li yoki qizi qo'lidan ish kelmaydigan no'noq, mehnatdan o'zini olib qocha-

digan ishyoqmas bo‘lib o‘sayotganini ko‘rib hayron bo‘ladilar. «Bu kimga o‘xshadi ekan?» deb ajablanishadi. Holbuki, farzandining uquvsiz yoki yalqov bo‘lishiga ota-ona ham sababchi bo‘ladi. «Hali bu yosh, suyagi qotgani yo‘q. Ish bo‘lsa qochib ketmas, katta bo‘lganda qilar», deb uni avaylaydilar. Bu xunuk oqibatlariga olib kelishi tabiiydir. Bolani yoshligidan mehnatga o‘rgatib borish muhimdir.

Ba‘zi ota-onalar bolalarga qaychi, bolg‘a, mix, igna ushlashni man qiladilar. Bu — noto‘g‘ri. Hayot va kuzatishlar shunday xulosaga olib keldiki, bolalarga shu oddiy asboblardan bilan muomala qilish o‘rgatilsa, ular kattalarning qilgan ishlariga qarab ham oddiy asboblarni to‘g‘ri ushlashni, ulardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rganadilar. Kartoshka tozalaydigan maxsus pichoq bilan muomala qilish o‘rgatilsa, 5—6 yashar bola kattalarning iltimosiga ko‘ra kartoshka, sabzi artishi mumkin.

Bolani mehnat qurollari bilan tanishtirishni asta-sekin, darajama-daraja amalga oshirish mumkin. Bunda asboblardan qanday foydalanishni ko‘rsatib, tushuntirib berish lozim.

Bola mehnatining samarasi va mahsuloti katta yoki kichik bo‘lishiga qaramasdan hurmat qilinishi kerak. Bolaning yosh xususiyatlarini e‘tiborga olib, ishni bajarish jarayonida tez-tez dalda berib turmoq kerak. Bola ishni sekin bajarsa, uni shoshiltirmaslik, agarda ish bajarishda qo‘pol harakatlar qilsa, unga ta‘na qilmaslik kerak. Ba‘zan shunday hollarni ham uchratamizki, bola bironta ishni noma‘qul qilsa, ayrim ota-onalar buni bolaga har doim eslatib, uning ish bajara olmasligini ta‘na qilib, kamsitib, bolani ishdan sovutadilar.

Mehnat qilish jarayonida bolani zeriktirib qo‘ymaslik uchun unga davomli ish bermaslik kerak. Shuning bilan birga hamisha bir xil ish topshirmasdan, ishning vaqtini chegaralab, uni xilma-xil qilib turish zarur. Aks holda bola ishdan bezor bo‘ladi va ish bolani zeriktiradi. Masalan, uyni bezatish uchun parvarish qilinadigan gullardan oleandr (tolgul)ning barglari changini artishni topshirish bolani zeriktirib qo‘yadi. Chunki, bu gulning barglari mayda va ko‘p. Agarda fikus guli barglarining changini artish topshirilsa, bu bolaga ma‘qul tushadi, chunki uning barglari katta va yapaloq.

Bolaga topshirish mumkin bo‘lgan ishlardan kartoshka tozalash, idish-tovoq yuvish, uyni yig‘ishtirish, uy oldidagi gulzorda ishlash, do‘kondan non sotib olib kelishni ko‘rsatish mumkin.

Do'kondan hamisha birorta narsa (non, choy, qand, qatiq, gazeta, gugurt, sovun, tish pastasi) olib kelib turishni bolaga topshirish foydalidir. Shunday qilganda bola javobgarlikni sezadi. O'zni bilan shu narsani ham qayd qilish kerakki, bolalarga tamaki, spirtli ichimliklar sotib olib kelishni topshirish mutlaqo mumkin emas. Mehnat jarayonida ish o'ngidan kelishi, zerikarli bo'lmasligi, vaqtning tez o'tishini ta'minlash uchun ishga doir ashulalar aytishni bolaga o'rgatish yaxshi.

Agar oilada bitta bola bo'lsa, uni ham, albatta, mehnatga va ayniqsa, jamoa bo'lib mehnat qilishga o'rgatish kerak. Buning uchun eng yaxshi vositalar: barcha oila a'zolari ish qilayotganda bolaga ham yoshiga yarasha vazifa topshirish yoki qo'shni bolalar bilan birgalashib ishlashni tashkil qilish zarur.

A. S. Makarenkning ota-onalarga bergan maslahatlariga asoslanib, bolaga besh yoshgacha yaxshi tarbiya berish kerak. Chunki, bu vaqtda bola konkret fikrlaydi, uning tashqi sezgi organlari nihoyatda taraqqiy etgan bo'ladi. Oiladagi kattalar, ota-onalar bola uchun mo'tabar bo'lib, bola kattalarga taqlid qiladi, ularning gap-so'ziga e'tibor qiladi. Keyingi tarbiya oilada berilgan dastlabki tarbiyaga asoslansa, maktabdagi tarbiyaviy ish oiladagi tarbiyaning tabiiy davomi bo'ladi. Xuddi shunday, bolaga mehnat tarbiyasini ham kichik yoshidanoq oilada bermoq kerak.

Bolalarni mehnatga psixologik jihatdan tayyorlash nazarda tutilganda, bu faqat mehnat malakalari bilan chegaralanib qolmasligi lozim. Asosiy maqsad bolada har qanday mehnatga ham hurmatni tarbiyalashdan iboratdir. Bolani mehnat qilishga o'rgatish bu oddiy mexanik mashq bo'lmasdan, balki asta-sekin bolaga mehnatning mohiyatini, mehnat bu ijtimoiy hodisa ekanligini tushuntirishdan ham iboratdir.

Boladan boshlagan ishni oxirigacha yetkazishni, uni o'ldajo'lda qoldirmaslikni talab qilish muhimdir. Bu bolada iroda kuchini tarbiyalaydi. Agar bolada kichik yoshidan boshlab ishni bajarishda tirishqoqlik tarbiyalanmasa, u ishga kirishishdan oldin, ishni bajarish davomida ishni yoqtirmasdan, qiynalib bajaradi.

Mehnat unga ma'qul tushmaydi. Ota-onalar bolalaridagi ish-yoqmaslik kabi xususiyat bilan qiziqib ko'rsalar, uning sababini aniqlab olishlari qiyin emas.

Erkin o'yindan majburiy mehnatga o'tish bolaning ichki dunyosida katta o'zgarish yasaydi, uning taraqqiyotida yangi davr ochadi. Chunki, o'yindagi tirishqoqlik bilan mehnatdagi tirishqoqlik

o'rtasida, uning mazmunidan qat'i nazar farq bor. Endi faqat o'yindagina emas, balki mehnatda maqsadga erishish zarur. Mehnatda maqsadga erishishda tirishqoqlikka odatlanish sistemali ravishda mehnat qilish, zo'r berib ishlay bilishning ahamiyati katta.

Bola yoshligidan o'z kuchiga yarasha mehnat qilishga o'rgatilar ekan, mehnat qilish bolaning tinkasini quritmasdan, balki uning hamma vaqt mehnat faoliyatiga tayyor ekanligidan darak beradi. O'yindan mehnatga o'tish tayyorgarligiga ega bo'lmagan bolada esa, qandaydir bir qarama-qarshilik paydo bo'ladi. Unda faoliyat ishtiyoqi bo'lishi bilan birga, mehnat qilishdagi zo'r berishga nafrat tuyg'usi ham bor. Agar mana shu qarama-qarshiliklar o'z vaqtida bartaraf qilinmasa, bola erinchoq bo'lib qoladi va umuman bolaning faolligi pasayishi mumkin.

Mehnat qilishga o'rgangan bolaning holati boshqachadir, u hamisha mehnat qilishga tayyor. Mehnatdagi muvaffaqiyat esa uning kayfiyatini ham o'zgartiradi: bola qanoat hosil qiladi, unda o'z kuchiga ishonch paydo bo'ladi va g'ayratiga g'ayrat qo'shiladi.

Mehnat qilishga odatlanish tarbiyalanmasa, bolada har qanday mehnatga nafrat bilan qarash, kishi mehnatidan foydalanish kabi yomon odat tarbiyalanadi. Tajriba yana shuni ko'rsatadiki, ishyoqmas, yalqov bolalarga nisbatan mehnatsevar bolalar axloqiy jihatdan yuksakdir. Shuning uchun ham mehnat axloq tarbiyasining asosi hisoblanadi.

Mehnat qilishni tushuntirish va ishontirish bilan birga qo'shib olib borilgan vaqtdagina bolalarda yuksak axloqiy sifatlar tarbiyalanadi.



### *Nazorat savollari*

---

1. Yosh avlodni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda xalqimiz tomondan yaratilgan mehnatni ulug'lovchi maqollarning o'rni.
2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida mehnat tarbiyasiga o'rgatishning qaysi turlarini ayta olasiz?
3. Maktabgacha yoshdagi bolalar oiladagi mehnat tarbiyasining mazmun-metodlarini yoritib bering.
4. Bolalar mehnatini baholash, rag'batlantirishning qanday yo'llarini bilasiz?
5. Maktabgacha ta'lim muassasalarida mehnat jarayonida foydalaniladigan asbob-uskunalar.



## 11-bob. ESTETIK TARBIYA

### 11.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik tarbiyasi

Estetik tarbiya keng ma'noli tushuncha bo'lib, unga tabiat, mehnat, ijtimoiy hayot, turmush va san'atga estetik munosabatni tarbiyalash kiradi.

Estetik tarbiya o'z navbatida bolalarga har tomonlama tarbiya berishning bir qismi hisoblanadi. U, ayniqsa, axloqiy tarbiya bilan uzviy bog'liq. San'at va hayot go'zalligi bilan tanishtirib borish bolaning aqlini, hissini tarbiyalab qolmay, shu bilan bir qatorda uning xayol va fantaziyasini ham rivojlantiradi. Bolalarda go'zallikni idrok etishni tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalarini his eta bilish: xursandchiliklariga sherik bo'lish, qayg'usini birga baham ko'rish kabi xususiyatlar tarkib toptiriladi.

«Estetik tarbiya» tushunchasi bilan bir qatorda «badiiy tarbiya» tushunchasi ham mavjud. Badiiy tarbiya san'at asarlari orqali tarbiyalashdir. Estetik va axloqiy tarbiyaning o'zaro bog'liqligi shundaki, kishining go'zallikni idrok etishdan quvonishi uning boshqa kishilarga yaxshilik qilganidan xursand bo'lishiga o'xshab ketadi. Aksincha, go'zallikni ko'ra bilmalik, undan zavqlana olmaslik yomon ishlarni qilishga olib keladi.

Tarbiyaning bu turi mehnat tarbiyasi bilan ham bog'liq. Mehnat faoliyati bolalarni quvontiradi, ular biror-bir foydali ishni bajarayotib, o'zlarining imkoniyatlari o'sib borayotganligini sezadilar.

Estetik va jismoniy tarbiya o'rtasida o'zaro bog'lanish bor. Kishining mustahkam sog'lig'i, jismoniy kamolotisiz uning go'zalligini tasavvur etib bo'lmaydi. Uning chiroyli gavda tuzilishi, musiqa ostida chiroyli harakatlar qilishi shular jumlasiga kiradi.

Bolalarning estetik rivojlanishi ularning kundalik hayoti bilan chambarchas bog'liq. *Ilk yoshdagi bolalarni* nazarda tutganda ham ularning estetik tarbiyasi to'g'risida emas, balki ularning hissiy va sensor rivojlanishi to'g'risida o'ylash kerak. Bola yaltiroq bo'yoqdan

xursand bo'ladi, bir maromdagi tovush va harakatlardan huzur qiladi. Bola hayotining birinchi yilida uning sensor-hissiy qabul qiluvchanligi takomillashib boradi. Bunda kattalarning ta'siri alohida o'rinni egallaydi. Kattalarning ochiq yuz bilan so'zlashuvlari bolaga buyumlarning xususiyatlariga ijobiy munosabatda bo'lishlariga yordam beradi. Va aksincha, kattalarning ogohlantiruvchi ovozi, ularning yuzidagi xursandchilik alomati yoki xo'mrayib qarashlari, jerkib berishlari va hokazolar bolalarda shu buyumga yoki uning sifatiga salbiy munosabatni shakllantiradi.

Bola hayotining ikkinchi yilida uning idroki sekin-asta takomillashib boradi. Bola endi faqat borliq xususiyatlarini emas, shu bilan birga san'at asarlaridagi ayrim estetik ifoda vositalarini idrok eta boshlaydi. Bu yoshdagi bolalarda musiqaning quvnoq va g'amginligiga ularning qattiq va sokin ohangiga, ohista va tezligiga javob ta'siri paydo bo'ladi.

*O'rta guruh bolalarida* go'zallikni idrok etish jarayoni aniq ifodalangan, ta'sirli, faol tusda bo'ladi. Bu, ayniqsa, qo'g'irchoq teatri, kino, multfilm, teatrlarni tomosha qilganlarida namoyon bo'ladi. Bu yoshdan boshlab bolalar tanish bo'lgan san'at asarlarini yangi asarlar bilan solishtiradilar va ba'zi bir xulosalar chiqaradilar. Bolalar ertakni hikoyadan, marshni raqsdan, allani o'yindan ajrata boshlaydilar. Katta guruhning oxirlariga kelganda ular musiqani, badiiy asarlarni diqqat bilan tinglaydilar. Ularda ijobiy qahramonlardan quvonib, salbiy qahramonlarning harakatlaridan xafa bo'lish holatlari yuz beradi.

## **11.2. Estetik tarbiyaning vazifalari**

Estetik tarbiyaning vazifalari tarbiyaning umumiy maqsadidan kelib chiqib, bolaning yosh imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda belgilanadi:

1. Bolalarni hayotdagi go'zallikni tushunishga, sevishga, tabiatda, turmushda, yaratuvchanlik mehnatida, ijtimoiy hayotda, kishilarning xatti-harakatlarida bolalarga tushunarli bo'lgan go'zalliklarni ko'ra bilishga o'rgatish. Ularda estetik his, estetik did, estetik munosabatni tarbiyalash. Kuchlari yetganicha hayotda go'zallik yaratishda faol ishtirok etish istagini tarbiyalash.

2. Bolalarni badiiy ijodning turli janrlarida (badiiy asar, musiqqa, qo'shiq, raqs, rasm) yaratilgan san'at asarlarini ko'rish, tushunish va sevishga o'rgatish orqali ularda estetik ong qirralarini



shakllantirish; chiroylini xunukdan, g'amginlikni xursandchilikdan farqlay olish; ranglarni, shakl, tovushlarni bir-biridan farqlay olish kabi sensor etalonlar bilan tanishtirish.

3. Bolalarni san'atning turli sohalarini: ashula, o'yin, o'qish, qayta hikoya qilish, ijodiy faoliyatlarda yanada faolroq harakat qilish, o'zini ko'rsata olishga o'rgatish. Bular orqali bolalarda badiiy ijodiy qobiliyatni, xayolni o'stirish, fazoviy va rang munosabatlarini, ko'rish xotirasi, qo'llarni chaqqon harakatga keltirish olish malakalarini rivojlantirish.

Estetik tarbiya vositalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- bolalarni o'rab turgan muhit, turmush estetikasi;
- tevarak-atrofdan olingan taassurotlar;
- tabiat, san'at asarlari;
- bolalarning tasviriy faoliyatlari;
- bayramlar, ko'ngilochar tadbirlar;
- ma'lum maqsadli va rejali ravishda amalga oshiriladigan ta'lim;
- ma'lum maqsadga qaratilgan va rejali ravishda amalga oshiriladigan ta'lim.

Bolalar bog'chasini o'rab turgan go'zallik muhiti bolalarning har tomonlama kamol topishiga, estetik didlarining tarbiyalanishiga yordam beradi.

Pedagogika sistemasiga xos bo'lgan estetika va etikaning birligini oilada, bolalar bog'chalarida kichkintoylarni tarbiyalashda bema'lol qo'llash mumkin. Lekin haqiqiy turmush estetikasini yaratish uchun tarbiyachi va ota-onalarning yuqori madaniyatli, yaxshi xulqli, xushmuomala, badiiy didli bo'lishlari talab etiladi.

Bolalarni o'rab turadigan chiroyli narsalarning o'zi bolaga hech narsa bermaydi, shuning uchun bolalarni ularni ko'rishga, qadrlashga, baholay bilishga o'rgatish kerak. Tarbiyachi bolalarning diqqatini polning tozaligiga, chiroyli idishlarga, gullarga qaratadi. Har bir yangi narsa, yangi bezak bolalar bilan birga ko'rib chiqiladi. Eng muhimi, hamma narsalarni bolalarda estetik zavq uyg'otadigan qilib ko'rsatish kerak.

Bolalarda estetik zavq uyg'otish uchun ularga kuzatilayotgan narsaning mazmuni va ahamiyatini tushuntirish kerak. Bolalarning hislariga ta'sir etish uchun bu hali yetarli emas. Eng muhimi, bu yerda kattalarning namunasidir. Tarbiyachining o'zi zavqlansa, ortiqcha so'zlarisiz go'zallikka qiziqish uyg'ota oladi va bolalarda estetik kechinmalar paydo qila oladi.

Bolalar tarbiyachidan: «Nima uchun oltin kuz deyiladi?» deb so‘rashadi, tarbiyachi istirohat bog‘iga borib ko‘ramiz, deb javob beradi. Bog‘ga borishganda bolalarga taklif etadi: «Sayr qilib daraxtlarni, yo‘lkalarni kuzatamiz». Bog‘ning eng xushmanzara joyiga kelganda bolalar to‘xtab, atrofga nazar tashlashadi-da: «Nima uchun oltin kuzligini tushundik. Chunki barglar tillaga o‘xshaydi. Ana qizil barglar», deyishadi hayajon bilan. Shamol bo‘lishi bilan barglar yerga tushadi. Yo‘lkalar esa to‘shalgan gilamga o‘xshaydi.

Ko‘chaga sayrga chiqishadi. Tarbiyachi bolalarga shunday deydi: «Biz hozir sizlar bilan bog‘cha ko‘chasidan yurib o‘tamiz. Sizlar diqqat bilan kuzatib boringlar, kim qanday chiroyli narsa ko‘rsa, sayrdan keyin so‘zlab beradi».

Shuni ta’kidlash kerakki, ajoyibot yonimizdadir, bolalarni shu ajoyibotni ko‘ra bilishga, undan hayratlana olishga o‘rgatish lozim. Tabiatning go‘zalligini va ajoyibligini inson hayot go‘zalligiga, san‘at go‘zalligi va ajoyibotiga aylantiradi. Jonajon tabiat estetik tarbiyaning qudratli vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Tovar-atrofdagi tabiat go‘zalligi, hatto eng kichik bolani ham quvontiradi. Uning tuyg‘ular va xayollarda saqlangan go‘zalligi bolalikda, ayniqsa, yorqin va chuqur idrok qilinadi, inson bularni butun hayoti davomida esidan chiqarmaydi.

Sayr, ekskursiya vaqtida tarbiyachi bolalarning diqqatini tabiatning rang-barangligiga, uning o‘zgarishi va uyg‘unligiga qaratadi, tabiat hodisalariga qiziqish uyg‘otadi, unga muhabbat va ehtiyotkorlik munosabatini tarbiyalaydi, asrab-avaylashga o‘rgatadi. Bularning hammasi bolalarning estetik didlarini tarbiyalaydi, ular kishilarning mehnat natijalarini yaqqol ko‘rib, atrofdagi go‘zallik inson mehnati tufayli yuzaga kelishiga ishonch hosil qiladilar.

Tarbiyachi bolalarning g‘unchadagi bir tomchi shabnamda ham, o‘tlarning biri ikkinchisi bilan qo‘shilib ketishida ham, quyoshning nur taratishida ham, oqshom bo‘yoqlarida ham tabiat go‘zalligini ko‘ra bilishlariga yordam beradi.

Bolalar bog‘chasida tabiat burchagi tashkil etiladi. Undagi hayvonlar va o‘simliklarni kuzatish va parvarish qilish bolalarda estetik idrokni, ularga nisbatan to‘g‘ri munosabatni, go‘zallik yaratish xohishini shakllantiradi va qizg‘in faoliyatga undaydi. Yilning yoz faslida polizda, gulzorda, bog‘cha maydonchasida mehnat qilishda ham bolalar estetik zavq oladilar. Kuzda o‘z mehnati mevasini yeyish

bolaga alohida estetik huzur bag'ishlaydi. Dala va bog'larga sayrga borganda tabiatning go'zalligi va boyligidan, u yerdagi dehqonlarning yaratuvchilik mehnatlaridan benihoya zavqlanishadi.

Bolalar bog'chasida bolalarni estetik tomondan tarbiyalashda san'atning har xil turlaridan (musiqa, rassomchilik, haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati, adabiyot va h. k.) foydalaniladi. San'at yuksak estetik zavqning, kishi xursandchiligining tuganmas manbasi bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan bir vaqtda u har bir kishining rivojlanishi, ma'naviy boyishi uchun ham vositadir.

Badiiy asar kishining his-tuyg'ulariga ta'sir etsa, hissiy kechinmalar kishida fikrlashni uyg'otadi. Badiiy asardan hayajonlanish fikrlashni faollashtiradi. Qiziqarli ertak yoki rasm bolada fikrlar o'yinini uyg'otadi. Bu to'g'rida S.Y. Marshak shunday degan edi: «Qizil shapkacha» ertagini bolalar qatorasiga 20 marta eshittishga tayyorlar. Bunga sabab ertak o'z tuzilishi bo'yicha aniq, uning mantiqi va motivi izchil, har qanday bola o'zini ertakdagi qahramon o'rniga qo'ya oladi va «Qizil shapkacha»ni o'ynay oladi». San'atning hamma turlari — adabiyot, musiqa, rassomchilik, haykaltaroshlik, teatr, kino bolalarga tushunarlidir.

San'atdan bolalar bog'chasini bezashda, ta'lim berishda, bolalarning mustaqil faoliyatlarida foydalaniladi. Bolalar bog'chasida ganch, chinni, yog'och, loy, plastilindan xilma-xil buyumlar, o'yinchoqlar yasash mumkin. Bolalar o'yinchoqlarining yaxshi namunalaridan guruh xonasini bezatishda foydalansa bo'ladi.

Gilamchilik, to'qimachilik, kulolchilik, zardo'zlik, kash-tachilik, popopchilik, badiiy oyna, metall patnislar, to'qilgan hamda tikib gul solingan buyumlar va boshqalar tasviriy san'atning manzarali shakliga kiradi. Bundan tashqari, bog'chada har bir viloyat, o'lka, respublikaning milliy madaniyatidan foydalanish kerak.

Ta'lim-tarbiya ishlarida o'zbek xalq amaliy san'ati namunalaridan foydalanish katta ahamiyatga egadir. Milliy naqshlar tushirilgan chiroyli guldor matolar qo'g'irchoqlar uchun ko'ylak, oyna pardalari, dasturxon kabilar uchun ishlatilishi mumkin.

Musiqa bolalarning kayfiyatini ko'tarib ertalabki badantarbiyada yangray boshlaydi. Yilning quruq va issiq vaqtlarida ekskursiya, sayr va o'yin vaqtlarida ashulalar ijro etilishi kerak, bu bolalarni yanada bir-biriga yaqinlashtiradi, ruhini ko'taradi. Maydonchada mehnat qilish jarayonida ijro etilgan ashula harakat ritmini uyg'unlashtiradi, bolalarga mehnat quvonchini bag'ishlaydi.

Bolalarda estetik idrokning rivojlanishi uchun ularni haqiqiy san'at asarlari bilan tanishtirish zarur. Radio, oynayi jahonda san'at ustalari va tengdoshlari ijro etgan asarlar bolalarning estetik rivojlanishida katta yordam beradi.

Ashula aytib o'yinga tushishda, asosan, xalq ijodi namunalaridan foydalaniladi, bu bolalarni axloqiy-estetik tarbiyalash uchun g'oyat qimmatli vositadir. Bolalar xalq kuylarini ijro etayotib, xalq tili va kuyining hamohangligini, ravonligini bilib oladilar. Bu bolalarda vatanparvarlik hislarini tarbiyalaydi, musiqaviy didini shakllantiradi, bolalarni zamonaviy va klassik kuylarni idrok eta olishga tayyorlaydi. Ashula va raqsga tushishga o'rgatishda faqat to'g'ri aytish va to'g'ri harakat qilishni emas, balki ifodali aytish, yengil, chiroyli va latofat bilan raqsga tushishga o'rgatiladi.

Bolalarning badiiy qobiliyatlarini tarbiyalash masalasi ularning ijodiy o'sishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun bolaga o'rgatish, undagi ijodiy tashabbusni rivojlantirish ishi bir-biri bilan uzviy aloqada amalga oshirilishi lozim. Pedagog tarbiyaviy nuqtayi nazardan yondashib, bola ijodining eng birinchi, hali to'liq namoyon bo'lmagan tomonini seza bilishi va baholay olishi kerak, bu bilan u boladagi kamolot yo'lini to'g'ri belgilashi mumkin.

Bolalar bog'chasida o'tkaziladigan bayramlar bolalarga chuqur ta'sir etadi. Bayramning tarbiyaviy kuchi va o'ziga xosligi uning g'oyaviy va estetik mazmuni san'atning turli ko'rinishlari bilan bog'liq bo'lishidadir. Har qaysi bayram o'z g'oyasiga ega bo'lib, u bolalarga yorqin obrazlar orqali ta'sir ko'rsatadi.

Estetik tarbiya vositalaridan biri qo'g'irchoq teatridir. Uning nihoyatda kuchli ta'sir etishining sababi soddaligi, odatdan tashqari jo'shqinligi va qo'g'irchoqligi (o'yinchoqligi), shuningdek, badiiy so'z, musiqa, ashula, raqs, tasviriy san'at kabi tarkibiy qismlarning uzviy jipslashib ketganligi kishi ko'zi o'ngida yaqqol namoyon bo'lishidadir. Qo'g'irchoq teatrini bolalar faqat tomosha qilibgina qolmay, balki unda o'zlari ham qatnashadilar. Bu bolaning dramatik qobiliyati, tashabbusi, nutqini o'stiradi, hayotiga quvonch bag'ishlaydi.

Qo'g'irchoq teatri, soya teatri ko'rsatish ham bolalarni estetik tomondan tarbiyalashda alohida o'rin egallaydi. Bu o'yinchoq, qo'g'irchoqlar bolalarga tanish bo'lsa-da, ularni tarbiyachi qo'li yordamida harakatga keltirib, badiiy so'zlar bilan qo'shib olib borishi natijasida ular bolaning ko'z o'ngida jonlanadi, boshqacha tus oladi va bolalar ertak mazmunini chuqur idrok eta boshlaydilar.

Badiiy didning shakllanishida kitoblar muhim rol o'ynaydi. Kitoblar faqat bolalarning yoshiga mos, mavzu va mazmuni bilanlangina emas, shu bilan birga bayon qilish usuli hamda bezatilishi bilan ham ajralib turishi juda muhimdir.

Kichkintoylar, ayniqsa, 2—3 yoshli bolalar uchun chiqarilgan kitoblarda so'zlardan ko'ra, rasmlarning ta'siri katta bo'ladi. Bola kitobchadagi rasmlarni qayta-qayta o'z o'rtoqlariga, kattalarga, qo'g'irchoq'iga «o'qib» berish bilan uning mazmunini o'z xotirasida mustahkamlaydi. Kitobdagi chiroyli, yorqin rasmlar bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi.

Kattalar mehnati, qahramonlik, shuningdek, ona Vatanga bo'lgan muhabbat, do'stlik, birodarlik, bolalarning ota-onalariga nisbatan mehribon bo'lishlari kabi mavzularda yozilgan hikoyalar bolalarga tushunarlidir.

Bolalarning sevimli yozuvchi va shoirlari Quدرات Hikmat, Mirmuhsin, Shukur Sa'dulla, Quddus Muhammadiyning bolalar uchun yozgan she'rlari ularda ijobiy his-tuyg'ularni tarbiyalaydi, ularni yashashga o'rgatadi, dunyoqarashini shakllantiradi, ona tilining boyligini, so'zlarning ta'sirchanligini his qilishga yordam beradi.

Kichkintoylar hammadan ham ertaklarni sevadilar. Ertakning yaxshi tomoni shuki, unda uzoq fikr yuritilmaydi. Ertak qahramonlari bolaga yaqin va tanish. Ertak tili hayotiy hamda jonli bo'ladi. Eng muhimi, tarbiyachining o'zi badiiy adabiyotni sevishi va tushunishi, nasriy asar va she'rlarni ifodali o'qiy bilishi kerak.

Bolalar bog'chasida kattalar rahbarligida bolalar tomonidan konsertlar, bayramlar, kichkintoylarning tug'ilgan kunlarini nishonlash bolalarda quvonchli hislarni uyg'otadigan, mazmunli va ularning xotiralarida uzoq vaqt saqlanib qoladigan qilib tashkil etilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, estetik tarbiya bolalarni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalashning muhim qismi bo'lib xizmat qiladi.



### *Nazorat savollari*

---

1. Estetik tarbiya nima?
2. Estetik tarbiyaning vazifalari.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalashda qanday vositalardan foydalaniladi?
4. Bayramlar va o'yinlarning ahamiyati qanday?
5. Qo'g'irchoq teatrlarining turlari va ularning mazmuni.



## 12-bob. EKOLOGIK TARBIYA

### 12.1. Ekologiya haqida tushuncha

Ekologiya yunoncha «*oikos*» soʻzidan olingan, «tom» yoki «uy» maʼnosini anglatib, nemis olimi Ernest Gekkel tomonidan ilk bor fanga kiritilgan. Ekologiya fani koʻpgina tarmoqlarga ega: oʻsimliklar ekologiyasi, zoоекologiya, tuproq ekologiyasi, inson ekologiyasi va boshqalar. Ekologiya fani tanlab olingan bir yoki bir necha obyektning yashash sharoitini yoki normalarini oʻrganadi va yashashning optimal darajasini aniqlashga yordam beradi. Bu yoʻnalishdagi ishlar bizga ekologik bilimlarni yetkazadi, ammo bu bilan insoniyat cheklanib qolmaydi. Davr yana boshqa yoʻnalishda ham ish olib borishni talab etmoqda. U ham boʻlsa ekologik tarbiya masalasidir.

Insoniyatni xavf ostida qoldirayotgan hodisalardan biri — ekologik vaziyat bugungi kunning dolzarb muammosiga aylangan. Insoniyatning tabiiy boyliklardan keragidan ortiq foydalanishi oqibatida sayyoramizning qiyofasi oʻzgarib bormoqda.

Tabiat qonunlarining buzilishiga insonlarda ekologik bilimning yetishmasligi, tabiatning kelajakdagi ahvoli qanday boʻlishini oldindan koʻra bilmasligi sabab boʻlayotir.

Ekologik bilim tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, oʻzgarishi yer yuzidagi tirik jonzotlarning holatini oʻrganish, tabiiy boyliklardan tejamkorlik bilan foydalanish yoʻllarini oʻzlashtirishdan iborat.

Ozon qatlamining yemirilishi, Orol dengizining qurishi natijasida ekologik muammolar kelib chiqmoqda. Zavod-fabrikalardan chiqayotgan zaharli gazlarning havoga koʻtarilishi, avtomobillardan zaharli gazlarning havoga chiqishi, turli xildagi portlashlar oqibatida xlorli gazlar havoga koʻtarilib, ozon qatlamining yemirilishiga olib kelmoqda.

Havoning bunday ifloslanishi, uning tarkibidagi karbonat anhidridning koʻpayishi inson salomatligiga jiddiy xavf tugʻdiradi.

Daryolarni boʻgʻib, yoʻlini toʻsib, sunʼiy dengizlar yaratish, yerlarni oʻzlashtirish bilan shugʻullanildi. Bu «yutuqlar» tufayli

tabiat qonunlari hamda uning murakkab va nozik muvozanati buzildi. Biroq odamlar bu ishlar turli-tuman ofatlar keltirib chiqarishi mumkinligi haqida o'ylamadilar. Natijada o't-o'lanli yaylovlar buzilib, yangi yerlar o'zlashtirildi. Osmondan va yerdan sepiladigan zaharli kimyoviy moddalar tufayli hasharotlarni yeb o'simliklar dunyosiga foyda keltiradigan qushlarning bir qismi qirilib ketdi.

Ekologik tarbiya shaxsiy muammo deb qaralishi lozim. Otabobolarimiz daraxt ekish, bog'-rog' yaratish savobli ish deb bilishgan. Bir tup mevali daraxt ekan kishining ikki dunyosi obod bo'ladi deb bejiz aytishmagan.

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislarida bu ishning savobi xususida quyidagilar aytilgan: «Ekmoq niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda, bexosdan qiyomat qoyim bo'lib qolishi aniq bo'lganda ham, ulgursangiz uni ekib qo'ying».

Atrof-muhitning tozaligi, sofligini ta'minlash o'zimizga bog'liq. Ekologik tarbiyani oiladan, bog'cha yoshi davridan yosh avlodga singdirish kerak.

MTMning ta'lim-tarbiya dasturida bolalarga ona-tabiatga muhabbatni, o'simliklar, hayvonlar haqida g'amxo'rlik qilish ko'nikmasini tarbiyalash, tabiat qo'ynida o'zini odobli tutish, o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni parvarish qilish, muhofaza qilishga qiziqish uyg'otish, daraxtlarni sindirmaslik, hayvonlarni qiynamaslik ko'nikmalarini tarbiyalash kichik guruhdan boshlab amalga oshirilishi ko'zda tutiladi.

## **12.2. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarga ekologik tarbiya berish usullari**

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarga ekologik tarbiya berish quyidagi usullarda olib boriladi:

1. Ko'rgazmali (kuzatish, rasmlar ko'rish, diafilmlar namoyish etish).
2. Amaliy (o'yin tarzida).
3. Og'zaki (hikoya, tushuntirib berish, badiiy asarlarni o'qib berish).

*Ko'rgazmali metod.* Kuzatishlar tarbiyachi tomonidan bolalarni o'simlik, hayvonlar, ob-havo bilan, kattalarning tabiatdagi mehnati bilan tanishtirish asosida tashkil etiladi. Kuzatishlar mashg'ulotda, sayrda, ekskursiyada, tabiat burchaklarida olib boriladi. Uni bolalar amaliy faoliyat bilan qo'shib olib borsalar yaxshi natijaga erishish mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasasida foydalaniladigan diafilmlar MTM ta'lim-tarbiya dasturi asosida ishlab chiqilgan. Diafilm tar-

biyachiga dastur mazmunini ma'lum sistema asosida bolalarga qiziqarli qilib yetkazishga yordam beradi.

Oynayi jahon orqali beriladigan «U kim, bu nima?» ko'rsatuvi, radio orqali beriladigan «Ertaklar olamiga sayohat» o'yin-eshitirishi orqali bolalar u yoki bu o'lkaning tabiati, hayvonot olami, xalqlarning urf-odati bilan tanishadilar. Axloqiy sifatleri tarbiyalanadi. Ularda namoyish etilgan teleko'rsatuvlar orqali tabiatda yuz berayotgan jarayonlar, o'simlik, hayvonlar olami to'g'risida to'laqonli tasavvur hosil bo'ladi.

*Amaliy metod.* Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tabiiy materiallar bilan o'ynaladigan didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Buning uchun meva-sabzavotlar, daraxt novdalari, xona gullaridan foydalanish mumkin. Bolalarni o'simliklar bilan tanishtirishda quyidagi o'yinlardan foydalanish mumkin: «O'simliklarni nomiga qarab top», «Bargiga qarab top», «Ta'riflangan o'simlik yoki mevani top» va. h.k.

*Og'zaki metod.* Bolalarga ekologik tarbiya berishda tarbiyachining tushuntirishi, hikoya qilib berishi, xalq maqollaridan, masallaridan foydalanishi, suhbat kabi og'zaki metodlarning o'rni kattadir. Tabiatning faol himoyachilarini tarbiyalash uchun maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar bilan quyidagi yo'nalishlarda ish olib boriladi:

1. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga tabiat olami, undagi voqea-hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik to'g'risida aniq bilimlar berish.

2. Bolalarda tabiat, uni asrab-avaylash, uning boyliklarini oshirishga oid faoliyatni shakllantirish.

3. Bolalarni respublikamizning tabiatini qo'riqlash, uni asrab-avaylash bo'yicha olib borilayotgan ishlar bilan tanishtirish.

### **12.3. Ekologik tarbiyada bog'chadagi tabiat burchagining ahamiyati**

*Maqsad.* Bolalarning o'simlik va hayvonlarni himoya qilish, hamda ularning barchasi kishilarning yordamiga, g'amxo'rlikiga muhtojligi haqidagi tasavvurlarini aniqlash. O'simlik, hayvonlar haqidagi tasavvurlarini mustahkamlash, hayvonot va o'simliklar dunyosini ehtiyot qilish zarurligini tushuntirish.

*Suhbat uchun kerakli materiallar.* Tabiat haqidagi, qo'riqxona haqidagi rasmlar.

*Suhbatning borishi.* Suhbatni quyidagi savollar bilan boshlash mumkin: Biz xiyobonni nega sevamiz? O'rmon, dalani-chi? Daryo-



ni-chi? O'simliklarning o'sishi uchun nimalar kerak? Bolalar o'rmonda o'zlarini qanday tutishlari kerak? Biz qushlarga qanday g'amxo'rlik qildik?

Keyin respublikamizning boshqa yerlaridagi yovvoyi hayvonlar, parrandalar va hayvonlarni asrash haqida so'zlab berish, bolalar bilan rasmlar ko'rish mumkin.

✂ Tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorlik munosabatini, o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlikni tarbiyalash va shular orqali tabiatga qiziqish, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, tabiatni saqlovchi va uning boyliklarini ko'paytiruvchi kattalarning mehnatiga hurmatni tarbiyalash kabi vazifalarni amalga oshirishda tabiat burchagining ahamiyati katta. Tabiat burchagining muhim tomoni yana shundaki uni bolalar har kuni ko'radilar. Tarbiyachi rahbarligida bolalar tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlarni sistemali ravishda kuzatib, parvarish qilib boradilar. Natijada o'simlik va hayvonlar dunyosining rang-barangligi, ularning o'sishi, rivojlanishi, ular uchun qanday sharoit kerakligi to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarni egallab boradilar.

Tarbiyachi bolalarda solishtirish malakasini shakllantiradi. Hayvon va o'simliklarni bir-biri bilan solishtirish orqali ular o'rtasidagi umumiylik va farqlarni, ularga xos belgi va xususiyatlarni bilib oladilar. Tarbiyachi bolalar diqqatini o'simliklarning chiroyli gullashiga, barglarning shakli va tusiga, akvariumdagi baliqlarning chiroyli ko'rinishi va chaqqon harakatiga jalb etadi. Natijada bolalar bu go'zalliklarni ko'zlari bilan ko'rib, qalblari bilan his etadilar, ularning estetik didi o'sadi. Bolalar tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlarni tarbiyachi rahbarligida kuzatib, parvarish qilib borishlari natijasida tabiatga ehtiyotkorlik munosabatlari shakllanadi. Ularda tabiatni yanada gullab-yashnashi uchun o'z hissasini qo'shish, bundan tashqari qo'ldan kelgan mehnati bilan bu jarayonda qatnashish xohishini uyg'otadi.



### *Nazorat savollari*

---

1. Ekologik bilim nima?
2. Ekologik tarbiyaning maqsadi nima?
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda, ularning ekologik madaniyatini oshirishda qanday ishlar olib boriladi?
4. Tabiat bilan tanishtirish usullari.
5. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga mehr uyg'otishda qanday usullar qo'llaniladi?



## **13-bob. FUQAROLIK TARBIYASI**

### **13.1. Fuqarolik tarbiyasining mazmuni, maqsad va vazifalari**

Mustaqil respublikamizda shakllanayotgan milliy istiqlol g'oyalari fuqarolarini Konstitutsiyada e'tirof etilgan insonparvarlik, demokratik, huquqiy davlat va huquqiy jamiyatni barpo etishdek ezgu maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Har bir fuqaroning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy faolligini yuzaga keltirish, fuqarolik (huquqiy) madaniyatini qaror toptirish fuqarolik (huquqiy) jamiyatning asosiy talabi sanaladi.

Davrning ushbu o'ta dolzarb talabi O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan qabul qilingan qator qonun va qarorlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari mazmunida o'zining yorqin ifodasini topdi. Aholi o'rtasida milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarini targ'ib etdi. Ijtimoiy tarbiyaning samarali, izchil tizimini yaratish, jamiyatda fuqarolik (huquqiy) madaniyatini shakllantirish muammolarining ijobiy hal etilishi jamiyat ijtimoiy hayoti uchun muhim ahamiyatga egadir.

Ijtimoiy hayotda fuqarolik madaniyatining shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirish: bir tomondan, jamiyat manfaatlari uchun, ikkinchi tomondan, shaxs (fuqaro) manfaatlari, shuningdek, jamiyat hamda fuqaroning birgalikdagi manfaatlari to'la mos keladi. Shu sababli respublika mustaqilligi sharoitida ijtimoiy ta'lim-tarbiyani tashkil etish mazmunini tubdan yangilash zaruriyati yuzaga keladi. Ijtimoiy tarbiyani keng ko'lamda tashkil etish bugungi kunning da'vati va talabi bo'lib qolmoqda.

O'z fuqarolariga ega bo'lish har bir davlatning zarur va muhim belgisi sanaladi. Fuqarolarning mavjudligi sababli davlat mavhum tushuncha bo'lmay, muayyan mexanizm sifatida mavdonga chiqadi. Huquqiy o'rni qonun yo'li bilan kafolatlangan shaxsning davlat ichkarisida yoki tashqarisida bo'lishidan qat'i nazar, ma'lum bir davlatga qarashliligi holatiga fuqarolik deyiladi. Shunday huquqqa ega shaxs fuqaro, deb ataladi.

Jamiyat tomonidan qonunchilik yo'li bilan belgilangan talab fuqaro xulqini baholash, xatti-harakatlar mohiyatini tahlil qilish uchun mezon bo'lib xizmat qiladi. Ana shu talablarga muvofiq fuqaroning xulq-atvoridagi ayrim ko'rinishlar, harakatlar yoki odatlar ma'qullanadi yoki qoralanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining maqsadi erkin, demokratik, insonparvar, huquqiy davlat va jamiyat qurishdir. Bu jamiyatni bunyod etish jarayoni yangi ijtimoiy fuqarolik tarbiyasi vazifalarini murakkablashtiradi. Chunki demokratik-huquqiy jamiyat barpo etilishining muvaffaqiyati fuqaroning ijtimoiy-siyosiy onglik darajasiga, fuqarolik fazilatlarining qaror topganligiga, ijtimoiy faollik ko'rsatkichlariga bog'liq.

Fuqarolikning ijtimoiy asosi yangi iqtisodiy munosabatlar bo'lib, unda fuqarolarning shaxsiy manfaati jamiyat manfaati bilan qo'shilib uyg'unlashib ketadi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar g'oyalari, demokratik talablar hamda axloqiy-huquqiy me'yorlarga muvofiq faoliyat yuritish ijtimoiy fuqarolik munosabatlarining muhim qoidasiga aylanadi.

Fuqarolik tarbiyasining maqsadi fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglash orqali yosh avlodda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat uchun fidoyi insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir.

Fuqarolik tarbiyasining vazifalari asosan quyidagilardan iborat:

- yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo'lgan axloqiy va huquqiy me'yorlarga rioya etishga o'rgatib borish;
- bolalarga fuqarolik huquq va burchlari to'g'risida dastlabki ma'lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida elementar ko'nikma va malakalar hosil qilish;
- bolalarda davlat ramzlariga hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha'ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorgarlik hissini shakllantirish;
- bolalarda xalq o'tmishi, milliy qadriyatlariga nisbatan muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ularda g'ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini oshirish;
- Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, o'z manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishiga erishish, fidoyi fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish;

- Vatan, yurt ozodligi va mustaqilligini e'zozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga tayyor fuqaroni tarbiyalash ishiga keng jamoatchilik e'tiborini jalb etish;
- bolalarda fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda shaxsning Konstitutsiyada ko'rsatilgan huquqlaridan foydalanish hamda burchlarining bajarilishi xususida ma'lumotlar berish, ularda ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda huquqlaridan foydalanish va burchlarini bajarish bo'yicha ko'nikma va makalarni hosil qilish maqsadga muvofiqdir.

### **13.2. Davlat ramzlari va ularga nisbatan hurmat hissini shakllantirish**

Davlatimiz ramzlari — bayroq, gerb, madhiya O'zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Mana shu ramzlarni e'zozlash o'zining qadr-qimmatini, o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash demakdir. O'z mamlakati bilan faxrlanadigan inson juda ko'p narsalarga qodirdir. Bu esa oilaning ham, o'z Vatanining ham shon-shuhratini oshiradi.

Davlat ramzlari muayyan millatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari hamda maqsadini, hududiy, siyosiy-ijtimoiy birlik mohiyatini ajratishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmuyidir. Muayyan davlatning bayrog'i, gerbi hamda madhiyasi davlat ramzlari majmuyini ifodalaydi.

Davlat ramzlari o'zlarida chuqur siyosiy va ijtimoiy mazmun ifoda etadi. Davlat ramzlarida (bayroq, gerb) tasvirlangan ranglar, tasvirlar shu xalq, millat o'tmishi, qadim an'analari, xalqning turmush tarzi, orzu-umidlari, maqsadi, g'oyalarini ifodalashiga xizmat etadi. Davlat madhiyasida esa xalq, millat, davlat va jamiyatning yagona maqsadi, birligi, g'oyalari tarannum etiladi.

Davlat ramzlari davlat mavjudligini ko'rsatuvchi belgilardan sanaladi. Ramzlar shartli belgilar bo'lib, ular qadim davrlardayoq turli xalqlarda u yoki bu hodisa, olam, mavjudot, odamlar tasvirini, ularning qarashlarini ifodalagan.

Davlat bayrog'i, gerbi ham jahon miqyosida mavjud bo'lgan muayyan davlatning o'z xalqi, millati nomidan faoliyat yuritish imkoniyatiga ega ekanligini anglatadi. Shu bois, 1991-yil 15-fevralda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining «O'zbekiston Dav-

lat ramzlari to'g'risida»gi Qarori qabul qilinib, unga muvofiq 1991-yil 15-oktabrda respublika bayrog'i, 1992-yil 21-iyulda esa respublika gerbi qabul qilindi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining bayrog'i uch xil rangda bo'lib, ko'k, oq, yashil ranglardir. Oq rang qizil rang bilan hoshiyalangan. Respublika bayrog'ida yurt tarixi, o'zbek xalqining milliy ruhi va yurt tabiati jamoli aks ettirilgan. Bayroqning chap tomoni yuqori qismida yarim oy va 12 yulduz tasviri tushirilgan. Moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzidir. Timsollar tilida bu yaxshilikni, donishmandlikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. O'rtadagi oq rang esa yorug' kun va pokiza, oq ko'ngilli xalqimizning tilagi, qizil hoshiyalar esa tomirlarda urayotgan qon kabi tiriklik va hayot ramzidir. Yashil rang esa qadim-qadimdan tabiatning yangilanish belgisi, oy (yangi oy) tasvirining berilishi mustaqillik sharoitida hayot kechirish xalqimiz uchun o'ziga xos yangi davr ekanligi ifodasidir, yulduzlar sonining 12 taligi yil oylariga, muhal hisobiga nisbatdir.

Milliy bayrog'imizning huquqiy maqomi; O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risidagi ma'lumotlarni bolalarga yetkazish mashg'ulotlarda, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish chog'ida amalga oshiriladi.

Bayroq davlat mustaqilligining belgisigina bo'lmay, u respublikamiz nomini xalqaro maydonda ramziy ifoda etish uchun xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet ellik mehmonlar respublika bayrog'ini hurmat qilishi shart. Davlat bayrog'iga nisbatan hurmatsizlik qilgan shaxslar qonun yo'li bilan jazolanadi.

Davlat ramzlarining yana biri, bu — davlat gerbidir. O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining qabul qilinishi «O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to'g'risida»gi Qonun g'oyalari hamda xalqimizning ming yillik boy tajribasi asosida amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbida tog'lar, daryolar, bug'doy boshoqlari (chap tomonda), ochilgan g'o'za shoxlarining (o'ng tomonda) gulchambar holidayi tasviri aks ettirilgan. Gerb o'rtasidagi serquyosh yurt ramzi bo'lgan quyosh o'zining zarrin nurlarini sohib turibdi. Gerbning yuqori qismida respublika mustaqilligining ramzi sifatida sakkizburchak tasvirlangan bo'lib, uning ichida yarimoy va yulduzlar joylashtirilgandir.

Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi bo'lgan kumush rangli Xumo qushi qanotlarini yozib turgan holda tasvirlangan. Gerbning pastki markaziy qismida Davlat bayrog'i ranglaridagi chambar lenta o'zagida «O'zbekiston» so'zi yozilgan. Gerbda ifoda etilgan sakkiz qirrali burchak ijtimoiy hayotning barcha jihatlarini ma'lum bir g'oya, kuch birlashtiradi, degan ma'noni anglatishga xizmat qiladi. Paxta va bug'doy boshloqlarining tasviri rizq-u ro'zimiz nishonasidir.

Davlat gerbining huquqiy maqomi ham maxsus qonun bilan qo'riqlanadi.

Madhiya — har bir davlatning bosh va asosiy qo'shig'i hisoblanadi. Unda muayyan davlat, unda yashaydigan xalqning ruhiyati, o'ziga xos tabiati, orzu-umidlari tarannum etiladi.

«O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi»da jonajon mamlakatimiz O'zbekistonning asosiy jihatlari, betakror tabiati xalqimizning ajoyib xislatlari, ajdodlarimizning mardona ruhi, bag'rikengligi, mustahkam imon jo'shqin misralarda kuylanadi. Yurtimizning kelajagiga umid va ishonch uyg'otadi.

«O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi» Oliy Majlisning 1992-yil 8-dekabrda bo'lib o'tgan XI sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi sifatida qabul qilindi.

Ta'lim muassasalarida fuqarolik tarbiyasini yo'lga qo'yish jarayonida bolalarga davlat ramzlari va ularning mohiyati borasidagi ma'lumotlarni berish, ularning ongiga davlat ramzlarining xalq, millat or-nomusi, sha'ni, qadr-qimmatini timsoli ekanligi to'g'risidagi g'oyalarni singdirish orqali bolalarda ularga nisbatan hurmat tuyg'usini qaror toptirish kabi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq sanaladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi matni bolalar tomonidan, nafaqat, yod olinishi, balki madhiyada ifoda etilgan fikrlar mazmunini chuqur tahlil etilishi borasida shart-sharoitlarni yaratib berish ta'lim muassasalari jamoasi, ularning rahbariyati oldidagi asosiy vazifalardan biridir.

Inson shaxs sifatida o'z sha'ni, or-nomusini qanchalik muqaddas bilsa, fuqaro sifatida davlat ramzlarini shu qadar muqaddas bilishi, muhofaza qilish uchun o'zida mas'ullik tuyg'usini qaror toptirishi lozim. Fuqarolik tarbiyasini yo'lga qo'yish jarayonida davlat ramzlariga hurmatsizlik bilan munosabatda bo'ladigan kimsalarga nisbatan murosasiz bo'lish lozimligini uqtirib borish maqsadga muvofiqdir.



## *Nazorat savollari*

---

1. Fuqaro atamasining ma'nosini izohlang.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarga fuqaroga xos bo'lgan qanday sifatlar o'rgatiladi?
3. Fuqarolik tarbiyasining vazifalari.
4. Davlat ramzlariga hurmat hissini qanday metodlar orqali o'rgatiladi?
5. Fuqaroga xos bo'lgan sifatlarni shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rnini qanday?



## **14-bob. BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH**

### **14.1. Bolalarni maktabga tayyorlash masalalari**

Maktabdagi majburiy ta'lim bolaga ma'lum talablarni qo'yadi. Ma'lumki, bola ta'lim-tarbiyaviy muassasaning talablarini bajara oladigan rivojlanish darajasiga yetishi kerak, faqat shundagina bolani maktabga berish mumkin.

Olimlar qanday qilib maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashadi? Pedagogik va psixologik adabiyotlarda bolaning ta'lim va tarbiya jarayoniga kirib, uning mazmunini muvaffaqiyatli o'zlashtirib olishi shaxsning umumiy rivojlanganligi deb ko'rsatilgan.

Psixologlar maktabga umumiy tayyorgarlikning quyidagi tomonlarini ajratadilar: jismoniy, aqliy, ijtimoiy-axloqiy (yoki ijtimoiy his-tuyg'uli) va sababli (motivli).

Boshlang'ich maktab bolani o'qitishga tayyorgarlik darajasiga o'z talablarini qo'yadi. Talablardan biri — bog'cha bolalariga xos bo'lgan kun tartibiga rioya qilish. Bolaning bog'chaga borish vaqti oilaviy sharoitga qarab belgilanadi. Ammo maktabga borish majburiy — bola darslarga har kuni kelishi shart.

Bog'cha bolasi kun bo'yi tuzilishi va mazmuni qiziq bo'lgan turli xil faoliyatlar bilan shug'ullanadi. Bola asosan, o'z xohishi bo'yicha o'ynaydi yoki ish bilan shug'ullanadi. Maktabda esa kunning birinchi qismini tartibli (sistemali) o'qitish egallaydi, bundan tashqari kunning ikkinchi qismida ham ma'lum vaqtni darslarni tayyorlashga ajratish kerak. Maktabda bola o'z xohishi va qiziqishi bilan tanlagan mashg'ulotlar chegaralangan. Bola maktab tartibi va darslar jadvaliga bo'ysunishi kerak. Har qanday ob-havoda bola maktabga vaqtida kelishi, o'quv qurollarini olib kelishi, maktab ta'lim sharoitlariga ko'nikishi kerak. Darslarda ma'lum vaqt tinch o'tirib, diqqatini bir joyga jalb qilib ishlashi, tanaffusda esa nisbatan qisqa vaqt ichida o'z kuchlarini tiklab olishi kerak bo'ladi.

Shunday qilib, maktab hayotiga jismoniy va ruhiy jihatdan o'rganish uchun bola eng avval sog'lom, jismoniy chiniqqan va



chidamli bo'lishi kerak. Sistemali ta'lim uchun bolaning aqliy rivojlanishi, ya'ni, aniqrog'i, maktabga umumiy ruhiy tayyorgarligi muhim, deb hisoblanadi.

Bola birinchi sinfda uch fan (o'qish, yozuv va matematika)ning asoslarini, tabiat va jamiyat to'g'risida oddiy bilimlarni egallaydi. Bola odamlar, jismlar va tevarak-atrofdagi hodisalar haqida ma'lum tasavvur bilan maktabga kelishi kerak. Bolaning o'quv materialni to'liq o'zlashtirishi va ta'limning bola qobiliyatlariga mos kelishi uning aqliy faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Bolaning yaxshi o'qishiga aqliy faoliyatining rivojlanish darajasi, idrok, tasavvur, xotira va tafakkur funksiyalari hamda aqliy faoliyat bilan shug'ullanish odatlari ta'sir qiladi. Bola tahlil qilishni, ya'ni narsalarni (predmetlarni) idrok etganda muhim va muhim bo'lmaganlarni ajrata bilish, kuzatayotgan hodisalarni umumlashtirish, guruhlash kabilarni o'rganishi kerak. Bola zehni, ziyrak, topqir, mustaqil bo'lishi kerak. Zavq, xursandchilik keltiradigan aqliy faoliyatiga nisbatan bolada qiziqish paydo bo'ladi.

Ta'limning muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan bola nutqining rivojlanish darajasiga, uning lug'at boyligiga, mustaqil, aniq, ifodali va grammatik jihatdan to'g'ri gapira olishiga bog'liq bo'ladi.

Bolada maktabga borish bilan nafaqat hayot tartibi va asosiy faoliyatida, balki ijtimoiy o'rnida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bola munosabatlari shakllangan tanish tengdoshlar va kattalar jamoasidan, notanish bolalar va kattalar jamiyatiga o'tadi.

Oldingi jamoada bola o'zining huquq, burch va imtiyozlarini bilar edi, yangi shakllanayotgan maktab jamoasida esa bola o'zini boshidan ko'rsatishi kerak. Bolaning burch va huquqlari, maktabgacha davrga nisbatan aniqroq va qattiqroq belgilanadi. Bola faoliyatini baholashning muhim mezonlaridan biri nafaqat maktabda, balki oilada, tengdoshlar davrasida muvaffaqiyatli o'qish bo'lib qoladi.

Maktabda uzoq muddat ota-ona g'amxo'rligisiz bo'lgani sababli, bola o'z yoshiga mos his-tuyg'u va iroda mustahkamligiga ega bo'lishi, o'z xulqini nazorat qila olishi kerak. Agar o'quvchi o'qishga ijobiy yondashsa, o'qishni xohlab, intilsa, ta'limdagi boshlang'ich qiyinchiliklarni tezroq va osonroq bartaraf etadi. Irodali bo'lish bolaga barcha maktab vazifalarini doimiy va muvaffaqiyatli bajarishida muhim ahamiyatga ega.

Bilim va ijtimoiy hayot qonun-qoidalariga rioya qilish, xarakter ijobiy jihatlarining shakllanganligi bolaga boshqa bolalar bilan

muloqotda, sinfdoshlar bilan do'stona munosabat o'rnatishda va jamoada faol ishtirok etishida juda katta yordam beradi.

Bolaning maktabga umumiy tayyorgarligi deganda uning har tomonlama rivojlanganligi tushuniladi. Biror tomonining rivojlanmagani, zaifligi (aqliy, his-tuyg'uli, irodaviy yoki amaliy) maktabda o'zlashtirmaslikning sabablaridan bo'lishi mumkin.

Shu bilan birgalikda, bolalar birinchi sinfda o'quv fanlarining (o'qish, yozuv, matematika) mazmunini o'zlashtirish uchun maxsus bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Masalan, matematikani o'qitishda o'qituvchi bola narsalarning rangi, shakli, katta-kichikligi, sonini ajrata biladi deb hisoblaydi, yozuvni o'rganishda esa bola yozuv va rasm qurollarini to'g'ri ishlata olishiga, grafik mashqlarni bajara olishiga tayanadi. Shu kabi bilim, malaka va ko'nikmalar maktabga maxsus tayyorgarlikni tashkil etadi. Umumiy va maxsus tayyorgarlik bir-biriga zid kelmaydi. Maktab fanlarini o'zlashtirishda bolaning maxsus tayyorgarligi umumiy tayyorgarlikdan kelib chiqadi, unga mos keladi, tayanadi.

Bola shaxsini rivojlantirishda ma'lum bir tomoniga (asosan, aqliy) kuchli yo'naltirish berishga alohida e'tibor berish kerak. Kattalar har doim shuni esda tutishlari kerakki, bolani tezlashtirilgan, jadal o'qitish zarur hisoblanadi.

Maktabgacha davr inson shaxsini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega. Agar shaxsni har taraflama shakllantirishda aynan shu yoshdagi qulay sharoitlar qo'llanilmasa, rivojlanish to'xtab qolishi mumkin yoki chetlanishlarini bartaraf etish nihoyatda og'ir kechadi.

7 yosh — bola yangi sharoitga tez o'rganadigan va o'qish jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etadigan davr hisoblanadi. Y.A. Kamenskiy bola hayotining yettinchi yilini bekorchilikda buzilib ketmaslik uchun maktabda o'qishni boshlaydigan vaqt deb hisoblagan. Bolaning ona maktabida 5—6 yil ta'lim-tarbiya olishini (bolaning oiladagi tarbiyasi nazarda tutilgan) u yetarli va optimal muhlat, deb hisoblagan.

Maktabga tayyor bo'lgan bola jismoniy chiniqqan, har qanday ob-havoda uzoq vaqt yura oladi, asosiy harakat malakalariga ega, u o'zining harakatlarini nazorat qila oladi, tozalikka rioya qiladi.

Bola bilimining rivojlanganligi uning jamiyat va tabiatdagi voqea-hodisalarni tushunib yetishi, kuzatish qobiliyati, hodisalarni to'g'ri nomlashi bilan aniqlanadi. Bola o'z fikrlarini ifoda eta bilishi kerak, ijodiy va mustaqil fikrlay olishi, aniq ko'rgazma

materialga tayanib, masalalarni yecha bilishi kerak. 6–7 yoshli bola oiladan tashqarida ham o‘zini dadil tutishi kerak. Shakllangan madaniy ko‘nikmalari o‘z tengdoshlari bilan munosabatlari o‘rnatishiga yordam beradi.

Bola mustaqil kiyinishni, ovqat yeyishni, narsalarini toza va tartibli saqlashni o‘rganishi kerak. Bola kattalar mehnatining muhimligini tushunishi va hurmat qilishi kerak. Har qanday ishga ijobiy yondashib, uni diqqat, e‘tibor bilan vaqtida bajarishi lozim.

Bolada estetik idrokni shakllantirish, o‘zining yoshiga mos badiiy asarlarga qiziqish uyg‘otish, yon-atrofnı estetik jihatdan bezatishiga intilishini rivojlantirish kerak. Bola musiqa, adabiy so‘z, rasmlarning chiroyini sezishni o‘rganishi, ashula aytish, rasm chizish, yasash, topishmoqlar, laparlar, tez aytishlar, maqollar, ertaklarnı bilishi va aytib berishi, kitoblarnı avaylashni bilishi kerak.

## **14.2. Bolaning maktabga tayyorgarligini aniqlash**

Har qanday pedagog hech qanday vositalardan foydalanmay, bolani maktabga tayyorgarligini aniqlay oladi. Ba‘zi ota-onalar ham bola qanchalik sog‘lom, chaqqon, mustaqil, aqlli, o‘qishga tayyor ekanligini taxminan bilishadi.

Bog‘cha tarbiyachilari har bir bolaning maktabga tayyorgarligini to‘g‘ri aniqlashda yetarli pedagogik, texnologik bilim va tajribalarga ega bo‘lishlari kerak, bunda ular MTMda ta‘lim va tarbiya dasturi talablariga tayanishlari kerak. Agar maktabgacha davrda bola normal rivojlangan bo‘lsa, uning jismoniy va aqliy rivojlanishiga hech qanday kuchli ta‘sirlar bo‘lmagan bo‘lsa, unda bola yetti yoshda ta‘lim olish darajasiga yetadi.

Animo ba‘zi oilalar va bog‘chada maktabga tayyor bo‘lmagan bolalar ham uchraydi. Bunday bolalar mutaxassis nazoratida maxsus tekshiruvdan o‘tishadi va o‘qishga tayyorgarligi darajasi haqida mutaxassis xulosa chiqaradi. Bolaning o‘yinqaroqligi, mustaqil bo‘la olmasligi, his-tuyg‘u va ijtimoiy rivojlanishining juda past darajaliligi uning maktabga tayyor bo‘lishiga to‘siq bo‘ladi. Bunday bolalar o‘rtoqlari va tengdoshlari orasida o‘z o‘rnini topa olmaydilar.

Ular kundalik faoliyatlarida yordamga muhtoj: berilgan vazifalarnı tushuna olmaydilar va mustaqil bajara olmaydilar, qo‘l-

larining mayda harakatlari yaxshi rivojlanmagan. Lugʻat boyligi, oʻz fikrlarini ifodalashi chegaralangan, xotirasi sust, umumlash-tirishni bajara olmaydi va hokazo.

Bularga nafaqat bolaning yomon ijtimoiy ahvoli sabab boʻ-ladi, balki nasliy omillar, jiddiy va murakkab kasalliklari, yengil tugʻma jarohatlari, nevrozlar keltirib chiqaradigan sharoitlar ham sabab boʻladi.

Maktabga tayyor boʻlmagan bolaning qabul qilishi bola shaxsi-ning rivojlanishiga har tomonlama yomon taʼsir etadi. Oʻqish-dagi oʻzlashtira olmasliklar bolada oʻqishga nisbatan salbiy mu-nosabat tugʻdiradi. Uning jismoniy va ruhiy sogʻligʻi ham xavf ostida. Ularda nevroz belgilari paydo boʻlishi mumkin: uyqu-ning buzilishi, siydik ushlay olmaslik, bosh ogʻriqlari va bosh-qalar. Tarbiyasida ham qiyinchiliklar paydo boʻla boshlaydi: bola qanday boʻlmasin oʻziga diqqat-eʼtiborni qaratmoqchi boʻ-ladi, yomon harakatlar qila boshlaydi. Agar bolaning maktabga tayyor emasligini vaqtida aniqlansa, bunday hollarning oldini olish mumkin boʻladi.

Bolaning maktabga tayyorligini turli sohadagi mutaxassislar aniqlay oladilar. Bolalar shifokori bolani tekshirib, somatik rivoj-lanishini aniqlaydi, agar maʼlum bir jismoniy, ruhiy kamchiligi boʻlsa, uni ruhiy-pedagogik tekshiruvga yuboradi. Maʼlum bir nuqsonlarga ega boʻlgan bolalar maxsus maktabga yuboriladi. 1 sentabrga qadar 7 yoshga toʻlmagan, bolalar bogʻchasiga bor-magan, pedagogik qoloq, nutq kamchiliklari, jismoniy rivojla-nish kamchiliklari boʻlgan bolalarni maxsus konsultatsiyalar, boshlangʻich sinf oʻqituvchilari tekshirib beradilar.

Tuman ruhiy-pedagogik konsultatsiyalarida bolaning mak-tabga tayyorgarligini har tomonlama aniqlashadi. Ular taʼlim-tarbiyadagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda profilaktik va kor-reksion usullarni tavsiya etadilar, tarbiya sohasiga oid maslahat-lar beradilar. Bular bilan birga tuman mahalla qoʻmitalari faol ishtirok etadilar. Bola tarbiyasiga salbiy taʼsir etadigan ota-onalar bilan mahalla qoʻmitalari va boshqa ijtimoiy tashkilotlar ishlashadi.

Tuman ruhiy-pedagogik konsultatsiyalarida bolalarning mak-tabga tayyorligini aniqlashda psixologik testlardan foydalaniladi.

Testlarni mazmun jihatdan ikki guruhga boʻlish mumkin:

1. Oʻqish jarayonida ishtirok etadigan alohida psixologik to-monlarning shakllanish darajasini aniqlaydigan testlar.

## 2. Maktabga umumiy tayyorgarlikni tekshiradigan testlar.

Konsultantlar bolani ota-onalar oldida tekshiruvdan o'tkazadilar. So'ngra tekshiruvlar natijalari asosida quyidagi choralarni maslahat beradilar:

- a) umumta'lim maktabining 1-sinfiga yozish;
- b) o'qishni 1 yilga qoldirish;
- d) bolani bog'cha yoki maktab qoshidagi maxsus sinfga yozdirish;
- e) bolani maxsus maktabga yozdirish.

Konsultatsiyalarning xulosasi asosida mahalla qo'mitalarining maktab bo'limlari bola qayerda o'qishini hal qilishadi. Agar bola 7 yoshga to'lib, ammo uning sog'lig'i yaxshi bo'lmasa, unda tekshiruvlar natijasiga ko'ra o'qish 1 yilga qoldiriladi. 1 yildan so'ng, bola qaytadan maxsus tekshiruvdan o'tadi va qayerda o'qishi hal qilinadi.

Agar bola tarbiyasida ishtirok etadigan shaxslar unga alohida e'tibor ajratishsa, uning har tomonlama rivojlanishiga yaxshi sharoit yaratib berishsa, yordam berishsa, o'qishdan qolgan muhlat ijobiy natija beradi.

O'qishdan qolgan bolalar bilan ishlashda tarbiyachilar uchun hozircha maxsus dasturlar ishlab chiqilmagan. Pedagoglar bunday bolalar bilan mavjud bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiya dasturi bo'yicha ishlashmoqda, faqat ularga ko'proq e'tibor ajratadilar.

Maktabda o'qishni o'zlashtira olmaydigan bolalar uchun maxsus sinflar ochiladi. Bunday sinfda o'qishni vaqtincha o'zlashtira olmaydigan, normal intellektga ega bo'lgan bolalar o'qiydilar. O'qishdagi qoloqlikni individual mashg'ulotlar, alohida parvarish va maxsus kurs tartibi yordamida bartaraf etish mumkin.

Maxsus sinf 12–15 o'quvchiga mo'ljallangan bo'lib, maktab direktorining ruxsati bilan ochiladi. Maxsus sinfga o'tkazish sinf rahbari tavsiyasi, maktab shifokori va ruhiy-pedagogik konsultatsiya xulosasi asosida amalga oshiriladi. O'quvchi maxsus sinfda vaqtincha, uning o'qishdagi qoloqligi bartaraf etilguncha qoladi. Sinfda 2 yilgacha o'qish mumkin.

Aqliy va jismoniy, nutq kamchiliklariga ega bo'lgan, qiyin tarbiyalanadigan, kasal va quvvatsiz bolalar maxsus maktablarga yuboriladi. Bularga aqli zaif bolalar uchun maxsus maktablar va yordamchi maktablar kiradi.

### 14.3. Maktabga tayyorgarlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar

Maktabga umumiy va maxsus tayyorgarlik ko'rishga jiddiy talablar qo'yilgan, shuning uchun bolani maktabga doimiy ravishda tayyorlash kerak. Tayyorgarlik o'z-o'zidan, avtomatik tarzda paydo bo'ladi. Faqat maqsadga yo'naltirilgan va uzoq muddatga mo'ljallangan tarbiya jarayoni bolani maktabga yaxshi tayyorlanishiga olib keladi.

Bolani qachon va qancha tayyorlash kerakligi haqida kattalar orasida turli fikrlar mavjud. Ko'pchilik ota-ona va tarbiyachilar 3 yoshdan boshlab, 1-sinfga bir yil qolgungacha tayyorlashni kuchaytirish kerak, deb hisoblashadi. Ammo boshqalar faqat maktabdan oldingi bir yil davomida tayyorgarlik qilish kerak, deb aytishadi. Ba'zi ota-onalar bola bog'chaga borishi bilan maktabga tayyorgarlik boshlanadi, deb o'ylashadi.

Maktab hayotiga bolani kim tayyorlashi kerak? Bog'cha tarbiyachilari bolani maktabga tayyorlash butun bog'cha davrida amalga oshishi kerakligini tushunishadi va dastur talablariga binonan uni amalga oshirishadi. Lekin aynan maktabga borishdan avval ular tayyorgarlikka alohida diqqat-e'tiborini qaratishadi: talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etishadi, bilimlarni bir sistemaga solishadi, qo'llarning mayda harakatini rivojlantirishadi va hokazo.

Lekin, oila — bola tug'ilishidan keyin yashaydigan birinchi ijtimoiy muhit. Oilada bola o'zining birinchi ijtimoiy tajriba va malakalarini orttiradi, ota-ona va kattalar namunalari orqali tarbiyalanadi, oilaviy rishtalarni tushunib yetadi va qadrlaydi. Shuning uchun bolani maktabga tayyorlashda oila hal qiluvchi, muhim ahamiyatga ega. Ota-onalarning ko'pchiligi bolani maktabga tayyorlashda bog'cha bilan oilaning hamkorligi zarur, deb hisoblashadi. Ba'zi ota-onalar esa bolani maktabga tayyorlashda javobgarlikni bog'chaga yuklashadi, ba'zilari esa butun javobgarlikni o'z bo'yniga olishadi.

Y.A. Kamenskiy o'zining «Onalar maktabi» kitobining maktabga tayyorlash bobida yozishicha, barcha insonlar bajaradigan ishlar, ma'lum bir tayyorgarlikni talab qiladi. Ota-onalar shuni o'ylab, o'z bolalarini maktabga tayyorlashadi. Maktabga har tomonlama tayyorgarlikdan tashqari, Y.A. Kamenskiy ota-onalar uchun quyidagi vazifalarni ko'rsatadi:

1. Bolalarda maktabga borganda, o'z tengdoshlari bilan o'qigan va o'ynaganda xursandchilik hissini tug'dirish.

2. Bolalarga maktabdagi ta'limning mohiyatini tushuntirish, ularni maktabdagi faoliyat turlari bilan tanishtirish.

3. Bolalarda bo'lajak o'qituvchilarga nisbatan hurmat va ishonchni shakllantirish.

Hozirda ota-onalar bolalarni maktabga qanday tayyorlashmoqda? Ota-onalarning ko'pchiligi maktabda yaxshi o'qishning shartlaridan biri — shaxsning umumiy rivojlanishi, deb hisoblashadi. Ammo bolaning aqliy rivojlanishi eng asosiysi deb bilishadi, shuning uchun mashg'ulotlarda bilim, nutq, tafakkur va xotirani rivojlantirishga harakat qiladilar. Keyingi o'ringa bolaning o'qish va yozish malakalarini rivojlantirishni qo'yishadi, yodlatishadi, suhbatlashishadi, birgalikda mantiqiy o'yinlar o'ynashadi. Gohida mehnat, sport, ashula yoki raqs bilan shug'ullantirishadi.

Xulosa qilib aytganda, bolani maktabga tayyorlashda maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari bilan ota-onalarning hamkorlikda ish yuritishi ijobiy natija beradi.



### *Nazorat savollari*

---

1. Maktabga tayyorlash deganda nimani tushunasiz?
2. Bolani maktabga tayyorlashning darajalari.
3. Bolaning maktabga tayyorgarligini aniqlash yo'llari.
4. Maktabga tayyorgarlikka qanday omillar ta'sir etadi?



## **15-bob. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASINING OILA BILAN HAMKORLIK SHAKLLARI**

### **15.1. Tarbiyachilarning oila bilan olib boradigan ishi**

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarining oila bilan olib boradigan ishi mazmuniga quyidagilar kiradi:

- ota-onalarga o'z farzandlarining tarbiyasi uchun davlat va jamiyat oldida javobgar ekanliklarini tushuntirib borish;
- ota-onalarni bola tarbiyasi uchun zarur bo'lgan bilim, malakalardan xabardor qilish (bolalarning yosh, anatomik-fiziologik va ruhiy xususiyatlari, ularni oilada tarbiyalashning mazmuni, metodi, shart-sharoitlari bilan tanishtirish);
- bola tarbiyasida oila bilan hamjihatlik, bolani to'g'ri tarbiyalashni nazorat qilib borish, oila tarbiyasining eng yaxshi namunalari o'rganish va ommalashtirish.

Bola bog'chada egallagan eng yaxshi fazilatlarni oila sharoitida davom ettirib, oilada egallagan eng yaxshi fazilatlarni bolalar bog'chasida namoyon qilsa istalgan ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Tarbiyachilar oila tarbiyasiga doir ijobiy ishlarni ko'ribgina qolmay, balki uni qo'llab-quvvatlash va shu asosida ota-onalar e'tiborini bola tarbiyasida hali hal etilmagan vazifalarga qaratishlari lozim. Yuqoridagi ishlarni rejalashtirish, tashkil etish va ularga rahbarlik qilishda mudira javobgar shaxs hisoblanadi.

Ota-onalar bilan ishlash bo'yicha yillik reja tuziladi. Bu reja pedagogik kengashda muhokama qilinadi. Rejada umumiy va guruhiy majlislar, ota-onalar uchun ochiq eshik kunlari, suhbat va maslahatlar, otaliq tashkilotlarda ko'rgazmalar tashkil etish va konsertlar qo'yib berish, shuningdek, bu tadbirlarni o'tkazish vaqtlari va unga mas'ul bo'lgan shaxslar belgilanadi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mavzulari va mazmuni tarbiyachi-metodistning rejasida va tarbiyachining kalendar rejasida aks etadi.

Ota-onalar bilan ishlash bo'yicha juda ko'p ishlarni tarbiyachi-pedagog amalga oshiradi, chunki u bola tarbiyasida yuz berayotgan



o'zgarishlarni hammadan ko'proq ko'radi va bolalar hayoti bilan yaqindan tanish bo'ladi. U ota-onalarga bolalar tarbiyasida nimalarga ko'proq e'tibor berish kerakligi, ularni maktab ta'limiga tayyorlash, sog'lig'ini saqlash, ovqati va kun tartibini to'g'ri tashkil etish va boshqalar sohasida tavsiyalar berib boradi.

Bolalar bog'chasi va oila o'rtasida hamkorlik o'rnatishda mudira, pedagoglar jamoasi va ota-onalar birgalikda faol ishtirok etishlari lozim. Shundagina bola tarbiyasida kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Ota-onalar bilan ishlashda quyidagi alohida ish shakllaridan foydalaniladi: suhbatlar, maslahatlar, oilalarga borish, ayrim ota-onalarni bog'chaga taklif etish, alohida esdaliklar va ko'chma papkalardan foydalanish.

Bolaning uyiga borishdan ko'zlangan maqsad — oila sharoiti, bolaning oiladagi xulqi, qiziqishlari, ota-onasi va oila a'zolari bilan tanishish, shuningdek, ota-onalarni bola tarbiyasining samarali usullari bilan tanishtirish va oilaning bola tarbiyasidagi ijobiy tajribalarini o'rganib, ommalashtirishdir.

Tarbiyachi bolaning uyiga tekshiruvchi sifatida emas, balki do'st, bola tarbiyasidek murakkab ishda yordam beruvchi sifatida borishi, oila a'zolari bilan nazokat va xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishi kerak. Tarbiyachi har bir oilaga borishidan avval o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, qaysi mavzuda suhbatlashishini oldindan belgilab olishi lozim. Ota-onalarga beriladigan savollar puxta o'ylangan bo'lishi kerak.

Suhbat shunday tuzilishi kerakki, tarbiyachi bilan ota-ona bir-birlarini yaxshi tushunishlari, ular o'rtasida ishonchli aloqa o'rnatilishi darkor. Oilaga borishdan oldin tarbiyachi shu oila to'g'risida (ota-onalarning fe'l-atvori, oilaviy munosabatlar, bolaning rivojlanish darajasi) to'g'risida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lishi kerak. Tarbiyachi ota-onalar hurmati va ishonchini qozonmoq uchun avval ota-onalarga bolaning ijobiy fazilatlarini to'g'risida fikr, mulohazalarini bildiradi va bolaning uyidagi hayotini qanday tashkil etish kerakligi, unga nimalarni o'qib va hikoya qilib berish mumkinligi, bolaning kun tartibi, uni oila mehnatida qatnashtirish, kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash kabi ta'lim-tarbiya ishlari mazmuni va usullari bo'yicha tavsiyalar beradi.

Albatta, tarbiyachining oila bilan olib boradigan ishida bolaning yoshi, imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinadi. Tarbiyachining ota-onalarga beradigan tavsiya va maslahatlari ishonarli bo'lishi uchun ota-onalar yoki oilaning boshqa a'zolari maktab-

gacha ta'lim muassasasiga taklif qilinadi. Bunda ota-onalar bolaning navbatchilik vazifasini qanday bajarayotganini yoki sayrga chiqishdan avval u qanday o'ynayotganini ko'radilar, bolalarning uquv va imkoniyatlariga ishonch hosil qiladilar.

Oilaga borishning maqsad va mazmuni tarbiyachining rejasi va hisobotida, kundalik daftarida aks ettirilishi kerak. Tarbiyachi har bir bolaning oilasiga yiliga kamida 2 marta borishi kerak.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo'lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishi taqozo etiladi. Masalan:

- bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi to'g'risidagi qonunlar, bolalarni maktabga tayyorlash haqida;
- maktabgacha tarbiya muassasalarining yillik ish rejasi to'g'risida;
- ota-onalar jamoatchiligining ishi haqidagi masalalar shular jumlasidandir.

Bu masalalarni jamoa bo'lib muhokama qilish uchun ota-onalarning guruhi va umumiy majlislari, maslahatlar, konferensiyalar, ota-onalar kechalari kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi.

## 15.2. Ota-onalar majlisi

Ota-onalar majlisiga bog'chadagi hamma guruh bolalarining ota-onalari, parallel guruhlar ota-onalari va bitta guruh bolalarining ota-onalari taklif etilishi mumkin.

Umumiy majlisda ota-onalarni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash vazifalari, shu yilgi rejalar, ota-onalar qo'mitasining faoliyati, oila tarbiyasidagi ilg'or tajribalar bilan tanishtiriladi. Majlisda mudira yoki metodist-tarbiyachi ma'ruza qiladi, ota-onalar so'zga chiqishadi, bolalar gapirishadi. Bular ta'lim-tarbiya ishidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab olishga imkon beradi, oila va jamoatchilik aloqasini mustahkamlaydi, ota-onalarning o'z bolasining tarbiyasi uchun javobgarligini oshiradi, ularda bog'chaga qiziqish uyg'onadi.

Guruhdagi ota-onalar majlisida mazkur yoshdagi bolalarning ota-onalari uchun dolzarb bo'lgan masalalar muhokama qilinadi. Masalan, umumiy majlis mavzusi «Bolalarga axloqiy tarbiya berishda oilaning roli» bo'lsa, o'rta guruhda o'tkaziladigan majlisda bu mavzu murakkablashtirilib, «Bolalarda mehnatsevarlikni tarbiyalashda bog'cha va oilaning birgalikdagi ishlari», «Bolalarda katalarga hurmatni tarbiyalash» va h.k. bo'lishi mumkin.

Ota-onalar uchun tayyorlangan ma'ruzani tegishli mavzudagi kinofilm, diapozitivlar ko'rish bilan qo'shib olib borish mumkin. Bolalar hayoti, faoliyati to'g'risidagi misollardan foydalanganda ijobiy materiallar ko'proq bo'lishi kerak, salbiy faktlarni gapirishda ehtiyotkorlik va odob doirasidan chetga chiqmaslik, tanqid qiluvchilarning nomlari ko'rsatilmasligi lozim. Tanqidiy mulohazalar majlisdan keyin yakka tartibdagi suhbat orqali ota-onalarga yetkazilishi, bola tarbiyasidagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq tavsiyalar taklif etilishi mumkin.

Yilning oxirida o'tkaziladigan guruh majlisida ota-onalarga bir yil mobaynida amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya ishlari va kelgusi yilning rejaları haqida gapirib beriladi. Bu majlisda faol ota-onalar ham hisob beradilar va faollarning yangi tarkibi saylanadi.

*Ota-onalar burchagi va ko'rgazma tashkil etish.* Ota-onalar burchagi ularni tarbiyaga oid yangiliklar va pedagogik masalalar bilan tanishtirish maqsadida tashkil etiladi. Ularga kitoblar, jurnallar, rasmlar, bolalarning ishlari, bolalar ovqatining xillari, bolaning uyidagi kun tartibi, ota-onalar uchun eslatmalar, e'lonlar joylashtiriladi. Burchak vaqt-vaqti bilan tarbiya vazifasiga qarab o'zgartirib turiladi.

Pedagogik bilimlarni targ'ib qilish bo'yicha tashkil etiladigan ko'rgazmalar ko'pincha ota-onalar konferensiyalari, majlislari, konsultatsiyalar oldidan tashkil etiladi. Unda xalq ta'limi to'g'risidagi qonun va qarorlar, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmoqlari va undagi tarbiyalanuvchilar sonining o'sishini ko'rsatuvchi diagrammalar, bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari, bolalar hayotini aks ettiruvchi fotosuratlar, kitob va o'yinchoqlar, bolalarning ishlari o'rin oladi. Ota-onalar burchagi — oila bilan olib boriladigan ishning ko'rgazmali usuli, uning did bilan bezatilishiga alohida e'tibor berilishi kerak. Bundan tashqari, ota-onalarga tarbiya to'g'risidagi filmlar namoyish etiladi, bular ko'pincha ota-onalarni qiziqtiradigan bahslar boshlanishiga sababchi bo'ladi.

Ota-onalar uchun ochiq kunlar tashkil etilishi ham maktabgacha ta'lim muassasalari ishida muhim o'rin egallaydi. Bunday kunlarda ota-onalarga bolalarning mashg'ulotlari, mehnat, o'yin faoliyatlari, sayrlar va bolalarning jamoada o'zlarini qanday tutishlari va shunga o'xshashlar ko'satiladi.

**Ota-onalar qo'mitasi** «Maktabgacha ta'lim muassasasining Nizomi»ga binoan mudiraga yordam berish uchun tuziladi. U ota-

onalarning umumiy majlisida bir yil muddatga saylanadi. Bu qo'mitaga har bir yosh guruh ota-onalaridan 1—2 vakil saylanadi. Qo'mitaning asosiy vazifasi mudiraga maktabgacha ta'lim muassasasining xo'jalik va ta'lim-tarbiya ishlarida yordam berish, qo'mita a'zolari, ota-onalar majlisi va kechalarni tayyorlash, o'tkazish va boshqa ishlarda tarbiyachilarga ko'maklashishdir.

Ota-onalar qo'mitasi bolalarning ota-onalari bilan tanishadi, bolalarni tayyorlash bo'yicha ular bilan ish olib boradi. Qo'mita a'zolari har ikki oyda bir marta yig'ilish o'tkazadi. Ota-onalar qo'mitasi mudiraning ish rejalari va ishning ahvoli to'g'risidagi ota-onalarni qiziqtiruvchi ba'zi masalalar haqidagi ma'ruza va hisobotini eshitishga haqlidir.

Ota-onalar qo'mitasining faoliyati haqidagi hujjatlar maktabgacha ta'lim muassasasida saqlanadi.

### **15.3. Aholi o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ib qilish**

Pedagogik bilimlarni targ'ib qilish natijasida millionlab kishilar bolalarini maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalash prinsiplarini ongli ravishda anglab oldilar.

Korxonalarda, xo'jaliklarda, jamoa joylarida, mahallalarda oilada bola tarbiyasi to'g'risida ma'ruzalar bilan chiqish, televideniya va radioeshittirishlar pedagogik targ'ibot ishining keng vositalaridandir. Shuningdek, bu targ'ibot vaqtlari matbuot: «Sog'lom avlod», «Maktabgacha ta'lim», «Xalq ta'limi», «Pedagogik ta'lim» jurnallari, ko'p sonli badiiy pedagogik, ilmiy-ommabop va metodik adabiyotlarni chiqarish orqali ham amalga oshiriladi.

Ota-onalar uchun maxsus pedagogika va ruhshunoslik, anatomiya va fiziologiya, oila tarbiyasi nazariyasi va amaliyoti to'g'risida ma'ruzalar o'qish, bolalar tarbiyasi to'g'risida kinofilm va spektakllar namoyish qilish ijobiy natija beradi. Bu mashg'ulotlarni har xil sohalar bo'yicha yuqori malakali o'qituvchi, aktyor, ruhshunos mutaxassislar olib boradilar.

Pedagogik targ'ibot ishida quyidagilarga amal qilish kerak:

1. Pedagogik targ'ibot hayot, jamiyat qurilishi amaliyoti bilan bog'lab olib borilishi lozim. Pedagogik targ'ibot orqali keng jamoatchilikka bolalarni har tomonlama tarbiyalash masalalari va ularni amalga oshirish yo'llari, ilmiy asoslangan usullari bo'yicha tushuntirish ishlari olib boriladi.

2. Oila tajribasining ijobiy tomonlari, oiladagi bola tarbiyasida yo‘l qo‘yilgan xatolar va ularning oldini olish, bartaraf etish yo‘llari to‘g‘risida targ‘ibot ishlari olib boriladi.

3. Pedagogik targ‘ibotga tayyorlashda ota-onalarning har xil saviyada ekanliklari hisobga olinib, ular uchun tayyorlangan axborot materiallari ishonarli, ko‘rgazmali va ularning his-tuyg‘usiga ta‘sir ko‘rsatadigan bo‘lishi kerak.

Shunday qilib, maktabgacha ta‘lim muassasasi va ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini muntazam ravishda olib borgandagina oila tarbiyasi va ijtimoiy tarbiya o‘rtasidagi birlik o‘rnatilishi mumkin.

#### **15.4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada tarbiyalashda yosh ota-onalarga tavsiyalar**

*Ilk bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan davr).* Bola rivojlanishining dastlabki yilida unda kattalarga bog‘liqlik (itoat qilish mexanizmi) va ularga qaramlik shakllangan bo‘lsa, bir yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan davrda esa bolaning xatti-harakatida va fikr yuritishida mustaqillikning dastlabki belgilari rivojlanadi. Bu davr boladagi amaliy bilimlarning keyingi yo‘lini belgilaydi. Bu yoshda bolalar har bir sohada o‘zlarini sinab ko‘rishga intiladilar. Ayni shu paytda unda narsalar dunyosini o‘zlashtirish, amaliy xatti-harakatlarni bajarish, o‘z tanasini boshqarish mexanizmlari shakllanadi.

Agar bu davrning imkoniyatlari boy berilsa bolada tegishli qobiliyatlar rivojlanmay qolishi mumkin. Bu davr bolaning biror-bir ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun eng qulay davrligini ota-onalar doimo yodda tutishlari lozim.

- Aziz ota-onalar! Bolalar bilan so‘zlashganda gap va so‘zlarni to‘liq talaffuz eting. Agar bola biror so‘zni noto‘g‘ri talaffuz etsa, unga «bu noto‘g‘ri» demang, uning o‘rniga so‘zning to‘g‘ri talaffuzini takrorlang.
- Ilk bolalik yoshida bolalar barcha narsaga qiziquvchan bo‘ladilar. Ularni qiziqtirgan savollarga imkon qadar batafsil javob berishga harakat qiling.
- Yodingizda bo‘lsinki, agar kichkintoyingizni qiziqtirgan savolga javob berishdan qochsangiz, uning bilishga bo‘lgan qiziqishlarini so‘ndirib qo‘yishingiz mumkin.

- Bu yoshdagi bolalarga ko‘proq ertaklar aytib berish, she‘r yod oldirish, magnitofon eshitishiga harakat qilish ularda nutq va xotiraning rivojlanishiga yordam beradi.

*Maktabgacha bo‘lgan yosh davri (3 yoshdan 7 yoshgacha).* Ma‘lumki, har bir yosh davri o‘zining xarakterli jihatlari bilan bir-biridan farq qilib turadi.

Maktabgacha bo‘lgan yosh davri uchun o‘yin yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Shuning uchun bu davrda bola bajarishi mumkin bo‘lgan deyarli barcha faoliyatlar (o‘yin, o‘qish, mehnat va h.k.)ni o‘yin tarzida tashkil qilish yaxshi samara beradi:

- Ota-onalar, bolangizga o‘yin uchun ko‘proq vaqt ajrating. Agar bolangiz biror o‘yinga berilib uzoq vaqt o‘ynayotgan bo‘lsa, bundan xavotir olmang.
- Bola uchun kattalar bilan birgalikda o‘ynash, ularning o‘yinda kattalarning bir zum bo‘lsa-da, ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega.
- O‘yinda kattalarning ishtirok etishi natijasida bola o‘yin qoidalari hamma uchun bir xil bo‘lishi, kattalar ham adashishi, bola ularni tuzatishi mumkinligini, adolatlilik qoidalarini o‘zlashtiradi.
- O‘yin — bolaning hayoti. Xuddi hayotdagi kabi o‘yinda ham qiyinchiliklar, xatolar, omadsizliklar bo‘ladi. Aynan mana shu qiyinchiliklarni yengib o‘tish jarayonida bola shaxsi shakllanadi.

*Ota-onalar! Jazoning foydali bo‘lishi uchun quyidagi tavsiyalarga amal qiling!*

- Bolani jazolayotganda uning yoshiga va xatoning qay darajada og‘ir yoki yengilligiga e‘tibor bering.
- Bolaning xatosi uchun jazolashni kechiktirmaslik kerak, kechiktirilgan jazo bolada qo‘rquv, tashvish, xavotirlik, depressiyalarga olib kelishi mumkin.
- Bolaning jahli chiqib turganda jazo qo‘llash kerak emas.
- Bolaning qilgan xatosini ko‘pchilik ishtirokida, ayniqsa, uning o‘rtoqlari yoki tanishlari davrasida muhokama qilmang. Ayniqsa, uning «siri»ni saqlasangiz, u bu qiliqlarni boshqa qilmaslikka harakat qiladi.

Ushbu berilgan tavsiyalar ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarni yanada yaxshilashda, bola tarbiyasi borasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni maqsadga muvofiq tarzda yengib o‘tishda sizga yordam beradi degan umiddamiz.



## *Nazorat savollari*

---

1. Maktabgacha ta'lim muassasasining oila va jamoatchilik bilan olib boradigan ish shakllari.
2. Ota-onalar qo'mitasining faoliyati.
3. Maktabgacha yoshdagi (3—7) bolalarning bir-biridan jismoniy va ruhiy jihatdan farqlanishi.
4. Ota-onalar uchun umumiy majlislar qanday uyushtiriladi?



## **16-bob. BOLALAR MUASSASALARINI TASHKIL QILISH VA ULARGA RAHBARLIK**

### **16.1. Maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil qilish**

Maktabgacha ta'lim muassasasi uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bosqichi, maktabgacha ta'lim Davlat jamoat tizimining asosiy bo'g'ini, jamiyatning eng muhim ijtimoiy bo'limidir. Maktabgacha ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda, ularni maktabga tayyorlashda yetakchi rol o'ynaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari oila va jamiyatning bolalarga g'amxo'rlik qilish, milliy hamda mintaqa xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash va rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida tashkil etiladi. Muassasalar mustaqil ravishda, o'z tashabbusi bilan o'z faoliyatiga taalluqli, agar ular qonunchilikka va pedagogik prinsiplarga mone'lik qilmasa har qanday qaror qabul qilishga haqlidir.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyaviy-ta'limiy ishlar sifati, bolalar va ota-onalar huquqiga jamiyat hamda Davlat manfaatlariga rioya qilish uchun mas'uldir. Muassasalarning mehnat jamoasi xalqchillik asosida o'z-o'zini boshqarish prinsipiga muvofiq, jamiyat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal qiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy tiplari quyidagilardan iborat:

- a) yaslilar;
- b) yasli-bog'chalar;
- d) bog'chalar;
- e) maktab-bog'chalar.

Yetim bolalar va ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar uchun go'daklar, bolalar uyi, maktabgacha ta'lim bolalar uyi, maktab internatlari va aralash tipdagi bolalar uylari huzurida «Maktabgacha ta'lim guruhleri» tashkil qilinadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining iqtisodiy-huquqiy maqomi quyidagilarga bo'linadi:



1. Davlat muassasalari xalq deputatlari mahalliy kengashlari, idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar qaroriga ko'ra tashkil etiladi. Budgetdan, tegishli korxonalar mablag'i hisobidan pul bilan ta'minlanadi.

2. Shirkat muassasalari shirkatchilik to'g'risidagi qonunda ko'zda tutilgan tartibda tashkil qilinadi.

3. Aksionerlik muassasalari amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda aksionerlik korxonalari, tashkilotlari mablag'lari hisobiga tashkil qilinadi va faoliyat ko'rsatadi.

4. Jamoat muassasalari yotoqxonalar, turarjoylardan foydalanish idoralari madaniy va savdo markazlarida, shuningdek, oila ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda boshqa ko'rinishlarda tashkil etiladi.

5. Oilaviy muassasalar shirkatchilik va xususiy mehnat faoliyati to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq bir yoki bir necha oila tomonidan tashkil qilinadi va faoliyat ko'rsatadi.

6. Aralash muassasalar shirkat korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, uyushmalar asosida va oilalarning shartnomalari asosida tashkil etiladi hamda faoliyat ko'rsatadi.

7. Uy muassasalari asosiy maktabgacha ta'lim muassasalarining filiallari sifatida tashkil etiladi.

Shaharda bo'lgani kabi qishloq joylarda ham ehtiyojga qarab, boshqa shu tizimlarda birlashgan o'quv-tarbiya muassasalari va umumiy hamda maxsus ahamiyatga molik (yo'nalishdagi) turli tipdagi guruhlar tashkil qilinadi. Maxsus ahamiyatga molik yo'nalishdagi maktabgacha ta'lim muassasalari bolalar nuqsonlarining oldini barvaqt olish, bolalardagi ikkilamchi va keyin uchraydigan nuqsonlarga barham berish maqsadida tashkil qilinadi. Bu yo'nalishdagi muassasalar umumiy tarbiyaviy masalalarni hal qilish bilan birga bolalarni rivojlantirishdagi tegishli nuqsonlarni bartaraf qilishga va ommaviy yoki maxsus maktabda o'qishga tayyorlashga qaratilgan davlat ishlarini amalga oshiradi.

Aqliy yoki jismoniy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun:

- nutqi buzilgan (eshitish qobiliyati saqlangan);
- eshitish qobiliyati buzilgan;
- ko'rish qobiliyati buzilgan;
- tayanch-harakat a'zolari buzilgan;
- ruhiy rivojlanishda orqada qolayotgan;

- aqliy rivojlanishda orqada qolayotgan;
- sil kasalligiga chalingan;
- tez-tez kasallikka chalinadigan;
- virusli gepatitga chalingan bolalar uchun kabi, agar ehtiyoj tug'lsa, boshqa yo'nalishdagi maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil qilinishi mumkin.

Turli tipdagi maktabgacha ta'lim muassasalari Xalq ta'limi vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan instruktiv direktiv hujjatlar va yo'riqnomalar asosida ish yuritadi. Bular maktabgacha ta'lim to'g'risidagi konsepsiya va nizomda belgilab berilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasalari amaldagi qoidaga binoan bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish huquqiga ega. Bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish maxsus birlashtirilgan sog'liqni saqlash bo'limlari yoki idorasiga qaram bo'lgan tegishli tibbiyot muassasasining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Tibbiyot xodimlari bog'cha ma'muriyati bilan bir qatorda bolalarning salomatligi va jismoniy rivojlanishi, davolash-profilaktika tadbirlarini o'tkazish, sanitariya-gigiyena me'yorlariga rioya qilish, tarbiyalanuvchilarning uxlash tartibi va ovqatining sifati, ularning jismoniy va aqliy kamoloti uchun mas'uldir. Tibbiyot xodimlari faoliyatini nazorat qilish mahalliy sog'liqni saqlash bo'limlari zimmasiga yuklatiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi kimga bo'ysunishidan qat'i nazar xalq deputatlari mahalliy kengashi ro'yxatidan o'tkaziladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi ro'yxatdan o'tkazilgach, unga tartib raqami beriladi va u yuridik shaxs huquqiga ega bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarini qaytadan tuzish (qo'shish, olish, birlashtirish, ajratish, bo'linish, qayta tashkil etish) xalq ta'limi bo'limlari, korxonalar, muassasalar, tashkilot tavsiyasiga ko'ra xalq deputatlari mahalliy kengashlari qarori asosida amalga oshiriladi. U bog'cha mehnat jamoasi va Xalq ta'limi kengashi bilan kelishilgan bo'lishi lozim. Maktabgacha ta'lim muassasasi turlicha: tipiga, tuzilishiga qarab shtat birliklarini, xodimlar oylik maoshlarini tasdiqlaydi.

Ota-onalar qo'mitasining asosiy vazifalari bolalar bog'chasi Nizomida ko'rsatilib berilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan ko'p variantli taxminiy dasturlardan birini tanlash huquqiga ega. Maktabgacha ta'lim muassasasi tar-

biyaviy ta'lim muassasasi bo'lib, ijtimoiy vazifalar bilan bir qatorda konsepsiya, nizom hamda dasturga muvofiq malakali tarbiya va ta'lim berishni ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi o'z dasturi va metodikasini ishlab chiqish hamda amaliy faoliyatida qo'llash huquqiga ega. Ularning tasdiqlangan tartibi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi bolalarni tarbiyalash va o'qitish bo'yicha qo'llanmalarni hamda metodikani erkin tanlash huquqiga ega.

Maxsus ahamiyatga molik maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil qilish va rivojlantirishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun yangi tipdagi, yo'nalishdagi maktabgacha ta'lim muassasalarini tuzish respublika xalq ta'limini boshqarish va sog'liqni saqlash organlari tomonidan belgilanadi.

Maxsus ahamiyatga molik maktabgacha ta'lim muassasalarida ish xususiyati, ularga qabul qilish qoidalari, bolalarga ta'lim berish va ularni tarbiyalashni tashkil qilish tartibi Xalq ta'limi vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan tegishli yo'riqnomalar bilan aniqlanadi.

## **16.2. Maktabgacha ta'lim muassasalari ishining yo'lga qo'yilishi**

Maktabgacha ta'lim muassasasi maxsus loyiha bo'yicha qurilgan yoki moslashgan SNIP me'yorlariga, yong'in xavfsizligi qoidalariga javob beradigan va ob-havo sharoitini, ekologik vaziyatni, tarkib topgan milliy an'analarni hisobga oladigan binoda tashkil etiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining sig'imi, odatda 320 o'rinli bo'lishi kerak. Umumiy yo'nalishdagi maktabgacha ta'lim muassasasi uchun 140—160 o'rinni, maxsus ahamiyatga molik maktabgacha ta'lim muassasasi uchun 90—120 o'rinni muvofiq deb hisoblash zarur.

Binolar ufq tomoni derazalarida soyabonlar bo'lishi, ko'kalamzor yerlar, suv bilan o'ynash uchun fontanchali hovuzchalar, qattiq narsa bilan qoplangan yo'laklari va o'tish joylari, 0,25 metr chuqurlikda suv basseyni, ko'cha shovqinidan uzoqda, maktabga yaqin joyda, yong'inidan saqlanish talablariga to'liq javob beradigan qilib, iqlim xususiyatlarini hisobga olgan holda loyihalashtiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi amaldagi normativlarga muvofiq yumshoq va qattiq sport jihozlari, tibbiy apparatlar, ta'lim-

ning texnik vositalari, o'quv-ko'rgazmali qo'llanmalar hamda o'yinchoqlar bilan ta'minlanadi. Muassasani jihozlash ro'yxatiga milliy anjomlar ham kiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining ish tartibi xalq ta'limi bo'limlari tomonidan boshqariladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi yoki uning ayrim guruhlari haftasiga 5, 6 va 7 kun kunduzgi va bolalar sutka mobaynida bo'ladigan, bir yoki ikki kunlik dam olish kunlari bilan, shuningdek, xodimlarga sirg'aluvchi jadval bo'yicha dam olish kuni beriladigan tartibda ishlashlari mumkin.

Ota-onalarning xohishlariga ko'ra, maktabgacha ta'lim muassasasida kuni uzaytirilgan kun, shuningdek, shanba, yakshanba va bayram kunlari tartibida, ertalab va kechki vaqtda ishlovchi navbatchi guruhlar ochilishi mumkin.

Maxsus ahamiyatga molik maktabgacha ta'lim muassasasining faoliyat tartibi zarur to'g'rilash-tarbiyaviy ishlar olib borishni hisobga olgan holda belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tilga ko'ra (o'zbek, qozoq, rus, tatar, koreys va sh.k.) farqlanishi va bu bog'chalarda ta'lim-tarbiya milliy an'analarga asoslanib yo'lga qo'yilishi lozim. Tarbiya vazifalariga ko'ra esa ijodiy, yordamchi, umumiy bo'ladi.

Qishloq va shahar bog'chalari: mavsumiy, bolalarni jamlash ishiga ko'ra, turli yosh yoki bir yoshli guruhlarga ega, mablag' bilan ta'minlanishiga ko'ra, davlat, idora va xo'jalik, xususiy va boshqa turlarga bo'linadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi, shu jumladan, uning ayrim guruhlari ishining davomiyligi, boshlanishi va tugashi ota-onalarning ehtiyojini hisobga olgan holda belgilanadi. Ammo u ertalabki 6.30 dan barvaqt bo'lmasligi kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasasida ota-onalar arizasi bo'yicha xalq deputatlari kengashi qarori bilan, shu jumladan, shartnoma va xo'jalik hisobi asosida ish 6 soatdan kam davom etadigan qisqa muddatli guruhlar; ota-onalar bolalarini 1—2 soatga qoldiradigan guruhlar; sayr guruhlari; jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish guruhlari; musiqiy va badiiy tarbiyalash, aqliy va jismoniy rivojlanishdan orqada qolgan bolalar uchun xo'jalik hisobi asosida ishlaydigan guruhlar ochilishi mumkin. Bunda mazkur maktabgacha ta'lim muassasasiga muntazam qatnaydigan bolalarning manfaatlari kamsitilmasligi lozim. Maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim tili O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi qonuniga muvofiq belgilanadi.

Ota-onalar o'z bolalarini maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarini ilgaridan ogohlantirgan holda o'zlari uchun qulay paytda olib kelishlari va olib ketishlari mumkin. Shu bilan birga, ota-onalar maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar hayotining fiziologik asoslangan kun tartibiga rioya qilishlari va o'quv-tarbiya jarayonini buzmasliklari lozim. Yangi qabul qilinayotgan bolalarni va kichik maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ko'niktirish maqsadida ular mazkur yosh guruhlariga asta-sekin, bir oy mobaynida ko'chiriladilar.

Tarbiyachilar va ota-onalarning munosabatlari amaldagi qonunchilik va bola maktabgacha ta'lim muassasasiga qabul qilinayotganda tomonlarning o'zaro kelishuviga binoan tuziladi va shartnoma bilan boshqariladi. Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi yuzasidan xalq ta'limi kengashiga yoki sudga murojaat qilish mumkin.

**Maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiyaviy ishlar sohasidagi huquq va burchlari.** Maktabgacha ta'lim muassasasi ta'lim-tarbiyaviy muassasa bo'lib, ijtimoiy vazifalar bilan bir qatorda bolalarga maktabgacha ta'lim konsepsiyasiga asoslangan o'z Nizomi va Dasturiga muvofiq malakali ta'lim va tarbiya berilishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha aniq vazifalari tegishli dasturiy-metodik hujjatlar, maktabgacha ta'lim muassasasining Nizomi bilan belgilanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ko'p variantli taxminiy dasturlardan birini tanlash huquqiga ega. Maktabgacha ta'lim muassasalari o'z (mualliflik) dasturi va metodikasini ishlab chiqish va amaliy faoliyatida qo'llash huquqiga ega. Ularni tasdiqlash tartibi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi bolalarni tarbiyalash va o'qitish bo'yicha qo'llanmalarni va metodikani erkin tanlash huquqiga ega. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarning pedagogik metodlar va usullarni mustaqil ishlab chiqish va ulardan o'z pedagogik faoliyatida foydalanish imkoniyatlarini berish yo'li bilan ularning pedagogik ijodiyotga bo'lgan huquqini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi maktab bilan vorislik aloqalarini o'rnatadi va uni doimiy qo'llab-quvvatlaydi. Muassasa o'z pedagogik faoliyatida quyidagi prinsiplarga og'ishmay amal qiladi. Bu prinsiplar:

- bola shaxsiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish asosiga quriladigan butun pedagogik jarayon insoniylik yo‘nalishlari bilan sug‘orilgan bo‘lishi;
- psixologik-pedagogik fikr va aralash fanlarning zamonaviy yutuqlarga asoslangan o‘z-o‘zini rivojlantirishga zo‘r berilishi;
- kadrlar tanlashda, bolalar va ta‘lim-tarbiya ishlarini tashkil qilishda, agar ular respublikada xalq ta‘limi prinsiplariga zid bo‘lmasa, ta‘limning har qanday shakli va uslublaridan foydalanishda mustaqillik berilishi;
- ota-onalarning maktabgacha ta‘lim muassasasini kadrlar va bolalar bilan to‘ldirishda, bolalar hayoti va ovqatlanishining maqbul kun tartibini belgilash hamda tashkil qilishda, sog‘lomlashtirish tadbirlarini o‘tkazishda, dasturlar va metodikani tanlashda, maktabgacha ta‘lim muassasasi ishining boshqa asosiy, prinsiplial masalalarini mustaqil hal qilishda ishtirokining ta‘minlanishi.

Maktabgacha ta‘lim muassasasi o‘z pedagogik vazifalarini hal qilish uchun pedagogik (metodik) kengash tuzadi. Kengash Nizomga muvofiq faoliyat ko‘rsatadi.

Ta‘lim-tarbiya ishini rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida maktabgacha tarbiya muassasasi ko‘ngillilik asosida turli birlashmalar va o‘quv-tarbiya komplekslari (bolalar bog‘chasi — maktab, bolalar bog‘chasi — maktab — pedagogika bilim yurti, bolalar bog‘chasi — maktab — oliy o‘quv yurti va h.k.) tuzishi, shuningdek, ular tarkibiga kirishi mumkin. Ular faoliyatini ushbu birlashmalar yoki komplekslar haqidagi nizom bilan belgilanadi.

Maktabgacha ta‘lim muassasasi yuqori tashkilot ruxsati bilan tajriba-sinov ishlarida ishtirok etishi, shuningdek, mustaqil ish olib borishi mumkin. Tajriba-sinov ishlari tegishli xalq ta‘limi bo‘limi va Ta‘lim markazi tomonidan nazorat qilib boriladi.

Maktabgacha ta‘lim muassasasi bolalarning hayoti, jismoniy va ruhiy sog‘lomligi uchun, har bir bolaning shaxsiy xususiyatlariga mos keluvchi emotsional va to‘laqonli rivojlanishi, bolalarni tarbiyalash va ta‘lim berishning tanlangan tizimi samaradorligi uchun mas‘uldir. Maktabgacha ta‘lim muassasasida tarbiyaviy jarayonni psixologik ta‘minlash psixologik xizmat tomonidan amalga oshiriladi.

Pedagogik jarayon barcha qatnashchilarining aniq huquq va burchlari maktabgacha ta‘lim muassasasining Nizomi, ichki mehnat kun tartibi qoidalari, mansab yo‘riqnomalari, ota-onalar qo‘mitasi haqida Nizom bilan belgilanadi.

### **16.3. Maktabgacha ta'limni rejalashtirish va moliyaviy ta'minlash**

Respublika xalq xo'jaligi rejasida maktabgacha ta'lim muassasalarini loyihalashtirish, rejalash belgilanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Qoraqalpog'iston Xalq ta'limi vazirligi tomonidan o'tkazilayotgan yagona siyosiy prinsiplarga amal qiladi. U budjet, banklar, ta'minotchilar va boshqa kontraktlar, shuningdek, tasarrufida turgan xalq ta'limi bo'limlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar oldidagi o'z majburiyatlarini vaqtida bajarilishi uchun mas'uldir.

Rejalashtirish istiqbol va joriy turlardan iborat. Istiqbol rejalashtirish 10 yoki 5 yillarga mo'ljallanadi. Bu xalq ta'limi moliyaviy-iqtisodiy bo'limlarida va uzoq muddatga mo'ljallangan rejalarda aks etadi. Joriy rejalashtirish har yili amalga oshiriladigan moliyaviy xo'jalik ishlaridir.

Maktabgacha ta'lim muassasasi reja, moliya, mehnat intizomiga va pedagogik mehnat intizomiga qat'iy rioya qilishga majburdir. Rejalashtirish Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, tomonidan ishlab chiqiladi.

Ilmiylik prinsipida rejalashtirish xalq ta'limini ilmiy nuqtayi nazardan xalq xo'jaligi rejasiga, davlat rejasiga asoslanib davlatimiz tomonidan ko'rsatib berilgan qonun, qaror, direktiv yo'l-yo'riqlari asosida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi yerdan, suvdan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, qurilish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, mehnat resurslaridan foydalanish, xodimlar soni va maktabgacha ta'lim muassasasi huquqi doirasidan tashqariga chiqadigan boshqa sohalar bo'yicha o'z rejasini xalq deputatlari kengashi bilan muvofiqlashadi.

Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi budjet yoki tarmoq moliya prinsipi asosida faoliyat ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari vazirliklar, idoralar, xalq deputatlari kengashlari ko'rsatmasiga binoan ularga bo'ysungan korxonalar, muassasalar, xalq deputatlari tomonidan rejada belgilab berilgan bolalar kontingenti doirasida to'ldiriladi.

Smetada maktabgacha ta'lim muassasasining barcha xarajatlari va bu xarajatlar qoplanadigan manbalar, budjet ajratmalari va ota-onalar mablag'lari ko'rsatiladi.

Yozgi sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish uchun alohida smeta tuziladi. Ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini aniqlashda muassasa guruhlaridagi bolalar soni, muassasada bolaning bo'lish vaqti, necha soat ishlashiga qarab ishni turiga ham alohida e'tibor beriladi. Smeta quyidagi moddalarni o'z ichiga oladi:

*1-modda.* Ish haqi. *2-modda.* Ish haqiga nisbatan ajratmalar. *3-modda.* Idora va xo'jalik xarajatlari. *4-modda.* Komandirovka va xizmat xarajatlari. *5-modda.* O'quv-o'rganuv, kutubxona va o'yinchoqlar sotib olish. *9-modda.* Ovqatlantirish xarajatlari. *12-modda.* Asbob-uskuna va inventarlar sotib olish. *16-modda.* Bino va inshootlarning kapital remonti. *18-modda.* Boshqa xarajatlar.

9-modda bo'yicha taomnoma tuzish uchun bolalarni ovqatlantirishga mo'ljallangan mablag' kiritiladi. Bu mablag'larning miqdori bitta bolaga kunlik ovqatlanish uchun belgilangan pul me'yori va yil davomida ovqatlantiriladigan bolalar soniga qarab belgilanadi. Bunda bolalar bog'chalarining turi, ishlash soati albatta hisobga olinadi. Ovqatlantirish me'yori Sog'liqni saqlash, Moliya vazirliklari tomonidan belgilab beriladi. Ovqatlanishga ajratiladigan mablag' miqdorini aniqlash uchun bir bolaga kuniga sarflanadigan ovqat qiymatini turli maktabgacha ta'lim va yasli guruhlari bo'yicha jami bola kuniga ko'paytirish kerak. Maktabgacha ta'lim muassasasining smetasiga bog'cha xodimlarining ovqatlanishi uchun mablag' ajratish ko'zda tutiladi. Bu xalq ta'limi bo'limlari, moliya bo'limlari tomonidan alohida ro'yxat bo'yicha amalga oshiriladi. Bunda xodimlar haq to'lash hisobiga bolalar muassasalarida ovqatlanishlari mumkin. Smeta amal qiladigan yil va muassasa qaysi mablag' bilan ta'minlanishi yozib qo'yiladi.

Smetada maktabgacha ta'lim muassasasining barcha xarajatlari va bu xarajatlar qoplanadigan manbalar: budget ajratmalari va ota-onalar mablag'lari ko'rsatiladi.

Yozgi sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish sarflari maktabgacha ta'lim muassasalarining xarajat smetasiga kiritilmaydi. Bunday tadbirlar o'tkaziladigan hollarda ularni amalga oshirish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar uchun alohida smeta tuziladi. Shuningdek, bolalar bog'chalarida ota-onalar mablag'i hisobi bo'yicha ham alohida smeta tuziladi.

Smetaning xarajat moddalari Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan hujjatlar bo'yicha tuziladi. Smetada muassasa kelasi yilga hisoblab chiqqan jami hamda alohida moddalar bo'yicha xarajatlar summasi joriy yilga tasdiqlangan xarajatlar summasi bilan va



smeta qachon tuzilayotganiga qarab, o'tgan davrdagi haqiqiy xarajatlar miqdori bilan kiritilgan o'zgartishlar hisobga olingan holda taqqoslab keltiriladi.

Ko'rsatilgan ma'lumotlarni taqqoslashda smetani tuzish jarayonida yuz bergan chetlanishlarni aniqlash, bu chetlanishlarning sababini topish, shu asosda kelasi yilgi xarajatlar miqdorini to'g'ri belgilash kerak.

Maktabgacha bolalar muassasalari smeta tuzish vaqtida yana muassasaning kelasi yilgi ish ko'rsatkichlari (guruh va bolalar sonining ortishi, bolalarning muassasada bo'lish vaqti va h.k.) bo'yicha o'zi bo'ysungan yuqori tashkilotning ko'rsatmalariga amal qiladi. Smetaga kiritilgan xarajatlar smeta blankasida keltirilgan hisob-kitoblar bilan asoslangan bo'lishi shart.

Smetaga hisob-kitoblar bilan birga maktabgacha tarbiya muassasasi egallab turgan bino haqida umumiy ma'lumotlar (uning kubaturasi, maydoni, isitish sistemasi, vodoprovod, kanalizatsiya mavjudligi) va muassasaning ko'lamiga oid ko'rsatkichlar (guruh bolalar soni va h.k.) ham keltiriladi. Smetaga maktabgacha tarbiya muassasasining pedagog, tibbiy va boshqa xodimlari tarifikatsiya ro'yxati albatta ilova qilinishi shart. Mazkur ro'yxat ikki nusxada tuziladi.

Smeta loyihasi tegishli ilovalar bilan maktabgacha ta'lim muassasalari tomonidan belgilangan muddatga yuqori tashkilotlarga ikki nusxada, zarur bo'lgan hollarda esa uch nusxada yuboriladi.

Yuqori tashkilot maktabgacha ta'lim muassasasining smetasini qabul qilib olgach, eng avvalo, smetaning to'g'ri tuzilganligini, smetada barcha grafalar to'lg'azilgan, alohida moddalar bo'yicha harakat summalari tegishli hisob-kitoblar bilan bog'langanligini aniqlaydi.

Barcha hisob-kitoblar qarab chiqilgandan, har bir modda bo'yicha xarajatlar aniqlangandan va budjet hisobidan qoplanadigan xarajatlar budjetda aniq maqsadlar uchun ajratilgan summaga teng holga keltirilgandan keyin maktabgacha ta'lim muassasasining smeta hujjatiga jami xarajatlar (alohida modda bo'yicha va hammasi), shuningdek, budjet hamda ota-onalar mablag'i hisobiga qoplanadigan xarajatlar jami chorak bo'yicha tasdiqlangan smetaga binoan taqsimlab yozib qo'yiladi. Smeta yuqori tashkilot tomonidan qabul qilingandan keyin maktabgacha ta'lim muassasasi xarajatlari va ota-onalardan tushadigan mablag'ni kvartallar bo'yicha taqsimlab, hisob-kitob qilib qo'yadi.

Xarajatlarni taqsimlashda ba'zi xarajatlarning mavsumiy xarakterda bo'lishi (yoqilg'i tayyorlash, sabzavot jamg'arish, ta'mirlash ishlari va h.k.) hisobga olinishi shart. Boridi-yu, bolalar sonining ko'payishi ko'zda tutilgan bo'lsa, bu bilan bog'liq sarflar (ish haqi, bolalarni ovqatlantirish va h.k.) tegishli choraklar xarajatlari miqdorida o'z ifodasini topishi kerak. Smetaning bir nusxasi muassasada, ikkinchi nusxasi yuqori tashkilotda qoladi, uchinchi nusxasi esa markazlashgan buxgalteriyaga, qishloq kengashiga, moliya bo'limi va boshqalarga havola qilinadi.

Smetaning tasdiqlanishi smeta hujjatining birinchi betiga maxsus yozuv bilan rasmiylashtiriladi. Mazkur yozuvda harakatlarning jami summasi, xodimlarning ish haqi fondi, smeta tasdiqlangan kun ko'rsatiladi. So'ngra smetani tasdiqlagan yuqori tashkilot boshlig'i imzo chekadi, uning imzosi idora muhri bilan mustahkamlanadi. Smetani tasdiqlagan tashkilot unga o'zgartirish kiritadi. Bu o'zgartirishlar yuqori tashkilotning muassasaga yuborgan maxsus yozishmasiga asosan rasmiylashtiriladi.

#### **16.4. Mudira va tarbiyachining ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirishi**

Bolalar bog'chasida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish ma'lum maqsadga qaratilgan jarayon bo'lib, uning vazifasi, mazmuni va metodi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning ruhiy fiziologik taraqqiyotini hamda ularning o'ziga xos tomonlarini e'tiborga olgan holda tarbiyalashdir. Maktabgacha tarbiya muassasalaridagi ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish murakkab bo'lib, tarbiyachidan bolalarning ruhiy fiziologik taraqqiyot darajasi to'g'risidagi bilimlarni, ta'lim-tarbiya dasturini, ta'lim va tarbiyaning usullarini bilishni taqozo etadi.

Reja tarbiyachiga yil bo'yi amalga oshiradigan ta'lim-tarbiya ishlarini bir tekisda taqsimlab, ma'lum izchilik bilan amalga oshirishga yordam beradi. Reja bolalar bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlariga oldindan puxta tayyorgarlik ko'rish usullarini yaxshilab o'ylab olish, kerakli material va jihozlarni tayyorlash imkonini yaratadi. Tarbiyachi rejalashtirgan hamma ishlar har bir bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashi lozim. Shu bilan birga reja qotib qolgan narsa bo'lmay, vaziyatdan kelib chiqib, unga o'zgartirishlar kiritish mumkin.

Shuning uchun bolalar bog'chasida bir-birini to'ldiradigan bir necha xil reja tuziladi: bolalar bog'chasining yillik rejasi, istiqbol rejasi va tarbiyachining kalendar rejasi.

*Yillik reja*, asosan, bog'cha mudirasi, metodist-tarbiyachi tomonidan tuzilib, bolalar bog'chasida amalga oshiriladigan barcha ishlarni o'z ichiga oladi.

*Istiqbol rejasi* — 1—3 oyga mo'ljallangan bo'lib, undan ko'zlangan asosiy maqsad bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini tartibga solish va uning ma'lum maqsadga qaratilgan va samarali bo'lishini ta'minlashdir. Unda «Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi»ning hamma bo'limlari o'z aksini topadi.

Istiqbol rejasida dasturning hamma bo'lumlari bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ta'lim-tarbiya ishlari tizimi bolalar faoliyatining hamma turlarida aniq mavzular bo'yicha belgilab chiqiladi.

*Kalendar reja* 10—12 kunga tuziladi. U kun davomida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlari mazmunini aks ettiradi. Uni tuzishda dastur talablari, bolalarning rivojlanish va tarbiyalanish darajalari, maktabgacha tarbiya muassasasining ish sharoiti hisobga olinadi.

Kalendar rejaga bolalarning aniq bilim va tasavvurlarni egallash jarayoni va ularda tevarak-atrofdagi narsa, buyumlar to'g'risida umumlashgan bilimlarni shakillantirish, bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlarni o'stirish, axloqiy ongni shakillantirish, axloqiy xulq, odat va malakalarni egallashi va boshqalar kiradi. Bolalar bog'chasida tarbiya dasturini yaxshi bilish kalendar rejani muvaffaqiyatli tuzishning asosiy garovidir.

Pedagog va ruhshunos olimlarning olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarining xulosalari bolalarning malaka va ko'nikmalarni egallashi ma'lum yosh bosqichida yuzaga kelishini ko'rsatdi. Tarbiyachi xuddi mana shu davrni qo'ldan boy bermay, bolani har tomonlama rivojlantirishga erishmog'i zarur. Tarbiyachi o'zi ishlayotgan guruh, shuningdek, o'zidan oldingi va keyingi guruhlar dasturi talablari hamda mazmunini yaxshi bilishi kerak. Masalan, dasturning kichkina guruh bolalarini tevarak-atrof bilan tanishtirish bo'limida bolalarni hayvonlar, o'simliklar va shunga o'xshashlar tog'risidagi eng oddiy bilim va tushunchalar bilan tanishtirish vazifasi belgilangan.

O'rta guruhda dastur bo'yicha bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish va narsa-buyumlarga, voqea-hodisalarga nisbatan qiziqishni o'stirish va shu asosda eng oddiy tasavvur-tushunchalar

hosil qilish, eng muhimi esa kuzatuvchanlikni, narsa-buyumlar, voqea-hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni topa bilishga o'rgatish bosh vazifa hisoblanadi. Katta va tayyorlov guruhi bolalarini narsa-buyumlar, voqea-hodisalar to'g'risidagi haqiqiy tasavvur va tushunchalarini, ularning tabiiy sabablar bilan bog'liq ekanligini shakllantirish dasturning muhim vazifasidir.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun dasturni yaxshi bilishning o'zi yetarli emas, shu bilan birga, har bir bola shaxsini rivojlantirish yo'llarini yaxshi bilish, bolaning bilim, malaka va ko'nikmalarni egallab olish qobiliyati har xilligini ham e'tiborga olish kerak.

Tarbiyachining ishini muvaffaqiyatli rejalashtirishning yana bir zarurati — uning metodik qo'llanma, pedagoglar kengashi, metodik birlashma, kurslarda va shunga o'xshashlardan olgan tavsiyalardan keng foydalanishidir.

Kalendar rejani guruhda ishlovchi har ikki tarbiyachi birgalashib, bamaslahat tuzishlari lozim. Tarbiyachilar vaqt-vaqti bilan bolalarning ishlarini tahlil qilib borishlari lozim. Kalendar reja bir-ikki haftaga tuziladi va tarbiyachining maxsus hujjati hisoblanadi.

Dasturga muvofiq hamma ta'lim-tarbiya ishlari bolalar faoliyatining barcha turlari: o'yin, mehnat, maishiy faoliyat va mashg'ulot orqali amalga oshiriladi. Kalendar rejaning mazmuni bolalar faoliyatining jami turlarida aks ettiriladi. Kalendar rejani tarbiyachi kun tartibiga binoan tuzib chiqadi. Bolalarning o'yini ham, mehnat mashg'uloti ham, maishiy faoliyati ham tarbiyachining har kungi kalendar rejasidan o'rin olishi lozim. Kalendar rejaning mazmuni va shakli bolalarning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib shakllanishi qay darajada borayotganligiga qarab baholanadi.

**Ertalabki soatlarni rejalashtirish.** Ertalabki soatlarga quyidagilar rejalashtiriladi:

1. Bolalarning og'zaki nutqini tuzatish va rivojlantirish:

a) kitoblar, o'yinchoqlar, bolaning dam olish kunini qanday o'tkazgani, uning oila a'zolari: ota-onasi, opa-singlisi, aka-ukasi va shunga o'xshashlar to'g'risida jamoa tarzida va yakka tartibda suhbatlar o'tkazish;

b) albomlar, jurnallar, yangi kitoblar, otkritkalar, rassomlarning yangi asarlarini ko'rish;

d) she'rlarni takrorlash;

e) to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantiruvchi didaktik o'yinlar;

f) tovushlarni to'g'rilash bo'yicha yakka tartibda shug'ullanish.

2. Bolalarni kattalik, rang, vaqt, fazoviy masofa bilan tanishtirish bo'yicha didaktik o'yinlarni rejalashtirish (kichik va o'rta guruhlarda).

3. Bolalar xohlagan faoliyat rejalashtiriladi. Bolalarning mustaqil rivojlanishi uchun plastilin, bo'yoqlar, qalamlar, bo'yashlari uchun rasmi kitobchalar va o'zlarining chizgan rasmlari beriladi.

4. Bolalar tomosha qilishlari uchun xalq o'yinchoqlari, kiyimlar, kashtalar, idish-tovoqlar, narsa-buyumlar, milliy kiyimdagi qo'g'irchoqlar beriladi.

5. Bolalarni madaniy-gigiyenik malakalarga o'gratish bo'yicha yakka tartibdagi ishlar rejalashtiriladi, masalan, kichkina guruhda dastro'molchadan foydalanishga o'rgatish bo'yicha didaktik o'yin o'tkaziladi.

6. Koptokni dumalatish, gardishni aylantirish, tirmashib chiqish, sirpanib yurish kabi asosiy harakatlarni rivojlantiruvchi ishlar rejalashtiriladi.

7. Ashula va raqsning ayrim qismlarini takrorlash rejalashtiriladi.

8. Bolalarning o'yin faoliyati rejalashtiriladi:

a) qurilish o'yinlari: rol, sujet bilan bog'liq qurilish o'yinlari rejalashtiriladi;

b) sujetli-rolli o'yinlar, turmushni aks ettiruvchi va boshqa shunga o'xshash o'yinlar rejalashtiriladi;

d) stol usti bosma didaktik o'yinlari, so'zli buyumlar bilan o'ynaladigan didaktik o'yinlar, ermak o'yinlar, jo'rovov o'yinlar, xalq didaktik o'yinlari rejalashtiriladi. Bolalarning sezgisini, idrokini, tovushlarni idrok etishini, rang, vaqt, didni, nutqni o'stiruvchi ishlar rejalashtiriladi. Dramalashtirish va sport o'yinlari ham rejalashtiriladi.

9. Mehnatning turli xillari rejalashtiriladi:

a) tabiatdagi mehnat (ko'chat o'tqazish, suv sepish, o'simlik, hayvonlarni parvarish qilish va shu kabilar);

b) xo'jalik maishiy mehnat (idishlarni yuvish, xonani yig'ishtirish, kitoblarni yopishtirish-yelimplash, o'simliklar bargini artish);

d) qo'l mehnati (tabiiy materiallar, daraxtlar mevasi, somonchalar, lattalar qiyqimi, yog'och va kartondan har xil buyumlar yasash).

Har bir yosh guruhida mehnatning qaysi turi o'tkazilishi dasturda ko'rsatilgan. Ertalab 2—3 xil faoliyat rejalashtiriladi. Ertalabki soatlarni rejalashtirishda shu kungi o'tkaziladigan mashg'ulotlar e'tiborga olinadi. Mashg'ulotda biror narsa o'qib berish rejalashtirilgan bo'lsa, ertalabki soatda rasm ko'rish, onasi to'g'risida so'zlab berish, o'qish rejalashtirilmaydi, shu kungi ertalabki soatga mehnat, kattalik, shakl bilan tanishtirish, tasviriy faoliyat rejalashtiriladi.

Tarbiyachi har xil mashg'ulotlarni rejalashtiradi: bolalarga yangi bilim beruvchi mashg'ulotlar ularning olgan bilimlarini, o'rttirgan tajribalarini mustahkamlovchi va tartibga soluvchi mashg'ulotlar, kompleks mashg'ulotlar va hisobot-nazorat (tekshiruv) mashg'ulotlari bo'ladi. Tarbiyachi o'zining kalendar rejasiga mashg'ulotning nomi va dastur mazmunini yozib qo'yadi. Dastur mazmuniga mashg'ulotning ta'lim-tarbiyaviy vazifalari va bolalar egallab olishlari, aniqlash va mustahkamlash kerak bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalar ham yoziladi.

Mashg'ulotni rejalashtirish bolalar tomonidan ma'lum hajmdagi bilimlarni egallash va kengaytirish imkoniyatini yaratibgina qolmay, shu bilan birga ularning bilimlarini aniqlash, mustahkamlash, mustaqil faoliyatlarida qo'llash imkonini beradi. Bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarning hajmi mashg'ulotdan mashg'ulotga kengaytirib, murakkablashtirib boriladi. Masalan, tarbiyachi birinchi mashg'ulotda bolalarni uy hayvonlari bilan tanishtiradi, bolalar ularni kuzatishadi, nomini aytishga o'rganadi. Keyingi mashg'ulotda esa bilimlar mustahkamlanib, hayvonlarni kuzatish jarayonida yangi bilimlar hosil bo'ladi. Bolalar bu hayvonlarning foydali belgilarini, xatti-harakatlarini kuzatishsa, kelgusi mashg'ulotda bolalar uy hayvonini odamlar qanday parvarish qilishi va bu parvarishga hayvonlar o'z «minnatdorchiligini» qanday bildirishi to'g'risida gap boradi.

Dastur materillarini o'rganish mashg'ulotdan mashg'ulotga mana shu izchillik bilan amalga oshirib boriladi.

Bolalarning bilim, malaka va ko'nikmalarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari aksariyat hollarda tarbiyachining qo'llagan usullariga, shart-sharoitga bog'liq bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning yosh xususiyati, asosan, *ko'rgazmali metoddan*: kuzatish, namoyish qilish; *so'z metodi*: hikoya, suhbat tushuntirish; *amaliy metod*: mashq, o'yindan foydalanishni taqozo etadi.

Har bir metod umumiy vazifani amalga oshirishga qaratilgan yagona yo'l bo'lib, usullar yig'indisidan tashkil topadi. Hamma usullarni shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin: *ko'rgazmali* (ko'rsatish), *og'zaki* (savol, solishtirish, she'r aytish, topishmoqdan foydalanish), *amaliy* (topshiriq, o'yin, vaziyat usullari va boshq.).

Bevosita faollashtiruvchi metodlardan tashqari bivosita metodlardan ham foydalaniladi (eslatish, maslahat, tanbeh berish, tuzatish). Ko'p hollarda metod va usullardan kompleks tarzda foydalaniladi. Mashg'ulot vaqtida beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni bolalar yaxshi o'zlashtirib olishlari ularning hissiy holatini ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Tarbiyachi o'zining kalendar rejasida mashg'ulotda foydalaniladigan usulnigina yozib qolmasdan, shu bilan birga uning mazmunini ham ochib yozishi kerak. Bolalarga beriladigan savollar qanday izchillikda berilsa, shunday yozib qo'yish zarur. Agar tarbiyachi mashg'ulotda topishmoq yoki she'rdan parcha keltirmoqchi bo'lsa, uning mazmunini yozib qo'yan ma'qul. Solishtirishga o'rgatishda qaysi buyumlardan, ularning qaysi belgisidan, qanday savollardan foydalanish lozimligi ham yoziladi.

Tarbiyachining mashg'ulotni rejalashtirishdagi ba'zi bir usullarini ko'rib chiqamiz. Tarbiyachi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rganda, albatta, yosh bolaning tafakkuri ko'rgazmali-obrazli bo'lishini e'tiborga oladi va, asosan, mashg'ulotda ko'rgazmali metodlarni rejalashtiradi. Kuzatish metodi tarbiyachi rahbarligida kuzatilayotgan obyektning boshqarilishini ta'minlaydi. Narsa va buyumlarni namoyish etish ham shunday ahamiyat kasb etadi. Ko'p mashg'ulotlarda, ayniqsa, nutqni o'stirish mashg'ulotida tarbiyachining hikoyasidan foydalaniladi. Bu bolalarga tanish bo'lgan badiiy asardan, tevarak-atrofdagi hayotdan olingan voqea-hodisalarni tarbiyachi his-hayajon bilan jonli, obrazli qilib bayon etishidir.

Suhbat metodi ham rejalashtiriladi. Suhbat bolalarga avval egallagan bilimlari bilan yangisini bog'lash imkonini yaratadi, shuningdek, yangi bilimlarni o'zlashtirib olishlarini yengillashtiradi. Tarbiyachi mashg'ulotlarida foydalanadigan so'zli metodda uning ko'pchiligini savollar tashkil etadi. Savollarni bolalarning bilish jarayonlari: sezgi, idrok, tafakkurni faollashtiradigan qilib tuzish kerak. Savollar bolalardan aqliy zo'r berishga, sabab-natijalarni aniqlashga qaratilgan bo'lishi zarur. («Sen qanday bilib olding?»),

«Nima uchun sen shunday deb o'ylaysan?», «Sizlar qanday o'ylaysizlar?», «Nodira to'g'ri gapirdimi?», «Nima uchun buni eman daraxti deb o'ylaysiz?», «Nima uchun daraxtlar hozir barg yozgan» va h.k.). Bunday savollar bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Mashg'ulotlarda muammoli vaziyatlar yaratish ham bolaning fikrlash faoliyatini kuchaytiradi, bilimlarni egallab olishlarini yengillashtiradi, ularning fahm-farosatli, mustaqil fikrlaydigan bo'lishiga yordam beradi.

Mashg'ulotlarda solishtirish usulidan foydalanish insonning bebaho aqliy xazinasi bo'lib, u buyumlarni yaxshiroq o'rganish va tushunishga yordam beradi. Imkoni boricha har bir mashg'ulotda obyektning o'xshash va o'xshamasligini solishtirish usulidan foydalanish kerak, ayniqsa, ikki va undan ko'p buyumni bir-biri bilan solishtirish bolalarning fikrlash doirasini faollashtirishda yaxshi natija beradi. Tarbiyachi kichik guruhdayoq solishtirish usullaridan foydalanadi. Bunda buyumlarning farqi ko'zga yaxshi tashlanadigan bo'lishi kerak. Bular buyumlar va ular qismining katta-kichikligi, shakli, tuzilishi, rangi, tovushi, hidi va h.k.lardir.

Kichik guruhlarda solishtiriladigan buyumlar bir-ikkitadan ko'p bo'lmaydi. Tarbiyachi solishtirishni qanday izchillikda olib borishni o'zining kalendar rejasida yozib qo'yadi. O'rta guruhlarda solishtirishga mo'ljallangan buyumlardagi belgilar soni ko'payadi va bolalardan buyumlarni kuzatib, ulardagi belgilarni ma'lum izchillikda bayon qilish talab etiladi.

Katta va maktabga tayyorlov guruhlaridagi bolalardan faqat ular ko'rib turgan buyumlarning belgilarini so'rash bilan chegaralanib qolmay, ularni solishtirishda tasavvurlaridan foydalanish ham talab etiladi. Solishtirishning bu murakkab shakli — bolalarning yoshiga mos bo'lib, ularning aqliy rivojlanib borishlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyachi mashg'ulotlarda o'yin usulidan keng foydalanadi. O'yin usuli mashg'ulotning qiziqarliroq, jozibaliroq, o'tishini ta'minlaydi, mashg'ulot jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bola osonlik bilan yengadi.

Mashg'ulot rejasida bolalarning xulq-atvori, qiziqishi, rivojlanish darajasiga qarab, yakka tartibdagi ishlar ham rejalashtiriladi. Umumiy rivojlanish biroz orqada qolayotgan, diqqati tarqoq, o'ziga ishonchi yo'q yoki o'zi to'g'risida yuqori fikrli bolalarga ko'proq e'tibor berish kerak.



Shunday qilib kalendar rejaga mashg'ulotning dastur mazmuni, metodik usul unga kerakli ko'rgazma va tarqatma materiallar, bolalar bilan individual ishlash rejalashtiriladi.

*Sayrni rejalashtirish.* 1. Qoidaviy o'yinlarning ta'lim-tarbiyaviy vazifasi ko'rsatilgan holda rejalashtiriladi. Kichik guruhda bitta yangi o'yin yoki tanish o'yinni rejalashtirish mumkin. Katta guruhda ham bolalarga tanish bo'lgan ikki o'yinni sayrni boshida va oxirida rejalashtirgan ma'qul.

2. Tabiatdagi, ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish rejalashtiriladi. Masalan, harakatlanayotgan transportni, bayramga bezatilgan ko'chani, farroshning ishini va shunga o'xshashlarni kuzatish; barg yozayotgan, gullab turgan o'simliklarni, yog'ayotgan qor va hokazolarni kuzatish rejalashtiriladi. Bular haftasiga 5—6 marta kuzatiladi. Ob-havoni kuzatishni oldindan rejalashtirib bo'lmaydi. Buni kalendar rejasiga quyidagicha yoziladi: yaqin orada (hafta davomida) qor yog'ishini kuzatish. Bu tadbir o'tkazilayotgan mashg'ulot bilan uzviy bo'g'liq bo'lishi kerak.

3. Bolalarning maydonchadagi, polizdagi mehnati rejalashtiriladi:

a) tabiatdagi mehnat (daraxt o'tqazish, suv quyish, chopiq qilish, o'simlik urug'ini terish, hayvonlarni parvarish qilish va hokazolar.)

b) maishiy-xo'jalik mehnati (barglarni yig'ish, qorni tozalash, ayvonchani supurish, qafasni tozalash, yo'lkalarga qum sepish va shunga o'xshashlar).

4. Bolalar bilan olib boriladigan yakka tartibdagi ishlar: jismoniy tarbiyadan asosiy harakatlarni mashq qildirish, san'at, ona tilini o'rganish va boshqalar.

Asosiy harakatlarni mashq qildirish bo'yicha tadbirlar yil fasllariga qarab tanlanadi, masalan, qishda yugurish, sakrash, yurish kabi ishlar rejalashtiriladi; emaklab, sirpanib yurish, gimnastika narvonchasidagi muvozanatni saqlashga o'rgatuvchi mashqlar rejalashtirilmaydi.

5. Sport o'yinlari (voleybol, stol tennisi, badminton va shunga o'xshashlar), sport ermak o'yinlari (chang'i, konki, chana, velosiped va boshq.).

6. Maqsadli sayrlar maydoncha bo'ylab va maydonchadan tashqarida o'tkaziladi. Avval ekskursiyaga borib kelingan joyga maqsadli sayr uyushtiriladi. (Masalan, bahorda mana shu o'tloqqa kelgan edik, shu vaqtgacha ko'p narsalar o'zgaribdi.)

7. Qurilish o'yinlari va ularga kerakli materiallar, qurollar.

Sayrda bolalarning sujetli-rangli o'yinlari yuzaga kelishi va rivojlanishi, o'yin harakatlariga bolalarni o'rgatish usullari ham rejalashtiriladi. Tarbiyachi kalendar rejasida o'yin uchun olib chiqiladigan o'yinchoqlarni, ularning ayrim qismlarini ham ko'rsatadi. Sayrga chiqishdan oldin tarbiyachi bugun sayr vaqtida nima bilan shug'ullanishlari, qanday mehnat faoliyatini bajarishlari yoki qanday o'yin materiallarini olib chiqishlari kerakligi to'g'risida bolalar bilan gaplashib oladi.

**Kunning ikkinchi yarmini rejalashtirish.** Kunning ikkinchi yarmi ikki qismdan iborat: guruhdagi va sayrdagi ishlar. Kunning ikkinchi yarmida bolalarning guruhdagi o'yin faoliyati rejalashtiriladi.

Uyqudan keyingi o'yin uchun kichik guruhda — 45 daqiqa, o'rta guruhda — 1 soat, katta guruhda — 1 soat, tayyorlov guruhida — 1,5 soat ajratiladi.

Sujetli-rolli o'yinlar ham rejalashtiriladi (faqat nomigina yoziladi). Rejada, shuningdek, stol usti bosma o'yinlari, didaktik o'yinlar ham mo'ljallanadi. Rejaga stol usti bosma o'yinlari qoidasi, tushuntirishi ham yoziladi. Bu vaqtda dramalashtirilgan o'yinlar ham rejalashtiriladi.

Tarbiyachi qurilish o'yinlarida o'zining qatnashishini ham rejaga yozib qo'yadi. Unda tarbiyachining bolalar bilan atributlar yasashi ham mo'ljallanadi. Kechqurungi ko'ngil ochish o'yinlarini rejalashtirish mumkin. U haftasiga bir marta o'tkaziladi.

Katta va tayyorlov guruhida kitoblarni bir necha kun davomida o'qib berish ham rejalashtiriladi. Tarbiyachi har gal o'qishdan oldin «O'tgan gal men sizlarga nima o'qib bergan edim?» deydi. Bolalar buni esga tushirib so'zlab berishadi. Tarbiyachi savollar bilan yordam berib turadi.

Kunning ikkinchi yarmida, asosan, bolalarning xilma-xil o'yin faoliyatlari tashkil etiladi. Bolalarning sujetli-rolli o'yinlari uchun sharoit yaratish, o'yinchoqlar bilan o'ynashga o'rgatish va boshqalar kalendar rejasiga yoziladi. O'yinda tarbiyachining qatnashishi ham rejaga qayd etiladi. Bu bolalar o'yinini tashkil etish va unga tarbiyachining rahbarlik qilishi uchun shart-sharoit yaratadi.

Katta va tayyorlov guruhida tarbiyachining bolalar o'yiniga rahbarligi o'zgarib, bevoşita rahbarlikdan bavoşita rahbarlikka o'tadi, tarbiyachi bolalarning mustaqil faoliyatlarini rag'batlantiradi. Tarbiyachi qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlarni, sahnalashtirilgan va qoidalari o'yinlarni ham rejalashtiradi.

Kunduzgi uyqudan keyin guruh xonasini yig'ishtirish, yirtilgan kitoblarni ta'mirlash, qo'g'irchoq kiyimini yuvish, kichik bolalar uchun o'yinchoqlar yasab berish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish kabi mehnat faoliyati rejalashtiriladi. Tarbiyachi, shuningdek, ko'ngilochar o'yinlarni ham unutmaydi. Bunga qo'g'irchoq, soya teatri, konsertlar, sport, musiqa va badiiy ko'ngil ochish soatlari, gramplastinka eshitish va shunga o'xshashlar kiradi. Tarbiyachi badiiy asarlarni o'qib berish, klassik va zamonaviy rassomlarning rasmlarini tomosha qilishni ham esdan chiqarmaydi. Kunning ikkinchi yarmida har kuni sayr o'tkaziladi, uning mazmuniga harakatli va ijodiy o'yinlar, mehnat faoliyati kiradi.

Buyumlarni, ijtimoiy hayot voqealarini kuzatish, jonli obyekt bilan muloqotda bo'lish ham kalendar rejasidan o'rin olishi kerak. Tarbiyachi bolalarning o'zlari qiziqqan faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoit yaratadi. Reja kun davomida har bir bola mazmunli, qiziqarli faoliyat bilan shug'ullanadigan qilib tuzilishi lozim.

### **16.5. Metodik ishlarga rahbarlik qilish**

Pedagogik kengash jamoa pedagoglari fikrini ifodalovchi, bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy masalalarni kollegial ko'rib chiqadigan doimiy ishlovchi organ, metodik mahorat maktabi va ilg'or tajriba minbaridir. Maktabgacha muassasa mudiri pedagogik kengash raisi hisoblanadi.

Pedagogik kengashga bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar darajasini oshirish, ularni hal qilish yo'llarini izlash, muassasa ish tajribasiga pedagogika fanining yutuqlari va ilg'or pedagoglar tajribasini joriy qilish, tarbiyachilarning pedagoglik mahoratini oshirish, ularning ijodiy faolligini rivojlantirish kabi masalalar kiritiladi.

Pedagogik kengash Xalq ta'limi vazirligi, xalq ta'limi bo'limlarining maktabgacha ta'lim bo'yicha buyruq, instruksiya, nizom va boshqa me'yoriy hujjatlarini; maktabgacha muassasaning yillik ish rejasini; bolalar sog'lig'ini mustahkamlash tadbirlarini; har bir yosh guruhi bo'yicha «Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya dasturi»ning sifatli bajarilishi jarayonini; ish tajribasiga joriy qilish maqsadida tarbiyachilarning ilg'or tajribalarini; maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish-

ning dolzarb masalalarini, tarbiyachilarning nazariy va metodik tayyorgarliklarini oshirish va maktabgacha muassasa faoliyatining boshqa masalalarini muhokama qiladi.

Pedagogik kengash kun tartibini belgilashda barcha qatnashchilarni qiziqtiruvchi mavzularning kengligini, dolzarbligini ta'minlash zarur. Faqat shundagina pedagogik kengashda ish muhiti hukm suradi, masalalar muhokamasi sermahsul va faol bo'ladi.

Pedagogik kengash tarkibiga katta tarbiyachi, tarbiyachilar, musiqa rahbari, maktabgacha muassasaga xizmat ko'rsatuvchi shifokor, katta hamshira, kasaba uyushmasi qo'mitasining raisi, otonalar qo'mitasining raisi kiradi. Kengash yig'ilishiga jamoat tashkilotlarining vakillari, maktablar o'qituvchilari, maktabgacha muassasada tarbiyalanuvchilarning ota-onalari taklif etilishi mumkin.

Pedagoglar pedagogik kengash tomonidan tasdiqlangan va maktabgacha muassasaning yillik ish rejasiga kiritilgan masalalar bo'yicha ishlaydilar. Pedagogik kengash ishining muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagoglar jamoasi muhokamasiga qo'yilgan masala qanchalik savodli va jiddiy tayyorlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik kengashning yig'ilishi ikki oyda bir marta chaqiriladi, zaruriyat tug'ilganda navbatdan tashqari yig'ilish chaqirilishi mumkin. Muhokamaga ko'pi bilan 2—3 masala qo'yiladi, pedagogik kengash ishdan tashqari vaqtda o'tkaziladi. Pedagogik kengash qarorining loyahasini ma'ruzachi (bolalar bog'chasining mudirasi yoki katta tarbiyachi) oldindan tayyorlaydi.

Seminarlar pedagoglarning nazariy, metodik bilimlarini, mutaxassislik, malakasini oshirishning keng tarqalgan shakli bo'lib, o'qituvchilar malakasini oshirish instituti va metodik kabinetlar tomonidan amalga oshiriladi.

Seminarlarning asosiy maqsadi — alohida metodika bo'yicha tarbiyachilarning bilimlarini chuqurlashtirish va tarbiya bo'yicha dolzarb masalalarini hal etishdir. Seminar o'quv tematika rejasini bir yilga mo'ljallangan bo'lib, shahar, tumanda seminar oyda 1—2 marta ishdan ajralmagan holda viloyat va respublikada esa 5—12 kunda ishdan ajralgan holda tashkil etiladi. Seminarlar ish sifatini yaxshilash maqsadida ilmiy tekshirish instituti tomonidan o'quv tematika rejalari, seminar dasturi ishlab chiqilgan.

Seminar o'quv tematika mavzusini katta tarbiyachi va mudira tarbiyachilar bilan birgalikda tanlaydi, pedagogik kengash uni tasdiqlaydi, bu yillik rejada aks etadi, so'ngra metodist faol tarbiyachilar bilan birgalikda seminar ishining aniq rejasini ishlab chiqadi.

Seminar ishida ayrim bir mavzu yildan yilga takrorlanmasligi kerak. Bu seminar qatnashchilarining qiziqishlarini pasaytiradi. Har bir seminarda quruq nazariyachilikka yo'l qo'ymay, o'rganiylayotgan materialni hayot bilan bog'lash kerak.

Seminar rejasi metod kabinetga ilib qo'yiladi. Seminar mavzulari taxminan shunday bo'lishi mumkin:

1. Ilk yosh va kichik yoshdagi bolalar psixofiziologik xususiyatlari (seminarni pediatr vrach yoki psixolog olib boradi).

2. Turli faoliyat turlarida bolalarga individual yondashish.

3. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni vatanparvarlik va baynalmilalchilik ruhida tarbiyalash.

4. Tarbiyachining bolalar bilan o'zaro munosabatlari va h.k.

Seminar mashg'ulotlari tarbiyachining amaliy malakalarini o'stiruvchi ish shakli bo'lib, bunda: bolalar loy, applikatsiya, qurish-yasash, badiiy o'qish, ashula aytish, raqsga tushish va boshqa ishlarni amalga oshiradilar. Ular mutaxassis yordamida amaliy jihatdan saviyalarini o'stirib boradilar. Seminar mashg'ulotlariga mudira, katta tarbiyachi yoki tajribali tarbiyachi rahbarlik qiladi. Seminar mashg'uloti maxsus daftarga qayd qilib boriladi.

Tarbiyachilarning bilimlarini boyitish maqsadida yangi metodik va pedagogik adabiyotlar, sohaga oid jurnaldagi maqolalar o'rganilib, muhokama qilinadi. Maktabgacha ta'lim xodimlarning dunyoqarashlarini kengaytirish maqsadida esa shahar va tumaning diqqatga sazovor yodkorliklariga o'quv ekskursiyalari tashkil etiladi. Bir yilda 3—4 marta o'quv ekskursiyalar tashkil etiladi. Muzeylarga ekskursiya tashkil etilsa yanada yaxshi, chunki bundan olingan taassurotlar pedagoglar bilimini yanada kengaytiradi.

Vaziyat tug'ilganda metodist tomonidan yakkama-yakka maslahatlar o'tkaziladi. Uzoq joylardagi xodimlarga yozma ravishda beriladi.

Jamoa maslahati bir oyda bir marta o'tkazilib, oylik rejada aks etadi. Tumandagi tarbiyachilarni oldindan ogohlantiriladi, o'tkazish muddatini belgilab tuman shart-sharoitidan kelib chiqilgan holda o'tkaziladi. Tarbiyachilarning g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va ishlash malakalarini o'stirish uchun turli mavzular bo'yicha ma'ruzalar o'tkaziladi. Bular siyosiy yoki pedagogik mavzularda bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim xodimlarining o'z ustida ishlashlari g'oyaviy-siyosiy saviyalarini oshirib borishdagi keng tarqalgan usuldir. Metodik ishlarni jamoa ish shakli bilan birgalikda olib borilsa, bilim

manbaya boyib boradi. Yillik rejada maktabgacha ta'lim bo'yicha ayrim nazariy masalalarni, maktabgacha ta'lim dasturini, dasturiy-metodik materiallarni o'rganish rejalashtiriladi. O'z ustida ishlashda faqatgina o'rganiladigan mavzular emas, balki undagi asosiy savollar, masalalar o'rganiladi adabiyotlar ko'rsatiladi.

Mudira kasaba uyushmasi raisi bilan birgalikda tarbiyachilar bilan o'z ustilarida ishlashni qanday tashkil etishi yuzasidan suhbatlashishi, yordam ko'rsatishi shart.

Bu tadbirlarning tizimli, aniq reja asosida olib borilishi goyat muhimdir. Tashkiliy-pedagogik vazifalarni amalga oshirishda jamoa uchun shart-sharoit, kerakli materiallar, bajaruvchi — javobgar shaxslar, ularni hisobga olib borish o'quv yilining boshida belgilanadi, buni mudira doimo nazorat qilib boradi.

*Umumiy ota-onalar majlisida* bolalar muassasasining butun ishi muhokama qilinadi, tegishli chora-tadbirlar ko'riladi. Ota-onalar majlisiga rais qilib ota-onalar qo'mitasining raisi belgilanadi.

Bolalar muassasalarida tashkil etiladigan ochiq eshiklar kuni g'oyat ahamiyatlidir. Bunda bog'chaning butun faoliyati ota-onalar tomonidan kuzatiladi, yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar joyida hal etiladi. Bolalar muassasasining barcha xodimlari bunga tayyorgarlik ko'radilar.

Bola tarbiyasida qiynalgan ota-onalar uchun yakkama-yakka suhbatlar tashkil qilinadi, bunda guruh tarbiyachisi va bog'cha mudirasi masalalarni ilmiy asoslangan holga hal etmog'i lozim. Maslahatlar qisqa, aniq shaklda olib boriladi, ayniqsa, guruhlarda «ko'chirma papka»lardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalarga yaqindan yordam berishda — kutubxona tashkil etish ahamiyatlidir. Bola tarbiyasiga oid kitoblar ota-onalarga katta yordam beradi, kitoblar bog'cha mudirasi, metodist va tarbiyachilar tomonidan tanlanadi. Adabiyotlar ro'yxati hisobot tarzida olib boriladi.

Pedagogik tashviqot ishlaridan eng qulayi ota-onalar burchagidir. Bu ota-onalarga bola tarbiyasiga hamda muassasa ishiga ijodiy yondashishga yordam beradi.

**Maktabgacha ta'lim muassasasining hujjatlari.** Bolalar bog'chasining Nizomiga muvofiq maktabgacha ta'lim muassasasida muayyan hujjatlar olib borilishi kerak.

Buyruqlar daftari bolalar bog'chasiga tartib raqami berilgandan keyin rasmiylashtiriladi. Uning hamma sahifalari raqamlanadi, oxirida uning necha varaqligi ko'rsatiladi.

Bolalarni hisobga olish daftari (DP-2-shakli) bolalar va otanalar haqidagi ma'lumotlarni, bolalarning uy manzili, bog'chaga kelgan va undan (butunlay) ketgan sanalarni o'z ichiga oladi.

Har bir guruhda bolalarning har kungi davomati (bog'chaga kelishi) hisobga olinadi (DP-3-shakli). Shuningdek, xodimlarning, bolalarning shaxsiy hujjatlari; tibbiy kartalari; xodimlarning ish jadvali, ularning ish vaqtini hisobga olish tabeli; maktabgacha tarbiya muassasasiga yo'l-yo'riq beradigan, uni tekshiradigan va nazorat qiladigan kishilarning mulohaza va takliflarini yozish daftari; sanitariya jurnali; pedagogika, ishlab chiqarish yig'ilishlari va otanalar majlislarining bayonnomalari; inventar va oziq-ovqat mahsulotlarini hisobga olish daftari; muassasaning yillik, oylik ish rejasi va boshqalar olib boriladi.



### *Nazorat savollari*

---

1. Maktabgacha ta'lim muassasalari qanday maqsadlarda tashkil etiladi?
2. Maktabgacha ta'lim muassasalarini ochish tartibi va unga qo'yiladigan talablar.
3. Mudira va tarbiyachining ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish haqidagi fikringiz.
4. Metodik ish faoliyatiga nimalar kiradi?
5. Kadrlar va ota-onalar bilan ishlash metodi nimalardan iborat?
6. Mudiraning huquq va vazifalari qaysi hujjatlarda belgilangan?



## TEST SAVOLLARI

1. *Maktabgacha ta'lim muassasasining Nizomi nechanchi yilda qabul qilingan?*
  - A. 1998-yil 5-yanvar. ✓
  - B. 1999-yil 5-yanvar.
  - D. 1997-yil 4-fevral.
  - E. 1996-yil 2-mart.
  - F. 1998-yil 4-yanvar.
  
2. *Maktabgacha ta'lim pedagogikasi qaysi fanlar bilan bog'langan?*
  - A. Falsafa.
  - B. Etika.
  - D. Estetika.
  - E. Fiziologiya.
  - F. Hamma javob to'g'ri.
  
3. *«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» nechanchi yilda qabul qilingan?*
  - A. 1999-yil 29-avgust.
  - B. 1997-yil 29-avgust.
  - D. 2000-yil 28-avgust.
  - E. 1998-yil 22-avgust.
  - F. To'g'ri javob yo'q.
  
4. *O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni necha bo'lim va moddadan iborat?*
  - A. 4 bo'lim 33 modda.
  - B. 5 bo'lim 30 modda.
  - D. 5 bo'lim 34 modda.
  - E. 4 bo'lim 35 modda.
  - F. 2 bo'lim 34 modda.



5. *Didaktik o'yinlarning turlarini toping:*

- A. Stol ustida o'ynaladigan.
- B. Og'zaki didaktik o'yinlar.
- D. Narsa va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan.
- E. Musiqa asboblari bilan o'ynaladigan.
- F. Hamma javob to'g'ri.

6. *Ta'lim metodini toping:*

- A. Kuzatish, namoyish etish.
- B. Texnik vositalarni qo'llash.
- D. Himoya qilish, suhbat.
- E. Amaliy o'yin.
- F. Hammasi to'g'ri.

7. *Bolalarni bog'chada va oilada mehnatning qaysi turlariga o'rgatiladi?*

- A. O'z-o'ziga xizmat qilish.
- B. Qo'l mehnati.
- D. Xo'jalik-maishiy mehnat.
- E. Tabiatdagi mehnat.
- F. Hamma javob to'g'ri.

8. *Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning nechanchi moddasida berilgan?*

- A. 5-modda.
- B. 3-modda.
- D. 12-modda.
- E. 18-modda.
- F. 20-modda.

9. *«Buyuk didaktika» asarini kim yozgan?*

- A. Y. A. Kamenskiy.
- B. K.D. Ushinskiy.
- D. L.N. Tolstoy.
- E. Aristotel.
- F. I.T. Pestolotssi.

10. Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash davrini nechta bosqichga bo'lamiz?

- A. 5 ta.
- B. 6 ta.
- D. 4 ta.
- E. 3 ta.
- F. 2 ta.

11. Ta'lim jarayonida tarbiyachining roli qanday bo'ladi?

- A. Ma'lumotlarni, usullarni o'rgatish.
- B. Ma'lumotlarni mustahkamlash.
- D. Ma'lumotlarni aniqlash.
- E. Materiallarni o'zlashtirish.
- F. A,B,D javoblar to'g'ri.

12. Estetik tarbiya tarbiyaning boshqa qaysi turlari bilan bog'liq?

- A. Aqliy, axloqiy.
- B. Iqtisodiy, sensor.
- D. Mehnat, jismoniy.
- E. Ekologik, diniy.
- F. A, D javoblar to'g'ri.

13. MTMda quyidagi metodlardan qaysi birlari keng qo'llaniladi?

- A. Ko'rgazmali, og'zaki, amaliy, o'yin.
- B. Kuzatish, suhbat, hikoya qilib berish.
- D. Mustaqil ish, tushuntirish, didaktik o'yin.
- E. A, B javoblar to'g'ri.
- F. Hamma javob to'g'ri.

14. O'yinchoqlarga qanday talablar qo'yiladi?

- A. Pedagogik talablar.
- B. Gigiyenik talablar.
- D. Psixologik talablar.
- E. Badiiy talablar.
- F. A, B, E javoblar to'g'ri.

15. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» necha bosqichda amalga oshiriladi?

- A. 2 bosqichda.
- B. 3 bosqichda.
- D. 4 bosqichda.
- E. 5 bosqichda.
- F. Bir necha bosqichda.

16. «Onalar uchun kitob» asari nechanchi yilda va kim tomonidan yozilgan?

- A. 1850-yilda Y. A. Kamenskiy tomonidan.
- B. 1860-yilda K.D. Ushinskiy tomonidan.
- D. 1850-yilda N.I. Pirogov tomonidan.
- E. 1803-yilda I.T. Pestolotssi tomonidan
- F. 1824-yilda J.J. Russo tomonidan.

17. MTM tarbiyalanuvchisining kun tartibini tashkil etuvchi qismlar qaysi?

- A. Ovqatlanish, uyqu, o‘yin.
- B. Mashg‘ulot, sayrlar.
- D. Kuzatish, ekskursiya.
- E. O‘yinlar, tajribalar.
- F. A,B javoblar to‘g‘ri.

18. Ta’limning didaktik prinsiplarini aniqlang:

- A. Rivojlantiruvchi.
- B. Ko‘rsatmalilik.
- D. Tushunarlilik.
- E. Tarbiyalovchi.
- F. Hammasi to‘g‘ri.

19. Mashg‘ulot nima?

- A. Tevarak-atrofnı o‘rgatish.
- B. Estetikani o‘rgatish.
- D. Tarbiya berish.
- E. O‘ynatish.
- F. Ta’lim berish.

20. Asosiy pedagogik tushunchalarga nimalar kiradi?

- A. O‘qish, o‘qitish.
- B. Ma’lumot, ta’lim.
- D. Qayta tarbiyalash.
- E. O‘z-o‘zini tarbiyalash.
- F. Hamma javob to‘g‘ri.

21. *Bolalar bog'chasining oila bilan ishlash shakllarini toping:*

- A. Ota-onalar majlisi.
- B. Ota-onalar qo'mitasi.
- D. Ota-onalar uchun burchak.
- E. Ota-onalar ko'rgazmasi.
- F. Hamma javoblar to'g'ri.

22. *Istiqbol rejasi necha oyga mo'ljallab yoziladi?*

- A. 1 oydan 3 oygacha.
- B. 2 oydan 3 oygacha.
- D. 3 oydan 6 oygacha.
- E. 12 oyga.
- F. 6 oydan 9 oygacha.

23. *Bolalar bog'chasining yillik rejasini kim tuzadi?*

- A. Tarbiyachilar guruhi.
- B. Mudira, metodist, tibbiyot xodimi.
- D. Xalq ta'limi bo'limi.
- E. Tuman xalq ta'limi bo'limi.
- F. Bog'cha jamoasi.

24. *O'rta guruhda kunning ikkinchi yarmida, uyqudan keyin o'yinga necha soat ajratiladi?*

- A. 1 soat.
- B. 45 daqiqa.
- D. 1,5 soat.
- E. 50 daqiqa.
- F. 30 daqiqa.

25. *Bolalarning ijodiy fikrlarini rivojlantiruvchi, zihnini o'stiruvchi o'yinchoqlarni qanday ataymiz?*

- A. Ko'rish-yasash o'yinchoqlari.
- B. Ermak o'yinchoqlar.
- D. Yasama o'yinchoqlar.
- E. Musiqiy o'yinchoqlar.
- F. Didaktik o'yinchoqlar.

26. *MTMda bolalar navbatchilikni qachon boshlaydilar?*

- A. Ilk yosh guruhidan.
- B. O'rta guruhdan.
- D. Katta guruhdan.
- E. 2-kichik guruhdan.
- F. Tayyorlov guruhidan.

27. *MTMda sayr qachon o'tkaziladi?*

- A. Ertalabki mashg'ulotdan keyin.
- B. Ertalabki qabuldan keyin.
- D. Kechki soatda uyqudan so'ng.
- E. Nonushtadan so'ng.
- F. A, D javoblar to'g'ri.

28. *Ota-onalar oilada bolalarni tarbiyalashda nimalarga rioya qilishlari zarur?*

- A. Javobgarlikni his qilish.
- B. Pedagogik bilimlardan xabardor bo'lish.
- D. Bolaga mehr-muhabbatli bo'lish.
- E. Talabchan, haqqo'y bo'lish.
- F. Hammasi to'g'ri.

29. *Ta'limning natijasini qanday ataymiz?*

- A. Tarbiya.
- B. Ma'lumot.
- D. O'qitish.
- E. O'qish.
- F. O'z-o'zini tarbiyalash.

30. *«Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar». Bu qonun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida yozilgan?*

- A. 67-moddasida.
- B. 55-moddasida.
- D. 30-moddasida.
- E. 64-moddasida.
- F. 71-moddasida.

31. *MTMning pedagogik jamoasi va pedagogik kengashini kim boshqaradi?*

- A. Metodist.
- B. Mudira.
- D. Xalq ta'limi bo'limi mudiri.
- E. Xalq ta'limi vazirligi.
- F. Tarbiyachi.

32. *Bog'chaning yillik rejasida qanday tekshiruv turlari bo'ladi?*

- A. Kundalik tekshiruv.
- B. Tematik tekshiruv.
- D. Oylik tekshiruv.
- E. Frontal tekshiruv.
- F. B,E javoblar to'g'ri.

33. *Didaktik maqsadga ko'ra mashg'ulotlar qanday bo'ladi?*

- A. Yangi bilim beruvchi.
- B. Mustahkamlovchi.
- D. Tekshiruvchi, sinovchi.
- E. Kompleks sistemaga soluvchi.
- F. Hamma javob to'g'ri.

34. *Mashg'ulotning asosiy qismida qanday ish bajariladi?*

- A. Mashg'ulot bilan tanishtiriladi.
- B. Yangi bilim beriladi.
- D. Takrorlash, mustahkamlash.
- E. Bolalar diqqatiga qaraladi.
- F. Hamma javob to'g'ri.

35. *Bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar qaysilar?*

- A. Irsiyat.
- B. Muhit.
- D. Tarbiya.
- E. Ta'lim.
- F. Hamma javob to'g'ri.

36. *Ekskursiyadan ko'zlangan maqsad...*

- A. Kuzatilayotgan obyekt to'g'risida bolalarga so'zlab berish.
- B. Bolalarning tevarak-atrofdagi hayot to'g'risidagi tasavvur va taassurotlarini shakllantirish.

- D. Bolalarni hodisalarning o'rtasidagi bog'liqlikni bilishga o'rgatish.
- E. Bolalar bilan hayvon, qush va o'simliklarni kuzatish.
- F. To'g'ri javob yo'q.

37. *Amaliy metodga nimalar kiradi?*

- A. Kuzatish, suhbat.
- B. Namoyish qilish.
- D. Tushuntirish, baholash.
- E. TV dan foydalanish.
- F. Mashq, mustaqil ish, oddiy tajriba.

38. *Intellektual rivojlanish deganda nimani tushunasiz?*

- A. Axloqiy rivojlanish.
- B. Aqliy rivojlanish.
- D. Estetik rivojlanish.
- E. Jismoniy rivojlanish.
- F. To'g'ri javob yo'q.

39. *Kishi shaxsining shakllanishiga qaysi asosiy ijtimoiy omillar ta'sir etadi?*

- A. Madaniy-ma'rifiy.
- B. Ijtimoiy.
- D. Ommaviy axborot vositalari.
- E. Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari va oila.
- F. Hamma javob to'g'ri.

40. *Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish jarayonining maqsad va vazifalarini bajarishda nimaga asoslanadi?*

- A. Nizomga.
- B. Dasturga.
- D. Tajribasiga.
- E. Hujjatlarga.
- F. Adabiyotlarga.

41. *«Bolajon» tayanch dasturi qachon tasdiqlandi?*

- A. 1999-yil 25-avgust.
- B. 2001-yil 8-may.
- D. 2000-yil 28-iyul.
- E. 2000-yil 4-aprel.
- F. 2001-yil 28-iyul.

42. «*Bolajon*» dasturi kimlar uchun tayyorlangan?

- A. Umumta'lim maktablari uchun.
- B. Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun.
- D. Kasb-hunar kollejlari uchun.
- E. Oliy ta'lim uchun.
- F. Boshlang'ich ta'lim uchun.

43. *Jismoniy tarbiya tarbiyaning boshqa qaysi turlari bilan bog'langan?*

- A. Aqliy tarbiya.
- B. Axloqiy tarbiya.
- D. Mehnat tarbiyasi.
- E. Estetik tarbiya.
- F. Hammasi bilan.

44. *Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun dasturni kim yozadi?*

- A. Tarbiyachilar, olimlar.
- B. Uslubchilar, mudira.
- D. Pedagoglar, psixologlar, mudiralar, metodistlar.
- E. Ota-onalar, tarbiyachilar.
- F. Mudiralar, shoirlar.

45. *Quyidagi berilgan hodisalarning qaysi qatori psixik jarayonlarga kiritiladi?*

- A. Miya, tuyg'u, ong, diqqat.
- B. Xohish, idrok, instinkt, harakat.
- D. Sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur.
- E. Ovoz, qobiliyat, tovush, xayol, nutq.
- F. To'g'ri javob yo'q.

46. *Shaxslararo munosabatlar qayerda amalga oshiriladi?*

- A. Uyda, ko'chada, jamoat joylarida.
- B. Guruh va jamoalarda.
- D. Oilada, maktabda, bog'chada, guruh va jamoalarda.
- E. Mehnat jamoalarida.
- F. Mahallada, uyda.



47. *Malaka bu ...*

- A. U yoki bu xildagi faoliyatga kiruvchi ish-harakatlar.
- B. Turli xildagi murakkab faoliyatni bajarishga tayyorgarlik.
- D. Takrorlanadigan ish-harakatlar.
- E. Uzoq vaqt davomida takrorlash natijasida paydo bo'ladigan, kishining anglangan ish-harakatlarini bajarishdagi avtomatlashgan usullar.
- F. To'g'ri javob yo'q.

48. *Ko'nikma bu ...*

- A. Ma'lum ish-harakatning qanday bajarilishini tushunish va bunday harakatlarning bajarilish tartibi bilan tanishish.
- B. Ongli faoliyatni amalga oshirishning stereotip usuli.
- D. Kishining bilim malakalariga asoslangan holda ma'lum faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga tayyorligi.
- E. Kishining amalda qo'llashi mumkin bo'lgan bilimlari.
- F. Hayot davomida paydo bo'ladigan faoliyat.

49. *Diqqat bu ...*

- A. Organizmning ichki holati va analizatorlarining qo'zg'ovchiga qaratilishi.
- B. Obyektni tanlab idrok qilish.
- D. Ongning bir nuqtaga to'plab biron-bir predmet va faoliyatga qaratilishi.
- E. Faoliyatga bog'lanmagan holda undan tashqarida hosil bo'lishi ham mumkin.
- F. To'g'ri javob yo'q.

50. *Berilgan ta'riflardan qaysi biri sezgining psixik jarayon tariqasidagi ilmiy xarakteristikasiga to'g'ri keladi?*

- A. Sezgi — bilish jarayonidir.
- B. Sezgi — atrof-muhitga nisbatan odamning javob reaksiyasidir.
- D. Odamning tegishli sezgi organlariga moddiy olamdagi narsa va hodisalar ta'sir ko'rsatgan paytda ulardagi ayrim xossalarning aks ettirilishidan iborat bo'lgan eng sodda psixik jarayondir.
- E. Sezgi bu — tug'ma jarayon.
- F. Hamma javoblar to'g'ri.

51. *Irodali harakatlar bu ...*

- A. Kishida tashqi muhit ta'sirida paydo bo'lgan harakatlar.
- B. Ixtiyorsiz harakatlar.
- D. Motivlar tufayli yuzaga kelgan harakatlar.
- E. Kishining muayyan maqsadga qaratilgan harakatlari.
- F. Hammasi to'g'ri.

52. *Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanining kategoriyalarini ko'rsating:*

- A. Uyqu, ovqatlanish, sayr.
- B. Ta'lim, o'yin, sayr.
- D. O'qish, mehnat, o'yin.
- E. Ta'lim, tarbiya, ma'lumot.
- F. To'g'ri javob yo'q.

53. *Topishmoqdan foydalanish usuli bolalarning qaysi bilish jarayoni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi?*

- A. Idrokning takomillashishi.
- B. Bolalar tafakkurining mustaqilligi.
- D. Nutqining shakllanishi.
- E. A, B javob to'g'ri.
- F. To'g'ri javob yo'q.

54. *Faoliyat turlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?*

- A. Ta'lim, o'yin, sayr.
- B. Mashg'ulot, sayr, uyqu.
- D. O'qish, o'yin, mehnat.
- E. Ta'lim, tarbiya, ma'lumot.
- F. To'g'ri javob yo'q.

55. *Bir yoshgacha bo'lgan bolalar hayotini to'g'ri tashkil etishning asosiy vositasi bu ...*

- A. Uyqu.
- B. Kun tartibi.
- D. Sayr.
- E. Ovqatlanish.
- F. To'g'ri javob yo'q.

56. *Maktabgacha yoshdagi bolalarning hayotini tashkil etishning asosiy vositalari qaysilar?*

- A. O'yin, mashg'ulot.
- B. Mehnat, harakat faoliyati.
- D. Bolalarning bir-biri bilan va tarbiyachi bilan muloqoti.
- E. O'yin, mehnat.
- F. Hamma javob to'g'ri.

57. *Ikki yoshgacha bo'lgan bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar qaysi faoliyat turi orqali amalga oshiriladi?*

- A. O'yin.
- B. Mashg'ulot.
- D. Ta'lim.
- E. Tarbiya.
- F. To'g'ri javob yo'q.

58. *Jismoniy tarbiyaning vazifalarini ko'rsating:*

- A. Bolaning estetik didini o'stirish.
- B. Bola sog'lig'ini mustahkamlash, jismoniy sifatlarini o'stirish.
- D. Bolani aqliy jihatdan rivojlantirish.
- E. Bolani axloqiy jihatdan rivojlantirish.
- F. Barcha javob to'g'ri.

59. *Bolani jismoniy tarbiyalashda qaysi vazifalar birinchi darajali hisoblanadi?*

- A. Axloqiy, estetik.
- B. Ta'limiy, axloqiy.
- D. Sog'lomlashtiruvchi, estetik.
- E. Sog'lomlashtiruvchi, tarbiyaviy.
- F. To'g'ri javob yo'q.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., «O'zbekiston», 1992.
2. *I.A. Karimov*. Istiqlov va ma'naviyat. T., «O'zbekiston», 1995.
3. *I.A. Karimov*. Yuksak malakali mutaxassislar — taraqqiyot omili. T., «O'zbekiston», 1995.
4. *I.A. Karimov*. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyoti poydevori. T., «Sharq», 1998.
5. *I.A. Karimov*. Barkamol avlod orzusi. T., «Sharq», 1999.
6. *I.A. Karimov*. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. T., «Ma'naviyat», 2008.
7. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». T., «Sharq», 1997.
8. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. T., «O'zbekiston», 1997.
9. Maktabgacha ta'limning davlat standarti. O'zPFITI. T., 1995.
10. *P. Yusupova*. Maktabgacha pedagogika. T., «O'qituvchi», 1996.
11. Milliy istiqlov g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., «O'zbekiston», 2000.
12. Uchinchi ming yillikning bolasi. O'quv qo'llanma. T., «Ma'rifat — Madadkor», 2001.
13. *U. Tolipov, M. Usmonboyeva*. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T., «Fan», 2005.
14. *Sh. Shodmonova*. Maktabgacha pedagogika. T., «Fan va texnologiyalar», 2005.
15. Pedagogika fanidan izohli lug'at. (Tuzuvchilar: J. Hasanboyev, X. To'raqulov, O. Hasanboyeva, N. Usmonov). T., «Fan va texnologiyalar», 2009.
16. «Barkamol avlod yili» davlat dasturi. T., «O'zbekiston», 2010.
17. Oilada barkamol avlod tarbiyasi. (O. Hasanboyeva tahriri ostida). T., «Fan va texnologiyalar», 2010.
18. *O. Hasanboyeva*. Barkamol avlod ma'naviyati. T., «O'zbekiston», 2010.
19. «Bolajon» tayanch dasturi. T., 2010.
20. *A. Holiqov*. Pedagogik mahorat. T., «Iqtisod — Moliya», 2010.
21. [hnp://www.detskiysad.ru/ped](http://www.detskiysad.ru/ped).
22. [hnp://www.detskiysad.ru/ped/dp.064.himl](http://www.detskiysad.ru/ped/dp.064.himl).

---

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
--------------	---

### **1-bob. MAKTABGACHA TA'LIM PEDAGOGIKASI FANINING BARKAMOL INSONNI TARBIYALASHDAGI O'RNI**

1.1. Maktabgacha ta'lim pedagogikasining predmeti va vazifalari .....	5
1.2. Maktabgacha ta'lim pedagogikasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi .....	7
1.3. Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari .....	8

### **2-bob. MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA KAMOLATI**

2.1. Shaxsni rivojlantirish haqida tushuncha .....	11
2.2. Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning o'rni .....	14
2.3. Bolani tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatning roli .....	16
2.4. Bolalarning yosh xususiyatlari va ularni tarbiyalash .....	19

### **3-bob. O'ZBEKISTONDA XALQ TA'LIMI TIZIMI**

3.1. Ta'lim sohasida davlat siyosati .....	24
3.2. Xalq ta'limi tizimi va uning bosqichlari .....	26
3.3. Maktabgacha ta'limning vazifalari .....	29

### **4-bob. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI TARBIYACHISI**

4.1. Tarbiyachi va uning jamiyatda tutgan o'rni .....	31
4.2. Tarbiyachi shaxsiga qo'yilgan talablar .....	32
4.3. Tarbiyachi shaxsini shakllantirish .....	33

### **5-bob. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA TA'LIM-TARBIYA DASTURI**

5.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash dasturining yaratilishi va tarixi .....	35
5.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish Davlat talablari .....	38
5.3. «Bolajon» tayanch dasturining mazmuni va tamoyillari .....	40

## **6-bob. JISMONIY TARBIYA**

6.1. Jismoniy tarbiyaning mazmuni .....	43
6.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalashning mazmuni va vositalari .....	49
6.3. Ilk yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash .....	52
6.4. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni jismoniy tarbiyalash metodikasi .....	53

## **7-bob. O'YIN — BOLALARNING YETAKCHI FAOLIYATI**

7.1. O'yin bola tarbiyasining muhim vositasi .....	57
7.2. O'yin nazariyasining asosiy masalalari .....	58
7.3. O'yinning mazmuni, mohiyati va unga rahbarlik .....	61
7.4. Didaktik o'yinlar .....	66
7.5. Milliy xalq o'yinlari .....	68
7.6. Bola tarbiyasida o'yinchoqning ahamiyati .....	71
7.7. Maktabgacha ta'lim tizimida o'yinlar texnologiyasi .....	74

## **8-bob. AQLIY TARBIYA**

8.1. Aqliy tarbiya haqida tushuncha .....	80
8.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlantirish .....	82
8.3. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishning o'ziga xosligi .....	85

## **9-bob. AXLOQIY TARBIYA**

9.1. Axloqiy tarbiyaning mohiyati .....	88
9.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va uni amalga oshirish vositalari .....	91
9.3. Axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillari va metodlari .....	92
9.4. Bolalar jamoasining shakllanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar .....	95
9.5. Jamoatchilikni tarbiyalash jarayonida axloqiy sifatlarni shakllantirish .....	96

## **10-bob. MEHNAT TARBIYASI**

10.1. Mehnat tarbiyasining mohiyati .....	99
10.2. Bog'cha yoshidagi bolalarga mehnat tarbiyasi .....	101
10.3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni uyidagi mehnatga o'rgatish .....	103

## **11-bob. ESTETIK TARBIYA**

11.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik tarbiyasi .....	110
11.2. Estetik tarbiyaning vazifalari .....	111

## *12-bob. EKOLOGIK TARBIYA*

12.1. Ekologiya haqida tushuncha .....	117
12.2. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarga ekologik tarbiya berish usullari .....	118
12.3. Ekologik tarbiyada bog'chadagi tabiat burchagining ahamiyati .....	119

## *13-bob. FUQAROLIK TARBIYASI*

13.1. Fuqarolik tarbiyasining mazmuni, maqsad va vazifalari .....	121
13.2. Davlat ramzlari va ularga nisbatan hurmat hissini shakllantirish .....	123

## *14-bob. BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH*

14.1. Bolalarni maktabga tayyorlash masalalari .....	127
14.2. Bolaning maktabga tayyorgarligini aniqlash .....	130
14.3. Maktabga tayyorgarlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar .....	133

## *15-bob. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASINING OILA BILAN HAMKORLIK SHAKLLARI*

15.1. Tarbiyachilarning oila bilan olib boradigan ishi .....	135
15.2. Ota-onalar majlisi .....	137
15.3. Aholi o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ib qilish .....	139
15.4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada tarbiyalashda yosh ota-onalarga tavsiyalar .....	140

## *16-bob. BOLALAR MUASSASALARINI TASHKIL QILISH VA ULARGA RAHBARLIK*

16.1. Maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil qilish .....	143
16.2. Maktabgacha ta'lim muassasalari ishining yo'lga qo'yilishi .....	146
16.3. Maktabgacha ta'limni rejalashtirish va moliyaviy ta'minlash .....	150
16.4. Mudira va tarbiyachining ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirishi .....	153
16.5. Metodik ishlarga rahbarlik qilish .....	162
Test savollari .....	167
Foydalanilgan adabiyotlar .....	179

O.U. HASANBOYEVA, M.X. TOJIYEVA,  
Sh.K. TOSHPO‘LATOVA, M.M. PIRMUHAMEDOVA,

**R.T. AKBAROVA**, M.Sh. NURMATOVA, N.M. QAYUMOVA,  
N.N. JAMILOVA, X. SARIBOYEV, L.A. KULAY

## **MAKTABGACHA TA‘LIM PEDAGOGIKASI**

*Pedagogika kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma*

To‘ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2011

Muharrir *I. Usmonov*

Rassom *Sh. Odilov*

Texnik muharrir *F. Samadov*

Musahhah *Z. G‘ulomova*

Noshirlik litsenziyasi AI № 166, 23.12.2009-y.

2011-yil 10-avgustda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60x90<sup>1/16</sup>.

«Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog‘i 11,5.

Nashr tabog‘i 11,0. 2589 nusxa. Buyurtma № 480

Bahosi shartnoma asosida.

«ILM ZIYO» nashriyot uyi. Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.  
Shartnoma № 38 — 2011.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining G‘afur G‘ulom  
nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.

Toshkent, Shayxontohur ko‘chasi, 86-uy.



**M20 O.U. Hasanboyeva, M.X. Tojiyeva, Sh.K. Toshpo'latova va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi.** Pedagogika kollejlari uchun o'quv qo'llanma. (To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri). T.: «ILM ZIYO», 2011. — 184 b.

I. O.U. Hasanboyeva va boshq.

УДК 373.2 (075)

BBK 74.10ya722

ISBN 978-9943-303-04-01

**«ILM ZIYO»**

ISBN 978-9943-303-04-1



9 789943 303041